

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY
RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI**

KURYAZOVA DARMONJON TURAYEVNA

**O‘ZBEKISTON MODDIY
MADANIY MEROSI:
O‘RGANISH, SAQLASH
VA MUZEYLASHTIRISH
MASALALARI**

MONOGRAFIYA

**“MATRIX”
TOSHKENT
2025**

UO‘K

D

Darmonjon, Kuryazova

O‘zbekiston moddiy madaniy merosi: o‘rganish, saqlash va muzeylashtirish masalalari. D. Kuryazova. – Toshkent: «MATRIX» nashriyoti, 2025. - 264 bet.

KBK

Muallif: tarix fanlari doktori (DSc), professor D.T.Kuryazova.

Taqrizchilar: tarix fanlari doktori, professor J.H.Ismailova tarix fanlari doktori (DSc), professor M.S.Muxamedova.

Monografiyada O‘zbekiston moddiy madaniy merosini turli tarixiy davrlar kesimida saqlash, o‘rganish va muhofaza qilish tarixi, O‘zbekiston muzeylarida fondlarni shakllantirish, saqlash, targ‘ib va tashviq etishning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, ko‘chmas moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va muzeylashtirish muammolari arxeologiya yodgorliklarini zamonaviy sharoitda muzeylashtirish masalalari va yo‘llari tahlil qilingan.

Ushbu monografiya tarixchi, muzeyshunos mutaxassislar hamda oliy o‘quv yurti talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mazkur monografiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rasomlik va dizayn institutining O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2005-yil 10-oktyabrda o‘tkazilgan 3-sonli bayonnoma)

ISBN 978-9910-8224-

© D. Kuryazova, 2025.

© «Matrix», 2025.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I-BOB. O‘ZBEKISTON MODDIY MADANIY MEROSINI O‘RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI VA MAVZU TARIXSHUNOSLIK TAHLILI	8
O‘zbekiston moddiy madaniy merosini saqlash va o‘rganishning nazariy jihatlari	8
Mavzu tarixshunosligi.....	28
O‘zbekiston moddiy madaniy merosini saqlash va muhofaza qilish tarixiga doir mulohazalar.....	54
II-BOB. MODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISHDA O‘ZBEKISTON HAMDA XALQARO TASHKILOTLARNING O‘RNI	80
Mustaqillik yillarida O‘zbekiston moddiy madaniy merosini saqlashga doir davlat siyosatining yo‘nalishlari	80
1991–2020-yillarda O‘zbekistonda moddiy madaniy merosning ahamiyati va muzeylar istiqbolining shart-sharoitlari	102
III-BOB. O‘ZBEKISTON MUZEYLARIDA FONDLARNI SHAKLLANTIRISH, SAQLASH, TARG‘IB VA TASHVIQ ETISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI	122
Muzeylarda moddiy madaniy meros ashyolarini saqlash uslublari va uni amaliyotga tatbiq etilishi	122
Tarixiy-madaniy meros targ‘ibotida kommunikatsion tizimni rivojlantirish va takomillashtirish.....	147
IV-BOB. KO‘CHMAS MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH VA MUZEYLASHTIRISH MUAMMOLARI	171
O‘zbekiston hududidagi ko‘chmas moddiy madaniy meros yodgorliklarini saqlash holati va muammolari	171
Ko‘chmas moddiy madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari	195
XULOSA	229
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI	232
ILOVALAR	255

KIRISH

Jahonda moddiy madaniy meros yodgorliklarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish, ularning eskirish jarayonini sekinlashtirish, muzeylashtirish hamda kelgusi avlodga yetkazish bugungi kunning asosiy muammolaridan bo'lib kelmoqda. Madaniy merosning rivojlangan tizimi globallashtirish jarayonlarining salbiy ta'sirini yumshatish va milliy qadriyatlarni tiklashga yordam berishi hamda iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga urbanizatsiya jarayonlarining jadal rivojlaniishi hamda madaniy qadriyatlar haqidagi g'oyalarning o'zgarishi sabab bo'lmoqda, natijada madaniy merosni saqlash strategiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi va o'z navbatida innovatsion jarayonlarga moslasha oladigan va sivilizatsiyalashgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy darajasiga mos keladigan tizimni yaratish muhim omilga aylandi.

Dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarda, skansenologiya – ochiq osmon ostidagi muzeylarni tashkil qilish, tarixiy yodgorliklarni o'rganish va qiymatini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqish, madaniy va tabiiy merosning jahon tarixidagi o'rnini baholash, noyob obyektlarni tiklash va muzeylashtirishga oid qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirda moddiy merosni asrashning dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan nazariy ishlanmalarga fanlararo tadqiqotlar asosida yondashish, tarixiy yodgorliklarni iqtisodiy va texnik rekonstruksiya, muammoli masalalarni ilmiy guruhlar doirasida hal qilishga intilish kuchayib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jahon madaniy merosini ommaviylashtirish va uni asrab avaylashga katta e'tibor qaratilmoqda. «Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir»¹. Bu borada zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy qilish,

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2019. – B. 29.

sohaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, YUNESKO bilan hamkorlikda moddiy madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va saqlashga qaratilgan aloqalar yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini ko'rsatadi. Ayniqsa, mintaqaning moddiy madaniy merosini o'rganishga xalqaro tajriba asosida yondashish va uni tadqiq etish muhimligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 16-yanvardagi PF-5181-son «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida», 2020-yil 26-maydagi PF-6000 son «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son «O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda boshqa ko'plab qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajarishda monografiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda moddiy madaniy meros muammolarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, UNESCO World Heritage Centre (Fransiya) Gumboldt universitetining Osiyo va Afrika tadqiqotlari instituti (Germaniya), Indiana university Bloomington, The George Washington University, Center for Art, Museum & Cultural Heritage Law (AQSH), SOAS University of London (Buyuk Britaniya), The Art-Law Centre (Shveysariya), Rossiya Fanlar akademiyasining Umumiytarix instituti (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti va O'zbekiston tarixi davlat muzeyida olib borilmoqda. YUNESKO, Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni saqlash bo'yicha Xalqaro kengash (IKOMOS) va Xalqaro muzeylar kengashi (IKOM) kabi tashkilotlarning ham olib borayotgan faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moddiy madaniy merosni asrash, muzeylashtirish, O'zbekistondagi ko'chmas tarixiy obyektlarni o'rganish bo'yicha qator ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan, Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi Uchqulox yodgorligi o'rganilib, arxitektura obyektlari tasniflangan (Italiya. Rim universitetining «O'rta Osiyo va Hindiston departamenti»), Sherobod tumanidagi Jarqo'ton yodgorligi, Sopolli madaniyati aholisining diniy qarashlari to'g'risidagi ma'lumotlar qo'lga kiritilgan (Germaniya. Arxeologiya institutining Yevrosiyo bo'limi), Buxoro viloyati Chor-Bakr va Bahouddin Naqshband majmualari, Vobkent minorasi va Chashmai Ayub maqbarasi arxitektura obyektlari hamda qadimgi Poykent, Varaxsha va Vardonze shahar qoldiqlarini YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha, xalqaro mezonlar asosida nomzodlik hujjatlari tayyorlangan (UNESCO World Heritage Centre, Fransiya), Markaziy Osiyoda madaniy yodgorliklarni shakllanishi borasida empirik tadqiqotlar asosida aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri bo'yicha ilmiy natijalar olingan (Gumboldt universitetining Osiyo va Afrika tadqiqotlari instituti, Germaniya), (Indiana university Bloomington, AQSH), moddiy madaniy merosni saqlash, muzeylashtirish borasida huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish va zamonaviy tahdidlar sharoitida uni yanada mustahkamlash masalalari ochib berilgan (Center for Art, Museum & Cultural Heritage Law, AQSH), madaniy meros yodgorliklarini saqlash va muzeylashtirish sohalarida olib borilgan o'zgarishlarning mohiyati hamda zamonaviy usullarining xususiyatlari ko'rsatilgan (SOAS University of London, Buyuk Britaniya), madaniy yodgorliklar, san'at asarlarini saqlash va xususiy kolleksiyalarni muzeylashtirish, zamonaviy me'yorlarni ishlab chiqish borasida ilmiy xulosalar berilgan (The Art-Law Centre, Shveysariya), tarixiy yodgorliklarni iqtisodiy va texnik rekonstruksiya, madaniy qurilishdan keyingi davrlardagi moddiy merosni asrash masalalari (Institut vseobshey istorii RAN, Rossiya), O'zbekistonning moddiy madaniyatini saqlash, tadqiq va tatbiq etish tamoyillari (O'zbekiston tarixi davlat muzeyi), «Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash tarixi (Tarix instituti) tadqiq qilingan.

Jahondagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida moddiy madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish, saqlash hamda muzeylashtirish sohalarida olib borilgan o'zgarishlarning mohiyati hamda zamonaviy usullarining xususiyatlari, shuningdek, tarixiy obidalarni restavratsiya va konservatsiya qilishda an'anaviy ashyo va texnologiyalarni qo'llash, ularning badiiy qiymatini yo'qotmaslik, tarixiy obyektlar atrofidagi muhofaza chegarasini tiklashda maqbul tizim hamda ma'lumotlar bazasini yaratish, moddiy madaniy meros yodgorliklaridagi iqtisodiy va texnik rekonstruksiya kabi masalalarga e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur monografiyada O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash va muzeylashtirish masalalarini tahlil etish asosiy maqsad qilib belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda: O'zbekiston moddiy madaniy merosini saqlash va o'rganishning nazariy-metodologik jihatlarini ochib berish; muammoning tarixshunoslik tahlili asosida moddiy madaniy meros masalalarini tahlil qilish; respublika moddiy madaniy merosining muhofaza qilinishi tarixiga oid ma'lumotlarni yoritish; mustaqillik yillarida O'zbekiston moddiy madaniy merosini saqlashga doir davlat siyosatining yo'nalishlarini asoslash; muzeylarda moddiy madaniy meros ashyolarini saqlash uslublari va uni amaliyotga tatbiq etilishi masalalarini tahlil etish; muzeylarda kommunikatsion tizimni rivojlantirish va takomillashtirish uslublarini aniqlash; O'zbekiston hududidagi ko'chmas moddiy madaniy meros yodgorliklarini saqlash holati va muammolarini ochib berish; ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning zamonaviy yo'nalishlarini ochib berish hamda moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash, zamonaviy metodlar asosida muzeylashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Monografiyada O'zbekiston muzeylaridagi moddiy madaniy meros hamda respublika ko'chmas yodgorliklari obyekt sifatida, moddiy madaniy meros ashyolari va obyektlarini tadqiq etish, saqlash hamda muzeylashtirish tamoyillari esa tadqiqotning predmeti sifatida belgilangan.

I-BOB. O‘ZBEKISTON MODDIY MADANIY MEROSINI O‘RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI VA MAVZU TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

O‘zbekiston moddiy madaniy merosini saqlash va o‘rganishning nazariy jihatlar

Madaniy merosni o‘rganishda uslubiy jihatlarni hisobga olgan holda, madaniy meros tushunchasining murakkab va ko‘p bosqichli ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Har qanday xalqning va har qanday mamlakatning madaniy merosi, madaniy tizimning uzluksizligini va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosligini turli shakllarda – etnik-madaniy, diniy, milliy, davlatda saqlash uchun madaniy omillarning potensialini to‘plash va aktuallashtirish eng muhim shaklidir. U odamlarning tarixiy ongini egallaydi, jamiyatning ko‘payishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi². Bizningcha, moddiy madaniy merosni o‘rganishning nazariy metodologiyasini tadqiqot obyekti asnosida muzeyshunoslik va tarix fanlari qatoriga qo‘shish maqsadga muvofiq.

Jahonda moddiy madaniy merosga oid me’yoriy hujjatlarda: «tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish», «tarixiy-madaniy meros», «tarixiy-madaniy boyliklar», «kolleksiya», «madaniy qatlam», «memorial majmualar» kabi ta’riflar uchraydi. Tarixiy-madaniy boyliklar moddiy va nomoddiy tarixiy-madaniy, ko‘char va ko‘chmas moddiy tarixiy-madaniy boyliklarga ajratiladi. Moddiy tarixiy-madaniy boyliklar ro‘yxatiga hujjatli, arxeologik, me’morchilik, tarix, shaharsozlik, san’at yodgorliklari va qo‘riqxonalar kiradi. Moddiy madaniy meros muammosini o‘rganish tarix, muzeyshunoslik, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik va jamiyatshunoslik kabi fanlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois ushbu muammoni o‘rganish fanlararo yondashuv uslublariga tayanishni taqozo etadi. Lekin, shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda tadqiqot

² Соколова А. С. Методологические проблемы исследования культурного наследия // Рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 4(130) 2013. – С. 221.

jarayonlariga innovatsion g‘oya va texnologiyalar, informatika ham jalb qilinmoqda. Bu borada manfaat keltiruvchi soha – tarixiy-madaniy turizm bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar ham katta rol o‘ynaydi. Moddiy madaniy meros ta’lim, fan va madaniyatning rivojlanishi, xalqlarning madaniy hayotini boyitish va davlatlarning o‘zaro hamkorligiga katta ta’sir o‘tkazadi. Qolaversa, tarixiy buyumlar va noyob obyektlarni saqlash, innovatsion texnologiyalar asosida ommalashtirishga bo‘lgan e’tibor, har bir davlat, xususan, O‘zbekistonning madaniy rivojlanishidagi muhim jarayondir.

Tarixiy-madaniy merosni saqlash – bu o‘ziga xos bilim sohasi bo‘lib, fanlararo xarakter va muayyan mafkuraviy yo‘nalishga ega. Madaniy merosni saqlashning ilmiy asoslari tarix, muzeyshunoslik, arxeologiya, me’morchilik tarixi, san’at tarixi kabi fanlar bilan bog‘liq. Bu muammo bilan asosan, o‘z faoliyatida yodgorliklarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlari bilan bog‘liq bo‘lgan tor doiradagi olimlar shug‘ullanadi. Ilm-fan predmetini samarali tadqiq etishga imkon beruvchi koordinatalar tizimining uslubini tushuna turib, zamonaviy gumanitar bilimlarda bunday «uslubiy izlanish»ning nihoyatda dolzarbligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, muzeyshunoslikda metodologik yondashuvlar asosida o‘rganilayotgan mavzuni ochib berish ahamiyati nihoyatda dolzarbdir.

Ilmiy bilimlarni bir vaqtning o‘zida farqlash va integratsiyalash jarayoni, ilmiy izlanishlarning yangi yo‘nalishini paydo bo‘lishi va shu bilan birga, fanlararo tadqiqotlarga qiziqish, metodologiyaga fan uchun o‘ziga xos yo‘nalish huquqini beradi. Ilm-fan falsafasi boshlanishini tahlil qilib, V.I. Kurashov ilmiy bilimlar uchun bir qator asosiy, o‘ziga xos mezonlarni taqsimlaydi. Ularga u, xususan, umumiylik va tizimlilik, umumiy ahamiyatga egalik, xolislik, ongli bilish usullarining mavjudligi (nazariy va tajribaviy), ishonchlilik, tanqid, qo‘shimcha va uzluksizlikni kiritgan. Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlarning har birini hisobga olgan holda va ko‘pchilikni ikkinchi darajali deb hisoblab, muallif ilmiy bilimlarning ikkita asosiy tizimlilik va usulning mavjudligi xususiyatini biri bilan uzviy bog‘liqlikda deb ta’kidlaydi³.

³ Курашов В. И. Начала философии науки. – М., 2007.

Bu amaliy tadqiqotlarda usulni tanlash muayyan vazifalar bilan belgilanadi. T.Yurenevaning ta'kidlashicha, muzey ashyolarini tadqiq etish jarayonida arxeologiya, paleografiya, etnografiya, numizmatika, sfragistika, adabiyotshunoslik va san'atshunoslik metodlari qo'llaniladi. Hozirgi kunda muzey ashyolarini restavratsiya va konservatsiya qilishda tabiiy fanlar, ya'ni rentgenografiya, spektrografiya metodlaridan foydalaniladi. Pedagogika va psixologiya metodlarining qo'llanilishi muzeyning madaniy-oqartuv faoliyati, muzey auditoriyasini o'rganish, ekspozitsiya va ko'rgazmalar yaratishda o'z aksini topadi⁴.

Sanab o'tilgan usullar tadqiqot muammolarini samarali hal qilishga imkon beradi, ammo ular hali ham ma'lum bir ijtimoiy-madaniy muassasa – muzey atrofida joylashgan boshqa sohalarning amaliy sohasi yoki xususiy yo'nalishi emas, balki muzeologiya (muzeyshunoslik)ni mustaqil fan deb atashga imkon bermaydi. Metodologiyaning mavjudligi metodlarni sanash bilan bog'lanmaydi, aksincha, turli muzeyshunoslik tadqiqotlarida, ya'ni fondlarni o'rganishdan – ekspozitsiyalarni loyihalashgacha, tarixiy tadqiqotlardan to pedagogik tadqiqotlargacha qo'llanilsa bo'ladigan metodlarni sanash – fanning umumiy tushunchasini bermaydi.

O.S.Sapanja muzeyshunoslik metodologiyasi va texnologiyalarini quyidagicha ta'riflaydi: «Zamonaviy muzeologiya, muzeyshunoslikda ishlab chiqilgan metodologiyaning yo'qligi tadqiqotchilarning bu yo'nalishda tahlil ishlarini olib borishiga qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa, bu yo'nalishda fan metodologiyasi va muzey ishi texnologiyalari bo'yicha chalkashlik, ularning mavjud aralashuvini kuchaytiradi. Muzeologiya usullarini tahlil qilganda, aynan muzey amaliyoti tomonidan qo'llaniladigan texnologiyalar ta'kidlanadi»⁵.

Fanning umumiy metodologiyasini aniqlash uchun, muayyan bir muammoning yechimida foydalanish mumkin bo'lgan metod-

⁴ Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 9.

⁵ Сапанжа О. С. Технология и методология в современном музееведении: к вопросу о методе науки // Известия Российского Государственного педагогического университета им. А. И. Герцена: Izvestia: Herzen University Journal of Humanities & Sciences. 2009. – № 117, Научный журнал. – С. 335-340. Тот же: Методология теоретического музееведения. Монография. – СПб.: РГПУ им. А.И.Герцена, 2008. – С. 81.

larni keltirib o'tishga zarurat yo'q. Ta'kidlash joizki, fanning metodologiyasi samarali bilish faoliyatining umumiy prinsiplarini belgilashi mumkin, lekin tadqiq etilayotgan obyektни bilishning aniq yo'llarini bashorat qila olmaydi. Metodologiya umumiy yondashuv va prinsiplarni ishlab chiqadi, lekin metodik bilim, yangi bilimni olish uchun texnologiya yoki andoza bo'la olmaydi. Masalan muzeyni o'rganish metodologiyasiga murojaat qilsak, XX asr muzeylarining rivojlanishidagi natija – bu muzey makoni morfologiyasining murakkablashuvidir. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida aniq namoyon bo'lgan muzey dunyosining ko'pqirraliligi, muzeyshunoslik sohasi mutaxassislarini boshi berk ko'chaga olib kiradi. Darhaqiqat, «bunday murakkab muzey bo'shlig'ini qanday tahlil qilish kerak, institutning muzeyiga tenglashtirilgan «muzey» institutga yetakchi institutsionalizatsiya hodisasiga baho berish uchun yagona mezon va prinsiplarni ishlab chiqish mumkinmi?» – degan savol tug'ilishi tabiiy.

A.Gregorovanning fikriga ko'ra, muzeologiyaning rivojlanishi, muzeyning namoyon bo'lishi hodisalarini ko'p qirrali o'rganish imkoniyati mavjudligini tasdiqladi. Boshqa tomondan, muzeologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi, zamonaviy madaniyatda muzeyning joyi va rolini aniqlashda fanlararo yondashuvni istisno qilmaydi⁶.

Muzeologiyada tarixiy, nazariy, manbashunoslik va amaliy jihatdan o'rganilish metodlari mavjud⁷.

I. Tarixiy jihatdan o'rganish metodi muzeylarning yaratilish tarixi, ularning turli tarixiy muhitdagi funksiyasi, muzey siyosati, muzey tarmog'ining shakllanishi va muzey ishining takomillashtirilishi, bu muammolarning barchasini ilmiy adabiyotlarda aks ettirilishi va muzeyshunoslik ilmining tarixi tadqiq qilinadi.

II. Nazariy jihatdan o'rganish metodlari to'rtta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1. Muzeyshunoslikning umumiy nazariyasi muzeyshunoslikning obyekti, predmeti, uslubiyati, tizimli elementi, uning ilmiy

⁶ Грегорова А. К основным проблемам музееведения // Музееведение. Музеи мира. – М.: 1991. – С. 33.

⁷ Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 10-11.

fanlar sistemasidagi o'rnini o'rganadi; muzey va muzey predmetining fenomenini tadqiq etadi; muzeylarning ijtimoiy funksiyalari bilan bog'liq, muzey tarmog'ining shakllanishi, klassifikatsiyasi va muzeylarining tipologiyasi muammolarini o'rganadi; muzey faoliyati turlarining o'ziga xos ilmiy asoslarini ishlab chiqadi.

2. Hujjatlashtirish nazariyasi muzey fondlarini komplektlash bilan bog'liq muammolarni, ya'ni muzey to'plamiga voqelik obyektlarini tanlash uslubi va uslubiyatlarini o'rganadi.

3. Ilmiy fond ishlari nazariyasi – muzey predmetlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini, ulardagi axborotlarni bilish jarayoni bilan bog'liq, ya'ni muzey predmetlarini tadqiq etish, ularni ro'yxatga olish va saqlash ishlarini o'z ichiga oladi.

4. Kommunikatsiya nazariyasi – muzeyni kommunikatsiya institutlaridan biri sifatida o'rganadi. Shuningdek axborot yetkazib berish spetsifikasi, muzeylarning madaniy-ta'lim faoliyati jarayonida muzey vositalari va kommunikatsiya shakllarining turli toifadagi tomoshabinlarga ta'sir etish muammolarini tadqiq etadi.

III. Muzey manbashunosligi jihatidan o'rganish metodlari – muzey predmetlarini manbashunoslik faniga xarakterli tarzda o'rganadi; muzey predmetlari va kolleksiyalaridan foydalanish va tadqiq etish nazariyasi, uslubiyatini ishlab chiqadi.

IV. Amaliy muzeyshunoslik jihatdan o'rganish metodlari uch bo'limga ajratiladi:

1. Ilmiy uslubiyat muzey faoliyatining hamma shakllarini qamrab oladi. Umumiy va maxsus uslubiy tadqiqotlar mavjud. Umumiy uslubiyatlar muzeylarning hammasiga tegishli. Masalan, muzey kommunikatsiyasining o'ziga xos shakli sifatida ekspozitsiya tuzishning uslubiy prinsiplari, muzey fondlarini saqlash prinsiplari, hamda ekskursiya ishlari prinsiplari shular jumlasidandir. Maxsus tadqiqotlar esa umumiy ilmiy uslubiyatdan kelib chiqadi, lekin ma'lum tip va ixtisoslikdagi muzeylarga qaratilgan.

2. Muzey ishining texnikasi ilmiy uslubiyatlardan kelib chiqib, muzey binolarini loyihalashtirish, turli tipdagi muzey materiallarini ekspozitsiyaga qo'yish texnikasi, axborot yetkazishning texnik

vositalari, muzey predmetlarining fizikaviy holatini tadqiq etish texnikasi, konservatsiya va ta'mirlash kabi muammolar bilan bog'liq holda shug'ullanadi.

3. Muzey ishini tashkillashtirish va muzey faoliyatini boshqarish menejment va marketing bilan bog'liq⁸.

Muzeyshunoslikning fanlararo bog'liqligini aniqlashda muhim o'rinni madaniyatshunoslik egallaydi va aynan uning metodologik ko'rsatmalari muzeyning tabiati va borlig'ini samarali tahlil qilishda yordam beradi. Madaniy merosni muhofaza qilish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim hodisadir. Bu davlat ishtirokisiz, ilmiy tadqiqotlarsiz, muzey ilmiy xodimlarining fidokorona faoliyatisiz amalga oshishi qiyin masalalardan biri hisoblanadi.

Madaniy merosni nazariy o'rganishning asoslari M.S.Kagan tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga madaniyatni tushunishdagi tizimli-aksiologik yondashuvlar xizmat qildi⁹. Unga ko'ra, madaniyat bir avloddan ikkinchi avlodga yetib boruvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimini o'zida aks ettiradi. Bunday tushuncha madaniyat va tarixning birligi prinsipiga asoslanadi.

M.S.Kagan tomonidan ifodalangan birinchi marta muzeyning fenomenologiyasini aniqlash imkoniyatlari va zarurligi haqidagi g'oyaga ko'ra, xususan, muzey quyi tizim sifatida mavjud bo'lib, muzey va madaniyatning tizimli bog'liqlik konsepsiyasi taklif qilindi¹⁰.

Muzeyning ushbu tizimdagi o'rnini ma'lum bir madaniy-tarixiy davrda tahlil qila turib, muzey alohida chegaralangan muassasa emas, balki ijtimoiy muhit ekanligini ta'kidlash joiz. Shunga ko'ra, dialektik munosabatlar va quyi tizimning o'zaro ta'siri mavjudligini taklif qilish mantiqli bo'lib, muzeyning zamonaviy ahvoli va rivojlanishini madaniy kontekstdan tashqarida o'rganish mumkin bo'lmagan. Shunday qilib, tarixiy va madaniy organizm-

⁸ Kuryazova D.T., Ergashev B. E., Maxmudov T.I. Jahon muzeyshunosligi. – Samarqand: SamDU, 2015. – B. 63-65.

⁹ Кaгaн М. С. Философская теория ценности. – СПб.: 1997. – С. 48-50.

¹⁰ Кaгaн М. С. Музей в системе культуры // Вопросы искусствознания. 1994. № 4. – С. 445-460.

larning yaxlitligini o'rganadigan fanning o'zaro hamkorligi, tarixiy jihatdan fanlararo aloqalar va fan asosida, insonlarning voqelikka bo'lgan o'ziga xos munosabati va mohiyatini o'rganadigan, ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan shakllar, bu davrda muzey muhitining holatini aniqlash uchun uslubiy jihatdan zarurdir. Aks holda, muzeyning ma'lum bir turi diqqat markazida bo'lib, uni tadqiq etish, shunga o'xshash muzeyning o'ziga xos xususiyatlari va mohiyatini aniqlashga imkon beradi, lekin muzey dunyosining bitta, yaxlit tasvirini bera olmaydi. Xususiy texnologiyalardan foydalanish, bir nechta muzeyni samarali o'rganishga imkon beradigan darajada, boshqa turni tahlil qilishga imkon bermaydi.

«Yodgorliklarni o'rganish va saqlashning boy tajribasi» ilk bor muzeyshunoslikning taniqli nazariyotchisi A.M.Razgon¹¹ tomonidan tahlil qilindi. Tadqiqot o'rganish jarayonida nazariy-uslubiy yondashuvlarga ko'ra, moddiy madaniy merosni muhofaza qilishni o'rganishda ikki yo'nalish kuzatildi: ular tarixiy va nazariy-metodologik yo'nalishlardir.

Birinchisi, madaniy merosni muhofaza qilish tarixi, ikkinchisi, terminologiya sohasidagi nazariy ishlanmalar, yodgorliklarni baholash mezonlari, shuningdek, moddiy merosni muhofaza qilish sohasini fanlararo bilim turlari sifatida o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning madaniy merosi tarixi tadqiqotchilarga yodgorliklarni o'rganish va aniqlash, noyob obyektlarni tiklash, ulardan foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish bo'yicha boy material beradi. O'zbekiston yodgorliklarini muhofaza qilishning zamonaviy masalalarini samarali hal etish uchun Rossiya imperiyasi davrida tashkil etilgan ilmiy to'garak va jamiyatlar, XX asr birinchi choragidan boshlab tashkil etila boshlagan Turkkomstaris, Uzkomstariz, Sredazkomstaris kabi tashkilotlar hamda chet el olimlarining tajribasini hisobga olish zarur.

Madaniy merosni saqlash bo'yicha nazariy-metodologik yo'nalishning ilmiy tadqiqot natijalari D.S.Lixachyov nomidagi Rossiya

¹¹ Разгон А. М. К вопросу об изучении истории музейного дела (Вместо предисловия) / Очерки истории музейного дела. – М.: 1971. Вып. 7. – С. 5-7.

madaniy va tabiiy meros ilmiy-tadqiqot instituti¹² tomonidan taqdim etilgan bo'lib, konseptual asos, ilmiy fan vositalari, milliy merosni muhofaza qilishning huquqiy jihatlarini shular jumlasidandir.

Moddiy madaniy merosni o'rganishning nazariy muammolari meros obyektlarini ajratish tamoyillarini, ularni baholash, saqlash va foydalanish usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Jahon miqyosida madaniy merosi ahamiyatining o'sib borayotgan rolini nazariy jihatdan tushunish zarurati aslida bu ixtisoslikning alohida masalalarining qisman o'rganilganligi, tasdiqlanmagan rivojlanishi ziddiyatli holat mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan. Madaniy merosning eng dolzarb muammolarini aniqlash maqsadida nazariy ishlanmalarining bevosita istiqboli, ularni o'rganish darajasi – fanlararo olimlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish, muammoli tadqiqot guruhlari doirasida ishlash bilan bog'liqdir.

Zamonaviy adabiyot dunyoda yangi madaniy hodisa – madaniy meros sohasidagi ta'limning paydo bo'lishidan dalolat beradi. Moddiy meros obyektlarining asosiy kategoriyalari yodgorlik, meros, madaniy landshaft kabilardan iborat.

Muzeylashtirishga oid yondashuvni aniqlashda muzeyning tashqi ko'rinishi emas, balki, muzeylashtirilayotgan obyektning turi asosiy mezon bo'ladi. Ular me'morchilik va shaharsozlik obyektlari, arxeologik yodgorliklar, fan va texnika yodgorliklari, landshaftlar, muhit, nomoddiy moddiy madaniy obyektlari kabi beshta guruhga bo'lib o'rganiladi. Bu hol u yoki bu yodgorlikning o'ziga xos xususiyati, turi, yoshi, saqlanganlik darajasi, geologik sharoitlari va uni saqlashning rejalashtirilayotgan varianti, konservatsiya, restavratsiya, rekonstruksiya, muzeylashtirish bilan ham izohlanadi.

Muzey faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muzey muhitini samarali rivojlantirish, unga tashrif buyuruvchi mehmonlarning tafakkurini boyitish va ma'lumot olish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Ilg'or texnologiyalarning paydo

¹² Наследие и современность: Информационный сборник. Вып. № 4. Экология и охрана наследия. / Рос. акад. наук, Рос. НИИ культурного и природного наследия имени Д. С. Лихачева. – М.: 1996. – С. 8-11.

bo'lishi bilan muzey faoliyatida asl narsalarni ko'proq saqlash va o'sib kelayotgan yosh avlod vakillariga ular haqidagi ma'lumotlarni yetkazish imkoniyati ham paydo bo'ldi. Shunday qilib, yangi texnologiyalar va axborot uzatish muzeylarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Muzey bo'ylab o'tkaziladigan ekskursiyalarni multimedia, axborot kiosklari, audiogidlar va boshqa turli axborot texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Tadqiqot jarayonida xorij muzeylarida ilg'or texnologiyalardan foydalanish tajribasi va yurtimiz muzeylarida axborot texnologiyalarning keng tatbiq etilganligi o'rganildi.

Madaniy va tabiiy meros obyekti – moddiy (qo'zg'almas va qo'zg'aluvchi obyektlar) va nomoddiy ko'rinishda ifodalanuvchi zamon va makonda barqaror dolzarb madaniyatning yaxlit tizimini tashkil qiluvchi meros birligidir.

Madaniy landshaft – tabiiy jarayonlar va kishilarning ijodiy, intellektual, tarixiy hayotiy faoliyati birlashishi natijasida shakllangan tabiiy, texnik va ijtimoiy-madaniy holatlarning yaxlit va hududiy-mahalliy qismi hisoblanadi. Madaniy landshaft tushunchasi XX asr boshlarida L.Berg tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Madaniy landshaft to'g'risidagi ta'limot tabiiy geografiya doirasida boshlanadi, madaniy landshaft tushunchasi va antropogen landshaft tushunchasi aynan bir xil ma'noni anglatadi. Keyinchalik madaniy landshaft rus geografiya fani namoyandalari tomonidan antropogen landshaftning xususiy hodisasi sifatida qarab chiqildi, ya'ni unga tarixan tabiiy sharoitlarga moslashtirilgan, maqsadga muvofiq shakllangan qulaylik sifatida qaraladi. O'z navbatida antropogen landshaft – inson faoliyati ta'sirida o'zgargan tabiiy-hududiy majmuadir. Madaniy landshaftning zamonaviy uzil-kesil tavsiflaridan biri 1980-1990-yillarda paydo bo'ldi, bu vaqtga kelib mutaxassislar o'rtasida madaniy landshaft tuzilmasini nomoddiy (ma'naviy) madaniyat qatlamiga kiritish zarurligini tushunish paydo bo'ldi. Madaniy landshaft – etnoslar, kishilar hamjamiyati tomonidan o'zlashirilgan tabiiy majmuadir.

Madaniy va tabiiy meros obyektlarining toifalarini aniqlashda semiotik, aksiologik usullar qo'llaniladi.

«Semiotika – belgilar, belgi tizimlari va semiotik reallik haqidagi fandir. Semiotik yondashuv esa holatlarning, obyektlarning tarixiy, texnologik, mifologik va boshqa qismlari mazmunini aniqlashni, nazariy mushohada yuritishni taqozo etadi»¹³.

«Aksiologiya – qadriyatlar nazariyasi bo'lib, falsafiy bilimlarning alohida bo'limi sifatida borliq tushunchasi ikki unsur: amalda ro'yobga chiqarish imkoniyati sifatida reallik va qimmatlilikka bo'lingan paytda paydo bo'ladi»¹⁴.

Aksiologik yondashuvda ikki yo'nalish ajratilib ko'rsatiladi:

1. Ideografik paradigma, holatlarning, obyektlarning o'ziga xosliklarini tavsiflagan holda obyektни o'rganish, ular fakt psixologiyasini ochish orqali ijtimoiy-madaniy makonning ahamiyatga molik tomonlarini ochishga imkon beradi. Bu holatda tarixiy fakt, tarixiy-madaniy obyekt ijtimoiy-madaniy tadqiqotlarning predmetiga aylanadi;

2. Plyuralistik paradigma, u madaniyatlar sonining ko'pligi va semiotikligiga qaratilgan bo'lib, «tushunish sotsiologiyasi» deb ataladi. Bu holatda nafaqat faktning o'zi, balki tarixiy obyektни mushohada qilish, ijtimoiy tizimning, ijtimoiy-madaniy sohaning shakllanish bosqichi ham tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Madaniy meros obyektlarining (tarix va madaniyat yodgorliklarining) tarixiy-madaniy ahamiyatiga ko'ra toifalarini olib qaraydigan bo'lsak, ularni saqlash, targ'ib qilish hamda muzeylashtirish o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi.

Davlat ahamiyatga molik madaniy meros obyektlariga ma'lum bir hududning tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, tarixiy-me'moriy, badiiy, ilmiy va memorial qiymat kasb etuvchi obyektlar, shuningdek, arxeologik ahamiyatga ega obyektlar kiradi.

Mintaqaviy ahamiyatga molik madaniy meros obyektlari – hudud subyektlarining tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, tarixiy-me'moriy, badiiy, ilmiy va memorial qiymat kasb etuvchi obyektlar hisoblanadi.

¹³ Лотман Ю. М., Успенский Б. А. О семиотическом механизме культуры // Ученые записки Тартуского университета. – Тарту: 1971. Вып. 284. – С. 146-166.

¹⁴ Свичарь И. Г. Теоретико-методологические основы сохранения историко-культурного наследия // Вестник ЧГУ. 2013. – № 12 (303). История. Вып. 55. – С. 92–93.

Mahalliy (munitsipal) ahamiyatga molik madaniy meros obyektlari – munitsipal tuzilmaning tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, tarixiy-me'moriy, badiiy, ilmiy va memorial qiymat kasb etuvchi obyektlardir.

Merosning qadrliklik tavsifi xronologik, sakral, memorial, estetik, noyoblilik va ijtimoiy qadrliklik mezonlaridan iborat bo'ladi.

Xronologik mezon – bu obyektning qurilishi va hozirgi zamon o'rtasidagi vaqt oralig'ining uzunligi bilan o'lchanadigan «obyektning» yoshi.

Sakral mezon obyektlarning faqat diniy mansubligini emas, balki obyektlarning jamiyatni anglashdagi roli nuqtayi nazaridan «muqaddasligini» belgilaydi: milliy mustaqillik, etnik noyoblik, shaxsni sotsiumning qismi sifatida anglash, qo'riqlanadigan obyektlarning ochilmagan jihatlarini tadqiq etadi. Sakrallik prinsipi tarixiy shaxslarni baholashda ham qo'llaniladi (knyazlar, qirollar, imperatorlar, olimlar, donishmandlar, yozuvchilar va h.k.).

Memorial mezon – bu obyektning muayyan shaxs yoki tarixiy voqea bilan bog'liqligini aniqlashdir. Memorial mezon yodgorlikni aniqlashtirish, uning relikvarligini tushuntirish nuqtayi nazariidan predmetning noyobligini aniqlashtirishni taqozo etadi, bunda obyektning alohida e'zozlanadigan shaxsga, holatga, voqeaga daxldorligini anglashda yuqori darajada emotsional ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xosliklarni oydinlashtirish zarur bo'ladi.

Estetik mezon – obyektga baho, tavsif beriladigan yoki obyekt tasniflanadigan belgidir. Fanda estetika muammolari katta qiziqish uyg'otadi va u hali yechim topishdan ancha uzoqdadir. Haqiqiy estetik baholash muayyan tayyorgarlikni, qiyoslash uchun ma'lumotlar to'plamini, ilmiy bilimlarni taqozo etadi.

Noyoblilik va ijtimoiy qadrliklik mezoni. Obyektning jamoatchilik tomonidan tan olinishi – obyektning ijtimoiy qadr-qiyamatga ega obyekt sifatida e'tirof etish demakdir. Unda tabiat yoki insonning ijodiy kuchlari namoyon bo'ladi: tarixning muayyan bosqichini ifodalovchi tarixiy fenomenallik yoki muhim tarixiy guvohlik; tabiat va jamiyat uchun tarixiy ahamiyatga molik jarayon, voqea

yoki holat «assotsiativ qadr-qiyamat» tushunchasi ham ishlatiladi, u tarixiy voqealar, atoqli shaxslar, ularning ijodi, ijtimoiy ideallar va madaniy an'analar bilan aloqadorlikni ifodalaydi.

Noyob yodgorlik – bu murakkab tushuncha bo'lib, ko'plab tavsiflarga ega bo'lgan ko'p mazmun-mohiyatni o'z ichiga oladi¹⁵.

Ushbu talqin juda tor ma'noga ega va mutlaqo o'ziga xos emas. Moddiy madaniy meros o'zining asl mohiyati jihatdan turli va ko'p qiyofali bo'lib, uni umumlashtirish juda murakkab. Ayniqsa, agar tarixiylik haqida gap borsa, unda yodgorlik yoki obyektning yaratilish vaqtidan to uni Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilguncha bo'lgan vaqt kesishmasi shu ro'yxatda qanday o'rin egallaganligi ustida o'ylanish kerak. Fikrimizcha, meros, avvalambor moddiy yodgorliklarda o'z ifodasini topadi.

Tadqiqot jarayonida moddiy madaniy meros obyektlari tasnifi qilindi va ularni quyidagicha izohlash maqsadga muvofiq deb topildi.

Respublika ahamiyatiga ega noyob obyektlar – mamlakat tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi, tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va xotira qadriyatlarini ifoda etuvchi obyektlar;

Mahalliy ahamiyatga ega nodir obyektlar – viloyat, tuman va shahar tarixi va madaniyati uchun ahamiyatga ega tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va xotira qadriyatlarini ifoda etuvchi obyektlar.

Xalqaro-huquq aktlaridagi tasniflarni hisobga olgan holda, Umumjahon madaniy merosni himoya qilish bo'yicha 1972-yildagi YUNESKO Konvensiyasining¹⁶ 1-moddasiga muvofiq, madaniy meros deganda quyidagilar tushuniladi:

Tarix yodgorliklari – muhim tarixiy voqealar, jamiyat va davlat rivojlanishi, inqilobiy harakat, xalqlarning madaniyati va turmushining rivojlanishi, tarixiy siyosat, davlat, harbiy soha arboblari, xalq qahramonlari, fan, adabiyot va san'at namoyandalari hayoti bilan bog'liq binolar, inshootlar, xotira joylari va ashyolar.

¹⁵ Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish haqida Konvensiya, 1972-yil. <http://wh.unesco.ru/text/convention.htm>

¹⁶ Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. Adopted by the General Conference at its seventeenth session Paris, 16 November 1972. – Paris. – P. 16.

San'at yodgorliklari – monumental, tasviriy, bezakli-amaliy va boshqa san'at turlariga mansub asarlar.

Me'morlik va shaharsozlik yodgorliklari – fuqaroviy, sanoat, harbiy, diniy arxitektura, xalq me'morligi inshootlari; me'morlik ansambllari va majmualari, tarixiy markazlar, dahalar, maydonlar, ko'chalar, shaharlar va boshqa aholi manzillarining qadimiy rejalashtirish va qurilish qoldiqlari.

Arxeologiya yodgorliklari – ko'hna shaharlar, qo'rg'onlar, qadimgi aholi yashash manzillari, mudofaa inshootlari, ishlab chiqarishlar, suv yo'llari, yo'llar qoldiqlari, qadimgi qabristonlar, tarashlangan toshlar, qoyatoshlardagi suratlar va qadimgi ashyolar.

Hujjatli yodgorliklar – davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlarining hujjatlari, boshqa grafik va yozma hujjatlar, kino, foto hujjatlar va yozib olingan ovozlari, shuningdek, qadimgi va boshqa qo'lyozmalar va arxivlar, yozib olingan folklor va musiqa namunalari, nodir bosma nashrlar.

Konkret vaziyatlarga bog'liq holatda tarixiy, ilmiy, badiiy va boshqa madaniy qiymatga ega bo'lgan o'zga obyektlar ham tarix va madaniyat yodgorliklariga kiritilishi mumkin.

Yodgorlikshunoslik – tarix va madaniyat yodgorliklari haqidagi bilimlar sohasi. Muzey ishida – yodgorliklarni hujjatlashtirish va namoyish qilish, tarixiy-madaniy muhitni yaratish loyihalarini tayyorlash bilan bog'liq manbashunoslik ishining alohida turi. Yodgorlikshunoslik tadqiqotlari fanlararo mazmun-mohiyatga ega bo'lib, tarix, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik, muzeysunoslik, shuningdek, ixtisosligi mos keluvchi arxeologiya, arxitektura, shaharsozlik fanlari tutashgan nuqtada amalga oshiriladi. Mazkur termining xalqaro doirada ilmiy muomalaga kiritilishi va uning nazariy asoslarining ishlab chiqilishi 1980-yillarga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, bu termin ilk bor P.V.Boyarskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, uning tashabbusi bilan 1986-yildan Rossiya Madaniyat ilmiy-tadqiqot institutida «Yodgorshunoslik» deb nomlangan ilmiy to'plamlar chop etila boshlangan¹⁷.

¹⁷ Памятниковедение. Теория. Методология практика: сборник научных трудов. – М.: НИИК, 1986. – С. 144-148.

Tarix va madaniyat yodgorliklari ikki guruhga bo'linadi: qo'z-g'aluvchi yodgorliklar – eski ashyolar, kartinalar, qo'lyozmalar, bosma nashrlar, arxivlar, tangalar, panoptikum – noyob ashyolar to'plamlari; qo'zg'almas yodgorliklar – binolar, inshootlar, me'morlik ansambllari va majmualari, ko'hna shaharlar, qo'rg'onlar va h.k.

Tarixiy-madaniy meros – jamiyat rivojlanishining bosqichlarini ifodalovchi hamda jamiyat a'zolari tomonidan asralishi va muhimligi anglanuvchi tarix va madaniyat obyektlarining jamuljami. Hozirgi adabiyotda merosni dolzarblashtirish masalasi ko'tarilmoqda, ya'ni yodgorliklarning ijtimoiy-madaniy rolini va ularni talqin qilishni oshirish yo'li bilan yodgorliklarni asrashga va zamonaviy madaniyat tizimiga kiritishga qaratilgan faoliyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliy faoliyatda obyektlardan foydalanishning muayyan yo'nalishlari shakllandi: o'zi qurilgan holatidagi dastlabki, obyektga ziyon yetkazmagan holda, taqdim qilish va o'rganish maqsadida ishlatish.

«Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunida madaniy meros obyektlari hisoblangan – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zga madaniy qimmatga ega bo'lgan yodgorliklar, ansambllar va diqqatga sazovor joylarga quyidagicha ta'rif berilgan¹⁸:

«yodgorliklar – ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ularga taalluqli rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari bilan birga, memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, xalq og'zaki ijodi, numizmatika, epigrafiika namunalari, antropologiya, etnografiya, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, ovozli-tasvirli yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyoz-

¹⁸ «Madaniy meros ob'ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2001-yil 30-avgust, 269-II-son // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 180-modda.

ma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, shuningdek, tarixiy, ilmiy, badiiy va o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan arxeologiya yodgorliklari;

ansambllar – tarixan tarkib topgan hududda aniq, ko'zga tashlanadigan istehkom, din, saroy, turar joyga oid, ijtimoiy, ma'muriy, savdo ishlab chiqarish, ilmiy, ma'rifiy va boshqa ahamiyatga molik alohida turgan yoki birikkan yodgorliklar, binolar va inshootlar guruhlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan, tabiat manzarasi bilan umumiyliigi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan birgalikda, shuningdek, manzilgohlar tarixiy tarxlarning hamda uy-imoratlarning qoldiqlari, landshaft arxitekturasini va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar);

diqqatga sazovor joylar – inson va tabiat ijodining umumiy mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlarning yoki shaharlarning tarixlari va uy-imoratlari joylashgan markazlar, tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, buyuk tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek qo'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlarning madaniy qatlamlari, imoratlarning qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar»¹⁹.

Madaniy meros obyektlarining toifalari quyidagicha ta'riflangan:

butun mamlakat tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan respublika ahamiyatidagi madaniy meros obyektlari;

¹⁹ «Madaniy meros ob'ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2001-yil 30-avgust, 269-II-son // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 180-modda.

viloyat, tuman, shahar tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan mahalliy ahamiyatdagi madaniy meros obyektlari²⁰.

Shuningdek, sohaga oid ilmiy manba va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moddiy madaniy meros – juda keng tushuncha bo'lib, u moddiy madaniyat obyektlarini juda katta xilma-xilligini o'z ichiga oladi. Ularga birinchi navbatda, arxeologik yodgorliklar, ya'ni qazilma ishlarida topilgan san'at asarlaridan tortib, to uy anjomlari va mehnat qurollariga oid barcha narsalar kiradi. Tabiiyki, qazilmalar kompleksini o'zi ham madaniy merosning ajralmas qismi bo'lib, o'zida arxeologik yodgorlikni ifoda etadi.

Shunday qilib, moddiy madaniy meros tushunchasi, birinchidan, qadim zamonlardan bizlargacha yetib kelgan va inson tomonidan o'zlashtirilgan yodgorliklar, ikkinchidan, turli sabablarga ko'ra keng omma e'tiboriga tushmagan yoki ommalashmagan yodgorliklar, uchinchidan, bizning zamondoshlarimiz tomonidan yaratilgan va hozirda foydalanilayotgan barcha madaniyat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniy meros orasida haqiqiy durdonalar va asl boyliklar bilan bir qatorda, shundaylari ham mavjudki, tarixiy jihatdan barham topgan bo'lib, ular faqatgina madaniyat tarixi nuqtayi nazaridan qiziqish uyg'otishi mumkin. Bu kabi ashyolar ichida mavhum boyliklar ham uchraydi.

Shuni ta'kidlash joizki, moddiy madaniy merosga oid ashyolarning hammasi muzeyga klassifikatsiya qilinib qabul qilinganidan so'ng, muzey fondiga aylanadi. Fond – bu ekspozitsiya hamda muzey saqlovxonalaridagi eksponatlarning yig'indisidir²¹. Muzeylar ham hududiy, ham mazmun jihatidan doimiy rivojlanishda bo'lgan yopiq sistemani tashkil etadi.

Muzey eksponati – sifati yoki o'ziga xos xususiyati, uni jamoat manfaatlari talab qiladigan saqlash, o'rganish va ommaviy taqdim qilishni zarur qiladigan madaniy boylikdir.

Muzey to'plami deb – o'zining kelib chiqishi, turi jihatdan o'xshashligi yoki boshqa alomatlar tabiati yuzasidan faqatgina birga

²⁰ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2001-yil, 17-son, 116-modda.

²¹ Юреньева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – 382 с.

birlashgan holda muzey buyumlari xususiyatlariga ega bo'ladigan moddiy boyliklar yig'indisiga aytiladi.

Milliy muzey fondiga – O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy ravishda joylashgan eng yirik muzey eksponatlari va to'plamlari majmui kiradi. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va kolleksiyalari, o'zbek xalqi madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Milliy muzey fondining Davlat katalogi ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab, muzey fondlari Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hisoblanadi. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey buyumlari va to'plamlari egasiga ro'yxatdan o'tganlik haqida guvohnoma beriladi.

Muzey ishini boshqarish organlarning muhim vazifasi, muzeylarni ixtisoslashtirishdir. Ixtisoslik deganda muzeyning biron bir fanlarning kompleksi, san'at turlari, ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga bo'lgan munosabati tushuniladi. Ixtisoslik orqali muzeyda ish yuritishning asosiy mazmuni aniqlanadi. Shuningdek, ixtisoslik klassifikatsiyasi muzeylarni guruhlariga ajratadi va ularning har biri o'zining ilmiy vazifalarini yechadi. Muzeylarni quyidagi asosiy ixtisoslik guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tarix muzeylari – tarix fanlari tizimiga tayangan barcha muzeylar kiradi. Jumladan, keng tarixiy ixtisoslikdagi, arxeologiya, etnografiya, numizmatika, harbiy-tarixiy, tarixiy-iqtisodiy, ilm va ma'rifat tarixi, maxsus tarixiy (masalan, sport va h.k.) kabilar shular jumlasidandir.

2. Badiiy muzeylar – san'at tarixi va san'atshunoslikka oid barcha muzeylar kiradi. Masalan, tasviriy san'at muzeylari, suratlar galereyasi, haykaltaroshlik muzeylari, amaliy san'at muzeyi, badiiy hunarmandchilik muzeyi, gravyura kabinetlari, shuningdek teatr, musiqa, kino san'ati muzeylari va boshqalar.

3. Tabiiy muzeylar – o'z faoliyati jarayonida tabiiy fanlarga tayanuvchi barcha biologiya, botanika, zoologiya, geologiya, mineralogiya, palentologiya, antropologiya va boshqa muzeylar kiradi.

4. Texnika muzeylari – texnik fanlar va ishlab chiqarish bilan bog'liq politexnika, texnika, aviatsiya, avtotransport, aloqa, kema

qurilishi, tog' ishlari, temir yo'l transporti, texnika yodgorliklari, alohida korxona muzeylari va hokazo muzeylar kiradi.

5. Adabiyot muzeylari – adabiyotning rivojlanishiga, yozuvchilarning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan barcha muzeylar.

6. Kompleks muzeylar – asosan o'zida ikki va undan ortiq asosiy ixtisoslikni uyg'unlashtirgan muzeylar kiradi. Bu esa o'z navbatida zaxiralar tarkibi, faoliyati mazmuni, tashkillashtirish strukturasi namoyon bo'luvchi tarixiy-badiiy, tarixiy-me'moriy, qishloq xo'jaligi (tabiiy – ilmiy va tarixiy ixtisoslikning birlashmasi) muzeylar jumlasidandir²².

Eng keng tarqalgan majmuaviy ixtisoslikdagi muzey – o'lkashunoslik muzeyi bo'lib, u o'zida tarixiy va tabiiy ilmiy mutaxassislikni mujassamlashtiradi. Ba'zi hollarda o'lkashunoslik muzeylarida mustaqil san'atshunoslik bo'limlari ham mavjud bo'ladi. Muzeylarni ixtisoslik guruhlariga tasniflashdan tashqari, asosiy ijtimoiy ahamiyatiga qarab tipologik turlarga ham bo'linadi.

Muzey tarmog'ida muzeylarning ilmiy-tadqiqot hamda ma'rifiy, tadqiqot va akademik, o'quv tipi kabi uchta tipi bo'ladi.

1. Muzeyning ilmiy-tadqiqot va ma'rifiy tipi keng omma foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'lib, muzey tarmog'ida eng ustun turadi. Ilmiy tadqiqotchilik va tarixiy, madaniy boyliklarning vazifasi bu yerda o'zining ahamiyatini saqlab qoladi. Biroq ular muzey to'plamlaridan ta'lim va tarbiya maqsadida keng foydalanishga qaratilgan.

2. Tadqiqot va akademik tipdagi muzeylarda muzey fondlarida foydalanish tadqiqotchilik maqsadida amalga oshiriladi. Ular ilmiy-tadqiqotchilik institutlari, Fanlar akademiyasi qoshida faoliyat ko'rsatadi. Bu muzeylarning ustuvor tadqiqotchilik ahamiyati asosan, fondlarning shakllanish asoslari, ularning klassifikatsiyalari, ekspozitsiyaning xarakterini aniqlaydi va mazkur muzeylar asosan mutaxassislar (biologiya, geologiya, paleontologiya kabi muzeylar) ga mo'ljallangan.

²² Kuryazova D.T., Ergashev B. E., Maxmudov T. I. Jahon muzeysunosligi. – Samarqand: SamDU, 2015. – B. 70-71.

3. O'quv tipidagi muzeylar – haqiqiy manbalar, ya'ni predmet vositalaridan foydalangan holda, o'quv jarayonini tashkillashtirishga yordam beradi. Kolleksiylarning shakllanishi, klassifikatsiyasi va ekspozitsiyasi asosan o'quv dasturlari va pedagogik uslubiyatdan kelib chiqqan holda vujudga keladi. Ko'p hollarda o'quv muzeylari turli o'quv muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatadi. An'anaviy ekskursiyadan tashqari, o'quv muzeylari kolleksiyalar bilan tanishtirishda spetsifik shakl va ishlash uslubini qo'llaydilar: masalan, biron bir muzey predmetini ma'ruza o'qiyotganda ko'rsatadilar; amaliy mashg'ulotlarda dala tadqiqotlari materiallariga ishlov berib, ilmiy tasnif beriladi. Ba'zi maxsuslashtirilgan o'quv muzeylari, ommaviy tomoshabinlar uchun yopiq. Bunga kriminalistika muzeylari misol bo'la oladi.

Ilmiy-ma'rifiy muzeylardan o'quv jarayonida, ularning to'plamlaridan esa, ilmiy maqsadlarda foydalaniladi. Ko'plab ilmiy va o'quv muzeylarini nafaqat o'quvchilar va mutaxassislar, balki keng omma ham ko'radi.

Muzeylarning boshqa tipologiyalari ham mavjud bo'lib, ular hujjatlashtirish funksiyasi asosida bo'linadi.

Kolleksiya tipidagi muzeylar – muzey predmetlari fondlarini saqlash va komplektlash yo'li orqali hujjatlashtirish funksiyasini amalga oshiradi.

Ansambl tipidagi muzeylar – ko'chirib bo'lmaydigan yodgorliklar ansambli va ularga tegishli atrof muhitni saqlash yoki aslidagidek qilib tiklash yo'li bilan hujjatlashtirish funksiyasini bajaradilar. Bu tipdagi muzeylarning eng ko'p tarqalganlari – ochiq osmon ostidagi muzeylar, saroy-muzey, uy-muzey, muzey-kvartira, muzey-ustaxona.

Ochiq osmon ostidagi muzeylar orasida, o'ziga xos muzeylar guruhi bo'lib, ko'chmas yodgorliklar, tarixiy-madaniy va tabiiy muhitlari saqlangan holda tiklanib, o'z joyida muzeylashtirilgan yodgorliklar asosida yaratiladi. Bunday muzeylarga muzey-qo'riq-xona statusi berilgan.

O'zgacha tipologik guruhni memorial muzeylar tashkil etadi. Mashhur odamlar yoki voqealarni abadiylashtirish maqsadida,

memorial muzeylar tashkil etiladi. Memorial muzeylari, ixtisoslik muzeylariga kirmaydi. Memoriallikning zaruriy tarkibi – muzeylashtiriladigan joyning haqiqiyliги hisoblanadi. Bu esa hujjatli memorial jihozlar asosida inson yashagan yoki biron voqea sodir bo'lgan joy asliday qilib tiklangan yoki saqlangan me'moriy bino bo'lishi mumkin.

Muzeylarni ixtisoslik bo'yicha ajratish bilan ham, tipologiyaga bo'lish bilan ham mos kelmaydigan tasnifiy asoslar mavjud. Muzeylar tasnifiga ko'ra, administrativ-territorial va respublika, o'lka, viloyat, tuman muzeylariga ajratiladi. Bu esa o'z navbatida muzeylarni geografik uslubda o'rganishni taqozo etadi.

Davlat muzeylari – davlatning xususiy mulki hisoblanib, ularning ko'pi Madaniyat Vazirligi tasarrufida bo'ladi. Lekin, shunday davlat muzeylari borki, madaniyat boshqaruv organiga emas, turli vazirlik va tashkilotlarga (idora) qarashli ham bo'ladi. Bular tashkilot (idora) muzeylari bo'lib, Moliya Vazirligi orqali davlat byudjetidan pul o'tkaziladi.

Jamoat muzeylari – madaniyat organlari, maktablar, muassasalar, tashkilotlar, korxonalar qoshida tashkil etilib, xuddi davlat muzeylari bajaradigan ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Shuningdek davlat muzeylarining ilmiy-uslubiy boshqaruvida bo'ladi. Mazkur muzeylarni, muzey qaysi muassasa qoshida bo'lsa, o'sha pul bilan ta'minlaydi. Bunday muzeylar ko'pincha o'lkashunoslik yo'nali-shida bo'ladi.

Fikrimizcha, moddiy madaniy merosni o'rganishga tarixiy yondashuv kerak. Chunki, ma'lum hududlarda ko'p yillar mobaynida turli millat vakillari istiqomat qilib, o'zlaridan bebaho madaniy yodgorliklar qoldirgan. Qadimgi eronliklar, yunonlar, turklar, arablar, xitoyliklar, rus va boshqa xalqlar noyob moddiy madaniy yodgorliklarni yaratib, jahon sivilizatsiyasiga o'z hissalarini qo'shishgan.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab karvonlar nafaqat savdogarlarning yuklarini tashish bilan shug'ullanibgina qolmay, G'arb va Sharq madaniy g'oya va an'alarini bir-biriga yetkazib beruvchi vosita vazifasini ham o'tagan. Ahmoniy-eron, yunon-ellin, xitoy,

hind-buddiy, eron-sosoniylar va arab-musulmon madaniyatlari, keyinroq esa, Rossiya va Yevropa madaniyati va an'analarini mahalliy aholi tomonidan tez o'zlashtirilishi hamda adaptatsiyalanishi ko'p hollarda O'zbekiston moddiy madaniy merosining umumjahon xarakterga ega ekanligini ta'minladi²³.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda o'zbek xalqi moddiy madaniy merosi juda xilma-xil va juda chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Birinchi navbatda bu, zamonaviy O'zbekiston hududida shakllangan o'zbek xalqining genezisiga taalluqlidir. Moddiy madaniy merosni xronologik tartibda o'rganish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan holda, mazkur tadqiqot ishida O'zbekistonda yashagan xalqlarning tarixiy-madaniy merosiga qisqacha ta'rif berish va ular bugungi kunda qaysi muzeylarda saqlanayotganligini tahlil etish joiz deb topildi. Hozirgi O'zbekiston sarhadlari bir necha ming yilliklar mobaynida shakllangan. Shuning uchun quyida unga chegaradosh hududlardagi moddiy madaniy merosning ba'zilariga nisbatan O'zbekistondagi yodgorliklar va uning tarixiy-madaniy boyliklari atamalari qo'llanildi.

Mavzu tarixshunosligi

Bugungi kunda asrlar mobaynida avlodlar o'rtib kelgan yuksak badiiy qimmatga ega moddiy madaniy meros yodgorliklari O'zbekistonning bebaho boyligi hisoblanadi. O'zbekistonning moddiy madaniy merosi masalasiga oid adabiyotlarni xronologik va muammoning nazariy-konseptual mohiyati nuqtayi nazaridan to'rt guruhga bo'lib o'rganildi. Birinchi guruh Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri adabiyotlari, ikkinchi guruh Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar, uchinchi guruhga mustaqillik yillariga oid ilmiy nashrlar va to'rtinchi guruhga esa, xorij adabiyotlarini ta'kidlashimiz mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Milliy Arxivining I-1-fond, Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi hujjatlari, I-72-fond, Turkiston xalq muzeyi, R-94-fond, Xalq ta'limi, O'z SSR Maorif Xalq komissarligi, R-367-fond, O'z SSR Xalq Komissarlar Soveti, R-394-fond, O'rta Osiyo tabiati, san'ati va qadimiy yodgorliklarini

²³ Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Т.: San'at, 2010. – С. 10.

muhofaza qilish va muzey ishlari qo'mitasi, R-396-fond, O'rta Osiyo Bosh muzeyi materiallaridan olingan ma'lumotlar tahlilga tortildi.

Birinchi guruh tadqiqotlariga Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri adabiyotlariga asosan O'rta Osiyoni tadqiq etish uchun yuborilgan rus tarixchi, arxeolog, sharqshunos olimlari, sayyohlar va harbiy zobitlar tomonidan nashr etilgan ishlar kiradi²⁴. Ular nafaqat o'lka moddiy madaniy merosini o'rgangan, balki tarixiy-madaniy yodgorliklar haqida batafsil bo'lmas-da, muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan.

O'zbek xalqining etnografiyasini o'rganish bilan shug'ullangan N.P.Ostroumov²⁵ va N.S.Likoshin²⁶ singari tadqiqotchilarning asarlarida rus mustamlakachilik siyosatini targ'ib qilish bilan birga, shaxsiy jamoalarning turmushi, madaniy hayotiga doir faktlarga asoslangan bir qancha diqqatga sazovor ma'lumotlar uchraydi. Ularda O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy va ma'rifiy turmushining xususiyatlari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari va boshqa etnografik xususiyatlarini ta'riflashgan. Biroq, o'z davrining hukmron g'oyalari ta'sirida bo'lgan ushbu tadqiqotlar bir muncha nuqsonlardan ham xoli emas, albatta. Ijtimoiy masalalarni sharhlashda tadqiqotchilarning o'zligi, yirik konsepsiyalarning subyektivizmi hukm surganligi ularning ko'p asarlarida o'z asosini topgan. Shunga qaramay, o'lka moddiy merosi masalalarini qamrab olgan ma'lumotlar o'rganilayotgan tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega.

Bu davr arxeologlarining yirik nazariy ishlarida arxeologiyaga tarixiy fan deb qaralgan. Bu XIX asr oxiri – XX boshlari burjua tari-

²⁴ Кун А. Л. Поездка по Хивинскому ханству 1873 год // Известия ИРГО. – СПб.: 1874. Т. X. – № 1. – 83 с.; Маев Н. А. Туркестанская выставка. – Т.: 1886. – С. 7; Мушкетов И. В. Туркестан. Том 1. – СПб.: 1908. – С. 306; Кастанье И. А. Поездка по Тургайской и Сыр-Дарьинской области 1906-1907 гг. вдоль Ташкентской железной дороги. – Оренбург: Мильберг, 1909. – 67 с.; Вяткин В.Л. Отчет о раскопках обсерватории Мирзы-Улугбека в 1908 и 1909 гг. – Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии. – № 11. – С. II. – СПб., 1912; Веселовский Н.И. История императорского археологического общества за первое пятидесятилетие его существования. 1846-1896., 1900. – С. 201-206.; Ёша муаллиф. Отчет о поездке в Шахрухию и местность «Канка». – Т, 1913. – 24 с.; Семенов А. Происхождение древних сеидов и их усыпальница «Султан-Саадат». – Т, 1914. – 52 с.; Бартольд В. В. Задачи русского востоковедения в Туркестане. – П., 1915. – С. 17.

²⁵ Остроумов Н. П. Саргы. Этнографические материалы. Т. I. – Т, 1890. – 137 с.

²⁶ Лыкошин, Н. С. Пол жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. – П., 1916. – 415 с.

xiy ilmi tanazzulga yuz tutishi bilan izohlanadi. Bu davrda tarixiylik, taraqqiyot, qonuniylik muammolari asta-sekin yo'qqa chiqadi va eklektika bilan almashadi²⁷.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo bo'yicha ilmiy asoslangan va umumlashtirilgan ilmiy zaxira bu hududlarning uzoq o'tmishini tahlil qilish uchun yetarli emas edi. Lekin ilmiy jihatdan qaraganda, sharq hamda O'rta Osiyo numizmatikasi ko'proq o'rganilgan. Masalan, V.G.Tizenguazen «Somoniy-larning tangalari haqida», «Sharq xalifaligi tangalari» va P.I.Lerxning «Buxor-xudot tangalari» kabi tadqiqotlarini keltirib o'tish mumkin. 1867-yilda Rus arxeologiya jamiyati tomonidan P.I.Lerx Sirdaryo vodiysidagi Jonkent va boshqa asrlar davomida vayronaga aylangan obyektlarni tadqiq etish uchun yuboriladi. 1870-yilda u olib borgan tadqiqotlarning natijasi chop etiladi. Uning hisoboti qisqa bo'lsa-da, katta faktlar va tavsiflangan materiallar bilan boyitilgan bo'lib, o'z davri uchun Turkistonning qadimiy yodgorlik va ashyolarini o'rganishda namuna bo'lib xizmat qildi. Rus geografik jamiyatining topshirig'iga binoan P.I.Lerx 1873-yilgi Xivaga qilingan yurish ishtirokchisi sifatida rus ofitserlari uchun ko'rsatmalar ham ishlab chiqqan. O'rta Osiyoning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tayyorlangan bu ko'rsatmalarda asosiy e'tibor arxeologiya, numizmatika, epigrafika va etnografiyaga oid yodgorliklarni izlab topish, saqlash hamda sharhlash masalalariga qaratilgan edi. 1884-yili N.Veselovskiy O'rta Osiyoga safari vaqtida uning tashabbusi bilan qadimiy vayronalar, xususan o'rta asr Samarqand shahristonining topografik loyihasi yirik masshtabda harbiylar tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, u Samarqanddagi barcha yirik me'moriy yodgorliklarni hamda ulardagi bezak va yozuvlarining sharhini o'zida aks ettiruvchi manba nashr etishni ham taklif qiladi²⁸. Bu vazifani amalga oshirish uchun 1895-96 va 1898-99-yillarda maxsus ekspeditsiyalar tashkil qilinadi.

Ta'kidlash joizki, ilmiy tadqiqot ishlari ham turli soha olimlari tomonidan Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilgan

²⁷ Монгайт А. Л. Археология. – М.: НИМК АН, 1956. – С. 43-44.

²⁸ Веселовский Н. И. История Императорского Русского Археологического Ощества за первое пятидесятилетия его существования 1846-1896. – СПб., 1900. – С. 10-11.

hududlarda olib borilgan. B.V.Luninning ishlari bu davr tadqiqotchilariga baho berilgan bo'lib, ushbu hududlarning o'rganilishi bilan bog'liq ilmiy qiziqish etnograf, lingvist, arxeolog va tarixchi kabi mutaxassislar tomonidan kam o'rganilganligiga qaramay, ular antiqa o'lkaga bir xil nazarda qaraganliklari ta'kidlangan²⁹. Masalan, N.I.Veselovskiy arxeologiyaga oid obyektlarni qazish hamda fiksatsiya qilish uslubi bo'yicha sezilarli darajada o'zining zamon-doshlaridan orqada bo'lsa-da, qazish ishlari jarayonida shahristonlarning alohida qismlarini emas, ketma-ketlikda yaxlit tadqiq etish, tarixiy qatlamlarga ajratib o'rganishni taklif qilgan³⁰. Shuningdek, u barcha tarixiy obidalarini davlat mulki deb e'lon qilish, yer egalari o'zlariga qarashli hududlarda joylashgan obidalarini muhofaza qilish choralari ko'rishlariga mas'ul qilishni ta'kidlagan³¹. Shu o'rinda muallif 1840-1870-yillarda olib borilgan qazish ishlari uslubining nomukammalligi, avvalambor tarixiy va badiiy qimmatga ega ashyolarni topishni talab qiluvchi Arxeologiya komissiyasi bilan bog'liq ekanligini aytadi. Tarixiy-madaniy obidalarini muhofaza qilish, o'rganish funksiyalarini Ichki ishlar vazirligi boshqarsagina ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot jarayonida yirik tadqiqotchilardan: «V.F.Oshanin, A.P.Fedchenko va I.V.Mushketovlar tomonidan asosan o'lkaga oid turli qadimiy yodgorliklar bo'yicha tarixiy va etnografik xarakterga ega bo'lgan tasnifiy ma'lumotlar ta'kidlab o'tilgan. A.P.Fedchenko-ni «Turkistonga sayohat» kitobida tarixiy obidalar haqida yozilgan³². U rafiqasi Olga Fedchenko bilan birgalikda o'zbek xalq etnografiyasiga oid ma'lumotlarni ham to'plagan. Unda Turkiston general-gubernatori tomonidan Qo'qon ayollari zargarlik buyumlari-

²⁹ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917 гг.) – Т.: Изд-во Академии наук Узбекистана, 1958. – С. 248.

³⁰ Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – II, VII, – 364 с.

³¹ Тихонов И. Л. Археология в Санкт-Петербургском университете. Историографические очерки. – СПб.: СПбГУ, 2003. – 332 с.

³² Федченко А. П. Путешествие в Туркестан: Члена-основателя общества А.П. Федченко, совершенное от императорского Общества любителей естествознания по поручению Туркестанского генерал-губернатора К. П. Фон-Кауфмана / А. П. Федченко. – М.: 2014. – 188 с.

ni sotib oshish uchun ularga ajratilgan mablag' haqida ma'lumotlar keltirilsa, V.F.Oshanin entomologiya va O'rta Osiyo geografiyasiga oid ko'plab ensiklopedik ma'lumotlar beradi», – deb yozadi B.V.Lunin³³.

1917-yilga qadar O'rta Osiyoning mahalliy o'lkashunos-arxeologlari va boshqa mutaxassis-arxeologlari ilmiy izlanishlarida ashyo va yodgorliklarni tarixiy tahlil hamda ma'lumotlarni umumlashtirish nuqtayi nazaridan tadqiq etilmagan. Umuman olganda, ushbu guruh adabiyotlarining aksariyati tizimli tadqiqot bo'lmay, mustamlakachilik nuqtayi nazaridan yaratilgan qimmatli ma'lumotlar ekanligini alohida ta'kidlashimiz joizdir.

Bu davrda Rossiya va Yevropaning boshqa mamlakatlari O'zbekiston etnomadaniy merosini to'plash bilan shug'ullangan bo'lsa, xorij muzeylarida O'zbekiston etnografik kolleksiyalari shakllantirilganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, mustamlaka davrida Turkistonga nafaqat Rossiya Imperiyasi, balki Yevropadagi boshqa davlatlar katta qiziqish bilan qaragan. Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonga nemis sayyoh, ishbilarmon va olimlari kelishgan. Ular safarlari davomida Xiva, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Sharqiy Turkiston bozorlaridan ko'plab ashyolarni xarid qilib Yevropaga olib ketishganligi ma'lumotlari uchraydi³⁴.

Yuqorida 1867–1916-yillardagi moddiy madaniy merosning o'rganilishi, muhofaza qilinishi hamda muzeylarga bo'lgan e'tibor faktologik materiallar asosida tahlil etildi. O'sha davrda olib borilgan ishlarning mohiyatiga aniqlik kiritish maqsadida mazkur yillarda moddiy madaniy merosning o'rganilishi va saqlanishiga e'tibor qaratilib, ikkita tarixiy davr qiyosiy tahlil qilinadi.

1917-yilga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlarda O'rta Osiyoning mahalliy o'lkashunos arxeologlari va boshqa yirik mutaxassis-arxeologlar ashyo va yodgorliklarni tarixiy tahlil hamda ma'lumotlarni umumlashtirish nuqtayi nazaridan tadqiq etmagan-

³³ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917 гг.) – Т.: Изд-во Академии наук Узбекистана, 1958. – С. 248.

³⁴ Дело Туркестанской публичной библиотеки и музея. Переписки, 1914. ЦГА. Фонд №72, Опись №1, Дело №12.

lar. O'sha davrning taniqli arxeologlaridan N.I.Veselovskiy va A.A.Spisinlar: «Rus arxeologiya muvaffaqiyatlari ahamiyatsiz, hali birona rus arxeologiyasining tarmog'i sistematik tarzda o'rganilmagan, ularning har birida ulkan bo'shliqlar mavjud bo'lib, buni taxminlar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Biz hali qadimiylik sharhlarini, hattoki tiplarning mexanik hisob-kitoblariga ham ega emasmiz» – deyдилar. Shunga o'xshash ta'rifni yana O'rta Osiyoni o'rganilishiga doir deb ham aytish mumkin³⁵. 1917-yilda moddiy madaniy boyliklarni ro'yxatga olish, o'rganish, saqlash, san'at va madaniyat yodgorliklaridan foydalanishga doir davlat tizimi bo'lmagan. Bu davrda arxeologik yodgorliklarni o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlar, O'rta Osiyoning o'tmishini tadqiq etish sohasida ulkan meros qoldirdi. Tarixshunos B.V.Lunin ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, masalan, V.A.Jukovskiyning qadimgi Marv xarobalarini o'rganishga bag'ishlangan mavzularidan biri hisoblanadi. Samarqand va Turkistonning arxitektura yodgorliklarini o'rganish bo'yicha Arxeologiya komissiyasining materiallari, O'rta va Sharqiy Osiyoni o'rganish bo'yicha Rossiya qo'mitasi va arxeologiya ixlosmandlari to'garagi, bir qator ma'lumotlarning dastlabki tavsifini yozgan. Lekin, O'rta Osiyoning bebaho arxeologik yodgorliklarini qazish va tadqiq qilish ishlari har doim ham arxeologiya talablari darajasida o'tkazilmagan³⁶.

Umuman olganda bu guruh adabiyotlarining aksariyati tizimli tadqiqot bo'lmay, mustamlakachilik nuqtayi nazaridan yaratilgan qimmatli ma'lumotlar ekanligini alohida ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, moddiy madaniy meros ashyolarini saqlash, targ'ib qilish va muzeylashtirish borasida fikrlar to'liq aksini topmagan.

Ikkinchi guruh Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarda o'rganilayotgan mavzuga yondashuv o'ziga xos tarzda bo'lib, qolgan

³⁵ Протоколы общих собраний Русского археологического общества за 1899/1908 годы. – П.: Типография М. Александрова, 1915. – С. 8-9.

³⁶ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917 гг.) – Т.: Изд-во Академии наук Узбекистана, 1958. – 320 с.; Ўша муаллиф. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. – Т, 1962. – 112 с.; Ўша муаллиф. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.: Фан, 1966. – 136 с. Ўша муаллиф. Средняя Азия в научном наследии отечественных востоковедов. – Т.: Фан, 1979.–150 с.

guruh adabiyotlaridagi ma'lumotlardan batafsilligi va ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, bu davrda O'zbekiston moddiy madaniy merosi mavzusi sharqshunos, etnograf, arxeolog³⁷, tarixchi³⁸, san'atshunos³⁹ va muzeyshunoslar⁴⁰ tomonidan atrofficha o'rganildi. Bu davr tadqiqotlarida muzeyshunoslik masalalari davrlar kesimida qiyosiy tahlil qilingan, shuningdek, muzey ishi amaliyotidagi ijobiy va salbiy tomonlar aniqlangan va yoritib berilgan.

Sovet davriga oid adabiyotlarni ikki guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq. Birinchisi O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganilishiga oid adabiyotlar bo'lsa, ikkinchisi bevosita muzeylar tarixi va muzey ishini aks ettiruvchi adabiyotlardan iborat.

1917–1989-yillar sovet hokimiyati hukmronligi yillarida moddiy madaniy meros va muzey ishini o'rganishga oid tadqiqotlar o'z mohiyati hamda mazmuniga ko'ra, davr mafkurasi nuqtayi nazari-

³⁷ Филанович М. И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. – Т.: Фан, 1983. – 232 с.

³⁸ Миронов А. М. Художественный музей в Ташкенте // Известия Средазкомстари. – Вып. 1. 1926. – С. 295–331; Вяткин В. Л. Афрасиаб – городище бывшего Самарканда. – Т.: 1927. – С. 41; Якубовский А. Ю. Городище Миздахкан. // Записки Коллегии Востоковедов. Т. V. – Л., 1930. – С. 551–558; Ўша муаллиф. Развалины Ургенча. ИГАИМК, Т. V I. Вып. 2. – Л., 1930; Ўша муаллиф. К вопросу о происхождении ремесленной промышленности Сарая-Берке. ИГАИМК, Т. VIII, Вып. 2, 3. – Л., 1931; Фуломов Я. Ўзбекистонда моддий маданият ёдгорликларини сақлаш, ўрганиш йўллари. – Т., 1934. – 120 б.; Тереножкин А. И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. Известия АН Узбекистана. – № 9. – Т., 1940; Ўша муаллиф. Холм Актепе близ Ташкента (раскопки 1940 г). Труды ИИА АН Узбекистана. Т. I. – Т., 1948; Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 440 с.; Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., – Л.: 1948. – 328 с.; Тереножкин А. И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. Известия АН Узбекистана. № 9. – Т., 1940.

³⁹ Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. – М.: Искусство, 1965. – 688 с.; Пугаченкова Г. А. Халчаан. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. – Т.: Фан, 1966. – 287 с.; Ўша муаллиф. Скульптура Халчаана. – М.: Искусство, 1971. – 202 с.; Ремпель Л. И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Т.: 1987, – 192 с.; Ремпель Л. И. Далекое и близкое. Страницы жизни, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Т.: Изд. Лит. и искусства, 1981. 304 с.; Пугаченкова Г. А. Шедевры искусства Средней Азии. – Т.: Г. Гулям. 1986. – 230 с.; Ртвеладзе Э. В., Пугаченкова Г. А. Северная Бактрия-Тохаристан: Очерки истории и культуры: Древность и средневековье. – Т.: Фан, 1990. – 218 с.

⁴⁰ Садыкова Н. Музей истории народов Узбекистана им. М. Т. Айбека / Наука в Узбекистане. Т. II. Общественные науки. – Т.: Фан, 1974; Ўша муаллиф. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. – 290 с.; Ўша муаллиф. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981. – 270 б.

dan yondashilganligi bilan xarakterlanadi. Shunga qaramay, ayrim tadqiqotlar borki, o'z davrida o'rganilayotgan mavzu uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning 20-yillarida muzey ishiga doir ma'lumotlar A. A. Semyonov, V. V. Bartold va boshqalar tadqiqotlarida tahlil etilgan⁴¹. Jumladan, 1926–1928-yillarda V. V. Bartold muharrirligida nashr etilgan «O'rta Osiyo tabiati, san'ati va qadimiy yodgorliklarini muhofaza qilish va muzey ishlari qo'mitasi axborotnomasi» nomli majmuasini alohida ko'rsatish mumkin⁴². Unda A. M. Mironov «Sredazkomstari»ning besh yillik tashkiliy, ilmiy va amaliy faoliyatini yoritgan⁴³.

Taniqli arxeolog olim Ya. G'. G'ulomov O'zbekistonning moddiy madaniyat yodgorliklarini asrash va muhofaza qilish masalalariga to'xtalib o'tgan⁴⁴. Biroq, moddiy madaniy merosni o'rganishning nazariy jihatlarini yoritilmagan.

O'rta Osiyoda birinchi yirik ish me'mor A. P. Udalenkov boshchiligidagi ekspeditsiyada olib borilgan bo'lib, u Samarqanddagi Shohi Zinda me'moriy majmuasini o'rgangan. 1921-yil Samarqandga qilingan ekspeditsiya natijalarini sarhisob qilib, uning kamchiliklarini ta'kidlab, uning materiallari asosida rasm, chizma va kuzatuv qog'ozlari muhim ilmiy ahamiyatga ega ma'lumotlar ekanligini ta'kidlashimiz kerak. Bu o'rinda ko'rsatib o'tish kerakki, O'zbekiston me'moriy obidalariga taalluqli bo'lgan restavratsiya ishlari, yoxud yaxlit O'rta Osiyo obidalarini bo'yicha yozilgan ilmiy maqolalarda qisqacha bayon etilib borilgan. Ayniqsa, restavratsiya ishlarining muallifi va ishtirokchisi K. S. Kryukovning maqolalari qadrli⁴⁵. Ularda Buxoro me'morchilik obidalarini restavratsiya qilishga taalluqli bo'lgan maxsus izlanish va taxminiy rejalar ko'rsatilib o'tilgan edi.

⁴¹ Семёнов А. А. Некоторые особенности материальной культуры прошлых эпох Средней Азии // Известия Средазкомстари. 1928. – Вып. 1. – С. 11–13.

⁴² Известия средне-азиатского Комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы. Вып. 1–3. – Т., 1928.

⁴³ Миронов А. М. Художественный музей в Ташкенте // Известия Средазкомстари. Вып. 1. 1926. – С. 295–331.

⁴⁴ G'ulomov Ya. O'zbekistonda moddiy madaniy yodgorliklarni saqlash, o'rganish yo'llari. – Т.: 1934. – 120 б.

⁴⁵ Крюков К. С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920–1990) // АСУ, 1990, – № 8. – С. 34–36.

O'zbekistonning badiiy, moddiy madaniyati ming yilliklar davomida o'zining serqirraligi va yuqori taraqqiy qilganligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda har bir asrga tegishli moddiy madaniy meros yodgorliklari deyarli saqlanib qolgan bo'lib, ular V.Shishkin, M.Masson, S.Tolstov, Ya.G'ulomov, G.Pugachenkova, L.Rempel, B.Lunin, V.Bartold kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁴⁶.

Sovet davrining 1917-1980-yillarida tarix va madaniyat yodgorliklari muhofazasini o'rganilishi va bu yo'nalishda hukumatning ilk qonunchilik va amaliy qadamlari bilan uzoq vaqt davomida asosan muammoga o'z fikrlari bir tomonlama bo'lgan tarixchilar shug'ullangan hamda yodgorliklarni muhofaza qilish haqida yozishgan. Bunga asosan davlat hujjatlari, XKS dekretlari, davlat namoyandalarning asarlari uchun manbaviy asos bo'lib xizmat qilgan.

1940-yillarning oxirida madaniy boyliklarni milliyalashtirish va ularni muhofaza qilish masalalari I.S.Smirnov ishlarida ko'rsatib o'tilgan. Muallif tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha Respublika mulklarining xalq komissarligi faoliyatiga e'tibor qaratgan holda, ilmiy muomalaga yangi arxiv materiallarni kiritib, muzeyga taalluqli bo'lgan qurilish ishlari haqida ham yoritadi. O'z o'rnida aytib o'tish joizki, 1917-1920-yillardagi yodgorliklarni muhofaza qilish tarixi bir qancha olimlar tomonidan o'rganib chiqilgach, vaziyat asta-sekin o'zgara boshlagan. Masalan, o'sha davr tarixshunosligida madaniyat va san'at yodgorliklarini

⁴⁶ Шишкин В. А. Архитектурные памятники Бухары. – Т.:Издательство Комитета Наук Узбекистана, 1936. – 100 с.; Массон М. Е. Работы Термезской археологической комплексной экспедиции. Том 2. – Т, 1938. – 125 с.; Ўша муаллиф. К периодизации древней истории Самарканда. – Вестник древней истории. № 4. – Т.:1950; Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: Издание МГУ, 1948. – С. 59-66; Ғулумов Я. Ўзбекистонда моддий - маданий ёдгорликларни сақлаш, ўрганиш йўллари. – Тошкент, 1934. – 120 б.; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Т.: Художественная литература, 1958; Ўша муаллифлар. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. – М.: Искусство, 1965. – 688 с.; Ўша муаллиф. Самарканд. Бухара. – М.: Искусство, 2-е изд., 1968. – 278 с.; Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917 гг.) – Т.: Изд-во Академии наук Узбекистана, 1958. – 320 с.; Ўша муаллиф. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. – Т.: Изд. Академии наук Узбекистана, 1962. – 112 с.; Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. / Сочинения, Т.2. ч. 1. – М.: Восточная литература, 1963. – С. 167-433; Ўша муаллиф. Задачи русского востоковедения в Туркестане. –Том 9. 1977. – М.: Наука, – 966 с.

muhofaza qilish tarixiga bag'ishlangan D.A.Ravikovichning ilmiy tadqiqotlari sezilarli qadam bo'ldi⁴⁷. U ko'p sonli, jumladan, yangi manbalardan foydalangan holda, hukumat, o'tmish yodgorliklarini saqlab qolish bo'yicha Ma'orif Xalq Komissariatining fan bo'yicha boshlig'ining faoliyatini ochib bergan. Ayniqsa, tadqiqotchi sovet jamiyatini markaziy va mahalliy hokimiyatlarining ushbu muammoga bo'lgan munosabatini yumshoq tanqid qilgan holda yodgorliklarni muhofaza qilish tarixini obyektiv ravishda yoritishga urinib ko'rgan. Darhaqiqat bu harakatlar o'sha davrning g'oyaviy sharoitlarida tug'ilgan omil sifatida boshqachasiga bo'lishi ham mumkin emas edi.

Shuningdek, V.Vyatkin, M.Masson, A.Terenojkin, S.Tolstov, Ya.G'ulomov, M.Filanovich, A.Yakubovskiyar asosan arxeologiyaga oid moddiy meros bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan⁴⁸. Ularda arxeologik obyektlarning qurilishida ishlatilgan ashyolar, o'sha davr binolarining konstruksiyasi, arxeologik topilmalarning ishlanish uslublari qiyosiy tahlili, me'moriy obidalarining holati, ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, saqlashga doir masalalar qisman tadqiq etilgan, lekin muzeylashtirishga oid nazariy materiallar o'z aksini topmagan. Bu davr arxeologlarining tadqiqotchilik amaliyotida qabul qilingan metodlari, kelajakda yodgorlikdan madaniy meros obyekti sifatida foydalanish va saqlash masalalarini samarali hal etishga yordam bermagan.

1950-yillarning o'rtalariga kelib, tarixshunoslar orasida moddiy madaniy yodgorliklarni saqlash masalalariga salbiy nuqta-

⁴⁷ Равикович Д. А. Охрана памятников истории и культуры в РСФСР 1917-1967 гг // Труды НИИ музееведения и охраны памятников истории и культуры. – М.: 1970. Вып. 22. – С. 3-127.

⁴⁸ Вяткин В. Л. Афрасиаб – городище бывшего Самарканда. – Т.:1927. – 65 с.; Массон М. Е. Мавзолей Гур-Эмир усыпальница Тимуридов. Типография штаба Средне-Азиатского военного округа, 1926; Ўша муаллиф. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Т, 1935; Якубовский А. Ю. Городище Миздахкан. // Записки Коллегии Востоковедов. Т.V. – Л., 1930. – С. 551-558; Ўша муаллиф. Развалины Ургенча. ИГАИМК, т. V 1. Вып. 2. – Л., 1930; Ўша муаллиф. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. – Л.: 1953.; Ғулумов Я. Ўзбекистонда моддий маданий ёдгорликларни сақлаш, ўрганиш йўллари. – Т.:1934. – 120 б.; Тереножкин А. И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. Известия АН Узбекистана. – № 9. – Т, 1940; Ўша муаллиф. Холм Актепе близ Ташкента (раскопки 1940 г). Труды ИИА АН Узбекистана. Т. 1. – Т, 1948; Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: Издание МГУ, 1948. – С. 59-66; Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: Издание МГУ, 1948.

yi nazardan qarashgan. Bu davrda G.Pugachenkova, L.Rempel, E.Rtveladzelar O'zbekiston moddiy madaniy merosiga oid me'moriy va arxeologiya yodgorliklarining qurilish texnikasi, konstruksiyasi, xom-ashyolari bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar natijasida topilgan turli tarixiy davrlarga oid buyumlar, tasviriy va amaliy san'at namunalari badiiy qimmatini ilmiy jihatdan o'rganishgan⁴⁹. O'zbekiston san'atining eng qadimgi davrdan to XIX asr oxirlarigacha bo'lgan tasviriy va amaliy san'ati tarixiga G.Pugachenkova hamda L.Rempel xronologik tartibda ta'rif berishgan⁵⁰. Mualliflar yodgorliklarni saqlab qolish muammolariga ham qisman to'xtalishgan. Ta'kidlash joizki, G.Pugachenkova foto-suratga olib, tarhi chizilgan me'moriy obidalarining aksariyat qismi noma'lum sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmagan. Masalan, Xivadagi boylar uchun qurilgan «teskari ayvonli uy» deb ataluvchi turar joy binolaridan 47 tasini sanab o'tgan, lekin shulardan 7 tasi saqlanib qolgan.

Bu davrning yana bir muhim jihatlaridan biri, 1959-yildan boshlab, O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish bo'yicha ko'p qismli O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan monografiya chop etilib kelinmoqda. Unda O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish bilan shug'ullangan olimlarning ilmiy izlanishlari e'lon qilib borilgan. Mazkur nashrdagi manbalarda alohida me'moriy obida, arxeologik obyekt hamda moddiy madaniy meros ashyolariga oid faktologik materiallar, ilmiy tavsiflar berilgan.

⁴⁹ Пугаченкова Г. А. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. – Т.: Фан, 1966. 287 с.; Ўша муаллиф. Самарканд. Бухара. – М.: Искусство, 1968. – 278 с.; Ўша муаллиф. Скульптура Халчаяна. – М.: Искусство, 1971. – 202 с.; Ўша муаллиф. Искусство Бактрии эпохи кушан. – М.: Искусство. 1979. – 247 с.; Ўша муаллиф. Музей под открытым небом. Архитектурные сокровища Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 1981. – 334 с.; Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Северная Бактрия-Тохаристан: Очерки истории и культуры: Древность и средневековье. – Т.: Фан. 1990. 218 с.; Ремпель Л. И. Далекое и близкое. Страницы жизни, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Т.:1981; Ремпель Л. И. Искусство Среднего Востока. Избранные труды по истории и теории искусств. – М., 1978; Ремпель Л. И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Т, 1987. – 192 с..

⁵⁰ Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Т.: Изд-во художественной литературы, 1958. – 292 с.; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. – М.: Искусство, 1965. – 688 с.; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Очерки искусства Средней Азии. Древность и средневековье. – М.: Искусство, 1982. – 187 с.

Ularni saqlab qolish, restavratsiya va konservatsiya qilish, muzeylashtirishga doir masalalar deyarli yoritilmagan.

Sovet davrida O'zbekiston olimlari tomonidan yaratilgan muzeyshunoslikka doir adabiyotlarning aksariyat qismi asosan O'zbekiston muzeylarining yaratilish va rivojlanish tarixi, madaniy oqartuv ishlariga qaratilgan.

XX asrning 60-70-yillarida N.Sodiqova ilk bor respublikadagi muzeylar va muzeyshunoslikka oid tadqiqotlarni olib borgan⁵¹. Uning ishlarida O'zbekiston muzeylarining deyarli bir asr davomidagi taraqqiyoti, yutuqlari va muammolari batafsil ochib berilgan. Lekin, asosiy e'tiborni bu davrdagi adabiyotlarning mualliflari, sotsialistik tuzum g'oyalariga qaratganlar. Xulosa beradigan bo'lsak, sovet davri adabiyotlarini tanqidiy o'rganish, muzey ishi bo'yicha shu davrda olib borilgan siyosatning tub mohiyatini anglashga yordam beradi.

V.Bartold 1930-yilga qadar Turkiston madaniy hayoti bilan bir qatorda O'rta Osiyo san'atining noyob tarixiy yodgorliklari, qo'lyozma asarlarini tadqiq etgan bo'lsa, 1963-yildan 1977-yilgacha bo'lgan davrda uning asarlari Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan 9 jildda chop etildi⁵².

Moddiy madaniy merosni asrab-avaylash, tarixini chuqurroq o'rganish, mafkuraviy yo'nalishda burilish davri XX asrning 1980-yillarga to'g'ri keldi. Tarix va madaniyat yodgorliklarini himoya qilish bo'yicha xalq komissarlari kengashining qarorlarini tahlil qilishga kelsak, birinchi tadqiqot A.V.Boguslavskiyga tegishli bo'lib, san'at va qadimiy yodgorliklarni ro'yxatdan o'tkazish, muhofaza qilish to'g'risidagi birinchi dekretining nashr etilish sabablariga bag'ishlangan⁵³. Aynan, muzey ishi nazariyasi,

⁵¹ Садыкова Н. Музей истории народов Узбекистана им. М. Т. Айбека / Наука в Узбекистане. Т. II. Общественные науки. – Т.: Фан, 1974; Ўша муаллиф. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. – 290 с.; Ўша муаллиф. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.:Фан, 1981. – 270 б.

⁵² Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Л., 1927. – 256 с.; Бартольд В. В. Работы по археологии, нумизматике, эпиграфике и этнографии. Сочинения. Т. IV. – М.: Наука, 1966. 497 с.

⁵³ Богуславский А. В. Из истории советского законодательства об охране памятников (Декрет 5 октября 1918 г.) // Правоведение. 1987. – № 5. – С. 87-93.

ko'chmas yodgorliklarni, muzey eksponatlarini saqlash uslublari, o'rganish jarayonlari, muzeylashtirish xususiyatlariga doir adabiyotlar Rossiya olimlari tomonidan yozilgan.

Moddiy madaniy merosni o'rganish, muhofaza qilish, restavratsiya va konservatsiyasi bo'yicha A.Abdurazakov, A.Asanov, O.Salimov, M.Yusupova kabi olimlar tadqiqot olib borganlar⁵⁴. A.Abdurazakov asosan tarixiy obidalarining restavratsiya va konservatsiyasida qo'llaniladigan kimyoviy ashyolarni tadqiq etib, amaliyotda qo'llagan hamda arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish bo'yicha ham ish olib borgan. O.Salimov tadqiqotlarida me'moriy obidalarni saqlash va ulardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish tajribalari kompleks tahlillar asosida qamrab olingan. Asosiy e'tibor, tarixiy shahar hududlarini saqlash, qayta tiklash uchun shart bo'lgan uslublari hamda shaharsozlikda arxeologiya, me'moriy yodgorliklar atrof-muhitining muhofaza (bufer) zonasida yangi quriladigan obyektlarni tartibga solish asosida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlariga qaratilganligi bilan uning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. M.Yusupova O'zbekistondagi tarixiy obidalarining asl holati hamda muhitiga putur yetkazmasdan saqlab qolish masalalarini ilgari suradi.

Muammoni o'rganilayotgan davr nuqtayi nazaridan XX asrning 80-90-yillariga baho beradigan bo'lsak, madaniyat yodgorliklarini saqlashda davlatning javobgar ekanligi va ularni vayron bo'lishini oldini olish bo'yicha zudlik choralarni qabul qilish talab qilinib, moddiy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish bo'yicha davlat

⁵⁴ Абдуразаков А. Опыт консервации сырцовых памятников Узбекистана //ТД на II-й Международной конференции по консервации археологических объектов. – Гент, Бельгия: 1985. – С. 2-3.; Абдуразаков А. О. мерах сохранения археолого-архитектурных памятников Узбекистана // Строительство и архитектура Узбекистана. – Т.:1979. – № 8. – С. 23-24.; Абдуразаков А. Реставрация и консервация настенных росписей Афрасияба // Объединенная научная сессия, посвященная 2500-летию Самарканда. – Т, 1969. – С. 24; Абдуразаков А. А. Камбаров М. К. Реставрация настенных росписей Афрасиаба // Под. ред. А. С. Садыкова, АН Уз. ССР, – Т.: Фан, 1975. – 63 с.; Асанов А. А. Памятники архитектуры средневекового Хорезма. Проблемы прочности и обеспечения дальнейшей сохранности. – Т.:1971. –106 с.; Юсупова М. А. Архитектурное наследие Узбекистана: Проблемы реставрации и сохранения аутентичности. Материалы научного семинара памяти Ю. Н. Рериха. – Т.: «Yosh kuch», 2018. – С. 15-20.; Салимов О. Ўзбекистон архитектура ёдгорликларини сақлаш ва улардан фойдаланиш. Монография. – Т.: Наврўз, 2020, – 320 б.

va partiya idoralari faoliyatini tanqid qiluvchi maqolalar ham paydo bo'la boshladi. Buning natijasida moddiy madaniy merosni saqlash va uning obyektlarini ijtimoiy-madaniy rolini faollashtirish, ularni talqin qilish yo'li bilan zamonaviy madaniyatga kiritishga yo'naltirilgan faoliyat – merosni dolzarb ekanligini ta'kidlash muhim ahamiyat kasb etdi.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida, O'zbekiston moddiy madaniy merosi, muzeylarda saqlanayotgan san'at asarlari va qadimgi davrga oid osori-atiqalar xalqning qadriyatlari ekanligi, ularni asrash va muhofaza etish bilan hukumat darajasida shug'ullanish lozimligi anglanadi. Yuqoridagi adabiyotlar, manbalar, hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston moddiy madaniy merosi o'zining nufuzliligi bo'yicha dunyoning eng boy davlatlaridan biri hisoblanadi. Respublikaning ming yillik tarixini aks ettiruvchi yuzlab yodgorliklar, xalqaro tarixiy ahamiyatlilikni o'zida ifoda etadi. Ularni o'rganish, muzeylashtirish va muhofaza qilish – davlat hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim vazifadir.

N.Ahmedova, K.Akilova, A.Hakimov kabi san'atshunos olimlar O'zbekistonning tasviriy va amaliy san'ati tarixi va rivojiga oid ilmiy izlanishlar olib borishgan⁵⁵. Ular xronologik tartibda moddiy madaniy merosni faqat san'atshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishgan bo'lsa-da, muzey ishida ashyolarni badiiy qimmat, ishlanish uslublari, maktablarini aniqlab ilmiy pasportlarga ma'lumot yozishda foydalanish mumkin.

O'zbekiston moddiy madaniy merosni o'rganish, saqlash hamda muzeylashtirishning nazariy-metodologik jihatlarini tahlil qilishda mahalliy olimlarning mustaqillik yillarida chop etilgan monografiya, darslik, o'quv-qo'llanma hamda davriy nashrlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning ba'zilarida muzeylar tarixi va muzey ishi birga, ba'zilarida alohida berilganligi bois, shartli ravishda muzeylar tarixi, muzey ishi (to'plash, saqlash, ashyolarni

⁵⁵ Ахмедова Н. Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Т.: 2004. 224 с.; Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Т.: San'at. 2010. – 504 с.; Акилова К. Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана XX век. – Т.: PRINT – S, 2005. – 288 с.

ilmiy jihatdan o'rganish, namoyishga qo'yish, targ'ib-tashviq qilish)ga oid adabiyotlarga ajratildi.

Jumladan, muzeyshunos N.Sodiqova o'z tadqiqotlarini mustaqillik yillarida ham davom ettirib, aynan muzey kolleksiyalarini targ'ib qilishga oid ishlarni amalga oshirgan⁵⁶.

Mustaqillik yillarida I.Ilatov tomonidan O'zbekiston muzeylarining tarixi va faoliyatiga bag'ishlangan ilk o'quv-qo'llanma yaratildi⁵⁷. U muzey ishi nazariya va amaliyotini bog'lagan holda muzey ashyolarini to'plash, komplektlash, saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish, ilmiy jihatdan o'rganish, targ'ib qilish va ekspozitsiya yaratish uslublarini tahlil qilib, muzey ishini zamonaviy ilmiy, badiiy va estetik jihatlari hamda muzeyshunos kadrlar tayyorlash masalalarini yoritdi.

Muzeyshunoslardan L.Levteyeva va K.Tursunaliyevlar O'zbekiston muzeylarining faoliyatini amaliy tashkillashtirish, muzeylarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, muzey fondlarini komplektlash yo'llari va manbalari, to'plash va hisobga olish, ilmiy kataloglarni ishlab chiqish, ekspozitsiyalarni loyihalash metodikasi, muzey nashrlari, muzey tomoshabinlari bilan ish olib borish masalalarini yoritgan⁵⁸. O'zbekiston muzeylari va ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanishdagi istiqbollari R.Almeyer tomonidan Buxoro muzeylari misolida o'rganilgan⁵⁹. D.Kuryazova O'zbekiston muzeylarining yaratilish tarixi, faoliyati, taraqqiyoti, me'yoriy-huquqiy asoslari kabi ma'lumotlarni ko'rsatib bergan⁶⁰. Shuningdek, u muzeyshunoslikning dolzarb masalalari, zamonaviy jahon muzeylari faoliyati, muzeylarda yangicha ish yuritish uslublariga ham e'tibor qaratgan.

⁵⁶ Sodiqova N. Mulki toroj o'zbekim. – T.: Fan-xazina, 1995. – 42 b.; O'sha muallif. O'rta Osiyoda muzeylarning shakllanishi // Moziydan sado. Toshkent, 1999. – № 1–2. – B. 16–23.

⁵⁷ Илатов И. Музееведение. – Т.: Музыка, 2006. – 357 с.

⁵⁸ Левтеева Л., Турсуналиев К. Музеология. – Т.: Ўзбекмузей, 2008. – 332 с.

⁵⁹ Альмеев Р. Бухара – город музеев. – Т.: Фан, 1999. – 205 с.; Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Гафур Гулям, 2007. – 268 с.

⁶⁰ Kuryazova D.T. O'zbekistonda muzey ishi tarixi. – T.:San'at, 2010. – 154 b.; O'sha muallif: Muzey ishi asoslari. – T.: LESSON PRESS, 2019. 196 b.; O'sha muallif: Muzey ishi tarixi va nazariyasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2007. – 160 b.; Kuryazova D.T., yergashev B.E., T.I.Maxmudov. Jahon muzeyshunosligi. – Samarqand: SamDU, 2015. – 158 b.

J.Ismailova va M.Muxamedovalarning «Zamonaviy jahon muzeyshunosligi» nomli kitobida muzeyshunoslikning nazariy asoslari, muzey ishi va uni yuritishdagi uslubiy metodlar, muzeylar faoliyatining turli yo'nalishlari, jahon muzeylari tarixi, faoliyati va tajribalari, shuningdek, jahon muzeylaridagi muzey ishini yuritishdagi yangi uslubiy metodlar bilan tanishtiradi⁶¹. Muзейshunos, tarix fanlari doktori, professor Jannat Ismailova yaratgan qator tadqiqotlarda muzeyshunoslikning nazariy jihatlari yoritish bilan birga, o'rganilayotgan muammoni ba'zi o'rinlarini to'ldirishga alohida ahamiyat beradi. Jumladan, muzeyshunoslik sohasida qo'llaniladigan atamalar, qo'lyozmalarni saqlash va joylashtirish bo'yicha tavsiyalar, jahonning mashhur muzeylari haqida qisqacha ma'lumot aks etgan ishlarni keltirib o'tish mumkin⁶². Muzeylarning jamiyat rivojida tutgan o'rni, tushunchalari, ilk nazariy tadqiqotlar va hamkorlik omillarini rivojlantirish masalalari, ilmiy-tadqiqotlar jarayonlari muzeyshunoslarni keng bilim va tajribalarga ega bo'lishligini talab etadi. Muzey va jamiyat asari mualliflarining muzey kommunikatsiyasining nazariyasi, strukturasi va zamonaviy muzeyshunoslik taraqqiyotidagi yangi an'analari talqin etilgan ishlari tahsinga sazovordir⁶³.

J.X.Ismailova hamda M.S.Muxamedovalar jahon sayyohlik nazariyasi va amaliyotida madaniy turizmning taraqqiy ettirilishiga doir masalalar, muzey va tarixiy-madaniy yodgorliklarning turizm targ'ibotidagi o'rni, madaniy turizmning tub mohiyatini ko'rsatish, ko'p funksiyali maqsadli tizimni shakllantirish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, turizmning madaniy salohiyatini yuksaltirish, targ'ib qilish masalalarini ochib berishgan⁶⁴.

«O'zbekistonning moddiy va nomoddiy merosi atamalari» nomli kitobda muzey faoliyati, fond ishi, xorijiy tajriba, muzey faoliyatiga taalluqli huquqiy hujjatlar, muzey xavfsizligi, eksponatlarni saqlash

⁶¹ Ismailova J. X., Muxamedova M. S. Zamonaviy jahon muzeyshunoslik. – T.: 2013. – 305 b.

⁶² Ismailova J. X. Muзейshunoslik atamalarining izohli lug'ati. – T.: Turon zamin, 2016. – 100 b.

⁶³ Ismailova J. X., Nishanova K. S., Muxamedova M. S. Muzey va jamiyat. – T.: Chinor ENK, 2015. – 174 b.

⁶⁴ Ismailova J. X., Muxamedova M. S. Madaniy turizmning tadqiqot va targ'ibot tamoyillari. – T.:Fan, 2018. – 327 b.

tartiblari, madaniy meros obyektlari, muzeylarda hujjatlashtirish ishlari, ko'rgazmalar, auditoriya bilan ishlash kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga olgan muzey terminlari haqida ma'lumot olish mumkin⁶⁵.

O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan tarixiy-madaniy obyektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbol-lari M.Muxamedovanning tadqiqotida ko'rsatib berilgan. Shuning-dek, O'zbekistonning madaniy turizm tizimida asosiy marshrutlar faoliyati, muzey va tarixiy yodgorliklarda ekskursiya xizmatini tashkil etish, muzey-qo'riqxonalarini rivojlantirishga zamonaviy shakllarni tatbiq etish, turistik firmalar bilan hamkorlikda xorijiy davlatlarda ko'chma ko'rgazmalar faoliyatini takomillashtirish zarurligi aniqlangan⁶⁶. Xorijiy muzeyshunoslik sohasining takomillashuv omillari, milliy tashkilotlarga asos solgan yirik muzeyshunos olimlarning faoliyati, tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlar, xalqaro tashkilotlar faoliyati keng miqyosda o'rganilgan⁶⁷.

Zamonaviy muzeyshunoslikda moddiy va nomoddiy merosni saqlash masalalarini qamrab oluvchi, muzey ishining nazariy, ilmiy, huquqiy va metodik asoslari, tarixi va nazariyasi, integratsion hamda innovatsion yangilanish jihatlari yoritilgan ishlar o'rganilayotgan tadqiqotni ba'zi jihatlari to'ldirishga xizmat qiladi⁶⁸.

A.Abduroqovning Afrosiyob rang tasviri va uni muzeylashtirish muammolari yoritilgan kitobida devoriy suratlarni kimyoviy uslubda qayta tiklash amalda qo'llanilgan chora-tadbirlari ishlab chiqilgan⁶⁹.

⁶⁵ O'zbekistonning moddiy va nomoddiy merosi atamallari. – T.: Fan, 2019. 120 b.

⁶⁶ Muxamedova M. S. O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan ob'ektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr 2-yarmi – XXI asr boshlari). Monografiya. – T.: LESSON PRESS, 2020. – 140 b.

⁶⁷ Muxamedova M. Muzeyshunoslik sohasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining o'rni (XX-XXI asrlar). – T.: Yosh kuch press matbuoti, 2017. – 297 b.

⁶⁸ Zamonaviy muzeyshunoslikda moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash masalalari. Jamoaviy monografiya. – T.: Ochun, 2020. – 280 b.

⁶⁹ Абдуразаков А. А. Живопись Афрасияба и проблемы ее музеефикации. – Т.:Фан. 1994. – 136 с.

Bevosita muzeyshunoslikka oid adabiyotlardan tashqari boshqa soha olimlarining moddiy madaniy merosni o'rganish, saqlashga doir tadqiqotlari tahlil qilindi. Akademik A. Asqarov tomonidan O'zbekiston hududida arxeologik manbalar asosida birinchi bor o'rganilgan eng qadimgi shahar – Jarqo'ton yodgorligi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida Bo'stonsoy sohillarida bundan uch yarim-to'rt ming yil avval qad ko'targan noyob obidada keng ko'lamli arxeologik izlanishlar olib borildi⁷⁰. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi shaharlari turkumiga kirgan bu shahar xarobasidan shahar hukmdorining monumental shohona saroy qoldiqlari, yuksak darajada rivojlangan ko'p tarmoqli hunarmandchilik obyektlari hamda zardushtiylik dini va Avesto vatani tarkibiga O'zbekiston hududlari ham kirganligidan guvohlik beruvchi mahobatli bino – otashparastlar ibodatxonasi topilgan.

N.Xabibullayev hamda D.Qurbonovalar O'rta Osiyoga oid moddiy madaniy merosning chet davlatlariga olib chiqib ketilishi, Temuriylarga oid durdonalarning dunyo bo'ylab tarqalishi jarayonlarini tadqiq etishgan⁷¹.

O'zbekiston Milliy Arxividan moddiy madaniy merosni muhofaza qilish, saqlab qolishga doir muhim ma'lumotlar R–394 va R–2296-fond-dagi hujjatlarda to'laligicha o'z aksini topgan. Ularda har bir me'moriy obidaning saqlanishi, o'rganilishi, restavratsiya qilinishi bo'yicha ma'lumotlar mavjud⁷².

O'zbekistonda ilk muzeyshunoslik sohasiga oid maqolalar 1999-yildan o'zbek-ingliz-rus tillarida chop etila boshlangan «Moziydan sado» jurnalida o'z aksini topdi. Uning ta'sisчилari sifatida

⁷⁰ Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T.:Ma'naviyat, 2001. – 24 b.

⁷¹ Habibullaev N.N., Qurbonova D.A. Temuriylarga oid durdonalarning dunyo bo'ylab tarqalishi. – T.:Akademnashr, 2016. – 158 b.; Qurbonova D. Jahon xazinalaridagi temuriylarga oid javohirlar. – T.:Akademnashr, 2011. – 56 b.; O'sha muallif. Dunyo muzeylaridagi merosimiz. – T.:LESSON PRESS, 2017. – 164 b.

⁷² O'MA, R–394-fond, O'rta Osiyo tabiati, san'ati va qadimiy yodgorliklarini muhofaza qilish va muzey ishlari qo'mitasi. O'MA, R–2773-fond, 526-yig'ma jild, 1891-2000 yy.; Masson M. O'MA, R–2773-fond, 1466-yig'ma jild, 1873-1987 yy.; Rempel' L. O'MA, R–2793-fond, 167-yig'ma jild, 1920-1989 yy.; Chabrov G. O'MA, R–2681-fond, 1097-yig'ma jild, 1939-1985 yy.; Man'kovskaya L. O'MA, R-2810-fond, 416-yig'ma jild, 1925-1988 yy.; Betger E. O'MA, R–2412-fond, 567-yig'ma jild, 1862-1987 yy.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Matbuot va axborot agentligi belgilandi⁷³.

1990-yillardan keyingi davrda ham olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, ularning ishlarida muzeyshunoslikning dolzarb masalalari, bolalar muzeylari, muzey pedagogikasi, marketingi va menejmentining nazariy jihatlarini, O'zbekiston muzeylari tarixi bilan bir qatorda jahon muzeylari faoliyati, muzeylarda ish yuritish uslublariga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, nashr etilgan adabiyotlarda O'zbekistonda moddiy madaniy merosni o'rganish, targ'ib etish va saqlash, muzeylashtirish masalalari bir-birini to'ldirgan holda, izchillikda, ilmiy tahlillar asosida nazariy jihatdan tizimli yoritilgan.

To'rtinchi guruhga kiruvchi xorijda nashr etilgan adabiyotlardan muammoning qiyosiy tahlili uchun hamda Rossiya va Yevropa muzeylarining tarixi, muzey ishi, moddiy madaniy merosning saqlanishi, muzeylashtirish va boshqa nazariy hamda amaliy masalalarga oid ma'lumotlarni aniqlashtirishda foydalanildi. Jumladan, Yu.M.Lotman va B.A.Uspenskiylar madaniyatning semiotik mexanizmlarining xususiyatlari, A.M.Razgon muzeyshunoslik sohasi, A.Gregorova muzey ishidagi muamolar, M.S.Kagan va N.R.Knyazevalar madaniyat sistemasida muzeylarning roli, T.Yu.Yurenyeva muzeylarning jahon madaniyatida tutgan o'rni, A.A.Sundiyeva, O.S.Sapanja, P.X.Lorente, I.G.Svichkar, A.S.Sokolova kabilarning ilmiy tadqiqotlarida esa, muzeyshunoslikning asosiy muammolari, moddiy madaniy merosni o'rganishning nazariy-metodologik jihatlarini o'z aksini topgan⁷⁴. O'zbekistonda moddiy madaniy meros

⁷³ Muxamedova M.S. Muzeyshunoslik sohasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining o'rni (XX-XXI asrlar). – T.: «Yosh kuch press matbuoti» MChJ, 2017. – B. 170-176.

⁷⁴ Lotman Yu.M., Uspenskiy B.A. O semioticheskom mexanizme kul'tury // Uchenye zapiski Tartuskiy universiteta. – Tartu, 1971. Vyp. 284. – S. 146-166; Razgon A. M. Obshcheteoreticheskiye voprosy muzeeyvedeniya v nauchnoy literaturnye sotsialisticheskikh stran. // Muzeynoye delo i ohrana pamyatnikov: obzor, informatsiya. – M.: Gos. b-ka SSSR. – M., 1984. – S. 56; Pamyatnikovovedeniye. Teoriya. Metodologiya praktika: sbornik nauchnykh trudov / NII kul'tury; [red.-sost. P. V. Boyarskiy]. – M.: NIIK, 1986. – 141 s.; Gregorova A. K osnovnym problemam muzeeyvedeniya // Muzeeyvedeniye. Muzei mira. – M.: 1991. – S. 33; Kagan M. S. Muzei v sisteme kul'tury // Voprosy iskusstvovoznaniya. 1994. № 4. – S. 445-460; Knyazeva N.P. Informatsionnoye obshchestvo i sfera kul'tury // Ekologiya kul'tury Informatsionnyy

muhofazasining nazariy-metodologik asoslarini muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishiga oid adabiyotlar bugungi kunda yo'qligi bois, aynan yuqoridagi mualliflarning ishi tahlil qilindi.

V.I.Fedorov, M.I.Garber, M.A.Reutova, V.P.Alekseyev, M.Ye. Kaulen, M.Ye.Kuleshova, N.S.Nikolayeva, E.A.Shulepova, P.Ye. Sorokin A.N.Medved, A.I.Martinov, L.M.Shlyaxina kabi olimlarning tadqiqotlarida arxeologik yodgorliklarning restavratsiyasi va konservatsiyasi, muzeylashtirish metodlarining nazariy va amaliy aspektlari kompleks tahlil qilingan bo'lsa-da, obyektlarni muzeylashtirishga oid loyihalar haqida tahliliy va solishtirma ma'lumotlar berilmagan⁷⁵.

бюллетень. № 1 (21). – Архангельск: 2001. – С.173; Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А. А. – М.: Изд-во «ВК», 2003. – 615 с.; О современном состоянии методологии в музееведении /музеологии/ Сапанжа О. С. Методология теоретического музееведения. СПб, 2008; Юрьева Т. Ю. Музеи в мировой культуре. – М.: Русское слово, 2003. – 435 с.; Сундиева А. А. Музейная профессия сегодня // Вестник РГГУ. Серия «Культурология. Искусствоведение. Музеология». 2007. – № 10. – С. 33–41; Сапанжа О. С. Технология и методология в современном музееведении: к вопросу о методе науки // Известия Российского Государственного педагогического университета им. А. И. Герцена: Izvestia: Herzen University Journal of Humanities & Sciences. 2009. – № 117, Научный журнал. – С. 335-340.; Лоренте П. Х. Развитие музеологии как университетской дисциплины: от технической подготовки к критической музеологии // Вопросы музеологии. 2011. – № 2 (4). – С. 45–64.; Свичкар И. Г. Теоретико-методологические основы сохранения историко-культурного наследия // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. – № 12 (303). История. Вып. 55. – С. 92–93; Соколова А.С. Методологические проблемы исследования культурного наследия //Рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 4(130) 2013. – С. 221.

⁷⁵ Федоров В. И. Современные задачи консервации архитектурно-археологических памятников. – М.: Знание, 1969. Вып. 4. – С. 7-13.; Гарбер М. И. Из опыта музеефикации памятников археологии за рубежом. // Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры: [Сб. статей. / Научный редактор и составитель Э.А.Шулепова] – М.: НИИ культуры, 1982. – С. 115.; Реутова М. А. Реакция урбанобразования в составе лесовых композитов, и разработка методов консервации археологических объектов // Автореферат канд. дисс. – М.: 1989.; Алексеев В. П. Музееведение, музеефикация, культура // Вестник музейной комиссии. – М.: 1990. – С. 13. Каулен М. Е. Музей-заповедник как единый экспозиционный комплекс // На пути к музею XXI в. Музеи-заповедники: сб. ст. – М.: НИИК, 1991. – С. 173; Кулешова М.Е. Формы охраны территорий природного и культурного наследия в США и России // Охрана наследия за рубежом: Опыт прошлого и современные проблемы. РНИИ культурного и природного наследия. (Сост. Е. В. Андреева, отв. ред. Р. А. Мнацаканян). – М.: 1994. – С. 70; Николаева Н. С. Особенности музеефикации археологических памятников / Н. С. Николаева // Музей в современной культуре: сб. ст. – СПб: Изд-во СПбГБГК, 1997. – С. 205-211; Шулепова Э. А. Музеефикация памятников как механизм использования культурного наследия в регионе: дисс. ... докт. Культурологи. – М.: 1998. – С. 56.; Сорокин П. Е. Археологическое наследие Санкт-Петербурга // Культурное

Muzeydagi turli ashyolarini tadqiq etish, ularning xususiyatlari-dan kelib chiqqan holda saqlash uchun optimal sharoit yaratish masalalari N.Gerasimov, T.N.Gromina, A.K.Yelkina, T.N.Gromina, I.I.Pimik, I.I.Mukin, L.V.Pileskayalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁷⁶. Lekin, muzeydagi predmetlarni kimyoviy va fizikaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda saqlash tartibiga oid fundamental tadqiqot mavjud emas. Bu bo'yicha barcha ma'lumotlar muzey ishiga oid adabiyotlarda tarqoq holda berilgan. Chet davlatlarida nashr etilgan adabiyotlardan muzeologiya fani rivoji, muzey ishi, muzeylar tarixiga doir ma'lumotlar tahlil qilindi. E.P.Aleksandr muzeylarning asosiy funksiyalari⁷⁷, Dj.D.Akuilina muzeologiya va muzeografiya⁷⁸, T.Bennet muzey tarixi, nazariyasi va siyosati⁷⁹ haqidagi adabiyotlari shular jumlasidandir. Shuningdek, arxeologiya yodgorliklarida qazilma ishlarini olib borish, obyektlarni o'rganish va saqlashga doir izlanishlar S.Axrens, Bedford, M.Fleri, V.Krutalar tomonidan olib borilgan⁸⁰. Muzeylarda pro-

наследие Российского государства. Прошлое и современность. Ученые и политики об историческом и культурном достоянии: сб. ст. – СПб.: Вести, 2000. Вып. 2. – С. 138-144; Мартынов А. И. Сохранение и использование археологического наследия России – проблема национальная // Сохранение и изучение культурного наследия Алтайского края. – Барнаул: Азбука, 2001. – Вып. XII. – С. 13-22; Медведь А. Н. Музеефикация памятников археологии: монография – М.: ГНОМ и Д, 2004. – С. 47; Шляхтина Л. М. Основы музейного дела: теория и практика. Учеб. пособие. – 2-е изд. стер. – М.: Высш. шк., 2009. – С. 99.

⁷⁶ Герасимов Н. Консервация мокрого археологического дерева полиэтиленгликолями // Художественное наследие. Хранение, исследование, реставрация. – М.: 1975. – С. 88; Громина Т. Н., Елкина А. К. Методика удаления загрязнений с музейного текстиля органическим растворителем перхлорэтиленом // Художественное наследие. – № 5(35). – М.: 1979. – С. 95-111.; Громина Т. Н. Исследования и реставрация этнографического текстиля // Исследование, консервация и реставрация этнографических предметов. Науч. семинар. Тезисы докладов. – Рига: 1987. – С.120-123.; Пищик И. И. Датирование древесины длительной выдержки неразрушающими методами: дисс. ... д-ра техн. наук. – М.: МГУИ, 2005; Мукин И. И. Музейная реставрация мебели. – М.: 2009. – С.74; Пилецкая Л. В. Музейное хранение станковой живописи. Учебно-методическое пособие. – Томск: Издательский Дом Томского государственного университета, 2018. – С. 10.

⁷⁷ Alexander E.P. Museums in Motion. An Introduction to the History and Function of Museums. Nashville: American Association for State and Local History, 1979. – 132 p.

⁷⁸ Aquilina J. D. The Babelian Tale of Museology and Museography: A History in Words // Museology. International Scientific Electronic Journal. 2011. №3. – P.32.

⁷⁹ Bennet T. The Birth of the Museum: History, Theory, Politics. -London: Rout ledge, 1995. – 350 p.

⁸⁰ Ahrens C. Wiederaufgebaute Vorzeit. 1990. Archäologische Freilichtmuseen in Europa. 1990. – 200 p.; Bedford. Pavilion for Roman excavations, «Wood», 1963, vol. 28, № 5. – P. 192-94.; Fleury M., Kruta V. La crypte arceologique du parvis Notre Dam. Paris, 1990; [https://commons.wikimedia.org/wiki/File:La_crypte_archéologique_du_Parvis_de_Notre-ame_\(Paris\)_8274683584.jpg](https://commons.wikimedia.org/wiki/File:La_crypte_archéologique_du_Parvis_de_Notre-ame_(Paris)_8274683584.jpg).

fessional tarzda ish yurgizish metodlari, muzey kommunikatsiyasi, menejmenti, marketingi va pedagogikasini rivojlantirish xususida D.Mariner, L.Mayer, L.Tizer, D.Kameron, Uiltlinlarning olib borgan tadqiqotlari ham diqqatga sazovordir⁸¹.

Shuningdek, O'zbekiston hududida ilmiy izlanishlar olib borgan germaniyalik olimlardan Dj. Gyorsdorf va D. Xafflarning Sherobod tumanidagi Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishmalardagi topilmalarning sanasini aniqlash, saqlash bo'yicha tadqiqot ishlari ham o'rganildi⁸². Yuqoridagi tadqiqotlarning O'zbekiston muzeylarida foydalanilishi mumkin bo'lgan amaliy jihatlariga alohida e'tibor berildi.

Muzeyshunoslikni davrlashtirish, turlicha rivojlanish bosqichlari xususida qarashlar mavjud. 1980-yillarning boshlarida Chex muzeyshunosi Zbinek Stranskiy muzeologiya taraqiy etish jarayonlarini davrlashtirgan⁸³. U muzeylashtirish nazariyasi rivojida uch bosqichni e'tirof etdi: ilmiylikkacha bo'lgan davr, empirik-tasvirlash (hissiy tasvirlash) va nazariya-tahlil bosqichlari. Ilmiylikkacha bo'lgan muzeyshunoslik bosqichi Renessans davridan boshlanadi. Bu davrda ilk mukammal kataloglar va xususiy kolleksiyalarning yo'l ko'rsatkichlari paydo bo'lgan. Dunyodagi birinchi muzey va kolleksiyalarga bag'ishlangan davriy nashrlar esa Drezdenda (Saksoniya) paydo bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz. Jurnalning nomi «Muzeologiya va qadimshunoslik» bo'lib, uning asoschisi mashhur nemis filolog va tarixchisi Georg Teodor fon Grasse bo'lgan⁸⁴. Uning sahifalarida muzeylarda yig'ilgan osori-

[org/wiki/File: La crypte archéologique du Parvis de Notre-ame \(Paris\) \(8274683584\).jpg](https://commons.wikimedia.org/wiki/File:La_crypte_archéologique_du_Parvis_de_Notre-ame_(Paris)_8274683584.jpg).

⁸¹ Mariner D. Professionalizing the Museum Worker // Museum News. 1974. № 50. – P. 14–20.; Meijer-Mensch. L. New challenges, new priorities: analyzing ethical dilemmas from a stakeholder's perspective in the Netherlands // Museum Management and Curatorship. 2011. Vol. 26. № 2. – P. 113–128.; Teather L. The Museum Keepers. The Museums Association and the Growth of Museum Professionalism // Museum Management and Curatorship. 1990. Vol. 9. № 1. – P. 25–41.; Wiltlin A.S. Museums: In Search of a usable Future. Cambridge. Massachusetts – London, 1970. – 204 p.; Cameron.D.A Viewpoint the museums as a communication system and implications for museum education // Curator, 1968. - № 1. – v.11.

⁸² Görsdorf J., Huff D. C/14-Datierungen von Materialien aus der Grabung Džarkutan, Uzbekistan // AMIT. Band 33. – Berlin: 2001 – P. 75-87.

⁸³ Лоренте П. Х. Развитие музеологии как университетской дисциплины: от технической подготовки к критической музеологии // Вопросы музеологии. 2011. – № 2 (4). – С. 45–64.

⁸⁴ Meijer-Mensch van. L. New challenges, new priorities: analyzing ethical dilemmas from a

atiqalarga aloqador masalalar, muzey kolleksiyalari ommalashtirilgan. «Umumiy muzeologiya va unga turdosh fanlar» deb nom olgan jurnal tez orada «Muzeologiya va qadimshunoslik, unga tengdosh, turdosh fanlar» deb atala boshlangan⁸⁵. 1890-1893-yillarda Fransiya «Muzeylar byulleteni: Oylik jurnal» («Bulletin des musées: Revue mensuelle publiée nationale») nashr qilinib turildi. Jurnalga Lyuksemburg muzeyi direktori va san'atshunos Leons Benedit (1856-1925) va dekorativ amaliy san'at ustasi Eduard Garnyelor (1840-1903) tomonidan asos solindi⁸⁶. Jurnal Mumtoz san'at direksiyasi va Milliy muzeylar direksiyasi – Fransiyaning butun badiiy san'ati, muzey sohasi markaziy davlat organlari rahbariyati hamkorligida nashr etib turildi. Keyinchalik barcha muzey tashkilotlari (milliy va xalqaro) ning davriy nashrlarining paydo bo'lishiga zamin yaratildi. 1901-yilda Muzeylar assotsiatsiyasi o'zining shaxsiy oylik «Muzey jurnali»ni chop eta boshladi («Museums Journal»). Bu jurnal bugungi kungacha faoliyat yuritib keladi. 1905-yilda Drezdenda yana bir «Muzey ishi. Ommaviy va xususiy yig'ilmalarni boshqarish texnikasi» deb nomlangan professional jurnal chop etila boshlandi. Muzeylar Xalqaro Byurosining ham xususiy davriy nashri bo'lib, u «Museyon: Muzeografiyaning xalqaro sharhi» («Mouseion. Revue internationale de Museographie») nomi bilan 1927-yildan 1946-yilgacha chiqib turgan. Undagi maqolalar asosan fransuz tilida chop etilib, ba'zi sahifalarida ingliz tilidagi maqolalar nashr qilingan⁸⁷. Bu nashrlardagi asosiy e'tibor muzey ishining amaliy jihatlariga, yangi ko'rgazmalar, muzey predmetlarining atributsiyasiga qaratildi. 1960-yillardan boshlab muzeologiya nazariyasining tarqalishi shu sohaning rivojlanishiga turtki bo'ldi. 1958-yildan boshlab, «Muzey ishi» («Museumskunde») jurnalining zamonaviy ko'rinishlari Berlinda nashr ettirila boshlangan va nom-

stakeholder's perspective in the Netherlands // Museum Management and Curatorship. 2011. Vol. 26. № 2. – P. 113-128.

⁸⁵ Mariner D. Professionalizing the Museum Worker // Museum News. 1974. № 50. – P. 14–20.

⁸⁶ Лоренте П. Х. Развитие музеелогии как университетской дисциплины: от технической подготовки к критической музеелогии // Вопросы музеелогии. 2011. – № 2 (4). – С. 45–64.

⁸⁷ Teather L. The Museum Keepers. The Museums Association and the Growth of Museum Professionalism // Museum Management and Curatorship. 1990. Vol. 9. № 1. – P. 25–41.

lanishi «Yangi muzey ishi» («Neue Musemskunde») sifatida o'zgartirilgan. O'shandayoq Amerikada «Kurator: Muzey jurnali»ga («Curator: The Museum Journal») asos solindi. 1953-yilda A.Bauer tashabbusi bilan Zagrebda «Muzeologiya» («Museologija») jurnali, 1970-yildan esa «Informatisa Museologija» jurnali chop etila boshladi. 1982-yildan har chorakda «Muzey menejmenti va kuratorlik ishi xalqaro jurnali» chop etila boshlangan. 1990-yilda jurnal «Muzey menejmenti va kuratorlik ishi» deb o'zgartirdi va («Museum Management and Curatorship») bugungi kunda eng mashhur xalqaro nashr sifatida muzey ishining amaliyoti va nazariyasiga oid tadqiqotlarni e'lon qilib boradi. XX-XXI asrlar davomida bir qator professional yangi davriy nashrlar vujudga keldi. Ularning aksariyati o'quv markazlari, universitetlarda tashkil qilinib, shu yerning o'zida muzeologiya bo'yicha o'quv dasturlari turli darajalarda faol rivojlangan⁸⁸. Lester universitetining muzey tadqiqotlari maktabi 2003-yildan «Muzey va jamiyat» («Museum and society»), Rio-de Janeyro universiteti 2008-yildan «Muzeologiya va meros» («Pevista museologia e Patrimonio»), Sankt-Peterburg davlat universiteti 2010-yildan «Muzeologiya masalalari» («The problems of Museology») jurnallarini tashkil etishi bunga yaqqol misoldir⁸⁹. XX asrda muzey davriy nashriyoti ancha faol rivojlandi. Nashrlarning asosiy mazmuni muzeyshunoslik ilmining alohida sohasi, tarmog'i sifatida rivojlantirish zaruriyatiga qaratildi.

Rossiyada XX asr boshlarida muzey dunyosini butunlay qamrab olgan jurnal yo'q edi. Birinchi Butun Rossiya muzeylarining syezdi yakunlariga ko'ra 1930-yildan «Sovet muzeyi» («Sovetskiy muzey») jurnali nashr qilina boshlandi⁹⁰. Bu jarayon 1989-yilgacha davom etgan. 1989-yil oxirlariga kelib ushbu jurnal «Mir muzeya» nomi bilan nashr etila boshlandi.

⁸⁸ Сундиева А. А. Музейная профессия сегодня // Вестник РГГУ. Серия «Культурология. Искусствоведение. Музеология». 2007. № 10. – С. 33–41.

⁸⁹ Aquilina J. D. The Babelian Tale of Museology and Museography: A History in Words // Museology. International Scientific Electronic Journal. 2011. №3. – P.32.

⁹⁰ Разгон А. М. Общетеоретические вопросы музееведения в научной литературе социалистических стран. //Музейное дело и охрана памятников: обзор, информация. – М., 1984. – С.34-44.

Xulosa qilib aytganda, mavzu tarixshunosligi tahliliga ko'ra, O'zbekiston moddiy madaniy merosini tarixi, shakllanishi, tasniflashi, o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlil etildi. Unda, XIX asrning ikkinchi yarmidan to bugungi kungacha bo'lgan davrlarda moddiy madaniy merosning o'rganilishi va yodgorliklarning saqlanishiga oid masalalar ham muammoviy ham xronologik jihatidan o'rganilib, muzey ishi va ularning shakllanishi qiyosiy tahlil qilindi. O'rta Osiyo xalqlari madaniy merosining o'rganilish tarixi va shular asosida ilk muzeylarning shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlar arxiv hujjatlari hamda ilmiy tarixiy manbalar asosida ochib berildi. O'zbekistonda 1917-80-yillarda muzeylar va moddiy madaniy merosining o'rganilishi hamda saqlanishiga doir muammolar tadqiq etildi. Sovet davrida moddiy madaniy merosni o'rganishning nazariy asoslari tahlil qilindi.

Tadqiq etilgan ilmiy adabiyotlarda moddiy madaniy merosga munosabat masalalari, ularni o'rganish, saqlash va targ'ib qilishning huquqiy, nazariy-metodologik jihatlarini yoritishda kommunistik mafkura ta'siri aks etganligini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Bu davr adabiyotlarini tahlil etish asosida quyidagi holatlar aniqlandi: mavzuning o'rganilish darajasiga ko'ra, tadqiqotlarda globallashtirish sharoitida madaniy meros milliy o'ziga xoslikni belgilaydigan va global geomadaniyatning shakllanishi va rivojlanishi nuqtayi nazaridan xalqaro darajada davlatning raqobatdosh mavqeiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan muhim strategik milliy resurs maqomiga ega ekanligi e'tirof etildi; yodgorliklarga doir xorijiy va mahalliy tadqiqotlar moddiylik, antropogenlik, ko'chmas mulk, hissiy ta'sir, tarixiy, estetik va texnologik manbalar xususiyatlariga ega bo'lib, ular odamlarning bilim va ijtimoiy ongini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ko'rsatib berildi; bo'lim qamrovida o'rganilgan arxitektor, san'atshunos va muzeyshunoslik sohalariga doir tadqiqotlarda umumiy asosda moddiy madaniy merosning xususiyatlari va belgilarini o'rganish natijasida ularning o'ziga xosligi ilmiy asoslanib, ijtimoiy funksiyalari aniqlandi hamda «tarix va moddiy madaniy yodgorlik» tushunchasining zamonaviy ilmiy yodgorliklarning nomlanishiga mos keladigan yangi to'liq ilmiy izohi berildi.

Bu davrda moddiy madaniy meros va muzey ishini o'rganishga oid tadqiqotlarga o'z mohiyati hamda mazmuniga ko'ra, davr mafkurasi nuqtayi nazaridan yondashilganligi bilan xarakterlansa-da, O'zbekistondagi tarixiy-madaniy yodgorliklar, ashyolar ilmiy jihatdan tarixchi, san'atshunos, muzeyshunos kabi turli soha olimlari tomonidan tizimli o'rganilib, ilm-fanda muhim ahamiyat kasb etuvchi adabiyotlar yaratildi.

XXI asr boshlarida nashr etilgan tadqiqotlar tahlilida esa O'zbekistonda moddiy madaniy merosni o'rganish, targ'ib etish va saqlash masalalari tadqiqiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, bu yillarda ham muzeyshunos, san'atshunos, tarixchilar tomonidan moddiy madaniy meros masalasiga oid ma'lumotlar osori-atiqalar hamda obyektlar nuqtayi nazaridan tadqiq etildi⁹¹. Jumladan, O'zbekiston muzeylari, xususan, Buxoro muzey qo'riqxonasi faoliyatini takomillashtirish, jahon muzeylarida saqlanayotgan O'zbekistonga oid moddiy madaniy merosga munosabat, moddiy madaniy yodgorliklar arxeologiyasi, yodgorliklarning davlatchilikni tiklanishidagi ahamiyati kabi jihatlar o'rganilgan. Mavzuga oid bir qator maqolalar hamda ilmiy tadqiqot ishlari bajarilganini ta'kidlash lozim. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash, muzeylashtirish masalalarining nazariy jihatlarini to'liq ifoda etmagan. Moddiy madaniy merosning turlari va qamrovini aniqlash hamda tasniflash, ularni saqlash, targ'ib etish borasidagi o'tmish va jahon tajribasi hamda yutuqlarini tahlil etish, muzeylarning tarixiy va amaliy ahamiyatini ochib berish borasida respublikada amalga oshirilayotgan ishlar tadqiqotlarda, ilmiy adabiyotlarda o'zining to'liq aksini topgani yo'qligini ta'kidlash joiz. Xususan, tadqiqotda qo'yilgan davrda moddiy madaniy merosning o'rganilishi, saqlanishi hamda muzeylashtirilishining nazariy-metodologik asoslari, O'zbekiston muzeylarining mustaqillik davrida-

⁹¹ Ртвеладзе Э. Историческое прошлое Узбекистана. – Т.:2006. –198 с.; Акилова К. Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана XX века: проблемы развития. Дисс. на соискание ученой степени доктора искусствоведения. – Т, 2002; Ахмедова Н. Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Т, 2004. 224 с.; Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Т.:San'at, 2010. – 504 с.

gi faoliyati, taraqqiyoti va rivojlanish istiqbollariga bag'ishlangan umumlashtiruvchi fundamental ishlar yetarli emasligi aniqlandi.

Yuqoridagi adabiyotlar, manbalar va hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston moddiy madaniy merosi o'zining nufuzligi bo'yicha dunyoning eng boy davlatlaridan biri hisoblanadi. Respublikaning ming yillik tarixini aks ettiruvchi yuzlab yodgorliklar, xalqaro tarixiy ahamiyatlilikni o'zida ifoda etadi. Ularni o'rganish, muzeylashtirish va muhofaza qilish – davlat hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim vazifadir.

O'zbekiston moddiy madaniy merosini saqlash va muhofaza qilish tarixiga doir mulohazalar

Har qanday xalqning va mamlakatning madaniy merosi madaniy tizimning uzluksizligi, ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligi etnik-madaniy, diniy, milliy shakllarning potensialini to'plash hamda faollashtirishning eng muhim shaklidir. U odamlarning tarixiy ongini egallaydi, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi va takomillashuviga hissa qo'shadi⁹².

Rossiya imperiyasi mustamlakachilari 1867-yildan to 1876-yilga qadar Turkistonning moddiy madaniy merosiga oid turli hujjat, qo'lyozma, kitob va boshqalarni to'plashgan. General-gubernator K.P.Fon Kaufman buyrug'iga binoan xalifa Usmon Mushafi sharqshunos A.L.Kun tomonidan Peterburg ommaviy kutubxonasiga jo'natilgan. Buxoro amirligining Shahrisabz va Kitob beklaridan Rus harbiy ekspeditsiyasi qatnashchilari 97 ta qadimiy qo'lyozmani olib ketgan⁹³. Ularning Xivaga 1873-yildagi yurishida A.L.Kun (1840-1888)ning ilmiy ahamiyatga molik barcha narsalarni sinchiklab tekshirish hamda to'plash jarayonida 300 ga yaqin qo'lyozma-kitoblar xon kutubxonasidan tashib ketilgan. Xususan, Xiva xonlarining tanga pul zarb qiladigan 200 nusxa qolipi, xonning

⁹² Соколова А. С. Методологические проблемы исследования культурного наследия // Рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 4(130) 2013. – С. 221).

⁹³ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – T.:Fan, 1981. – B. 33-34; Tarix shohidligi va saboqlari / Mas'ul muharrir D.A.Alimova. – T.:Sharq, 2001. – B. 353-401.

taxti, bir qancha muhr, 172 nusxa turli tangalar, ko'plab etnografik buyumlar to'planib, 1874-yilda Rossiyaga jo'natilgan⁹⁴. Talangan nodir, noyob ashyolarning katta qismi Rossiya Davlat Ermitaji, Etnografiya muzeylarining fondlaridan o'rin olgan⁹⁵. 1875-1876-yillarda Qo'qon xonligidan tibbiy, tarixiy, diniy kabi ilmlarga oid 130 ga yaqin qo'lyozma musodara qilinib, dastlab Turkiston xalq kutubxonasi, so'ng Rossiya imperator Xalq kutubxonasiga topshirilgan⁹⁶.

O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlarida 1878-yil 27-oktyabrda Turkiston General-gubernatoriga yuborilgan tashakkurnomada, Kavkaz noibi boshqarmasi Toshkentdan yuborilgan yetti yashik etnografik buyumlarning Tiflis muzeyiga berilgani haqidagi ma'lumotlar mavjud⁹⁷. Shu tariqa tartibli va uyushgan holda, O'rta Osiyoning bosib olinishi davomida moddiy madaniy meros boyliklarini tashib ketish yo'lga qo'yilgan. Bu jarayon rasmiy tarzda amalga oshirilgan bo'lib, XIX asrning 80-yillarigacha O'rta Osiyo bo'ylab qilingan arxeologik izlanishlar tasodifiy, havaskorlik xarakteriga ega bo'lgan, keyinchalik ilmiy jamiyatlar, to'garaklar tashkil etilib, unda rus olimlari bilan birgalikda mahalliy aholi bilan faoliyat olib borib topilmalardagi yozuv va ramzlarni o'qish, ashyolarni aniqlashda yaqindan yordam berganlar. Rus olimlarining turli kolleksiyalar to'plash faoliyati bir tomondan Rossiyadagi kutubxona, muzey va galereya zaxiralarini boyitishga qaratilgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan mahalliy muzeylar tashkil etish orqali o'lka tarixiy-madaniy merosini saqlab qolishga ko'maklashdi. Ye.F.Kal tomonidan mahalliy kutubxonada saqlanayotgan arab, fors va turkiy qo'lyozmalar tavsifi 1883-yilda nashr etilib, keng jamoatchilikni o'ziga jalb qildi. Dukchi Eshon tomonidan 1898-yili, Muhammad Alidan musodara qilingan asarlar bilan kutubxona

⁹⁴ Лунин Б. В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.:Фан, 1966. – С. 114-120.

⁹⁵ Tarix shohidligi va saboqlari / Mas'ul muharrir D. A. Alimova. – T.:Sharq, 2001. – B. 353-401.

⁹⁶ Чабров Г. Н. Накопление сокровищ и культурных ценностей в государствах Средней Азии с древнейших времен до падения феодальных деспотий //Рукопись. Научный архив Государственного музея истории Узбекистана. 1957–1963. – 126 с.

⁹⁷ О'МА, I-1-fond, 19-ro'yhat, 428-ish, 23-varaq.

boyitildi⁹⁸. 1912-yili tasavvuf ilmi, islom tarixiga doir 194 ta qo'lyozma ham keltirilib, jami kutubxona katalogiga 311 ta kitob kiritilgani A.A.Semyonov tomonidan qayd etilgan⁹⁹. V.V.Bartold, ma'murlar tomonidan «O'rta Osiyo xalqlari qadimgi madaniyatini o'rganish, yodgorliklarni asrashni foydasizgina emas, balki zararli hamdir» – deb hisoblanganligini ta'kidlaydi¹⁰⁰. Bu munosabat chet davlatlardan kelgan shaxslar, mahalliy noyob buyumlar to'plovchilari tomonidan yodgorliklarning talanishiga olib kelgan. Jumladan, mustamlaka ma'murlarining loqaydligi tufayli, Sh.Uiyfalfi rahbarligidagi fransuz ilmiy ekspeditsiyasi tomonidan Samarqand tarixiy yodgorliklarining koshin bezaklari, G.Vamberi, V.Frank, G.Mozer va boshqalar tomonidan qimmatbaho buyum, nodir qo'lyozmalar Yevropa mamlakatlariga tashib ketilgan. Shu o'rinda O'rta Osiyoga mutaxassislar kelishining ijobiy jihatlari bo'lganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Masalan, shvetsiyalik me'mor Martin, Samarqand me'moriy obidalaridan zavqlanib, Rossiya moliya vaziriga me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va o'rganishni taklif etib xat yozgan. Shuning uchun 1895-yili ma'lum mablag' ajratilib, o'lchash, chizmalar chizish, tadqiqot ishlari boshlanadi¹⁰¹. Lekin, «Go'ri Amir» foto albomi nashr etilishidan so'ng, obidalarga bo'lgan e'tibor pasayadi¹⁰². Bu davrda ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati shu hududning moddiy madaniy merosini o'rganish, ratsional ulardan foydalanishga qaratiladi. Olimlar tomonidan O'rta Osiyoda zamonaviy ilmiy fanlarga asos solinadi¹⁰³. 1895-yili Tosh-

⁹⁸ Зиёдов Ш., Муминов А. Библиотека Дукчи Ишана. В «Манокиб-и Дукчи Ишан» (Аноним жития Дукчи Ишана—предводителя Андижанского восстания 1898 г.) Перевод с турц, введение и комментарии Б.М.Бабаджанова. – Ташкент–Берн–Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С. 344-385.

⁹⁹ Семенов А.А. Государственная публичная библиотека и фонды восточных рукописей Узбекистана // Альманах «Литературный Ташкент». 1945. – С. 112-115; Ўша муаллиф. Среднеазиатские рукописные фонды и важность их изучения // Материалы первой Всесоюзной Научной конференции Востоковедов в г. Ташкенте. – Т.:1958. – С. 915.

¹⁰⁰ Бартольд В.В. Задачи русского востоковедения в Туркестане. Сочинения. – Т.:IX. 1976. – С. 522-533.

¹⁰¹ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – Т.: Fan, 1981. – В. 36.

¹⁰² O'MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 143-ish, 19-varaq.

¹⁰³ Лунин Б. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.:Фан, 1966. – С. 122.

kent shahrida V.V.Bartold Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi ya'ni, O'rta Osiyoning birinchi sharqshunoslik ilmiy markazini barpo qiladi. Markaz Turkiston o'lkasi hududidagi qadimiy yodgorliklar bilan tanishish, ularni o'lka arxeologik xaritasiga kiritish, arxeologik yodgorliklarni saqlash, ularni tadqiq etish maqsadida qazuv ishlarini olib borish, nashr uchun mahalliy arxeologik materiallarni qayta ishlash bo'yicha faoliyat olib boradi¹⁰⁴. Havaskorlar to'garagi a'zolari nafaqat arxeologiya, balki, O'rta Osiyo moddiy madaniy merosiga oid ham ish olib borishib, o'lka tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, shu hududda yashovchi xalqlarning tilini ham har tomonlama o'rganadilar¹⁰⁵. 1896-yilda to'garak a'zolarining soni 47 ta bo'lsa, yil oxiriga kelib 100 tadan oshib ketadi. Mazkur to'garak a'zolari O'rta Osiyoning madaniy merosi, jumladan, arxeologiya, etnografiya, geografiya, Turkiston hamda uning atrofidagi xalqlarning tilini o'rganish, tavsiflash, saqlash ishlari bilan shug'ullanib, bevosita O'rta Osiyo tarixshunosligiga asos solganlar hamda XIX asrning oxirida «O'rta Osiyo» nomli ilmiy-adabiy to'plam va «O'rta Osiyo xabarnomasi» jurnalini chop etganlar¹⁰⁶. To'garakning har bir a'zosi lingvist, etnograf, geograf, numizmat, arxeolog, tarixchilardan iborat bo'lib, uning nizomiga ko'ra, Turkiston o'lkasi hamda uning atrofida mavjud bo'lgan qadimiylik yodgorliklari bilan tanishish, tavsiflash, o'lkaning arxeologik xaritasini yaratish, arxeologiya yodgorliklarini saqlash, topilmalarga ishlov berish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boradilar.

1895-yilning 11-dekabriga kelib, to'garak a'zolari va homiylarining yig'ilish bayonnomasida Graf N.Ya.Rostovsevdan yer usti va osti yodgorliklar hamda topilmalarni saqlashga moddiy yordam berishni so'rashgan hamda Samarqand-Andijon temir yo'l qurilishi boshlig'i injener A.N.Rudnevdan qurilish jarayonida topilgan

¹⁰⁴ O'MA, I-71-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 2-5-varaqlar.

¹⁰⁵ Лунин Б. В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917 гг.) – Т.: Изд-во АН Узбекистана, 1958. – 320 с; Германов В. А. Туркестанский кружок любителей археологии: примат науки или геополитики? // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. – №1. (143). – Нукус. 1996. – С. 90-93.

¹⁰⁶ Открытие Туркестанского кружка любителей археологии 11 декабря 1895 г. – Т.: Типо-литография бр. Порцевых. 1895. – 16 с.

arxeologik buyumlarni saqlab turishni iltimos qilishgan¹⁰⁷. Birinchi arxeologik ekspeditsiyadan so'ng V.V.Bartold Turkiston havaskor arxeologlar to'garagining konsepsiyasini ishlab chiqqan edi. Unga ko'ra qilinadigan to'plovchilik, tadqiqot kabi ishlar soha mutaxassislariga bo'lib beriladi. Masalan, mahalliy arxeologiya havaskorlari o'zida arxeologik va arxeografik tarixiy yodgorliklarini mujassamlashtirgan tarixiy materiallarni to'plash bilan shug'ullangan bo'lsa, poytaxtdagi tarixchilar, ilm-fanning eng ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda ularni tahlil qilib, umumiy xulosalar chiqargan. Shuningdek, kitoblar orqali o'rganilishi lozim bo'lgan topilmalar poytaxtda tadqiq etilib, kundalik hayot bilan tanishuv natijasida to'planadigan ma'lumotlar joylarda aniqlangan. Baron A.B.Vrevskiyning fikricha, mazkur to'garak a'zolarining asosiy vazifasi Turkiston va uning atrofidagi mamlakatlarning xususan, O'rta Osiyoning o'tmish tarixini daliliy ashyolar orqali ilmiy jihatdan tadqiq etishdan iborat bo'lishi kerak edi. Chunki, A.B.Vrevskiy: «Bu hududlarda yuksak madaniyatga ega bo'lgan oriylar yashagan va vaqt o'tishi bilan g'arbga tomon ko'chishgan. Sharq tomondan kelgan yovvoyi xalq oriylar madaniyatining izlarini yo'q qilishgan va bizlarning o'tmishdagi avlodlarimiz Yevropa mamlakatlariga tarqalgan. Bugungi kunda taqdir bizni, ya'ni oriylarni, avlodlarimizning yerlariga qaytardi. Shuning uchun bu hududlarning tarixiy, madaniy yodgorliklarini to'plash hamda saqlashimiz lozim» – deb hisoblardi¹⁰⁸.

Tadqiqot jarayonida O'rta Osiyoning muhim tarixiy o'tmishga ega ekanligi to'garak tashkil qilinmasidan oldin ham olimlarning e'tiborini tortgan. Nemis olimi Frans Shvars astronom bo'lganligi bois uni Turkiston general-gubernatori K.P.Fon Kaufman Toshkent observatoriyasiga asos solish uchun Turkistonga taklif qilgan edi. U hududda o'n besh yildan ortiq vaqt davomida yashab, astronomiyadan tashqari, O'rta Osiyo xalqlarining an'analari va madaniyatiga qiziqqanligi uchun Turkiston o'lkasining hamma joylarini aylanib

¹⁰⁷ O'MA, I-71-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 8-10-varaqlar.

¹⁰⁸ Открытие Туркестанского кружка любителей археологии 11 декабря 1895 г. – Т.: Типография бр. Порцевых, 1895, – С. 4, 7.

chiqqan. Keyinchalik u Germaniyaga qaytgach, Myunxen Davlat kutubxonasida saqlanayotgan kitoblarning yirik kolleksiyasiga tayanib, Turkiston tarixini o'rganishni davom ettirdi¹⁰⁹. F.Shvarsning fikricha, aynan shu yerdan ko'p asrlar mobaynida Yevropa, Yaqin Sharq, Shimoliy Hindiston yo'nalishlarida migratsiya jarayonlari yuz bergan. Shuningdek, O'rta Osiyo german, kelt, slavyan va boshqa xalqlarning madaniyat o'chog'i bo'lganligini ta'kidlaydi.

Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, Turkiston havaskor arxeologlar to'garagida bajarilgan ishlar yuzasidan majlislar o'tkazilib, bayonnomalari yozib borilgan. Tadqiqot natijalari 1896-yildan boshlab «O'rta Osiyo xabarnomasi» jurnalida, 1898-yildan alohida to'plam sifatida nashr qilingan. Deyarli barcha tadqiqot ishlari mana shu to'garak doirasida olib borilgan. Turkiston yodgorliklarini saqlashni hal qiluvchi masalalar bo'yicha harbiy muassasa shug'ullanib, ta'mirlash ishlarini pul bilan ta'minlagan. Masalan, qadimiy yodgorliklar saqlovchisi V.L.Vyatkin 1903-yil 20-mayda Samarqand harbiy gubernatoriga Go'ri Amir maqbarasining shimoliy-g'arbiy qismi qulab tushganligi munosabati bilan raport yozadi va uni tiklash uchun 20 rubl so'raydi¹¹⁰. Shu yilning 12-iyunida injener M.Tumanov ham Samarqand harbiy gubernatoriga Tillakori madrasasining maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilganini ma'lum qiladi va unda quyidagi ishlarni olib borish uchun mablag' kerakligini ta'kidlaydi: «Madrasaning zaif devorlarini kontr-forslar bilan tirab mustahkamlash va eski qismlarini olib tashlash lozim. Madrasa mudiri bu ishlarni olib borishga mablag' yo'qligi sababli, faqat binoning keskin egilgan tashqi qismini olib tashlab, ingichka g'ishtlar ohak qorishmasi bilan terilayotganligini ma'lum qiladi. Bajarilayotgan ish sifatsiz bo'lganligi bois, turli tabiiy talofatlar natijasida yana qulab tushish ehtimoli yuqori ekanligi ta'kidlanadi¹¹¹. Keyinchalik Sherdor va Tillakori masjidlarini ta'mirlash ishlariga 1907-yil 5-noyabrda maxsus masjid pullaridan

¹⁰⁹ Vorobyev P.P. X-Bob. XXasrning dastlabki o'ttiz yilligida Germaniyada O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish //XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida O'zbekistonda tarix fani (tarixshunoslik ocherklari). II tom. – T.:Fan, 1994, – B. 40-56.

¹¹⁰ O'MA, I-1591-fond, 1-ro'yxat, 58-ish, 8-varaq (V.L.Vyatkinning shaxsiy fondi).

¹¹¹ O'MA, I-1591-fond, 2-ro'yxat, 68-ish, 1-varaq (V.L.Vyatkinning shaxsiy fondi).

529 rubl¹¹², 1910-yil 30-sentyabrda yil mobaynida madrasalar tomonidan 2000 tanga tushgan va 1914-yilda harbiy vazirlik qadimiy obidalarini qo'llash uchun o'n ming rubllik kredit ochgan. To'garak raisi A.B.Vrevskiy tashabbusiga ko'ra, Samarqanddagi Amir Temur masjidini saqlashga doir ishlar amalga oshiriladi. Shuningdek, uning ko'rsatmasiga binoan Buxoro amiri yodgorliklarni saqlash bo'yicha farmon chiqargan. Samarqanddagi moddiy madaniy meros obyektlari juda ko'rkam va badiiy qimmatli yuqori bo'lganligi bois Markaziy Osiyodagi barcha sharqshunos olim, kolleksiya to'plovchi, o'lkashunoslar e'tiborini tortgan. Xususan, Samarqand va uning atrofidagi yodgorliklar majmuining nihoyatda qimmatli ekanligi haqida I.V.Mushketov ham ta'kidlaydi¹¹³.

Bu hududda ish olib borayotgan mutaxassis olimlardan tashqari havaskor o'lkashunoslar, nodir-noyob buyumlarni to'plovchilar ham talaygina edi. Masalan, Samarqandlik Mirza Qosimov, me'moriy yodgorliklarning sirli koshinlarini to'plagan hamda Jizax yaqinidagi «Temur darvoza» qoyatosh lavhalarini, Ulug'bek madrasasining bezaklarini qog'ozga ko'chirgan usta, xattot hisoblanadi. Uning ishlari 1886-yili Toshkentdagi Turkiston hunarmandchilik sanoati ko'rgazmasida namoyish etilib, munosib taqdirlangan¹¹⁴. Mirza Abdulla Buxoriy ham samarqandlik bo'lib, mahalliy kolleksiya to'plovchilaridan biri edi.¹¹⁵ Mohir xattot, o'lkashunos, qadimgi buyumlar to'plovchisi Abu Said Mahsum, me'moriy obidalaridagi bezaklardan nusxa ko'chirgan.

To'garak a'zolari tomonidan yig'ilgan qadimgi buyumlarni ta'mirlash va ularni saqlashga zarur jihozlarga viloyat ma'muriyati tomonidan mablag' ajratilgan. To'plangan tangalar 1875-yilga kelib 700 dona, kutubxonadagi qo'lyozma va kitoblar esa 30 taga yetgan edi¹¹⁶.

¹¹² O'MA, I-1591-fond, 2-ro'yxat, 61-ish, 1-varaq.

¹¹³ Mushketov I.V. Туркестан. Том 1. – СПб.: 1908. – С. 306.

¹¹⁴ Маев Н.А. «Туркестанская выставка» – Т.: 1886. – С. 7; Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Гафур Гулям, 2007. – С. 11.

¹¹⁵ Лунин Б.В. Самаркандский любитель старины Мирза Бухарий // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент. 1963. – № 6. – С. 39.

¹¹⁶ Туркестанские ведомости. 1875. – № 8.

Rus olimlaridan N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold, Ye.F.Kal, A.N.Samoylovichlar mahalliy ziyolilar, turli mahalliy xalqlarning vakillari bilan muloqotda bo'lganlar. Jumladan, Turkistonda N.I.Veselovskiy rahbarligida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda qatnashgan toshkentlik savdogar Akrom Asqarov noyob buyumlarni to'plashga qiziqib, juda katta miqdorda numizmatikaga oid kolleksiyani to'plagan¹¹⁷. U 1887-yili Rus imperatori arxeologiya jamiyati tomonidan «Arxeologiyada erishilgan yutuqlarga yordam qilganligi uchun» munosib taqdirlangan¹¹⁸. U Parijdagi ilmiy arxeologiya jamiyati a'zosi ham edi¹¹⁹. A.Asqarov o'zi to'plagan kolleksiyalarini hukumatga topshirilishini vasiyat qilgan. Biroq, uning o'limidan so'ng kolleksiyalarining bir qismi sotilib, odamlar qo'lga o'tib ketgan¹²⁰. Kolleksiyaning 15 mingga yaqin tanga va 190 dan ziyod turli buyumlardan iborat qolgan qismi Peterburgga, Imperator arxeologiya komissiyasi ixtiyoriga, Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiy farmoyishi bilan jo'natilgan¹²¹.

Shuningdek, V.V.Bartold hattot Abu Said Mahsumdan Osiyo muzeyi uchun Sulton Shohruh davridan to Shayboniyxon sulolasi-ning so'nggi davriga oid turli yorliq va hujjatlarni sotib olgan¹²². XX asr boshlarida mahalliy keksalarning ko'rsatmalari yordamida V.L.Vyatkin Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'lgan. U ko'p yillar mobaynida rasadxona haqida xar qanday ma'lumotlarni sinchiklab yig'adi. Eski hujjatlar, odamlardan to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda, rasadxonani topish mumkin bo'lgan joylarni aniqlab, davlatdan qazilma ishlari uchun mablag' olgan¹²³.

Turkistonni atroflicha o'rgangan ilg'or rus ziyolilaridan A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, V.F.Oshanin va V.V.Bartoldlarning turli fan sohalariga doir tadqiqotlari jarayonida yig'gan ashyo-

¹¹⁷ Туркестанские ведомости. 1891. – № 45.

¹¹⁸ Веселовский Н. И. История императорского археологического общества за первое пятидесятилетие его существования. 1846–1896., 1900. – С. 201–206.

¹¹⁹ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – T.: Fan, 1981. – B. 51–52.

¹²⁰ O'MA, I-1-fond, 11-ro'yxat, 722-ish, 32-varaq.

¹²¹ Туркестанские ведомости. 1912. № 46.

¹²² Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – T.: Fan, 1981. – B. 55.

¹²³ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – T.: Fan, 1981. – B. 56.

laridan tashqari, numizmatika, tarix, etnografiya, qadimiy yodgorliklarni o'rganish bo'yicha ishlarida topilgan buyumlar ham mavjud edi¹²⁴. Shuning uchun muzey tashkil etish masalasi ilmiy jamoatchilik tomonidan ilgari suriladi. Ular 1871-yili general gubernatorga: «Turkistonni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish lozim, muzey esa buning uchun eng yaxshi vositadir», – deb yozishadi¹²⁵. Bu masala 1876-yilning 9-yanvarida ijobiy hal qilinib, muzeyni komplektlash bo'yicha bir qator olimlar taklif etiladi.

O'rta Osiyo flora va faunasini o'rgangan tadqiqotchilardan N.A. Seversev, A.E. Regel, I.V. Mushketov, D.L. Ivanovlar tomonidan to'plangan qush, baliq, o'simlik va ma'dan kolleksiyalari muzeyga topshiriladi va 1876-yil Markaziy Osiyoda birinchi muzeyga asos solinadi¹²⁶. Muzeyda 1877-yil etnografiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi, tabiat tarixi va arxeologiya bo'yicha 1500 dan ortiq ashyolar, 800 ga yaqin qadimiy tangalar jamlanadi¹²⁷. Mazkur to'plangan eksponatlar asosida etnografiya, texnika, tabiat, tarixiy-arxeologiya, numizmatika va qishloq xo'jaligi bo'limlari faoliyat ko'rsatadi.

Numizmatika bo'limida Yunon-Baqtriya, Kushonlar, Sosoniylar, hind hamda musulmon tangalarining eng noyob namunalari, arxeologiya bo'limida esa me'moriy obidalarining sirli koshinlari, qishloq xo'jaligi bo'limida turli o'simliklarning urug'lari, asalarichilikka oid ashyolar, ipakchilikka oid buyumlar va dendrologiya namunalari o'rin olgan¹²⁸. Soha mutaxassislarining fikricha, Toshkent muzeyi mahalliy xalqlarning o'zini anglashi va moddiy madaniy merosga hurmat tuyg'usi bilan shakllanishiga xizmat qildi. Muzey fondlari muntazam ravishda boyitib borildi. 1884-yilga kelib, mazkur muzey eksponatlari 3500 tadan ziyod turli buyum-ashyolarga

¹²⁴ Kuryazova D. T. 1867-1916 yillarda ilmiy jamiyatlarning Turkiston madaniy merosini o'rganish, to'plashdagi ahamiyati. // O'zMU xabarlar. – T.: 2018. – № 1 – B. 58-61.

¹²⁵ O'MA, I-1-fond, 16-ro'yxat, 259-ish, 10-varaq.

¹²⁶ Туркестанские ведомости, 1876. – № 48.

¹²⁷ Туркестанские ведомости, 1877. – № 18.

¹²⁸ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – T.: Fan, 1981. – B. 40.

ega edi¹²⁹. Oradan yana ikki yil o'tib, eksponatlar soni 4000 taga yetdi¹³⁰.

1886-yili 16-iyulda Rossiya imperiyasining «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizomi» e'lon qilingan¹³¹. Ammo maxsus komitet faoliyati 1904-yilning oktyabrida to'xtatilib, muzey boshqaruvi bevosita mahkama ixtiyoriga o'tdi¹³².

O'z o'rni aytib o'tish joizki, Toshkent muzeyi bo'limlarining kengayishi notekis, jamg'armalarning to'latilishi ilmiy asossiz davom etganligi muzey tarixiy bo'limining keyingi taraqqiyotida 1885-yili tuzilgan arxeologiya havasmandlari to'garagining faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi. 1897-yili muzeyning arxeologiya va numizmatika bo'limlari qazilmalardan topilgan 1345 buyum va 2017 dona tangaga ega edi¹³³. Mahalliy ustalar tomonidan topshirilgan asbob-uskuna, charm mahsulot namunalari etnografiya sohasida alohida e'tiborga molik edi. Lekin binoning torligi muzeyni qimmatbaho eksponatlardan mahrum etardi. To'garak tashkil etgan arxeologik ekspeditsiyalarning dastlabki arxeologiya va numizmatika materiallari 1899-yildan muzeyga topshirila boshlanadi¹³⁴. Muzeyga Imperator arxeologiya komissiyasi O'rta Osiyo tarixiga oid qator qiziqarli ashyolarni topshirgan. Jumladan, 1900-yilgi San-Lui ko'rgazmasi uchun tayyorlangan etnografiya kolleksiyasini Toshkent muzeyi qabul qilmadi¹³⁵. Chunki o'sha davrda muzey jamg'armalarining mavzu jihatdan xilma-xilligi, ma'lum ma'noda tartibsizligi, ko'pchilik topilmalarning aniq joyi va vaqti ko'rsatilmagan edi. 1900-yilga kelib faqat etnografiya, arxeologiya va numizmatika bo'limlarigina o'z faoliyatini saqlab qoldi. Xuddi shu yili ro'yxatga olingan kolleksiyalar gravyura va fotosuratlar, dafn etish va qabrtoshlar bilan bog'liq ashyolar, uy-ro'zg'or buyumlari, kichik arxeologik ashyolar, numizmatika kolleksiyalari besh

¹²⁹ Туркестанские ведомости. 1894. – № 1.

¹³⁰ Sirdaryo viloyati obzori. – T.: 1887. – B. 329-330.

¹³¹ Туркестанские ведомости. 1889. – № 54.

¹³² Туркестанские ведомости. 1904. – № 156.

¹³³ O'MA, R-72-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 33-varaq.

¹³⁴ O'MA, R-72-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 9-varaq.

¹³⁵ Уварова П.С. Губернские и областные музеи. – СПб, 1888. – С.8.

qismdan iborat bo'lgan. Toshkent muzeyining jadal rivojlanishi natijasida, Samarqand va Farg'ona shaharlarida ham muzey tashkil etish, ochish imkoniyati vujudga keldi. Jumladan, Samarqand shahrida ochilgan ikkinchi muzeyning to'la asosi – bu qadimgi shahar o'zining boy madaniy merosiga ega ekanligida edi. O'lkashunoslik tipidagi «Samarqand statistik komitetining Muzeyi»ni tashkil etishning asosiy tashabbuskorlaridan biri V.L.Vyatkin edi. «Muzey» 1896-yilning iyun oyida ochilib, ekspozitsiya Georgiyev cherkoviga tegishli uyga joylashtirilib, arxeologiya, etnografiya, numizmatikaga oid kolleksiya va boshqa turdagi ashyolar namoyish etilgan¹³⁶.

1899-yilga kelib Farg'ona viloyatida ham sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi buyumlari asosida muzey tashkil qilinib, ilg'or madaniyat vakillari muzeylardagi eksponatlar orqali aholiga Turkiston moddiy madaniy merosi, o'lka tabiati, xo'jaligi, tarixi va madaniyatiga oid ma'lumotlarni namoyish etishga intilganlar.

Mavjud adabiyotlarda bu davrda jami uchta muzey tashkil etilganligi yozilgan. Lekin, arxiv hujjatlariga ko'ra, ularning soni to'rttani tashkil etganligi aniqlangan. Bu Toshkentdagi «S.P.Zaverin nomidagi savdo muzeyi» bo'lib, 1914-yili ochilgan. Mazkur muzey Turkiston o'lkasi, Xiva, Buxoro, Afg'oniston, Xitoy va Mongoliyaning savdo an'alarini o'rganish; import va eksport savdo muammolarining statistik materiallarini yig'ish; turli xildagi mahsulotlarni qadoqlash, sifatini tekshirish va solishtirish, sug'urta qilish bo'yicha ma'lumotnoma berish, sotish shartlari va ularning ulgurji savdo narxlari bilan tanishtirish; turli mahsulotlarning doimiy ko'rgazmasini qilish kabi ishlar bilan shug'ullangan¹³⁷. Mazkur muzey noma'lum sabablarga ko'ra tez orada yopilgan.

Rossiya imperiyasining 50 yillik hukmronligi davrida jami to'rtta muzey faoliyat yuritib, ulardagi ashyolarni to'plash, saqlash, muhofaza qilishga oid hamda hududdagi ko'char va ko'chmas moddiy madaniy merosni boshqa mamlakatlarga olib chiqib ketilishini taqiqlovchi davlat tomonidan maxsus hujjat ishlab chiqilmagan.

¹³⁶ Туркестанские ведомости, 1896. – № 57.

¹³⁷ O'MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 17424-yig'ma jild, 26-varaq.

Turkistondagi kutubxona va muzeylar, ruslar tomonidan o'lkaning madaniy-ma'naviy boyliklarini ilmiy jihatdan o'rganish uchun Imperiya manfaatlari yo'lida markazlashtiradigan muassasalar xizmatini o'tishi kerak edi. Mustamlaka ma'murlari tomonidan o'lka moddiy madaniy merosini saqlash, muhofaza qilishga salbiy e'tibor qaratilganligi natijasida, qimmatbaho noyob buyumlar, nodir qo'lyozmalari Rossiya va boshqa chet mamlakatlarga olib chiqib ketilgan¹³⁸.

Sovet davriga kelib, bu sohada O'zbekistonda keskin o'zgarishlar yuz berib, 1917-yildan rasmiy hal qilishni talab qiladigan muammolar yuzaga keldi. Ya'ni, davlat, foydalanuvchi va yodgorliklar egalari o'rtasidagi moddiy madaniy yodgorliklarni talon-toraj qilishdan va vayronadan saqlab qolishga oid munosabatlarni tartibga solishga imkon beradigan hukumat farmon va qonunlarini qabul qilinishidan iborat edi. Shuningdek, yodgorliklarni hisobga olish, muhofaza qilish, yo'q qilish yoki asl ko'rinishini buzilishdan himoya qilish, ulardan foydalanish masalalarini hal etadigan maxsus davlat organlari tizimini yaratishga sharoit tug'ildi.

Joylarda yodgorliklarni muhofaza qilish davlat organlari tizimini amalga oshirishning muhim sharti, ko'chmas moddiy madaniy yodgorliklar, san'at va nodir buyumlarni hisobga olish, tizimlashtirish va mulkchilik shakllarini belgilashda turli xil mutaxassislar tarkibini shakllantirish edi. Darhaqiqat, ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni tashkil qilmasdan, mamlakat miqyosida yodgorliklarni ro'yxatga olish, saqlash va tiklash kabi muammolarni hal qilishning iloji bo'lmadi. Uning shakllanishining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, birinchi o'n yillikda xodimlarning tayanch qismi tajribali va yuqori malakali mutaxassislardan iborat edi.

Madaniy merosga oid davlat siyosati 1920-yillarning oxiri – 1930-yillarning boshlarida o'zgardi va asosiy e'tibor juda katta hajmdagi madaniy boyliklar muhofazasini tartibga keltirish, muzey ahamiyatiga ega buyumlarni hisobga olishga qaratildi.

¹³⁸ Tarix shohidligi va saboqlari / Mas'ul muharrir D.A.Alimova. – T.:Sharq, 2001. – B. 366; Matyaqubova M. XIXasning ikkinchi yarmi – XX asning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. Tarix fan. nom. diss. – T.:O'zMU. 2008. – B. 56.

1918–1921-yillarda madaniy boyliklarni saqlash va ulardan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan farmonlar yodgorliklarning huquqiy maqomini belgilab berolmadi. Bunga sabab, qiyin sharoitda san'at va antik davr yodgorliklarining saqlanishini bozor mexanizmlari yordamida yaxshilashga qaror qilindi. Mahalliy hokimiyatlar arxitektura yodgorliklarini ijaraga berishdi, antikvar savdo yo'li bilan muzey ahamiyatiga ega bo'lmagan ba'zi osori-atiqalar va madaniy boyliklar chet elda sotildi. Bunga 1928-yil 23-yanvarda «maxfiy» raqam ostida SSSR Xalq komissarlari sovetining «Qadimiy va san'at yodgorliklarini chet elga sotish va eksport qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asos bo'ldi¹³⁹.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, bu davrda madaniy boyliklarni saqlanishida muzeylar katta rol o'ynadi. Muzeylar hamda moddiy madaniy merosning o'rganilishi va saqlanishiga doir muammolarga nisbatan boshqacha yondashildi. Bu hududlarda turli tarixiy, ya'ni bronza, ilk temir asri, antik, Kushonlar, Toxariylar, Eftalitlar, Turk xoqonligi, Qoraxoniylar, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi, xonliklar davrida noyob madaniy yodgorliklar yaratilganligi turli soha olimlarining diqqatini tortdi. Shu tariqa moddiy va ma'naviy madaniyatning ahamiyatli bo'lgan yodgorliklari xar tomonlama ilmiy jihatdan tadqiq etila boshlandi. Rossiya imperiyasi davrida barcha moddiy madaniy yodgorliklar yuzaki o'rganilgan bo'lsa, XX asrning boshlarida ularga ilmiy jihatdan yondashildi.

Yangi hokimiyat ham muzeylarni moliyaviy ta'minlash o'rniga asosiy e'tiborni muzeyga kiruvchilarga hukmron kommunistik g'oyani targ'ib etishga yo'naltirdi¹⁴⁰. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Rossiya imperiyasida 1917-yilga qadar muzeylarni boshqarish uchun alohida boshqarma yoki biror bir maxsus muzeylar uchun qonunlar majmuasi yaratilmagan edi. Natijada muzeylarning ko'payishi, eng ilg'or muzeylar erishgan yutuqlar bilan bir qatorda umumiy tarqoqlik, ishni tashkil etishning past saviyasi, muzeylar faoliyatining ilmiy asoslangan yagona tizimi yo'qligi ko'zga tash-

¹³⁹ Юреньева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 297-298.

¹⁴⁰ Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М. Е., Коссовой И. М., Сундиевой А. А. – М.: Издательство «ВК», 2003. – С. 127.

lanar edi. 1917-yilgi davlat to'ntarishidan so'ng xonlarning saroy kolleksiyasi va muzeylar milliylashtirildi hamda davlat mulki deb e'lon qilindi. Badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ashyo-buyumlarni aniqlash, ularni ro'yxatga olish, muhofaza qilish uchun badiiy-tarixiy komissiyalar tuzilib, mutaxassislarning fikricha, bu tashkilot madaniy merosni saqlab qolishda muhim rol o'ynadi. Muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat boshqaruvi tizimi 1918-1920-yillarda yaratildi¹⁴¹.

Hukumatda muzey ishi va yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha qonun yaratilib, u osori-atiqalarni milliylashtirish asoslarini, madaniy boyliklarni asrash, davlat uchun ma'lum yodgorlik yoki kolleksiyaning muhim ahamiyat kasb etganligini tasdiqladi. Mavjud moddiy madaniy yodgorliklar, jumladan, saroy, masjid, madrasa kabilar davlat tasarrufiga o'tkazilib, muhofaza qilindi. Masalan, Turkiston Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ning 1920-yil 31-iyul «Turkiston Respublikasidagi ayrim shaxslar va jamiyatlar ixtiyorida bo'lgan san'at asarlari, qadimgi yodgorliklarni ro'yxatdan o'tkazish, hisobga olish hamda qo'riqlash haqida»gi maxsus qarori joriy etildi¹⁴². Turkkomstarisning maxsus yo'riqnomasi bilan muzey ashyolarini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish joriy etildi. Qarorda ayrim shaxslar ixtiyoridagi yodgorliklarni ro'yxatga olishga katta e'tibor berilgan. Bunday shaxslarga har tomonlama yordam ko'rsatilib, maxsus muhofaza yorliqlari berildi¹⁴³.

XX asrning 20-yillaridan O'zbekiston tarixiy me'moriy yodgorliklarini restavratsiya qilish sohasida muammolar yuzaga keladi. Masalan, Buxoroda Olimxon, Samarqandda Panjob madrasalari, Xiva «Ichon-Qal'a»sidagi tarixiy obidalar, Andijon, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Qo'qon, Buxoro kabi shaharlarda

¹⁴¹ Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М. Е., Коссовой И. М., Сундиевой А. А. – М.: Издательство «ВК», 2003. – С. 130.; Декрет Совета Народных Комиссаров РСФСР от 19 сентября 1918 года. «О запрещении вывоза за границу предметов искусства и старины»; Декрет Совета Народных Комиссаров РСФСР от 26 ноября 1918 года «О признании научных, литературных, музыкальных и художественных произведений государственным достоянием.

¹⁴² O'MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 7-varaq.

¹⁴³ O'MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 13-ish, 18-varaq.

1800-1910-yillarda qurilgan imoratlarda olib borilgan tiklash ishlarida ko‘rish mumkin¹⁴⁴.

Respublikaning tarixiy shaharlaridan Buxoro (Buxkomstaris) da taniqli arxeolog V. A. Shishkin boshchiligida I.I.Umnyakov, M.Saidjonov kabi tadqiqotchilar ish olib borgan. Ta‘mirlash ishlarida ular xalq ustalaridan I. Xafizov, R.Xayatov, Sh.Murodovlar bilan hamkorlik qilishgan¹⁴⁵. Aynan bu davrda ham yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi va ma‘lum bir uslubiyatning to‘laqonli amalga oshirilmasligi yuqori darajada restavratsiya qilishga monelik qilgan. Shu bois ushbu tashkilot uncha katta bo‘lmagan restavratsiya yoki binolarning yo‘qotilgan kichik qismlarini tiklash ishlarini amalga oshirgan.

1920-30-yillarda N. M. Bachinskiy rahbarligida mutaxassislar Buxorodagi imoratlarning nurayotgan sirli koshinlarini konservatsiya qilishga urinishgan, lekin bu muvaffaqiyatli chiqmagan, binoning eski bezaklari oq dog‘larga aylangan. Bu borada K.Kryukov obida bezaklarini nuragan joylarini terrakota yoki mozaika ko‘rinishida joylashtirishni taklif qilgan¹⁴⁶.

1922-yilda B. Kastalskiy oq ganchni tabiiy qizil tuproq rangiga o‘xshatib bo‘yab ko‘rib, ta‘mirlash yo‘lini ancha mukammallashtiradi. Muqobil uslub bo‘yicha N.M.Bachinskiy tomonidan Mir Arab madrasasini restavratsiya qilishda qo‘llanilgan suvalgan koshin va qorishmani Sh.Murodov yangi qorishma yordamida sirlangan bezak bloklarini qayta o‘z joyiga joylashtirgan¹⁴⁷.

¹⁴⁴ Axmedov M. K. O‘zbekistonda me‘moriy yodgorliklarni ta‘mirlash muammolari // O‘zbekiston me‘moriy obidalarini ta‘mirlash va ulardan foydalanish muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy – amaliy konferentsiya tezislari to‘plami. – Samarqand, 2004. – B. 16-17.

¹⁴⁵ Юсупова М. А. Актуальные проблемы реставрации памятников архитектуры Узбекистана // Международная научно практическая конференция «Проблемы реставрации и использования памятников архитектуры Узбекистана» Тезисы выступления, Самарканд, 2004. – С. 33-35.

¹⁴⁶ Крюков К. С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920-1990) // АСУ, 1990, – № 8. – С. 34-36.

¹⁴⁷ Юсупова М. А. Актуальные проблемы реставрации памятников архитектуры Узбекистана // Международная научно практическая конференция «Проблемы реставрации и использования памятников архитектуры Узбекистана» Тезисы выступления, Самарканд, 2004. – С. 33-35.

1921-yil 21-mayda Turkiston XKS qarori bilan Turkrespublika Xalq Maorif komissariati huzurida Turkiston muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san‘at va tabiatni muhofaza qilish komiteti tuzildi. S. M. Gorsheninaning ta‘kidlashicha: «Uning vazifalari O‘rta Osiyodagi barcha muzeylarni boshqarish, qadimiy yodgorlik va san‘at asarlarini ro‘yxatga olish, ularni muhofaza qilish, ta‘mirlash va tiklash, shuningdek kolleksiyalarni, arxeologik qazishma topilmalari bilan bog‘liq materiallarni ilmiy tahlil etishdan iborat bo‘lgan»¹⁴⁸.

Turkiston XKSning 1923-yil 3-noyabr qaroriga ko‘ra, o‘lkaning turli viloyatlarida joylashgan 20 ta qadimgi yodgorlik muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san‘at va tabiatni muhofaza qilish komiteti ixtiyoriga 52 ta tarixiy-arxeologik yodgorlik o‘tkaziladi. Turkiston muzeylaridagi osori-atiqalar soni, Buxoro va Xivani qo‘shganda 114075 taga yetadi¹⁴⁹. Lekin, bu obidalarni ta‘mirlash va restavratsiya qilish ishlariga davlat tomonidan juda kam mablag‘ ajratilgan. Masalan, Turkiston XKS tomonidan Markazga Samarqanddagi qadimiy tarixiy yodgorliklarning fojiaiy holati, yodgorliklarni ta‘mirlash nafaqat davlat, balki siyosiy jihatdan ham zarur ekanligi ta‘kidlanib, yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan yodgorliklarni saqlab qolish uchun smetadan oltin narxidagi 252935 rublni to‘liqligicha yuborish so‘ralgan xat yo‘llanadi¹⁵⁰.

1921-yil 31-iyulda 77-sonli Turkiston XKS qadimiy, noyob-nodir buyumlarni chet elga olib chiqib ketmaslik bo‘yicha dekret qabul qilindi. Ikki yildan so‘ng, Turkiston XKS hisobida turgan qadimiy va san‘at yodgorliklari, to‘plamlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha Markaziy Ijro qo‘mitasi va Turkiston XKSning 20-aprel 1923-yilgi 109-sonli qarori ham qabul qilindi¹⁵¹.

Rossiya imperiyasiga qaraganda, yangi hukumat o‘tmish yodgorliklarini saqlashni qonun tomonlama ta‘minlashga katta qadam-

¹⁴⁸ Горшенина С. М. Туркомстарис-Средазкомстарис-Узкомстарис: формирование институций и этноцентрический раздел культурного наследия Средней Азии // Этнографическое обозрение. – М., 2013. – № 1, – С. 52-68.

¹⁴⁹ O‘MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 103-ish, 85–86-varaqlar.

¹⁵⁰ O‘MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 60-ish, 41-varaq.

¹⁵¹ O‘MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 123-ish, 12-varaq.

lar qo'ygan. Hukumatning nazariy jihatdan ilk dekretlari, birinchi damlarda milliy tarixiy-madaniy boyliklar, jumladan, mustaqil bo'lgan mamlakatlar xalqlari yodgorliklarini saqlash jarayoniga ijobiy turtki bo'lgan. Bu davrda tarix va madaniyat yodgorliklarini ro'yxatga olish bo'yicha birinchi sovet dekretlari ushbu turdagi milliy yodgorliklarni muhofazasi bilan shug'ullanuvchi markaziy va guberniya kollegiyalari hamda komissiyalari bilan ma'muriy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bo'lganligi bois amalda yetarlicha samara bermagan. Shunga qaramay, astasekin normativ aktlar to'plami shakllana boshlagan.

Diniy yodgorliklarga nisbatan 1922-yilning qonunchilik amaliyoti keyingi o'n yilliklarda ham davom etgan. Din bilan bog'liq yodgorliklarni muhofaza qilish haqidagi mavjud bo'lgan qonun nizomlari bilan birga tarixiy-madaniy merosni qirg'in qilishga yo'naltirilganlari ham nashr etilgan. Tarixiy va moddiy madaniy yodgorliklardan faqat foyda olishni ko'zlaydigan amaliyotchilar vaqti kelgach, masjid, madrasa, ibodatxonalar ommaviy tartibda yopilib, diniy idoralarning vakillari esa – qatag'on qilindi. U yerdagi osori-atiqalar yo'q qilinib, diniy kitoblar yoqib yuborildi.

1923-yilda Turkiston muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, O'rta Osiyo muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi deb o'zgartiriladi. Yodgorliklar muhofazasiga kam mablag' ajratilganligi va qo'riqlanmaganligi bois qadimiy obidalarga zarar yetkazilgan. 1924-yil 26-oktyabrda O'rta Osiyo Xalq Komissarlari Soveti yig'ilishida Turkiston XKS raisi Nechkin tarixiy yodgorliklarni restavratsiyasi uchun so'ralayotgan pul berilmayotganligi, RSFSR Gosplan (Davlat rejasi – K.D.)i tomonidan 70000 rubl ajratilib, berilmagani va qayta so'ralganda 10000 rubl berilib, pul yetarli bo'lmaganligini ta'kidlaydi¹⁵².

1924-yil 26-dekabrda Turkiston tabiati, san'ati va qadimiy yodgorliklarini muhofaza qilish va muzey ishlari qo'mitasining nomi O'rta Osiyo tabiati, san'ati va qadimiy yodgorliklarini muhofaza qilish va muzey ishlari qo'mitasiga o'zgartirildi. Bu tashkilot maho-

¹⁵² O'MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 42-ish, 103-104-varaqlar.

batli qadimiy yodgorliklar va alohida qadimiy yoki san'at asarlarini registratsiya qilish, yodgorliklarning saqlanish darajasini kuzatish va yodgorliklarni ta'mirlash va restavratsiya qilish bo'yicha ish olib borgan. Birinchi bo'lib e'tibor holati yomon yodgorliklarni saqlashga qaratildi. Turkiston XKS va Samarqand yodgorliklarni saqlash qo'mitasi, keng miqyosda o'lka bo'ylab sochilgan yodgorliklarni hisobga olish, saqlash, ta'mirlash va restavratsiya qilishni o'z zimmlariga oladi¹⁵³. Masalan, Samarqandning Go'ri Amir, Oq Saroy, Ruxobod, Xo'ja-Abdudarun, Xo'ja Abdirul, Cho'pon ota, Chil-duxtaron, Shayboniyxon maqbaralari, Bibixonim, Shoxi-Zinda, Mirzo Ulug'bek, Sherdor, Tillakori masjid va madrasalari, Shoxi-Zinda majmuasidagi binolar, Ishratxona vayronalari, Xo'ja Axror madrasa va maqbarasi, Namozgoh masjidi, Mirzo Ulug'bek observatoriyasi, Registon maydoni va Afrosiyob shahristoni davlat ro'yxatiga olindi. Buxoroda Ark, Registon, 2 ta darvozaga ega shahar devori, Boyon-Quli-xon, Somoniy maqbaralari, Namozgoh masjidi, Kalon masjidi va minorasi, Mir Arab, Mirzo Ulug'bek, Abd-al-Aziz, Abdulla-xon, Moderi-xon, Kulobod, Gaukshon, Ko'kaldosh, Muhammad Devonbegi, Xiyobon madrasalari, sobiq amir saroyidagi Sitorai-Moxi-xosa va boshqa binolarning ro'yxati tuzildi. Toshkent shahridagi Ko'kaldosh, Barak-xona madrasalari, Xo'ja Axror masjidi va madrasasi, Abu Bakr Kaffol Shoshi maqbarasi ro'yxatga kiritildi¹⁵⁴.

Tashkilot faoliyati 1928-yil 7-aprelda to'xtatilib, nomi O'zbekiston Xalq Komissarlari Sovetiga o'zgartirildi (XKS). Uning zimmasiga O'zbekistondagi moddiy madaniy yodgorliklarni aniqlash va hisobga olish, yangi topilgan yodgorliklarni to'plash va tizimlashtirish, barcha topilmalarni ilmiy pasportlarini yozish yuklatiladi. Xorazm, Buxoro, Qo'qon, Termiz va Shahrisabzda uning filiallari ochilib, moddiy madaniy yodgorliklarni ro'yxatga olish, o'rganish va saqlashga doir ishlar amalga oshiriladi¹⁵⁵. O'zbekiston muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish

¹⁵³ O'MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 123-ish, 4-17 varaqlar.

¹⁵⁴ O'MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 123-ish, 4-17 varaqlar.

¹⁵⁵ O'MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 22-ish, 1-2-varaqlar.

qo‘mitasi raisi M.Yu.Saidjonov va uning o‘rinbosari V.L.Vyatkinlar O‘zbekiston XKSning 1929-yil 14-sentyabrdagi 26-sonli buyrug‘iga asosan Xorazm okrugidagi yodgorliklarni tadqiq etish va ro‘yxatga olish uchun jo‘natiladi¹⁵⁶. Komissiya tomonidan Xivadagi yodgorliklardan Tosh hovli, Olloqulixon madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Eski Arkdagi masjid va Ko‘rinish xona (Olloqulixon qabulxonasi), Said Alovuddin maqbarasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta minor, Juma masjidi 24 ta yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan ustuni va 2 ta o‘yma naqshli yog‘och eshigi bilan ro‘yxatga olinadi. Ular tarixiy obidalarining aksariyat qismi yomon ahvoldaligini aniqlab, restavratsiya qilinishi zarur ekanligini ta’kidlaydilar.

1931-yildagi Uzkomstarisning hisobotida, O‘zbekistonda tarixiy yodgorliklar juda ko‘p bo‘lganligi bois, qadimiy yodgorliklari ko‘p bo‘lgan shahar obidalarida ta’mir-restavratsiya ishlari olib borilishini yozadi. Eng ko‘p mablag‘ Samarqanddagi obidalarining restavratsiya va ta’mir ishlariga, ya’ni, 1-chorakda 2284 rubl 82 tiyin, 2-chorakda 5415 rubl 27 tiyin, 3-chorakda 17253 rubl, 4-chorakda 2018 rubl 19 tiyin beriladi. Mahalliy byudjetdan atigi 2500 rubl olinib, Toshkent va Buxoroga 1000 rubl, Xivaga 500 rubl ajratiladi¹⁵⁷. Bundan ko‘rinib turibdiki, qolgan uchta shaharga haddan tashqari kam mablag‘ ajratilgan.

O‘zbekistonda yodgorliklarni muhofaza qilish O‘zSSR Xalq komissarligi qoshida 1928-yil oxiridan 1932-yil iyungacha faoliyat yuritgan «O‘zbekiston muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san’at va tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi»ning vakolatiga o‘tkazilganligini ta’kidlaydi S.Gorshenina¹⁵⁸.

1932-yilda moddiy madaniy yodgorliklarni hisobga olish bo‘yicha O‘zbekiston muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san’at va tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi tomonidan katta ish boshlanadi. Shunga oid arxiv hujjatda:

¹⁵⁶ O‘MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 7-ish, 2-3- varaqlar.

¹⁵⁷ O‘MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 23-ish, 3-19- varaqlar.

¹⁵⁸ Горшенина С. М. Туркомстарис–Средазкомстарис–Узкомстарис: формирование институций и этноцентрический раздел культурного наследия Средней Азии // Этнографическое обозрение. – М.: 2013. – № 1, – С. 52-68.

1. O‘tmish moddiy madaniy yodgorliklarini ro‘yxatga olish bo‘yicha: O‘zbekiston moddiy madaniy yodgorliklarini aniqlash va ro‘yxatga olish; yangi topilgan yodgorliklarni to‘plash; barcha yodgorliklarning ilmiy pasportlarini yozish;

2. Moddiy madaniy yodgorliklarni tadqiq etish: ekspeditsiya tadqiqotlari; Angren vodiysini Moddiy madaniyat tarixi davlat akademiyasi ishtirokida tadqiq etish;

3. Alohida yodgorliklarni tadqiq etish: Shahrisabzdagi Amir Temurning Oq-saroyi; Farg‘onadan 48 kilometr masofada joylashgan Shohimardon maqbarasi; Toshkentdagi Hasti Imom maqbarasi; Andijondagi me‘morchilik yodgorliklari, yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan obidalarini o‘rganish va tadqiq etish;

4. Yodgorliklarni saqlash: Uzkomstaris filiallari bo‘lgan Termez, Qo‘qon, Shahrisabz, Xorazm, Buxoroda tashkil etish; ta’mir-restavratsiya ishlarini Samarqand, Termiz, Buxoro, Xiva va Toshkent qadimiy obidalarida olib borish;

5. O‘zbekistonning qadimiy moddiy madaniy merosini targ‘ib qilish ishlarini olib borish: moddiy madaniy merosga oid olib borilgan ishlar bo‘yicha tayyorlangan ma’ruza, doklad, suhbatlarni keng ommaga yetkazish; Samarqand Go‘ri Amir maqbarasi va Buxoro Kalon masjidida muzey burchaklarini tashkil etish; Samarqand, Toshkent, Buxoro shaharlari bo‘yicha yo‘l ko‘rsatkichlar; Ulug‘bek observatoriyasi, Toshkentdagi Hasti Imom maqbarasi, Shahrisabzdagi Amir Temurning Oq-saroyi haqida broshyura; V.L.Vyatkinning «Samarqand yodgorliklari» nashrlari (hujjat oxirida 16.12.1932 sana yozilgan)da bayon etilgan¹⁵⁹.

Hukumat tarix va madaniyat yodgorliklarini davlatlashtirishni amalga oshirayotib, ularni saqlash bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmasiga yuklagan edi. Biroq, 1920-30-yillaridagi normativ-huquqiy aktlarda aks etilgan sovet hukumatining tarixiy-madaniy meroslarni ro‘yxat va nazoratga olish bo‘yicha siyosati ko‘proq ziddiyatli bo‘lgan.

1920-40-yillarda davlatning ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy rivojlanishini aks ettiruvchi, milliy, tarixiy-madaniy merosni himoya

¹⁵⁹ O‘MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 22-ish, 1-2 varaqlar.

qilish sohasidagi davlat siyosatining bolshevistik prinsiplariga asos solinadi. Tarixiy-madaniy boyliklarni muhofaza qilish sohasidagi sovet hukmronligining birinchi o'n yilligida shakllangan o'sha davr qonunchilik tizimi XX asrning ikkinchi yarmida o'zgarishlarga uchradi.

1948-yilda SSSR Ministrlar soveti «Madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» Qaror ishlab chiqadi¹⁶⁰. Qarorda yodgorliklarning turlari tasniflanib, ulardan amaliy foydalanish imkoniyatiga muvofiq guruhlariga ajratiladi. Xususan, amaliy maqsadlarda ilmiy va muzey-ko'rgazma muassasalarida foydalaniladigan, saqlanishini buzmaganda iqtisodiy maqsadlarda ijaraga berilishi mumkin bo'lgan yodgorliklarga ajratiladi. Ushbu hujjatda ilk bor me'moriy yodgorliklar atrofida qo'riqxonalarini tashkil etish talablari ham kiritiladi.

Keyingi muhim hujjat 1949-yil 8-aprelda tasdiqlangan «Me'morchilik yodgorliklarini hisobga olish, registratsiya qilish, saqlash va restavratsiya qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma» bo'lib, dastlabki ro'yxatga olish kartalarini joriy etish orqali yodgorliklar guruhlarini ro'yxatga olish ta'minlandi¹⁶¹. Shuningdek, me'morchilik yodgorliklari ro'yxati, har bir alohida yodgorlik uchun pasportlar, yodgorlik to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar va uning fotosuratlarini ilova qilish lozimligi belgilab qo'yildi. Hujjat matnida me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlash, ulardan foydalanish qoidalarini, texnik foydalanish shartlari va nazorati ham batafsil bayon qilindi.

Bu davrda yodgorliklar, muzeylar – fan, xalq ta'limi va madaniyatini rivojlantirish, odamlarda g'oyaviy-axloqiy va estetik tarbiyani shakllantirishga xizmat qilgan. O'sha davrda tarix va madaniyat yodgorliklariga ehtiyotkorona munosabat har bir fuqaroning vatanparvarlik burchi edi¹⁶². Asosiy e'tibor moddiy madaniy merosni muhofaza qilish muammosiga qaratilgan va keyinchalik huquqiy

¹⁶⁰ Охрана памятников истории и культуры: сб. документов. / Введ. д-ра ист. наук, проф. Л.Г. Бескровного. – М.: Сов. Россия, 1973. – С. 65-72.

¹⁶¹ Охрана памятников истории и культуры: сб. документов. / Введ. д-ра ист. наук, проф. Л.Г. Бескровного. – М.: Сов. Россия, – С. 92-115.

¹⁶² 1985 yil 18 yanvar RSFSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarori tomonidan o'zgartishlar kiritilgan hujjat matni. // <http://www.eclife.ru/laws/ru/18.php>.

va madaniy rivojlanish yo'llarini tanlash zarurati bilan shartlangan. Buning uchun tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlab qolishni ta'minlash bo'yicha sovet davrida o'zining ibratli tarixiga ega bo'lgan, uning vositalari, shakllari va usullari evolyutsiyasi ro'y berganligini qonunchiligida tadqiq etish zaruratini ko'rsatgan.

1950-1970-yillarda moddiy madaniy merosni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati asosan Vazirlar mahkamasi, Madaniyat vazirligi va boshqa muassasalarning normativ hujjatlari tomonidan tartibga solingan. Bu davrda yodgorliklarni himoya qilish muammolariga qonunchilik va ijrochi hukumat tomonidan yetarlicha e'tibor berilmagan. 1970-yillar boshida muzeyshunoslikka xalqaro yodgorliklarni muhofaza qilish va Umumjahon merosi tizimini yaratish tamoyillari yanada ko'p ta'sir o'tkaza boshladi. Bu davrda davlat oldida tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish haqidagi umumdavlat qonunchilik aktini yaratish bo'yicha va barcha keyingi normativ bazalarni shu qonunchilikka muvofiqlashtirish vazifasi turgan edi.

Sovet Ittifoqining 1976-yildagi qonuni ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni o'z ichiga olgan, «moddiy madaniy qadriyatlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish» sohasidagi ilk sovet butunittifoq akti bo'lgan. Lekin 1980-yillar o'rtalariga kelib, u bevosita amal qilishdan to'xtagan. Shunga qaramay, tarix va moddiy madaniy yodgorliklarni saqlab qolishda davlat idoralari faoliyati va normativ bazalarini takomillashtirilishida muhim rol o'ynagan edi. Yodgorliklarni tiklash va muhofaza qilish, madaniy, tarixiy va badiiy merosni asrab-avaylashni ta'minlash sohasidagi muhim tashkiliy, ilmiy va amaliy muammolarni hal qilinishi, 1960-1980-yillarda Ittifoq va respublika hukumatlari 1976-yil oktyabrda qabul qilingan «Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» gi qonuni asos bo'lgan¹⁶³.

¹⁶³ Закон СССР от 29 октября 1976 года № 4692-IX «Об охране и использовании памятников истории и культуры» (Ведомости Верховного Совета СССР, 1976, № 44, ст.628); постановление Верховного Совета СССР от 29 октября 1976 года № 4693-IX «О порядке введения в действие Закона СССР «Об охране использовании памятников истории и культуры» (Ведомости Верховного Совета СССР, 1976, № 44, ст.629).

1980-yillarning ikkinchi yarmi – 90-yillar boshida tarix va moddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, qabul qilinayotgan qonunlar, hukumat farmonlari, qarorlari doirasida sodir bo‘layotgan edi. Tarixiy-madaniy merosning ko‘p qismi davlat boshqaruv idoralari tomonidan joylardagi faoliyatsizligi tufayli yo‘qolgan. Bir qator joylarda olib borilgan konservatsiya ishlari hamda qadimdan to XX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan me‘moriy yodgorliklarni yetarlicha ilmiy san‘atshunoslik tahlili bo‘lmaganligi, me‘moriy yodgorliklarni talab darajasi normalariga zid ravishda restavratsiya qilinishiga olib keldi. Ayniqsa, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvining huquqiy asoslariga muhim e‘tibor qaratilib, 1977-yil 21-dekabrda «Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» Qonun qabul qilingan. Unda xalqlarning tarixiy o‘tmishi, madaniy merosi ahamiyati ochiqchasiga kamsitilgan edi. 1982-yil bu qonunga mos tarzda tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish maqsadida SSSR Vazirlar Kengashining 1982-yil 16-sentyabrda 865-sonli «Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qaror qabul qilinadi¹⁶⁴. Mazkur qarorda moddiy madaniy merosga kiruvchi obyekt va ashyolarning turlari hamda ularni saqlanishini ta‘minlash chora tadbirlari o‘z aksini topgan. 1918-1990-yillarda O‘zbekistondagi muzeylar soni 76 taga yetgan. Bu davrdagi muzeylar badiiy, tarixiy, adabiyot, texnika va kompleks ixtisosliklariga ajratilgan. Muzeylar asosan xalq ongida g‘oyaviy-axloqiy va estetik tarbiyani shakllantirish uchun xizmat qilganligi bois, ekspozitsiya tuzishda sovet davri g‘oyasiga mos kelmaydigan eksponatlar olib tashlangan. Natijada, hajmdor predmetlarning soni kamaytirilib, g‘oyani singdiruvchi hujjatlardan foydalanilganligi bois ekspozitsiyalar zerikarli bo‘lib qolgan. Muzey to‘plamlarini ommaning mulki qilish uchun ularning ekspozitsion maydonlarini kengaytirishga byudjet mablag‘larini ajratish, Res-

¹⁶⁴ Постановление Совета Министров СССР от 16 сентября 1982 года N 865 «Об утверждении Положения об охране и использовании памятников истории и культуры».

publika muzeylarining ekspozitsion va fond maydonlarini kengaytirish uchun O‘zbekistondan olib chiqib ketilgan va Moskva, Sankt-Peterburg hamda boshqa shaharlarning muzey fondlarida saqlanayotgan portretlar, tarixiy-madaniy merosga oid buyumlarni qaytarish masalalari o‘rin olgan. Tarix va madaniyat yodgorliklariga bo‘lgan munosabat har bir fuqaroning vatanparvarlik burchi bo‘lib, sovet qonunchiligi tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish, bu sohada qonuniylikni mustahkamlash ishini yaxshilashga xalqni chaqirgan¹⁶⁵.

Nazariy-uslubiy yondashuvlarga ko‘ra, moddiy madaniy merosni muhofaza qilishni tahlil qilishda tarixiy va nazariy-metodologik yo‘nalishlardan madaniy merosni muhofaza qilish tarixi, terminologiya sohasidagi nazariy ishlanmalar, yodgorliklarni baholash mezonlari hamda moddiy merosni muhofaza qilish jihatlari aniqlandi. Muzey ashyolari, moddiy madaniy meros yodgorliklarining tarixi, jamiyatning moddiy madaniy merosga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, saqlash va yig‘ilgan tajribani chuqur anglash, faqatgina insonlarni dunyoqarashini kengaytirishda, muzeylarning mustaqil madaniy hodisa sifatida zamonaviy jamiyatdagi tutgan o‘rniga baho berildi. Mavjud adabiyotlarda O‘zbekiston moddiy madaniy merosini o‘rganish, saqlash, muzeylashtirish masalalarining nazariy jihatlari to‘liq ifoda etmaganligi e‘tirof etildi. Moddiy madaniy merosning turlari va qamrovini aniqlash hamda tasniflash, ularni saqlash, targ‘ib etish borasidagi o‘tmish va jahon tajribasi hamda yutuqlarini tahlil etish, muzeylarning tarixiy va amaliy ahamiyatini ochib berish, O‘zbekistonda olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar, nashr etilayotgan adabiyotlarda o‘zining to‘liq aksini topmagani aniqlandi. Xususan, tadqiqotda qo‘yilgan davrda moddiy madaniy merosning o‘rganilishi, saqlanishi hamda muzeylashtirishining nazariy-metodologik asoslari, O‘zbekiston muzeylarining mustaqillik davridagi faoliyati, taraqqiyoti va rivojlanish istiqbol-lariga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi fundamental ishlar yetarli emasligi ta‘kidlandi.

¹⁶⁵ 1985-yil 18-yanvar, RSFSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarori tomonidan o‘zgartishlar kiritilgan hujjat matni. //http://www.eclife.ru/laws/ru/18.php.

Rossiya imperiyasi davrida Turkistondagi muzeylar o'lkaning moddiy va ma'naviy, yer osti va usti boyliklarini chuqur o'rganib, Rossiya manfaati yo'lida foydalanish uchun tashkil etilgan bo'lsa, sovet davrida bu ishlar o'zgacha tusga ega bo'ldi¹⁶⁶. Sun'iy ravishda muzey faoliyati doirasi ommaviy g'oyaviy ish bilan qisqartirildi, muzeyda ish olib borish uslubi va shakllari soddalashtirildi. Ayniqsa, g'oyaga mos kelmaydigan diniy yodgorliklarning ahamiyati pasaydi. Asosiy e'tibor tomoshabinlar bilan siyosiy-ma'rifiy ish olib borishga qaratildi. Bunda asosan ma'ruza va ko'chma ko'rgazmalardan kengroq foydalanildi. Sovet davrida ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlari, ya'ni masjid va madrasa kabilar – ombor, yotoqxona kabi funksional obyektlarga aylantirildi.

O'zbekistonning tarixiy, madaniy merosini muhofaza qilish va boshqarish sohasi tahlili, qator vazifalar hal qilinmaganligini ko'rsatdi. Tarixiy va madaniy meros obyektlarini, karvonsaroy, masjid, madrasalar, tarixiy shaxs va avliyolar maqbaralaridan foydalanishda talablar, cheklovlar hamda majburiyatlarga rioya etilishini monitoringini tashkil etish, o'tkazish tartibi hamda ularni saqlashga doir aniq va tizimli yondashuvning yo'qligi sohaning asosiy muammolari sifatida o'rganildi.

Sovet davrida yodgorliklarni muhofaza qilishning davlat va jamoat shakllarining maqsadlari ko'p jihatdan bir-biriga uyg'un, ammo sezilarli darajada farq qildi. Shuningdek, davlat siyosati tizimi tarixiy va madaniy merosdan foydalanish sohasidagi belgilangan cheklovlar asosida amalga oshirishga qaratilgan edi. Mustaqillik yillaridagi moddiy madaniy merosning ahamiyati, muzeylarning tarixi, faoliyati, taraqqiyoti, xususiyatlari kabi dolzarb masalalarini tadqiq etish ishda asosiy o'rinni egallaydi. Shundan kelib chiqib, tadrijiy xronologik tahlillar asosida O'zbekiston moddiy madaniy merosini holatini, muzey ishini takomillashtirish chora-tadbirlarini aniqlash maqsadida 1867–1990-yillardagi moddiy madaniy merosga e'tibor va muzeylar faoliyatiga doir amalga oshirilgan ishlarning ijobiy va salbiy tomonlari tadqiq etildi. Rossiya

¹⁶⁶ Kuryazova D.T. O'zbekistonda 1917–80-yillarda muzeylar va madaniy merosga bo'lgan munosabat // O'ZMU xabarlari. – T.:2017. – № 1/4. – B. 58-61.

imperiyasi davrida tarixiy va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda saqlash bo'yicha davlat organlarining ishini tashkil etish tizimining yo'qligi sababli ular ayanchli holatda qolganligi, Turkistonning tarixiy va madaniy meros obyektlarini hisobga olish bo'yicha me'yoriy, huquqiy va uslubiy, tashkiliy, moliyaviy va boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqib, joriy etish lozimligiga e'tibor qaratilmaganligi aniqlandi. Sovet davrida esa, Turkomstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris kabi davlat tashkilotlari yodgorliklarni muhofaza qilish, saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilishga oid tegishli farmon, qaror, qonunlar ishlab chiqilgan, qator ishlarni amalga oshirgan, bo'lsa-da, davlat siyosati tizimi moddiy madaniy merosga doir masalalarga belgilangan cheklovlar asosida e'tibor qaratganligi dalillandi.

II-BOB. MODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISHDA O'ZBEKISTON HAMDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI

Mustaqillik yillarida O'zbekiston moddiy madaniy merosini saqlashga doir davlat siyosatining yo'nalishlari

Muzey ishi hamda moddiy madaniy merosga bo'lgan e'tibor bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda va xalqaro dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalar qatorida alohida ahamiyatga ega. Jumladan, moddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ularni kelgusi avlodlarga yetkazish uchun O'zbekistonda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ushbu muammo jahonda qator xalqaro tashkilotlarning ham e'tiborida bo'lib, bu borada maxsus me'yoriy hujjatlar hayotga tatbiq etilgan. Shunga qaramay, madaniy boyliklarni saqlash, muzeylashtirish sohasi huquqiy jihatdan hamon o'zining mustahkam o'rnini topmagan.

O'zbekistonning uzoq asrlik tarixini aks ettiruvchi yuzlab yodgorliklarining aksariyati Umumjahon tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, ularni o'rganish, ommalashtirish va muhofaza qilish – barcha ilmiy hamjamiyatlar, mamlakatlar va ko'p millatli xalq uchun muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Madaniy boyliklar ta'lim, fan va madaniyatning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, xalqlar madaniy hayoti va davlatlarning o'zaro hamkorligini boyitishga yordam beradi. Moddiy madaniy meros yodgorliklarini keyingi avlodlar uchun saqlab qolish va ommalashtirish har bir davlatning madaniy rivojlanishidagi qonuniy jarayon hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahondagi xalqaro tashkilot, davlatlar hamkorligi har tomonlama diplomatik aloqalarning zamonaviy shakli sifatida o'z o'rniga ega. Tizimni amaliy jihatidan rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkilotining ahamiyati muhim bo'lib, uning faoliyati bevosita YUNESKOning Umumjahon merosi Fondi, Umumjahon merosi Qo'mitasi, Umumjahon merosi Byurosi kabi bir nechta tu-

zilmalardan iborat. Bundan tashqari, madaniy merosni saqlashga doir xalqaro tashkilotlardan Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlarni saqlash va qayta tiklash bo'yicha ekspert yordamini amalga oshiruvchi hukumatlararo idora (ICCROM), muzeylar xalqaro kengashi, muzeylar va ulardagi xodimlarni xalqaro darajada rivojlantirish va ko'mak berish (ICOM 1946-yilda bunyod etilgan), yodgorliklar va tarixiy manzilgohlarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro kengash (ICOMOS)lar faoliyat olib boradi¹⁶⁷. Kengash Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi taklif qilinayotgan obyektlarga baho berishni amalga oshirib, texnik ko'mak ko'rsatadi va ro'yxatga kiritilgan obyektlar haqida davriy hisobotni tuzib chiqadi. Umumjahon merosi shaharlari tashkiloti (OWHC) esa bilimlar va boshqaruv tajribalari almashinuvi, unga kiruvchi shaharlardagi yodgorliklar va tarixiy joylarni muhofaza qilishda o'zaro yordam ko'rsatadi.

Har bir mamlakatda madaniy boyliklar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ular mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan, huquq tomonidan muhofaza qilinadigan va odamlarning turli avlodlari o'rtasida bog'lovchi halqa sifatidagi obyektlar hisoblanadi. Jamiyatda noyob madaniy-tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilishning umumiy tizimi davlat idoralari tomonidan ro'yxatga kiritilgan va aniqlangan obyektlardan iborat. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro qonunchilikning amaliy ahamiyati juda katta. U asosan davlatlar faoliyatining xalqaro jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan axloqiy va huquqiy qoidalarini ishlab chiqadi, davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlarini yodgorliklarni qo'riqlash uchun hamkorlikka chaqiradi va jamiyatni barqaror rivojlantirish maqsadlari yo'lida madaniy merosdan foydalanishni rag'batlantiradi¹⁶⁸.

Madaniy merosni saqlashda xalqaro hamkorlikning shakllanishi bevosita Xalqaro muzeylar kengashi, ya'ni ICOMS (keyin-

¹⁶⁷ ICOMOS – Yodgorliklar va tarixiy manzilgohlarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro kengash (nodavlat xalqaro tashkilot). Umumjahon merosi konvensiyasining 8-moddasiga muvofiq ICOMOS maslahatchi va tashqi nazorat olib boruvchi tashkilot deb tan olingan.

¹⁶⁸ Muxamedova M. S. Muzeyshunoslik sohasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining o'rnini (XX-XXI asrlar). – T.:Yosh kuch press matbuoti, 2017. – B. 135.

gi o'rinlarda ICOMS deb ataladi) bilan bog'liq. Uning faoliyati Fransiyaning 1922-yildagi Millatlar ligasi doirasida Intellectual hamkorlik bo'yicha xalqaro komissiya tuzish haqidagi taklifiga binoan boshlangan¹⁶⁹. 1926-yilda esa Fransiyaning moliyaviy ko'magida Parijda Xalqaro intellektual hamkorlik instituti tuzilib, amalda komissiyaning ishchi organi va Millatlar ligasining doimiy kotibiyatiga aylanadi. Mazkur komissiya o'z faoliyatini 1939-yilda tugallab, institut esa 1946-yilgacha faoliyat ko'rsatadi va o'z vakolatlarini yangi tuzilgan YUNESKO tashkilotiga topshiradi.

O'rganilayotgan muammo doirasida madaniy merosni saqlash va uni muzeylashtirishning o'ziga xos jihatlari avvalo xalqaro miqyosdagi tashkilotlar va ularning faoliyatini bevosita shunga qaratilganligini tahlil qilish mavzuning dolzarbligini oshiradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, xorij davlatlarida ilgariroq boshlangan harakatlarning debochasi aynan madaniy merosni muhofazasi doirasida bo'lib o'tadi. Xususan, XX asr boshlarida Angliya, Shveysariya, Shvetsiya, Rossiya va AQSH kabi davlatlarda yodgorlikning tarixiy-madaniy muhiti, ya'ni «madaniy va tarixiy manzara», «tabiat yodgorligi» tushunchalari shakllana boshlanadi. Masalan, tarixiy manzara madaniy merosning mustaqil va o'z qiymatiga ega qismi sifatida tan olinib boshladi. Hozirgi kunga kelib «madaniy landshaft» termini ishlatilib, inson va tabiat ijodiy hamkorligi natijasi tushuniladi. Madaniy landshaft tushunchasi madaniy meros obyektlariga nisbatan 1990-yillardan boshlab qo'llanila boshlandi. Bunga YUNESKO hujjatlariga 1972-yilda qabul qilingan «Umumjahon tabiiy va madaniy merosini muhofaza qilish to'g'risida»gi Konvensiyani qo'shilishi sabab bo'ldi.

M.Ye.Kuleshovanning fikriga ko'ra, madaniy landshaftni asrash yoki saqlash g'oyasining ildizlari XIX asrda qator mamlakatlarda tabiat yodgorliklarini qo'riqlashga qaratilgan ijtimoiy-ilmiy harakat jarayonlariga borib taqaladi. Jumladan, birinchi tabiiy park (bog') 1864-yilda AQSHning Yosemite vodiysida barpo etilib, keyinchalik u milliy parkka aylandi. 1872-yilda ham Yelouston nomli birinchi

¹⁶⁹ The Athens Charter for the Restoration of Historic Monuments (1931) // International Charters for Conservation and Restoration / ICOMS. – Munchen: 2004. – Vol. I. – P. 31-33.

milliy park tashkil etilib, aynan shu davrdan Amerikada qo'riqlanadigan hududlar tizimini barpo etishga kirishiladi¹⁷⁰. Madaniy noyob hududlar utilitar bioresurs – ahamiyatiga ega bo'lgan (xususiy hududlar)ni qo'riqlashni zamonaviy shakllarda tashkil etish Rossiyada XX asr boshlarida boshlandi. O'sha davrda Rossiya imperiyasining mavjud mafkurasiga ko'ra, madaniy merosni muhofaza qilishning ikki yo'nalishi utilitar-ilmiy va etikaviy-estetik yo'nalishlari paydo bo'ldi.

O'z o'rnida ta'kidlab o'tish kerakki, xuddi shu davrda Yevropa mamlakatlarida ham birinchi milliy parklar paydo bo'ldi. M.Nins 1931-yilda chop etilgan Museyon jurnalidagi maqolasida Belgiyada manzaralarni muhofaza qilish 1835-yilda tuzilgan yodgorliklar va tarixiy hududlarni qo'riqlash bo'yicha qirolik komissiyasining dasturiga kiritilganligi haqida ma'lumot beradi¹⁷¹. Keyinchalik estetik nuqtayi nazardan tabiatni qo'riqlash bo'yicha ham qator jamiyatlar tuziladi. Dj.Richardson esa, 1895-yilda Buyuk Britaniyada tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va manzarali joylarni muhofaza qilish bo'yicha Milliy park tuzilganligi, manzaralarni saqlash uchun «Angliya qishloq manzarani saqlash bo'yicha kengash» ko'ngilli tashkiloti ham shug'ullanganligini ta'kidlaydi¹⁷².

XX asr boshlaridan manzaralarni asrash g'oyasi madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha milliy amaliyotlarda ko'zga tashlanayotgan bo'lsa-da, bu masalaning xalqaro darajadagi yechimi 1930-yillargacha muhokama qilishdan nariga o'tmadi. ICOMS faoliyatida manzaralarni asrash masalasi batafsil ko'rib chiqilmadi. Faqat 1972-yilga kelibgina Umumjahon tabiiy va madaniy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya imzolandi¹⁷³.

¹⁷⁰ Кулешова М.Е. Формы охраны территорий природного и культурного наследия в США и России // Охрана наследия за рубежом: Опыт прошлого и современные проблемы. РНИИ культурного и природного наследия. (Сост. Е. В. Андреева, отв. ред. Р. А. Мнацаканян). – М.: 1994. – С. 70-79.

¹⁷¹ Nyns M. La Legislation des Monuments d'art et d'histoire en Belgique // Mouseion. -Paris: Office international des musees, 1931. Vol. 17-18. – P. 56-63.

¹⁷² Richardson J. S. La protection des Monuments anciens et des Monuments historiques en Grande-Bretagne // Mouseion. – Paris: Office international des musees, 1937. Vol. 37-38. – P. 156.

¹⁷³ Muxamedova M.S. Muzeysunoslik sohasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining o'rni (XX-XXI asrlar). – T.: «Yosh kuch press matbuoti» MChJ, 2017. – B. 170-176.

Umuman olganda, xalqaro tizimda madaniy merosni muhofaza qilishning boshlanishi XIX asr o'rtalariga, aniqroq aytganda 1930-yillarga to'g'ri keladi va bu keyingi davrda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur davr madaniy merosni huquqiy tartibga solish uchun jiddiy sa'y-harakatlarning avj olishi bilan xarakterlanadi. Bu sohadagi muammolarni yaxlit holda hal qilishga urinish ICOMS faoliyatining bosh mezoni bo'ldi. Qisqa vaqt ichida yodgorliklarni ta'mirlash va konservatsiyalash, arxeologik qazish-malarni reglamentatsiya qilish, madaniy boyliklarni o'g'irlash va noqonuniy olib ketish hollarining oldini olish, harbiy harakatlar davrida yodgorliklarni himoya qilish masalalari hal etildi. Restitutsiya (noqonuniy olib ketilgan madaniy boyliklarni egasiga qaytarish) institutini shakllantirish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yildi. Ba'zi masalalar xalqaro shartnomalarda aniq mujassamlantirildi, ba'zilar esa amalga oshmagan loyiha sifatida qolib ketdi. 1930-yillar yodgorliklarni muhofaza qilish va tinchlikni saqlash masalalarida imkoniyatlar qo'ldan boy berilgan davr bo'ldi. Shunga qaramay, ICOMS o'z faoliyatida madaniy merosni muhofaza qilish xalqaro tizimining asosini shakllantirdi va YUNESKOning keyingi faoliyati shu asosda tashkil etildi.

Tinchlik davrida madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha, ya'ni «Madaniy merosga egalik qilish, noqonuniy olib kirish va olib chiqishni taqiqlash va oldini olishga yo'naltirilgan vositalar to'g'risida»gi (Parij. 1970-yil 14-noyabr)¹⁷⁴, «Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida»gi (1972-yil 16-noyabr)¹⁷⁵ YUNESKO Konvensiyalari va «Tarixiy ansamblarni saqlash va ularning zamonaviy roli to'g'risida»gi (1976-yil)¹⁷⁶, «Madaniy boyliklarni xalqaro almashinuvi to'g'risida»gi (1976-yil)¹⁷⁷,

¹⁷⁴ UNESCO convention on the means of prohibiting and preventing the illicit import, export and transfer of ownership of cultural property. Adopted by the General Conference at its sixteenth session Paris, November 1970. – Paris. – P. 23.

¹⁷⁵ Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. Adopted by the General Conference at its seventeenth session Paris, 16 November 1972. – Paris. – P. 16.

¹⁷⁶ Рекомендация о сохранении и современной роли исторических ансамблей (26 ноября 1976). Источник: <https://icom-russia.com/data/dokumenty-yunesko/>

¹⁷⁷ Рекомендация о международном обмене культурными ценностями. Источник: <https://icom-russia.com/data/dokumenty-yunesko/>

«Umumjahon merosni muhofaza qilish haqidagi konvensiyani bajarish bo'yicha» (2005-yil)¹⁷⁸, «Umumjahon merosni muhofaza qilish haqidagi Konvensiyani bajarish to'g'risida»gi (2017-yil)¹⁷⁹ qo'llanmalar tasdiqlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, ilmiy va nazariy tashkiloti Bosh Konferentsiyasining XVII sessiyasida 1972-yil 16-noyabr kuni qabul qilingan «Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida»gi Konvensiya tarixiy-madaniy obyektlarni saqlash konvensiyalari va dasturlari ichida eng foydali va e'tiborlisi hisoblanadi¹⁸⁰. Konvensiyaning asosiy maqsadi – jahon miqyosidagi mashhur madaniy yodgorliklar va tabiiy obyektlarni aniqlashda, muhofaza qilishda va har tomonlama yordam berishda xalqaro hamjamiyat kuchlarini birlashtirishdir. Konvensiyaning asosiy vazifalari a) butun dunyo mamlakatlaridagi madaniy va tabiiy obyektlarni Umumjahon miqyosidagi maqomini belgilash; b) madaniy va tabiiy yoki butun insoniyat uchun muhim va qadrlı bo'lgan yodgorliklarni qutqarish va muhofaza qilishni samarali amalga oshirish maqsadida barcha millatlar va xalqlarni birlashtirish hisoblanadi¹⁸¹.

Umumjahon merosi bo'yicha Konvensiyasini imzolagan mamlakatlar ixtiyoriy ravishda o'z chegaralari doirasida butun insoniyat uchun madaniy merosni muhofaza qilish va saqlash hamda boshqa davlatlarga merosni muhofaza qilish sa'y-harakatlarida ko'makdosh bo'lish majburiyatini olgan edi. Faqatgina mamlakatlar emas, balki, alohida fuqarolar ham Konvensiyaning maqsadli guruhiga kiradi. Ijtimoiy va ta'lim dasturlari yordamida Umumjahon merosi bilan ishlash va uni saqlash bilan avvalambor yoshlar tanishishi muhimdir.

1975-yilning noyabriga kelib Konvensiya kuchga kirganidan so'ng sekin-asta uni hayotga tatbiq etish borasida YUNESKO tarki-

¹⁷⁸ Руководство по выполнению Конвенции об охране всемирного наследия. Источник: <http://www.nhpfund.ru/files/operational-guidelines-ru.pdf>

¹⁷⁹ Руководство по выполнению Конвенции об охране всемирного наследия. Источник: <file:///C:/Users/Admin/Desktop/document-57-23.pdf>

¹⁸⁰ Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. Adopted by the General Conference at its seventeenth session Paris, 16 November 1972. – Paris. – P. 16.

¹⁸¹ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/heritage.shtml.

bida bo'lmagan muassasalarni hamkorlikka jalb qiladigan tuzilmalar shakllana boshladi. Konvensiyani hayotga tatbiq qilish topshirilgan, konvensiya doirasidagi barcha noqonuniy sa'y-harakatlar uchun javobgarlikka tortuvchi yuqori idora – Umumjahon merosi qo'mitasi bo'lib, uning ishiga Umumjahon merosi bo'yicha Byuro va Umumjahon merosi bo'yicha Markaz, hamda hamkor-tashkilotlar ko'maklashadi. Umumjahon merosi ro'yxati va tahdid ostidagi Umumjahon merosi ro'yxati uchun obyektlarni tanlash qo'mitaning asosiy vazifasidir. Bir vaqtning o'zida Qo'mita bu maqsadlarni hayotga tatbiq etish uchun usullarni ishlab chiqadi. Shunday qilib, YUNESKO Konvensiyasi Umumjahon merosi obyektlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlik mexanizmlarini belgilaydi.

2020-yil oktyabr oyi holatiga ko'ra, Umumjahon madaniy va tabiiy merosi va aralash obyektlar ro'yxatiga 1121 tasi kiritilgan¹⁸². Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish haqidagi Konvensiyani 186 ta davlat ratifikatsiya qilgan.

1964-yili Venetsiyada yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo xalqaro tashkilot tuzish masalasi muhokamasiga bag'ishlangan Kongress o'tkazilgan. Unda 61 ta mamlakatdan vakillar ishtirok etishib, yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish, restavratsiya va konservatsiya qilishning asosiy tamoyillari Venetsiya xartiyasi nomli hujjatda mujassamlashtirildi¹⁸³.

Yangi xalqaro tashkilot va axborot markazini tashkil etishdan tashqari, ko'hna obidalarni asrab-avaylash, restavratsiya qilishning asoslari, texnikasi hamda yodgorliklarni asrab-avaylashning moliyaviy jihatlari va boshqa masalalarga doir qator rezolyutsiyalar ham qabul qilingan.

Venetsiya xartiyasi yodgorliklarni muhofaza qilish, konservatsiya va restavratsiya qilish tamoyillari bo'yicha muhim masalalarni qamrab olgan. Xususan, hujjatda obidalarni saqlab qolish, restavratsiya (faqat favqulodda holatlarda) qilish va gipoteza bosh-

¹⁸² <https://ru.unesco.org/news/chasto-zadavaemye-voprosy>

¹⁸³ Пугаченкова Г.А. К созданию региональной инициативной группы республик Средней Азии Советского комитета ИКОМОС// Архитектура и строительство Узбекистана. – 1982, – №4. – С. 31-33.

langanda to'xtatish qayd etilgan. Ayniqsa, yodgorliklar majmua va ansambllari, jumladan, atrof-muhitga alohida e'tibor qaratish, arxeologik qazishma ishlarini barcha ilmiy me'yorlarga amal qilingan holda olib borish hamda aniqlangan xarobalarni saqlab qolish ko'zda tutilgan¹⁸⁴. IKOMOS o'z faoliyati bilan turli mamlakatlarni insoniyatning madaniy qadriyatlarini asrab qolishdek yagona maqsad yo'lida birlashtirganligi bois, internatsional ruhi bilan ajralib turadi. IKOMOS tomonidan zamonaviy qurilgan ansambllarni saqlab qolish, toshlarni, g'ishtlarni, xom-ashyolarni va devor dekorlarini mustahkamlash, kichik shahar va qishloqlarning tashqi ko'rinishini saqlab qolish, obidalar va turizm, restavratsiya amaliyotida fizik-kimyoviy metodlarning qo'llanilishi, zamonaviy jamiyatda madaniy merosning o'rni masalalariga ham e'tibor qaratadi¹⁸⁵.

IKOMOS Kengashi qo'mitasining bir nechta mintaqaviy tashabbus guruhlarini tashkil etilgan:

- Latviya, Litva va Estoniyani o'z ichiga olgan Boltiqbo'yi guruhi (markazi Vilnyusda);

- Gruziya, Ozarbayjon va Armanistonni o'z ichiga olgan Kavkazorti guruhi (markazi Tbilisida). Shu bilan birga, markazi O'zbekistonning Toshkent shahrida ham bo'lib, O'rta Osiyoning to'rtta respublikasini o'z ichiga olgan O'rta Osiyo mintaqaviy guruhi tuzilishi ham belgilandi. 1982-yili Toshkentda Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston vakillari ishtirokidagi birinchi tashkiliy yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda mintaqaviy guruh faoliyatining tashkiliy masalalari hal qilinib, uning asosiy maqsadlari belgilandi, rejalashtirilgan ishlar dasturi qabul qilingan.

IKOMOS Kengashi qo'mitasining O'rta Osiyo respublikalari mintaqaviy tashabbus guruhi to'rtta guruhdan iborat bo'lib, ular respublikalar yodgorliklarini muhofaza qilish jamiyatlari huzuridagi seksiyalar tashkil etish huquqiga ega edilar. Har yili har bir respublikada:

¹⁸⁴ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

¹⁸⁵ Пугаченкова Г.А. К созданию региональной инициативной группы республик Средней Азии Советского комитета ИКОМОС// Архитектура и строительство Узбекистана. – 1982, – №4. – С. 31 -33.

1. O'rta Osiyo respublikalarida obidalar muhofazasi – Samarqand, O'zbekiston.

2. Arxeologik qo'riqxonalar va majmualarni (Nisa, Qo'hna-Urganch va Mizdoqxon misolida) muhofaza qilish prinsiplari – Turkmaniston, Qoraqalpog'iston bilan hamkorlikda, Ashxobod, Qo'hna-Urganch, Mizdoqxon.

3. Me'morchilik yodgorliklarini konstruktiv mustahkamlash metodlari hamda asl materiallar yoki ularning zamonaviy o'rnini bosuvchilarini qo'llash muammolari – Qirg'iziston, O'zgan.

4. O'rta Osiyo xalqlari binolari va me'moriy dekorlarini saqlab qolish – Tojikiston, Dushanbe kabi to'rt guruh qiziqishlariga yaqin mavzu bo'yicha konferensiyalar o'tkazilgan¹⁸⁶.

Birinchi konferensiya O'zbekiston respublikasi tashabbus qo'mitasi tomonidan tashkil etilib, unda IKOMOS Kengashi qo'mitasining O'rta Osiyo respublikalari mintaqaviy tashabbus guruhining rejalari va faoliyati boshlanishi haqida e'lon qilindi. Asosiy mavzu sifatida «O'rta Osiyo respublikalarida obidalar muhofazasi» belgilandi¹⁸⁷. Bundan tashqari, «Arxeologiya obidalarini muhofaza qilish va konservatsiyalash muammolari» maxsus mavzu sifatida muhokama qilindi. Zero, ushbu davrda me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish butun O'rta Osiyo mintaqasida alohida ahamiyat kasb etib bordi. Bir tomondan, ekin ekiladigan yerlarning kengayishi, yo'llar, aholi punktlari, sug'orish inshootlarining qurilishi, tarixiy shakllangan shaharlar – Samarqand, O'zgan, O'ra-Tepa, Leninobod, Qo'hna-Urganch va boshqalarning jadal ravishda qayta qurilishi natijasida obidalarining ko'pchiligi yo'q bo'lib keta boshladi. Boshqa tomondan, ba'zi hollarda arxeologlar o'z ishiga nisbatan mas'uliyatsizlik bilan yondashib, qazib olingan obyektlarni konservatsiyasiz qoldirishlari natijasida ular bir necha yil mobaynida yo'q bo'lib ketdi. Kengashning restavratsion ilmi va amaliyoti, obidalarini muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik, bu sohadagi eng yangi

¹⁸⁶ Rerix 2018-yil.

¹⁸⁷ Пугаченкова Г.А. К создание региональной инициативной группы республик Средней Азии Советского комитета ИКОМОС// Архитектура и строительство Узбекистана. – 1982, – №4. – С. 31-33.

tadqiqotlar va topilmalarni keng targ'ib qilish maqsadida mintaqaviy tashabbus guruhi tegishli axborotlarni IKOMOS Kengash qo'mitasiga jo'natishlari lozim. Shuning uchun ham bu qo'mitaning O'rta Osiyo respublikalarida mintaqaviy tashabbus guruhining tashkil etilishi, davlatlar va xalqlarning tinch yashashi, insoniyat tarixi davomida madaniy taraqqiyot bo'yicha erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolish yo'lidagi siyosatining yorqin namunasi bo'lib qoldi.

1995-yilning 22-dekabrida «Umumjahon madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida»gi Konvensiya ham O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinib, shu asosda Xiva shahridagi «Ichan-Qal'a», «Samarqand – madaniyatlar chorrahasi» obyekti, Buxoro va Shahrisabz tarixiy markazlari Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlar alohida muhofaza qilinadigan hududlar sifatida e'tirof etiladi hamda ularda rejalashtirilgan barcha qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari YUNESKOning Umumjahon merosi markazi va Madaniyat vazirligi bilan belgilangan tartibda amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston bilan hamkorlikni faollashtirish uchun Toshkentda YUNESKOning O'zbekistondagi Vakolatxonasi ochildi¹⁸⁸. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi bu tashkilotga a'zo bo'lgan dastlabki yillarda hamkorlik masalalari faqat madaniyat sohasiga qaratildi. Keyingi yillarda o'zaro hamkorlikning ko'lamini va ijtimoiy geografiyasi tobora kengayib bordi.

Ta'kidlash joizki, YUNESKO bilan hamkorlik yillarida Respublikada bir qator loyihalar amalga oshirilgan:

- «Loydan yasalgan madaniy meros majmualari, mahalliy mutaxassislarning malakasini oshirish. Buyuk ipak yo'li bo'yida joylashgan madaniy meros majmualarini ro'yxatdan o'tkazish»;
- «O'zbekistondagi budda merosi obyektlarini saqlash»;
- «O'zbekistonning kulolchilik san'ati»;
- «O'zbek gilamlarini tayyorlash san'ati. Buxoro va Xivada gilam to'qish va bo'yash o'quv markazlarini ochish»;

¹⁸⁸ UNESCO in Central Asia. – Paris: 1997. – P. 7.

- «Boysun hududining madaniy merosi»¹⁸⁹.

Bugungi kunda O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlarni tiklash, o'rganish, targ'ib etish, madaniy yodgorliklar, tarixiy obidalar, muqaddas qadamlarni saqlash, ta'mirlash hamda kelajak avlodlarga yetkazishda davlat tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatning tarixiy tajribasini aks ettiruvchi moddiy madaniy meros hamda muzeylarga bo'lgan munosabat o'zgarib, ularni muhofaza qilishga doir masalalar muhim muammolardan biriga aylanib, nafaqat xalqaro jamiyatlar, balki, davlatning qonunchilik aktlari va huquqiy siyosati asoslari¹⁹⁰ davlat hamda jamiyatning muhim vazifalaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan¹⁹¹.

O'zbekistonning moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash, muhofaza qilishda madaniy merosining mazmuni juda xilma-xil va chuqur tarixiy ildizga ega. Birinchi navbatda bu, zamonaviy O'zbekiston hududida shakllangan o'zbek xalqining kelib chiqishiga tegishli faktologik materiallarni to'ldiradi.

¹⁸⁹ Sayfullaev D. O'zbekiston va YuNESKO: Madaniy diplomatiya taraqqiyoti yo'lida. // Moziydan sado, Toshkent, 2019. – № 4 (84). – B. 2.

¹⁹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda qabul qilingan «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 1994-yil 24-dekabr; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvar «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni // Xalq so'zi, 1998-yil 13-yanvar; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 1998-yil 6-mart; «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2001-yil 30-avgust, 269-II-son // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 180-modd; «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2002-yil 29-iyul // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002-yil. – № 7 – B. 63; «Muzeylar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2008-yil 12-sentyabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil. – № 37-38. – B. 12-20; «Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2009-yil 16-iyun. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil., 42-son, 448-modd.; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevralda qabul qilingan «Moddiy madaniy meros ob'ektlari tarixiy-madaniy ekspertizasi to'g'risida»gi qarori. // Xalq so'zi, 2011-yil, 24-fevral.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvarda qabul qilingan «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2018-yil 17-yanvar.

¹⁹¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. – B. 17.

O'z o'rnida aytib o'tish joizki, tarixiy-madaniy merosga taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasining 1992-yilgi va O'zbekiston SSRning 1977-yilgi Konstitutsiyalari qiyosiy solishtirilganda, yangi mustaqil konstitutsiya qoidalari uchta xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, O'zbekistonning konstitutsion rivojlanishi tarixida ilk bor madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari nafaqat e'lon qilinishi, balki kafolatlanishi; madaniyat yodgorliklari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va o'zbek xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlab qolish haqida yoziladi, bu esa uning ma'naviy-axloqiy tiklanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi¹⁹².

XX asrning oxirlariga kelib jamiyat va inson hayotida muhim o'rin tutuvchi muzey va muzeyshunoslikka e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hukumat tomonidan muzey ishlarini yaxshilashga yo'naltirilgan farmon, qonun, qarorlar bugungi kunda muzeylar hayotiga tatbiq etilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda qabul qilingan «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi» qarori muzeyshunoslik va muzey ishiga oid dastlabki hujjatlardan biri hisoblanadi¹⁹³. Mazkur hujjatda respublika muzeylarining vazifalari, istiqbolli rejalari belgilab berilgan bo'lib, asosan O'zbekiston muzeylari moddiy madaniy boyliklari fondi to'g'risidagi Nizom, muzeylarda saqlanayotgan tarixiy-madaniy boyliklarni ro'yxatga olish, jamlash va saqlash tartibi to'g'risida yo'riqnoma ishlab chiqish hamda tasdiqlatish ko'zda tutildi. Qarorda O'zbekiston fuqarolarini chet ellarda saqlanayotgan tarixga oid osori-atiqalar bilan tanishtirish hamda muzeylardagi noyob eksponatlar orqali tarixni va bugungi yutuqlarni keng targ'ib etish uchun belgilangan xalqaro tartib asosida xorijiy mamlakatlar muzeylari bilan o'zaro ko'rgazmalar ayirboshlash yuzasidan aniq tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi belgilandi.

¹⁹² <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-34337-1.html>.

¹⁹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda qabul qilingan «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi» qarori Xalq so'zi, 1994-yil 24-dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni muzeylar maqomini yuksaltirishga qaratilgan. Unda O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularni xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini yuksaltirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab-asrash lozimligi ta'kidlandi. Ularni o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib etish, o'zbek xalqi ongida milliy g'urur va iftixor, Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish lozimligi ko'rsatildi. Muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligining eng ilg'or tajribalarini qo'llash uchun zarur sharoitlar yaratish lozimligi ta'kidlandi¹⁹⁴. Farmon asosida muzeylar faoliyatini jahon andozalariga moslab takomillashtirish bo'yicha ilmiy konsepsiya va dasturlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, muzey ishlarini yaxshilash borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martdagi «Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori alohida ahamiyat kasb etdi¹⁹⁵.

2008-yil 12-sentyabrda esa O'zbekiston Respublikasining «Muzeylar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib, muzeylarning tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga e'tibor qaratildi¹⁹⁶.

Bundan tashqari, O'zbekistonda moddiy madaniy merosni saqlashga doir ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham joriy etildi. 2009-yilda O'zbekiston hududidagi arxeologiyaga oid yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish va ulardan foydalanish ishlarini tartibga solish maqsadida «Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza

qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan¹⁹⁷. Unda arxeologiya merosi ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqi davlatga tegishli bo'lib, unga taalluqli ashyolar operativ boshqarish huquqi asosida fan, madaniyat va ta'lim muassasalariga birlashtirib qo'yilishi mumkin ekanligi, arxeologiya merosi ob'ektlari moddiy madaniy meros ob'ektlari sirasiga kirishi belgilab qo'yildi. Mazkur hujjat arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini, arxeologiya merosi ob'ektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish va ulardan foydalanish, arxeologiya merosi ob'ektlarining arxeologiya tadqiqotlarini qanday amalga oshirish masalalarini ham o'z ichiga olgan.

O'zbekistondagi arxeologik ob'ektlarni o'rganish bo'yicha qator ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan, Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi Uchqulox yodgorligida Italiya Rim universitetining «O'rta Osiyo va Hindiston departamenti» olimlari bilan arxeologik ishlar olib borildi (Mirzaaxmedov D.K., Antonini K.S.). Asosan eramizning IV-VI asrlariga doir qatlamlar o'rganildi. O'zbekiston-Germaniya hamkorlikda Baqtriya yodgorligi yoshini aniqlash borasida 23 ta radiokarbon analizi o'tkazdi. Bu analizlar Germaniya arxeologiya instituti Yevrosiyo bo'limi qoshidagi laboratoriyada amalga oshirildi. Shuningdek, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi mashhur Jarqo'ton yodgorligi nafaqat saroy bo'lganligi, unda patriarxal oilalar yashaganligi, Jarqo'ton yaqinidagi mozorda 2000 dan ortiq qabr tadqiq etilib, Sopolli madaniyati aholisining diniy qarashlari to'g'risidagi ma'lumotlar Germaniyaning Arxeologiya institutining Yevrosiyo bo'limi xodimi Ditrix Xuff tomonidan qo'lga kiritilgan¹⁹⁸.

O'zbekiston moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish, o'rganish, ommalashtirish va targ'ib qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Qonuni. 2009-yil 13-oktyabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2009 yil, 42-son, 448-modda.

¹⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. 1998-yil 12-yanvar // Xalq so'zi, 1998-yil 13-yanvar.

¹⁹⁵ O'zbekiston Respublikasi VMning 1998-yil 5-martda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 1998-yil 15-mart.

¹⁹⁶ O'zbekiston Respublikasining «Muzeylar to'g'risida»gi Qonuni. 2008-yil 12-sentyabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil 37–38-son. – B. 12-20.

¹⁹⁷ O'zbekiston Respublikasining «Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni. 2009-yil 13-oktyabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2009 yil, 42-son, 448-modda.

¹⁹⁸ Görsdorf J., Huff D. C/14-Datierungen von Materialien aus der Grabung Džarkutan, Uzbekistan // AMIT. Band 33. - Berlin, 2001 - P. 75-87.

millashtirish, turizm salohiyatini oshirish maqsadida ham maxsus chora-tadbirlar qabul qilindi¹⁹⁹. Eng muhimi konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlari olib boriladigan moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini ro'yxatga olish va uni tasdiqlashga imkon berildi. Shunga asosan madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Hukumat komissiyasi²⁰⁰ tashkil etildi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi to'g'risida Nizomlar joriy qilindi. Shu hujjatlarga asosan moddiy madaniy meros obyektlari birlamchi xatlovdan o'tkazildi.

O'rganilayotgan mavzu doirasida olingan ma'lumotlar qamrovi o'ziga xos dalillarga asoslanadi. Hozirgi kunda shiddat bilan borayotgan muammoga doir o'zgarishlarning ko'lami huquqiy-me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topganligi fikrimiz dalilidir. Jumladan, Xiva shahrining tarixiy-me'moriy va turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, keng jamoatchilikni xalqimizning boy tarixiy merosi, madaniyati va san'atining noyob namunalari bilan tanishtirish, shuningdek, milliy madaniyat va an'analarni asrab-avaylash maqsadini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zimmasiga obyektni qayta ta'mirlash, rekonstruksiya qilish hamda undan foydalanishda «Nurillaboy» majmuasi obyektlarining ilmiy, badiiy va tarixiy-madaniy ahamiyatini saqlab qolish yuzasidan nazorat qilish vazifasi yuklatildi²⁰¹.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining boy madaniyati va qadimiy tarixini tiklash, alloma hamda avliyolarning diniy, ilmiy hamda ma'naviy merosini chuqur har tomonlama o'rganib, targ'ib etish, yosh avlodni ularning an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ish-

¹⁹⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-iyuldagi 200-sonli «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori // Xalq so'zi, 2014-yil 22-iyul.

²⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami / 2014 yil 29-iyul, 30-son, 372-modda.

²⁰¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami //2017-yil 29-may, 21-son, 393-modda.

larni amalga oshirish izchil davom ettirib kelinmoqda²⁰². Shu vazifalarni samarali hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universitetining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutini qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy yozma manbalarni saqlash, o'rganish, ilmiy asosda tadqiq etish va targ'ib qilish bo'yicha mamlakatimizdagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilash to'g'risidagi taklifi ma'qullandi²⁰³.

YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgani O'zbekiston madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof etilganining yorqin misoli bo'la oladi.

O'zbekistonning boy tarixi va madaniy merosini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi hamda «Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi qonunlarining qabul qilinishi hamda «Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risi»dagi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi doirasida Xiva shahri «Ichon-Qal'a» (1990), Buxoro shahrining tarixiy markazi (1993), Shahrisabz shahrining tarixiy markazi (2000) hamda Samarqand – madaniyatlar chorrahasi (2001) obyektlari YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritildi²⁰⁴.

Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, boshqarish hamda ulardan oqilona foydalanishning yagona mexanizmi ishlab chiqilib²⁰⁵, 2018-2023-yillarda moddiy mada-

²⁰² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi 2995-sonli «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. // Xalq so'zi, 2017-yil 25-may.

²⁰³ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2017-yil 29-may, 21-son, 389-modda.

²⁰⁴ UNESCO Country Programming Document (UCPD) for the Republic of Uzbekistan (2014-2017). UNESCO office in – Tashkent. 2013. – P. 50.

²⁰⁵ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi /www.lex.uz/. 2018 yil 17 yanvar.

niy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkil etilgan respublika komissiyasi chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, respublika-ning barcha moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarining turistik potentsiali, tarixiy-madaniy ahamiyati, texnik holati kabi ko'rsatkichlari bo'yicha xatlovdan o'tkazilishini tashkil etib, barcha obyektlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar bilan yaratiladigan ya-gona elektron ma'lumotlar bazasiga kiritildi. Qolaversa, malakali mutaxassislardan iborat hududiy ekspert guruhlarini meros obyektlarini xatlovdan ham o'tkazdilar.

Ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni xalqaro mezonlar asosida o'ziga xos xususiyatlarini o'zgartirmagan va tarixiy, estetik-ahamiyatini saqlab qolgan holda qisqa muddatlarda bajarish, shuningdek, ushbu maqsadlarga yo'naltirilayotgan mablag'lardan samarali foydalanilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoyishi chiqarildi²⁰⁶. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasidagi hududlarni muhofaza qilish to'g'risida»gi qarori²⁰⁷ esa Shahrizabz, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlardagi barcha qurilish ishlarini «Tarixiy shaharlar manzaralari to'g'risida»gi YUNESKO tavsiyanomasini inobatga olgan holda amalga oshirish zarurligi ko'rsatildi²⁰⁸. Bu esa o'rganilayotgan tadqiqot uchun muhim sanalib, o'zbek xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish borasida ulkan ishlar samaradorligini yana bir bor isbotlaydi.

²⁰⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018-yil 11-sentyabr.

²⁰⁷ O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 435-sonli «YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasidagi hududlarni muhofaza qilish to'g'risida»gi qarori.

²⁰⁸ http://livingheritage.by/1317_Norm_acts_RUS.pdf. Нормативные акты ЮНЕСКО по охране культурного наследия. Конвенции, протоколы, резолюции. – С. 131.

2018-yil 19-dekabrda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, ulardan oqilona foydalanish va say-yohlik salohiyati, o'rni va ahamiyatini oshirish hamda moddiy madaniy meros sohasidagi davlat nazoratini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi²⁰⁹. Unda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi hamda uning mintaqalararo davlat inspeksiyalari negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tashkil etildi. Departament bugungi kunda moddiy madaniy meros obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Demak, bundan ko'rinib turganidek, muhofaza qilinadigan moddiy madaniy merosi yodgorliklari qatoriga kiritilgan joylarda shaharsozlik, qurilish, meliorativ va xo'jalik ishlari faoliyatlarini, ularning tarixiy davr muhiti, tabiiy landshafti va o'ziga xosligini saqlab qolgan holda olib borilishini ta'minlashga asos solindi. Biroq buni amalga oshirishda qator muammolar ham mavjud bo'lib, ko'plab me'moriy obidalarining atrofidagi tarixiy, madaniy muhit inson omili natijasida yo'q bo'lib bormoqda. Masalan, Shahrizabzdagi Oqsaroy majmuasi, Samarqanddagi Shoxi-Zinda nekropoli binolari, Buxorodagi Ulug'bek madrasasi va Poyi Kalon ansambllarining atrofida mos kelmaydigan daraxtlarning ekilishi, noo'rin chiroqlar o'rnatilishi, tiklash jarayonida noan'anaviy qurilish ashyolarining qo'llanilishi ularning tashqi qiyofasi va atrofida-gi muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, restavratsiyada utilitar va badiiy qiymatning yo'qolishi, taqiqlangan buzilish yoki

²⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. // 2018-yil 24-dekabr, 51-son, 977-modda.

qurilishlar olib borilayotganligi bois restavratsion va analitik uslub hamda revalorizatsiya kriteriyalari (autentik, tarixiy qiymat, tashqi qiymat)dan foydalanish zarurati vujudga kelmoqda.

Arxeologiya ashyolari davlat katalogini yuritish, tadqiqotlarni amalga oshirish, arxeologiya ashyolarining hisobga olinishi va davlatga topshirilishini nazorat qilish hamda ularni fan, madaniyat va ta'lim muassasalariga biriktirish, shuningdek, arxeologiya tadqiqotlari bo'yicha ilmiy hisobotlarni qabul qilish, ekspertizadan o'tkazish va arxivini yig'ish, arxeologiya yodgorligini konservatsiyalash hamda muzeylashtirish to'g'ri tashkil etilmagan. Shu bois Departament zimmasiga milliy muzey fondining davlat katalogini yuritish, muzey ashyolari va kolleksiyalarini muzey fondi tasarrufidan chiqarish yoki boshqa muzey fondiga o'tkazish, madaniy boyliklarni realizatsiya qilish uchun ruxsatnomalar berish yuklatilgan²¹⁰.

Shuningdek, davlat tomonidan muhofaza ro'yxatlari va reyestr-lariga kiritilgan madaniy boyliklardan muzey ashyolari va kolleksiyalari, qadimiy yozma manbalarning but saqlanishini va hisobi yuritilishini tekshirish, olim, restavrator, ekspert va xalq ustalari bilan yaqin hamkorlik qilish, ta'mirshunoslikdagi o'ziga xos uslub, an'ana va maktablarini rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash, moddiy madaniy meros obyektlarini keng targ'ib etish va ommalashtirish, sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, innovatsion va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etish, elektron xizmatlarni rivojlantirish kabi vazifalariga ham e'tibor qaratish belgilandi. Departament qoshida tarix, me'morchilik, moddiy madaniy meros sohasida ilmiy, amaliy tajribaga ega bo'lgan 11 nafar olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat Ilmiy-ekspert kengashi tuzilib, 2019-2021-yillarda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan oqilona

²¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi «O'zbekiston respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha «yo'l xaritasi» ham ishlab chiqildi²¹¹.

Yo'l xaritasida ko'rsatilishicha, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish, moddiy madaniy meros sohasida kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va targ'ibot ishlarini kengaytirish, arxeologiya yodgorliklarini asrash va arxeologiya tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Biroq bu ishlar hali o'z samarasini bermagan bo'lsa-da, muzeylashtirish masalasini bosqichma-bosqich amalga oshirish ishlari ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston madaniyatini rivojlantirish va yodgorliklarni saqlash uchun huquqiy bazani yaratishga yo'naltirilgan muhim qonunchilik aktlari qabul qilinishi esa O'zbekistonda barcha sohalar qatori moddiy madaniy merosning noyob namunalarini to'plash, asrab-avaylash, targ'ib etish, milliy qadriyatni tiklash, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar ham amalga oshirilishida to'siqlar borligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, moddiy madaniy merosning har qanday yo'qotilishlari, hozirgi va kelajak avlod hayotining barcha sohalarida muqarrar ravishda namoyon bo'lib, tarixiy xotirani uzilishiga, umuman olganda, jamiyatni madaniy rivoji zaiflashuviga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda, zamonaviy madaniyatni rivojlanishi ham, yangi, muhim ahamiyatga molik asarlarni yaratilishi ham, ularning o'rnini to'ldira olmaydi. Moddiy madaniy boyliklarni to'plash va saqlash esa har qanday sivilizatsiya rivojlanishining asosidir.

Yuqoridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan ko'rinib turibdiki, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini rivojlantirish, bunday obyektlarni qayta tiklash va ularni imkon qadar asl holida saqlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish, madaniy merosni muhofaza

²¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son qaroriga 1-ilova <https://www.lex.uz/docs/4113465>

qilish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyatga nisbatan joylardagi boshqaruv tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, davlat, jamiyat va ulardagi institutlar birgaligidagi sa'y-harakatlar, hozirgi va kelajak avlodlar, hamda, butun dunyo hamjamiyati uchun merosni saqlash va uni ommalashtirishni ta'minlashga imkon bermoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakat milliy boyligi bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlarini qayta tiklash, muhofaza qilish va ulardan foydalanishni rivojlantirish maqsadida Samarqandning 2750, Qarshi va Shahrisabz shaharlarining 2700, Xiva, Buxoro va Termiz shaharlarining 2500, Toshkentning 2200, Marg'ilonning 2000 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Biroq bu natijalar O'zbekistonda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun mas'ul organing tashkiliy-shtat tuzilmasi sohada davlat nazoratini samarali tashkil etish imkonini bermadi. Bunga sabab sohada fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etishda fan va innovatsion texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanmaslik natijasida loyihalash, restavratsiya-tiklash ishlari moddiy madaniy meros obyektlarining noyobligini saqlab qolishga salbiy ta'sir ko'rsatganligi edi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, quyidagicha xulosalarga kelindi:

madaniy merosni ommalashtirish bo'yicha YUNESKOning na faqat jahonda, qolaversa O'zbekistondagi loyiha va tadbirlari, madaniy merosni umuman rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega;

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jahon madaniy merosini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi;

YUNESKO bilan O'zbekistonning gumanitar va madaniy hamkorligi bois mamlakatdagi madaniy va ijtimoiy qurilish muammolariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi kuzatilmoqda;

madaniyat, axborot va ta'lim sohasida xalqaro darajada almashtiruvlar va aloqalar rivojlanishiga olib keldi.

O'zbekistonning ko'pgina noyob yodgorliklari ushbu tashkilotlar qaramog'ida bo'lib, zamonaviy tadqiqotlar xalqaro darajaga muvofiq bo'lgan madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilishga

qaratilgan yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Agar madaniy merosni umumiy va qisman bo'lgan turli mezonlarda o'lchashga urinib ko'rilsa, unda, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bo'yicha jahon mamlakatlarining ma'naviy merosini ulkan «giper-global meros» deb aytish mumkin.

Jahon hamjamiyatiga birlashtirish uchun milliy boyliklarni o'zining iqtisodiy, ilmiy, siyosiy va madaniy sa'y-harakatlari bilan himoya qilish zarurati mavjudligining milliy birlashuvi birinchi darajali ahamiyatga ega. Madaniy merosga faqatgina tanqidiy qarash emas, balki, uni ongli ravishda o'zlashtirib, barpo etishda, ya'ni, mustaqil fuqarolik jamiyatidan foydalangan holda yondashish kerak. BMTning ixtisoslashgan muassasalari va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy, ta'lim va kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan. Shu bois O'zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari, obidalar va qadimiy shaharlari, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari YUNESKOning ro'yxatiga kiritilib, xalqaro muhofazaga olindi. O'zbekiston va dunyo xalqlari tarixida chuqur iz qoldirgan turli an'analar, qadriyatlar, ma'naviy meros obidalari, tarixiy shaxslar, shaharlarning yubiley sanalari YUNESKO hamkorligida xalqaro miqyosda nishonlanib kelmoqda.

Xullas, mustaqillik yillarida mamlakat milliy boyligi bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlarini qayta tiklash, muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy asoslar yaratildi. Shuningdek, bu davrida 9 ta O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va 32 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilingan va unda muzeylar ishining asosiy yo'nalishi aniqlanib, uning istiqboli belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tahlili, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar, davlat hokimiyati va joylardagi boshqaruv idoralari, shuningdek, madaniy meros obyektlari va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respubli-

kasidagi nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirilganligini ko'rsatadi. Tuzilmali o'zgartirishlar yordamida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari bo'yicha vazirlik faoliyati kuchaytirildi. Shunga qaramay, ularni muzeylashtirishni zamonaviy usullarda takomillashtirish hamon oqsoqligicha qolmoqda.

1991–2020-yillarda O'zbekistonda moddiy madaniy merosning ahamiyati va muzeylar istiqbolining shart-sharoitlari

Moddiy madaniy meros xalqlarning mustaqilligi, o'ziga xosligini rivojlantirish, saqlash, mustahkamlashning asosiy mezonidir. O'zbekiston xalqlarining tarixi, moddiy madaniy merosini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda haqqoniy tadqiq etish, qadimiy manbalarni xolislik bilan asl holida tiklash, davlatchilik tarixining ildizlarini ochib berish jarayonlari kun sayin respublikadagi madaniy, ma'naviy hayotdagi asosiy masalalardan biriga aylanib bormoqda.

O'zbekiston eng qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi va uning hududida bir necha ming yillar davomida davlatchilik an'analari shakllanib kelgan. Jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri hisoblangan ko'hna O'zbekistonda ilm-fan bilan birga, san'at, madaniyat, shaharsozlik kabilar ham bosqichma-bosqich takomillashib kelgani tarixdan ma'lum. Dunyo jamoatchiligi bu hudud tarixiy, moddiy moddiy meros, me'morchilik obidalari, ko'hna osori-atiqalar ko'pligini e'tirof etib, O'zbekistonga «ochiq osmon ostidagi muzey» deya ta'rif bergan.

O'zbekiston me'moriy-tarixiy yodgorliklarini muhofaza qilish, asrash, ta'mirlash va yangilash ishlariga davlat miqyosida katta e'tibor berilmoqda. O'rta asrlarga oid ko'chmas yodgorliklar restavratsiya qilinishi, moddiy madaniy merosni o'rganish borasidagi arxeologik, etnografik, san'atshunoslik ekspeditsiyalarning tashkil etilishi va ilmiy tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida arxitektura yodgorliklari texnik holatlarini aniqlash va kuzatish, ularni tiklash, mustahkamlash bo'yicha mas'ul Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan Arxitektura yodgorliklarini

saqlash Bosh ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi hamda O'zbekiston Ta'mirshunoslik instituti asosan arxitektura, arxeologiya, tarix, san'atshunoslik muammolari bilan shug'ullandilar. Buning natijasida konstruktiv va muhandislik masalalari juda kam o'rganildi. Shuningdek, mazkur tashkilotlarda konstruksiya sohasi bo'yicha mutaxassislar deyarli yo'qligi uchun biror inshootda shikastlanish va deformatsiya paydo bo'lsa, uni chuqur o'rganmasdan, ilmiy asoslanmasdan yuzaki kosmetik ta'mirlash ishlari bilan cheklanilgan.

Hozirgi kunga kelib, Toshkent arxitektura qurilish institutida «Qurilish mexanikasi va inshootlarning zilzilabardoshligi» kafedrasida mutaxassislari tomonidan yaratilgan arxitektura yodgorliklarining muhandislik tahlili bo'yicha kompleks ilmiy-texnik rejalar ishlab chiqilib, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Shahrisabz shahrida Amir Temur va temuriylar davrida bunyod qilingan Oqsaroy arki, Ko'kgumbaz jome' masjidi, Gumbazi Sayyidon va Shayx Shamsiddin Kulol maqbaralari, Jahongir Mirzo maqbarasi, Hazrati Imom masjidi, Molik Ashtar va Kunduzak masjidleri va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Bu obidalarda muhandislik muammolariga kompleks yondashish natijasida ularning texnik holatlari aniqlandi, zaminning fizik-mexanik xususiyatlari, materiallar holati, konstruksiyalarda instrumental uslub bilan texnogen ta'sirlarni o'rganish, statik va seysmik kuchlar ta'siriga hisoblab, mustahkamlash bo'yicha konstruktiv yechimlari yaratildi.

Masalan birgina Oqsaroy arkinin o'ta avariya holatidagi peshtog'i 2002-yilda ilmiy asoslangan konstruktiv tadbir asosida mustahkamlandi va bu bo'yicha patent ham olindi. Shu sabab 2002-2007-yillar davomida olib borilgan monitoring kuzatishlarda mustahkamlangan peshtog'da hech qanday deformatsion holat qayd etilmadi.

Shuningdek, O'zbekiston moddiy madaniy merosini muhofaza qilish, saqlash va ulardan foydalanishga doir ko'plab hukumat qaror, farmon, qonunlari chiqarildi. Biroq merosni asrab-avaylashga har doim ham e'tibor berilavermay, qadimiy shaharlarning tarixiy qiyofasi, an'anaviy yashash muhiti qaytarib bo'lmas darajada

o'zgartirilib, jiddiy oqibatlariga olib kelinmoqda. Fikrimizcha, bunga ko'proq jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan urbanizatsiya jarayonlari, aholi sonining ko'payishi, turar joy binolarining yangi turlarini paydo bo'lishi sabab bo'lmoqda. Ba'zi bir olimlar kelgusi avlod uchun tarixiy yodgorliklarni saqlash, konservatsiya va restavratsiya qilish borasida chet el tajribalarini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Shuningdek, jahonning ko'pgina mamlakatlarida, xususan Parijda tarixiy binolarning tashqi qismini o'zgartirish qat'iyanan man qilinganligi, lekin interyerlarini qisman o'zgartirishga ruxsat berilishini ham ta'kidlaydilar²¹².

Bizning fikrimizcha, obidalarining nafaqat eksterer, balki interyerlarini ham o'zgartirish mumkin emas. Bu undagi davr muhiti-ning yo'qolishiga olib keladi, binoning badiiy qimmatiga putur yetkazadi.

Tarixiy obidalarga insonlar tomonidan zarar yetkaziladigan yana juda ko'plab omillarni misol keltirish mumkin.

Tarixiy shaharlarning saqlanishi, muhofaza qilinishiga doir muammolarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan salbiy omillardan biri, bozor munosabatlarining keskin (stixiyali) rivojlanishi bo'ldi. Ayrim hollarda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi, ayrim hollarda esa korrupsiya sxemalari shaharlarning tarixiylikini saqlanishini ikkinchi darajaga surdi. Tarixiy binolar yonida foyda keltiradigan katta do'konlar, bozorlar va mehmonxonalar qurila boshlandi²¹³. Hech kimni zamonaviy inshootlarning tarixiy shaharlarda qurilishi, yodgorliklarning ko'rkini buzishi, qadimiy davr muhitining yo'q bo'lib ketishi xayoliga kelmadi.

Bunga Buxorodagi obidalarni misol keltirish mumkin. Me'morlik doktori M.Yusupova ta'kidlashicha²¹⁴, XV-XVI asrlarga tegishli Toki-Zargaron savdo gumbazlari yoniga 2018-yilda ikki qavatli zamonaviy bino qurilgan. Bu uning fasad qismini xunuk ko'rini-

²¹² <http://xs.uz/ru/post/history1>.

²¹³ <http://xs.uz/ru/post/history>

²¹⁴ Юсупова М.А. Остановить разрушение архитектурного наследия// <https://www.gazeta.uz/ru/2018/03/19/monuments>

shiga va davr muhiti hamda me'moriy mutanosiblikning yo'qolishiga olib kelgan. Buxoroning XII-XVI asrlarga tegishli Poi Kalon asosiy ansamblining ham tarixiy qiyofasi yo'qolgan. Chunki, shu yili Mir Arab hamda Amir Olimxon oralig'idagi qadimiy maydonda tarixiy muhitga zid tarzda, qurilish stili yangicha bo'lgan, tarxiga katta oynalar qilingan bino qurilgan.

Shuningdek, so'nggi o'n yilliklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, shoshilinch, sifatsiz va malakasiz ta'mirlash va restavratsiya qilish, me'moriy yodgorliklarning tarixiylikligi, yuksak badiiy xususiyatlarini qaytarib bo'lmas darajada yo'qotilishiga olib keldi. Bu mamlakatning xalqaro qiyofasi va turizm rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi muammolarga XVII asrda qurilgan Abdulazizxon madrasasini misol keltirishimiz mumkin. Naqshlarining boyligi bilan O'rta Osiyo bezagi ensiklopediyasi hisoblangan bu obidani, shaharning tarixiy o'zagidagi madaniy qatlamlarini noto'g'ri belgilash, qo'shimcha ilmiy jihatdan o'rganmay, tayyorlov ishlarini qilinmaganligi, og'ir mashinalardan foydalanilganligi natijasida, yon tarxining markaziy qismi va madrasaga tegib turgan barcha binolar qulab tushgan.

Shuningdek, Buxoro shahrida 1997-yilda 15 ta yodgorlik, 1998-yilda 18 ta me'moriy obida turli yubiley munosabati bilan restavratsiya qilindi. Ular qisqa vaqtda qayta tiklangani, mutaxassislarning yetishmasligi, ilmiy tadqiq etilmaganligi, restavratsiya materiallarining sifatsizligi, mablag'ning kamligi natijasida asl qiyofasini qisman yo'qotgan. Obidalar qurilishida, atrofida ishlatilgan qadimgi g'isht va boshqa materiallar o'rniga zamonaviy, asliga o'xshamaydigan ashyolarning ishlatilishi ham ularning badiiy qimmatini hamda tarixiy muhitini yo'q bo'lib ketishiga olib kelmokda.

Tarixiy obidalarni restavratsiya qilish jarayonida unga san'at asari sifatida qarashlilik, badiiy qimmatini va atrofidagi muhit landshaftni saqlab qolinishi, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, yodgorliklarda ta'mirlash,

restavratsiya va konservatsiya ishlarini boshlashdan oldin amaliy va nazariy tadqiqotlar olib borilsa, ularning asllilik darajasiga putur yetmaydi.

O'zbekiston yodgorliklariga oid manbalardan ma'lum bo'lishicha, arxitektura, arxeologiya, tarix va san'atshunoslik kabi sohalariga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, biroq, kompozitsiya va muhandislik sohalarini o'rganilmaganligi bois, yuqoridagi muammolarga duch kelinmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning oxirgi yillarida boy madaniy merosni asrash va o'rganish, o'zbek xalqining insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini jahon miqyosida keng targ'ib etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni²¹⁵da madaniyat, ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarini takomillashtirishga oid qator vazifalar belgilangan.

Shuningdek, tarixiy merosni asrab-avaylashning huquqiy asosi, fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburligi, barcha moddiy madaniy yodgorliklar davlat muhofazasida ekanligi qonun tomonidan belgilab qo'yilganligini ham e'tirof etish muhimdir²¹⁶.

Bugungi kungacha yetib kelgan yodgorliklarni muhofaza qilish va saqlash hamma davrda ham davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi bo'lishi lozim. Chunki tarixiy obidalar har bir xalqning o'tmishi, boy tarixi hisoblanadi.

O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash, targ'ib etish va muzeylashtirish bo'yicha ko'p tadqiqotchilar barcha sohalarida faoliyat olib bormoqdalar. Bu esa hududlarda asrlar davomida saqlanib kelayotgan me'moriy obidalarining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar beradi. Bu

²¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

²¹⁶ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. XI bob, 49-modda. – B. 17.

davrda bir qator soha mutaxassislari moddiy madaniy meros va muzeyshunoslikka oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar va adabiyotlar hamda davriy matbuot materiallarida ularning ishlari o'z aksini topgan²¹⁷. Lekin, O'zbekiston muzeylari hamda moddiy madaniy merosini mustaqillik davridagi holati bo'yicha fundamental, ilmiy asosga ega bo'lgan adabiyotlar mavjud emasligini ham ta'kidlash joiz. Shu bilan birga, bir qancha loyiha va simpoziumlar aynan tarixiy-madaniy yodgorliklarni ommaviylashtirish borasida xalqaro darajada tashkil etilib kelinmoqda. Tarixiy-madaniy merosni o'rganish va targ'ibot qilishda 1995-yildan boshlab O'zbekiston tarixiy shaharlari va atoqli shaxslariga bag'ishlangan turkumning o'n beshta jildi nashr qilindi.

Bu borada, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan «O'zbekistonning madaniy merosi dunyo to'plamlarida» loyihasi madaniy merosini asrab-avaylash, o'rganish va ommalashtirish borasidagi tashabbuslarini amalga oshirishda jamoat, davlat va xalqaro tashkilotlarni birlashtirishning yorqin namunasidir.

O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va ommalashtirish bo'yicha Umumjahon jamiyati ilmiy kengashi raisi E.Rtveladze, muallif va loyiha menejeri O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va targ'ib qilish bo'yicha Umumjahon jamiyati boshqaruvi raisi, «O'zbekkino» milliy agentligi bosh direktori F. Abduxolliqovlar hisoblanadi. Loyihani amalga oshirish jarayonida tajriba, bilim va fikr almashish, madaniyat sohasida davlatlararo muloqotni kuchaytirishga imkon beradigan O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'rganuvchi olimlar va muzey mutaxassislarni birlashtirgan tarmoq yaratildi.

2010-yildan buyon 25 jildli «O'zbekiston obidalaridagi bitiklar» turkumini yaratish bo'yicha ish olib borilib, hozirgacha o'nta

²¹⁷ Ilalov I. Muzevedenie. – T.: Musiq, 2006. – 357 s.; Levteeva L., Tursunaliyev K. Muzeologiya. – T.: O'zbekmuzey, 2008. – 332 s.; Kuryazova D. Muzey ishi asoslari. – T.: LESSON PRESS, 2019. 196 b.; Zamonaviy muzeyshunoslikda moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash masalalari. Jamoaviy monografiya. – T.: Ochun, 2020. – 280 b.; Muxamedova M. S. O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan ob'ektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr 2-yarmi – XXI asr boshlari). Monografiya. – T.: LESSON PRESS, 2020. 140 b.; Salimov O. O'zbekiston arxitektura yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish. Monografiya. – T.: Navro'z, 2020. 320 b.

jild nashr etildi²¹⁸. Loyiha doirasida turli soha olimlari me'moriy obidalaridagi epigrafik bitiklarni o'rganish bo'yicha ham ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Xorijiy to'plamlarda saqlanayotgan bebaho qadimiy qo'lyozmalarning faksimil nusxalari yaratilib, O'zbekiston hukumati, muzey hamda kutubxona fondlariga topshirildi. Demak, olib borilgan tadbirlar natijasida O'zbekistonning madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining turkum natijalari tayyorlandi va dunyo hamjamiyatiga taqdim etildi.

Yana shunday loyihalardan biri «O'zbekistonning madaniy merosi jahon to'plamlarida» deb nomlanib, 2015-yilga kelib Toshkentda o'z ishini boshladi. Bunday yagona loyihaning maqsadi O'zbekiston hududida yaratilgan, lekin, ma'lum sabablarga ko'ra xorijiy mamlakatlarga olib ketilgan moddiy madaniy meros obyektlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash, o'rganish va nashr etishdan iborat. Mazkur loyihani amalga oshirish uchun xorijdagi muzey va kutubxonalarning ilmiy xodimlari, olimlar jalb etilib, eng yaxshi artefaktlarni yig'ish, umumlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Natijada, «O'zbekiston madaniy merosi» kitob-albomi tayyorlandi. «Sharq Davlat muzeyi to'plami» (Moskva), «Davlat Ermitaji muzeyi to'plami» (Sankt-Peterburg), «Rossiya Etnografiya muzeyi to'plami» (Sankt-Peterburg), «Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharq Qo'lyozmalari instituti to'plami», «Alisher Navoiyning Rossiya milliy kutubxonasi to'plamlaridagi asarlari» (Sankt-Peterburg) deb nomlangan besh tomlik mazkur kitob-albomlar hamda «O'zbekiston madaniy merosi Moskva muzeylarida»; «Tretyakov Davlat galereyasi to'plami», «Rossiya Federatsiyasi to'plamlarida O'zbekistonning musiqiy merosi», «O'zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to'plamlarda» nomli kitob-albomlar o'zbek, ingliz va rus tillarida nashr qilindi²¹⁹. Har bir kitobning asosiy qism

²¹⁸ <http://darakchi.uz/index.php/uz>. <https://www.gazeta.uz/uz>.

²¹⁹ O'zbekiston madaniy merosi / Sharq Davlat muzeyi to'plami. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; O'zbekiston madaniy merosi / Davlat Ermitaji muzeyi to'plami. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; O'zbekiston madaniy merosi / Rossiya Etnografiya muzeyi to'plami. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; O'zbekiston madaniy merosi / Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharq Qo'lyozmalari instituti

va katalogining tahliliy qismida mavjud ma'lum muzeylar haqidagi qisqacha ma'lumot keltiriladi. To'plamlarda O'zbekiston hududida yaratilgan buyumlar kolleksiyasining shakllanish tarixi, moddiy va badiiy madaniyat turlari sifatida ilmiy tavsifi keltirilgan. Har bir jild ashyolarning katalogi hamda ularning qisqacha tavsifi, fondga kelib tushish sabablari, o'lchamlari, inventar raqami, kelib chiqishi ko'rsatilgan ta'rifini o'z ichiga olgan.

Amalga oshirilishi uzoq yillarga mo'ljallangan loyiha o'z maqsadiga ko'ra, o'zaro shartlashilgan bitim, kelishuv, olimlarni jalb qilish, moliyaviy va tashkiliy sarf-xarajatlar asosida O'zbekistonga oid moddiy madaniy merosni aniqlash, ro'yxatini tuzish, suratga olish, tegishli bo'limlarni yozish, kolleksiyalar to'g'risida hujjatli filmlar tayyorlash, kitob-albomlarning dizaynini yaratish va ularni nashr qilish rejalashtirildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, chop etilgan to'plamlarning ilmiy mazmuni, bayon qilish uslubining ravonligi, tanlangan suratlarining matn bilan uyg'unligi jihatidan bunday nashrlarga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi.

YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlarining esa, Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgani O'zbekiston moddiy madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof etilganiga yorqin misol bo'la oladi. Qo'lyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimi yaxshilanib, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuri-

to'plami. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; O'zbekiston madaniy merosi / Alisher Navoiyning Rossiya milliy kutubxonasi to'plamlaridagi asarlari. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; O'zbekiston madaniy merosi Moskva muzeylarida / – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; Tretyakov Davlat galereyasi to'plami. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; Rossiya Federatsiyasi to'plamlarida O'zbekistonning musiqiy merosi. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017; O'zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to'plamlarda. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

dagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazlari tashkil etildi. Masalan, O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat²²⁰:

milliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, chet ellarda saqlanayotgan, mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid madaniy boyliklarni aniqlash, ularning to'liq ma'lumotlar bazasi – reyestrini yaratish va uni muntazam yangilab borish;

tarixiy eksponatlarining asl yoki ko'chirma nusxalarini, foto va videotasvirlarini respublikaga olib kelish;

tegishli ilmiy markazlar, xususan, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib borib, erishilgan natijalarni ilmiy muomalaga kiritish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish;

faoliyat yo'nalishi bo'yicha xorijiy davlatlardagi muzey va fondlar, arxivlar, ilmiy-madaniy muassasalar bilan o'zaro madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish, turli ilmiy-amaliy anjuman va ko'rgazmalar tashkil etish;

xorij davlatlarida saqlanayotgan madaniy boyliklarni yurtimizga qaytarish yuzasidan muzokaralar olib borish va zarur chora-tadbirlar ko'rish, bu borada xalqaro miqyosdagi ilg'or tajribani o'rganish va amaliyotga joriy etish;

madaniy boyliklarning olib kirilishi va olib chiqilishi to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi hamda samarali bajarilishini tahlil qilish, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, xalqaro shartnomalar va umume'tirof etilgan normalarni milliy qonunchilik nuqtayi nazaridan o'rganish;

xorijdagi mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid madaniy boyliklarni ommaviy axborot vositalarida, jumladan, global Internet tarmog'ida keng yoritish, ular haqidagi bibliografik to'plamlar, kataloglar, kitob-albomlar va boshqa matbaa mahsulotlarini turli tillarda nashr etib borish;

²²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-sentyabr 2017-yildagi «O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 700-sonli qarori.

to'plangan materiallarni mamlakatimiz va jahon miqyosida ilmiy muomalaga kiritish.

Shuningdek, 2017-yilda faoliyati yo'lga qo'yilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ham o'z faoliyatida xalqimiz tomonidan bunyod etilgan ana shunday noyob merosni ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganish, yurtdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, ular bilan aholimiz va jahon jamoatchiligini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yish kabi ishlarni amalga oshiradi²²¹. Markaz inson qalbi va ongini egallash uchun turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etildi.

Tarixni haqqoniy yoritishda qadimiy shaharlardagi yodgorliklar, obidalar, inshootlarni qayta qurish, ta'mirlash, asl holida bunyod etish kabi ishlarga alohida e'tibor berish moddiy madaniy boyliklar tarixining

asl manbalari, jonli guvohlari, ilmiy asoslari hisoblanadi. Bular orasida asosan tarixiy me'moriy obidalar va arxeologik yodgorliklar alohida o'rin tutadi.

O'z o'rnida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillik yillariga qadar bu me'moriy yodgorliklar, obidalarining aksariyati buzilgan, restavratsiya qilinmagan, yarim vayrona holatda edi. Birinchi navbatda, ana shunday moddiy madaniy yodgorliklarni ta'mirlash, asl tarixiy asosda bunyod etish ishlariga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021-2025-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlarida ham ko'chmas mulk obyektlari hamda muzey

²²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-avgust 2017-yildagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom Tsivilizatsiyasi Markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 572-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3296658>.

ashyolari va muzey kolleksiyalarini restavratsiya, konservatsiya qilish rejasi yillar kesimida ko'rsatilgan²²².

Shunga asosan viloyatlar kesimida 78 ta ko'chmas yodgorlik, ya'ni Andijon viloyatida 4 ta, Buxoro viloyatida 6 ta, Namangan viloyatida 5 ta, Surxondaryo viloyatida 6 ta, Farg'ona viloyatida 5 ta, Xorazm viloyatida 9 ta, Jizzax viloyatida 3 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 ta, Samarqand viloyatida 16 ta, Sirdaryo viloyatida 1 ta, Qashqadaryo viloyatida 8 ta, Navoiy viloyatida 3 ta, Toshkent viloyatida 6 ta va Toshkent shahrida 4 ta madaniy meros obyektlari ta'mirlash-tiklash va konservatsiya qilish uchun ro'yxatga olindi.

Bunday ishlar dastlab yirik tarixiy shaharlaridagi yodgorliklardan boshlandi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Qarshidagi noyob moddiy madaniy yodgorliklar restavratsiya qilindi va ta'mirlandi. Xuddi shunday ishlar Toshkentdagi Hazrati imom, Shayx Xovand Tohur, Zangiota majmualari, Ko'kaldosh madrasasida, Termizdagi Sulton Saodat, Qirq qiz, Hakim at-Termiziy majmualarida, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dorut-tilovat, Gumbazi Sayyidon, Dor us-saodat majmualarida ham olib borildi²²³. Buyuk allomalarining nomlari bilan ataladigan 50 dan ortiq ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolarida restavratsiya va ta'mirlash ishlari olib borilib, turistik marshrutlarga kiritish rejalashtirildi.

2018-yil 25-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligida madaniy meros sohasidagi mavjud muammo va kamchiliklar bo'yicha yig'ilish o'tkazilib, unda Madaniy meros bosh boshqarmasida amalga oshirilayotgan ishlar qoniqarsiz topildi²²⁴. Ma'lum bo'lishicha, oxirgi ikki yilda obyektlarga jiddiy zarar yetkazish bilan bog'liq 14 ta holat qayd etilgan. Shunga qaramay, 2017-yilda 58 ta arxeologiya tadqiqotiga ruxsat berilgan bo'lsa-da, arxeologiya yodgorliklari konservatsiya qilinmagan. Obyekt davlat

²²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 6000-sonli Farmonining 2-ilovasi. <https://lex.uz/docs/4829149>.

²²³ Turdiev T. Ajdodlar merosi – xalq dahosining timsoli. / Adolat ijtimoiy-siyosiy gazetasi. №42, 2016. <https://adolatgzt.uz/society/4254>.

²²⁴ O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2018-yil 25-sentyabr kuni o'tkazilgan Madaniy meros sohasidagi mavjud muammo va kamchiliklar bo'yicha yig'ilish materiallaridan. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/09/26/kadastr/>. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining rasmiy veb-sayti.

himoyasida ekanligi haqida ogohlantiruvchi yagona nishon – bu muhofaza belgisi bo'lsa-da, hozirgacha bunday belgilar respublika bo'ylab 25% obyektlarda bor xolos, 75% esa, ya'ni 5 585 ta obyektlarga muhofaza belgilari o'rnatilmaganligi ko'rsatib o'tildi. Obyektlarni hisobga olish va davlat kadastrini yuritish – sohada hal qiluvchi masaladir. Kadastr – bu obyektning tarixi, egasi, chegarasi, texnik va huquqiy holatini belgilovchi yagona hujjat hisoblanadi. Hozirda 77 %, ya'ni 5 748 ta obyektning kadastr hujjati mavjud emas, 78 %, ya'ni 5 863 ta obyektlar haqida axborot davlat kadastrlari yagona elektron tizimiga kiritilmagan. Kadastr ishlarini bajarish holati Toshkent viloyatida – 0,1%, Sirdaryoda – 4 %, Samarqandda – 16 %, Surxondaryoda – 16 %, Namanganda – 23%, Toshkent shahrida – 25 %ni tashkil qiladi²²⁵.

Bundan tashqari, Madaniyat vazirligi qoshida madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish bo'yicha ilmiy-tadqiqot instituti va loyihalash maktablari faoliyat olib borgan bo'lib, ushbu tashkilotlarning faoliyati moddiy madaniy meros obyektlarini asrashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Soha rivoji yo'lida dolzarb hisoblangan masalalardan yana biri bu - qadimiy yodgorliklarni ta'mirlash bo'yicha ustaxonalar faoliyatini qayta tiklash, ularni zaruriy asbob anjomlar va texnika vositalari bilan ta'minlash hamda usta restavratrlarni tayyorlash maktablarini tashkil etishdan iborat. Hozirgi kunda bu kabi ilmiy institutlarni tashkil etish hamda faoliyatini qayta yo'lga qo'yish madaniy meros obyektini saqlanishi va kelajak avlodga yetkazilishida muhim o'rin tutadi.

Moddiy madaniyatni saqlash va undan foydalanish bo'yicha bugungi kunda yangi imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Bunga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini misol keltirishimiz mumkin. O'zbekiston-Polsha o'rtasida o'rnatilgan hamkorlik asosida Samarqand me'moriy yodgorliklariga urg'u bergan holda, Markaziy Osiyo madaniy merosi artefaktlarini uch o'lchovli raqamlashtirish²²⁶ga e'tibor qaratilgan. Axborot va kommunikatsiya

²²⁵ O'sha yerda.

²²⁶ Izoh: Raqamlashtirish – bu madaniy meros ob'ektlarining tashqi qiyofasini ikkili shaklda saqlash usuli bo'lib, komp'yuter texnologiyalaridan foydalangan holda, avtomatik ravishda tayyorlanadi.

texnologiyalari oʻrta asr yutuqlarini hozirgi kunga qadar Internet tarmogʻi orqali uzatish va ulardan keng foydalanish imkonini beradi.

Madaniy meros obyektlari haqidagi maʼlumotlarni toʻplash (raqamlashtirish) va ularni keng ommaga taqdim etish Lyublin texnologik Universiteti va Samarqand davlat universiteti hamkorligining asosini tashkil etdi. Dastlabki natijalar 2017, 2018, 2019-yillarda Markaziy Osiyoga uyushtirilgan uchta ilmiy ekspeditsiyasini moliyalashtirishga asos boʻldi. Xar bir ekspeditsiya madaniy meros qoldiqlarini 3D-skanerlash va muzeylarda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ommalashtirishga qaratildi. Ekspeditsiyalar davomida professor Yu.Montesevich va doktor Ya.Kesik kabi mutaxassislar Oʻzbekiston va Markaziy Osiyodagi turli mamlakatlarning madaniy merosi boʻlgan artefakt va binolarni skanerlashdi va ularga raqamli ishlov berilib, maxsus tashkilotlarga yuborildi. Hamkorlikdagi faoliyat davomida Ipak yoʻlining madaniy merosini ommalashtirish uchun internet-portal ham tashkil etildi²²⁷.

Maʼlumki, soʻnggi yillarda respublika poytaxti, viloyat va tuman markazlarida tarixiy yoʻnalishdagi qator yangi muzeylar tashkil etildi, eskilari taʼmirlandi, ekspozitsiyalari tubdan yangilanib, boyitildi. Zamonaviy muzeylar mazmuni, asrlar davomida ijtimoiy axborotni toʻplash, muhofaza qilish, muzey ashyolari vositasida bilim, anʼana, tasavvur va hissiyotlarni oʻzlashtirish hamda kelgusi avlodga yetkazish muammolari eʼtiborni jalb etib kelmoqda. Ilmiy-nazariy jihatdan hozirgi vaqtda muzeyshunoslikning maqsadi noyob moddiy va maʼnaviy manbalarni yaratish vazifalarini aniq tasavvur etish uchun uni baholay olish, tushunish hamda muzey ishi muammolarining ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Shuni taʼkidlash lozimki, muzey ashyolariga asliyat, yaʼni jamiyat yoki inson faoliyatining bevosita natijasi deb qaralishi shart. Chunki ular koʻproq muhim ahamiyatga molik hujjat yoki ashyo-

²²⁷ Milosh M., Qayumov R., Samarov X. Madaniy merosni raqamlashtirishdagi hamkorlik // Moziydan sado, Toshkent, 2021. – № 1 (89). – B. 20-21.

lar namoyish etiladigan tarixiy muzeylarga taalluqlidir. Jumladan, Oʻzbekiston tarixi Davlat muzeyi ekspozitsiyalarida ibtidoiy jamoa davridan tortib, hozirgi kungacha boʻlgan noyob hujjatli ashyolarining nusxalari qoʻyilgan. 1876-yil bunyod etilgan Toshkent muzeyi negizida yaratilgan ushbu muzeyning ulkan jamgʻarmasi mavjud boʻlib, unda keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda²²⁸.

Tadqiqot jarayonida muzey ekspozitsiyalari boʻyicha 2 ta tarixiy davr ekspozitsiyasi solishtirildi. Sovet davrida Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyalarida «Revolutsiya va Sovet davri» siyosati sezilarli darajada aks etganligi mamlakatimizning tarixiga, yaʼni, Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha boʻlgan davr uchun juda kam joy, atigi 3 ta boʻlim, birgina Sovet davri uchun esa 4 ta boʻlim ajratilganligi, Birinchi va ikkinchi renessans davri almalaridan 6 nafari haqidagi maʼlumot ekspozitsiyaga qoʻyilganligi, Revolutsiya va Sovet davri boʻlimiga oid ekspozitsiyalar deyarli markazdan keltirilganligi arxiv manbalarida oʻz aksini topganligini koʻrish mumkin.

Mustaqillik yillarida esa, yuqorida yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar bartaraf etilib, muzey ekspozitsiyalari qayta tashkil etildi. Muzeyning ilmiy konsepsiyasi ham soha olimlari hamkorligida yangilanib, tarixiy xolislik prinsipiga asoslangan holda yozilib, yangi maʼlumotlar bilan boyitildi.

Muzeylardagi ilmiy tadqiqotlar natijalari kolleksiya, ekspozitsiyalarni konservatsiyalash, taʼmirlash, saqlash, muhofaza qilish, tashrif buyuruvchilarga xizmat koʻrsatish, shuningdek, muzey faoliyatining boshqa turlari darajasini aniqlaydi. Respublika muzeylarida saqlanayotgan arxeologiya, etnografiya, numizmatika, moddiy va maʼnaviy madaniyat tarixi, harbiy tarix, geraldika, epigrafika kabi eng boy jamgʻarma toʻplamlari yangi tadqiqotlar uchun ulkan baza hisoblanadi. Zero, tarixiy muzeylardagi ilmiy tadqiqot faoliyati badiiy qimmatga ega yangi tarixiy maʼlumotlar olish manbai sifatida muzey ashyolarini oʻrganish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

Muzeylarning yana bir muhim jihati, ularning yirik tarixiy shaxslar yoki voqea-hodisalarni oʻrganish uchun barcha maʼlumot-

²²⁸ Kuryazova D.T. Oʻzbekistonda muzey ishi tarixi. – T.: Sanʼat, 2010. – B. 120.

lar mavjud bo'lgan yagona yoki asosiy markaz ekanligidir. Muzey materiallarini monografiya, ilmiy asarlar tarzida va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etish aholining tarixiy ongini boyitishga, ularda faxr va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda yordam beradi. Afsuski, bugungi kunda bu sohadagi ishlarni talab darajasida deb bo'lmaydi.

Fan va texnika taraqqiyoti ilg'or yutuqlarining boshqa sohalar qatori muzey ishiga ham kirib kelishi tabiiy hol bo'libgina qolmasdan, hayotiy zaruriyat hamdir.

Internet tarmog'ining joriy tizimi esa mazkur jarayonni xalqaro miqyosda faollashtirib yubordi. Endilikda undagi «Muzeylar», «Madaniyat» bo'limlariga kirib, dunyoning xohlagan muzeyini «tomosha» qilish, muzeylar haqida umumiy ma'lumotlardan tashqari fond eksponati, yangilik, maxsus tadbir va ilmiy anjumanlar haqida, sohaning mutaxassis xodimlari manzili, ularning elektron pochta-lari va boshqa umumiy ma'lumotlarni olish mumkin. Internet tarmog'ida ikki yarim milliondan ortiq muzey eksponatining suratlari aks ettirilgan kartoteka tizimi mavjud²²⁹.

Ma'lumki, muzeylarning asosiy vazifasi ashyolarni to'plash, saqlash, ilmiy jihatdan o'rganish hamda namoyish etishdan iborat. Bugungi kunda muzeylar zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'z eksponatlarining hisobga olinishi, o'rganilishi va saqlanishini ta'minlashlari mumkin bo'lib, O'zbekistonning yirik muzeylarida qo'llanilishi yo'lga qo'yilmoqda. Zero, aniq hisobga olish muzey boyliklarini ishonchli saqlash va ularga egalik qilish huquqini kafolatlaydi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, muzey sohasidagi muammo va kamchiliklarni ilmiy jihatdan o'rganayotgan olimlar moddiy madaniy boyliklarni keng qamrovli tadqiq etishda ayrim muammolarga duch kelmoqdalar. Chunki, eksponatlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida, ko'plab muzeylar tadqiqotchilarni muzey saqlovxonalaridagi ashyolarni ko'rib, predmetlarning ilmiy pasportlaridagi ma'lumotlarni o'rganishlari uchun to'sqinlik qilishadi. Avvalo yirik muzeylarda joriy etilgan tartib-qoidalar chetdan kel-

²²⁹ Kuryazova D. O'zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati (tarix va o'lkashunoslik muzeylari misolida). Tarix fan. nom. dissertatsiyasi. – Toshkent. 2009. – B. 124.

gan mutaxassislar va muzey ma'muriyati orasida kelishmovchilikni tug'dirmoqda.

Fikrimizcha, muammoning negizi pullik xizmat turini taklif etish bo'lib, respublikaning ilmiy muassasalar xodimlariga madaniy boyliklarni o'rganishlari uchun sharoit yaratilishi lozim. Sababi, ularga bu xildagi tadqiqotlari uchun davlat byudjetidan qo'shimcha mablag' ajratilmaydi. Qolaversa, bunday tadqiqotlar O'zbekistonning ilmiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti va muzeylar manfaatini ko'zlab amalga oshiriladi²³⁰.

Muzeylarda elektron axborot va kommunikatsiya tizimining joriy etilishi, unda namoyish qilinadigan saytlar shakli, tartibi, ko'rinishlari, tuzilishi va boshqa masalalariga bag'ishlab qator ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Muzeylar faoliyatining yangi yo'nalishlari ularning jamiyatga ta'sirini sezilarli kengaytirib, bu jarayon nazariy muzeysunoslikda kommunikatsion yondashuvning shakllanishi va taraqqiyoti, ekomuzeologiya, muzey-pedagogik tadqiqotlari, muzey faoliyati, madaniy-ma'rifiy va ekspozitsiya-ko'rgazmalarda, yangi texnologiyalardan muzey ishining barcha yo'nalishlarida foydalanilishida aks etadi.

Muzey ishi va muzeysunoslik bilimlari, uning keyingi taraqqiyoti, muzeylar hamda jamiyat hamkorligidagi harakatlarini yanada unumliroq bo'lishini ta'minlashi shubhasiz. Muzeylarning ma'lum qismini turli boshqarmalarning muzeylari tashkil etadi. Ularning ba'zilar davlat, xususiy yoki jamoa muzeylariga aylangan. Boshqarma muzeylarining deyarli ko'pchiligi mutaxassislar uchun tashkil etilgan. Bu turdagi muzeylar «yopiq» muassasalar bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi moliyaviy jihatdan yaxshi ta'minlangan. Ba'zida bu xildagi ayrim muzeylar o'sib jamiyat uchun ochiladi, ularda ham boshqalardagi kabi muzey kommunikativ muammolari, kiruvchilar bilan o'zaro munosabat, ko'rgazmalar saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqarma muzeylariga normativ hujjatlar-ni muvofiqlashtirish, xodimlar tayyorlash, kolleksiyalarni saqlash muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda.

²³⁰ Kuryazova D. O'zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati (tarix va o'lkashunoslik muzeylari misolida). Tarix fan. nom. dissertatsiyasi. – Toshkent. 2009. – B. 127.

Tarixiy davrlar kesimida muzeylarning rivoji kuzatilsa, O'zbekistondagi muzeylarning tarixiy-tadrijiga asosan, shakllanish bosqichida – 1876–1916-yillarda atigi 4 ta muzey faoliyat olib borganligini, 1917–1989-yillarda muzeylarning soni 76 taga yetganligi va ixtisoslik, memorial muzey hamda 3 ta yirik muzey-qo'riqsona tashkil etilganligini; rivojlanish bosqichida – 1990–2020-yillarda sohaga oid alohida qonun, farmon qarorlar qabul qilinganligi hamda muzeylar sonining 100 dan ziyod ekanligini kuzatish mumkin. Muzeylar madaniyat ko'zgusi bo'lib, ularga qanchalik ko'p e'tibor qaratilsa, boshqa davlatlar orasida shunchalik mamlakatning nufuzi oshishini ham ta'kidlash joiz albatta.

Mustaqillik yillarida mavjud muzeylarning ekspozitsiyalari takomillashtirildi. O'zbekistonda yigirmadan ziyod muzeylarning, xususan Toshkentda joylashgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi, Toshkent muzeyi, Shon-sharaf muzeyi, Tasviriy san'at galereyasi, Surxondaryodagi Termiz Arxeologiya muzeyi, buyuk allomaga bag'ishlangan Xivadagi Dorul hikmat val maorif muzeyi va boshqa muzeylarning tashkil etilishi ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Yangi muzeylarning deyarli barchasida zamonaviy raqamli va kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Bunga Xiva shahri «Ichan-Qal'a» majmuasining Muhammad Amin Inoq madrasasi binosida tashkil etilgan Dorul hikmat val maorif muzeyini misol keltirish mumkin. Muzeyning konsepsiyasi va dizaynini tayyorlashda ekspozitsiyaning o'ziga xos taqdimoti va ajralib turishi, g'ayrioddiy me'moriy va dizayn yechimi hisobga olindi. Zallarning birida allomalarning gologramma tasvirlari paydo bo'ladigan va asosiy ma'lumotlar keltiriladigan badiiy raqamli panel o'rnatilgan. Ekspozitsiyada zamonaviy raqamli va kompyuter texnologiyalari asosida innovatsion g'oyalar va yechimlardan foydalanildi²³¹.

2020-yil 9-mayda o'z faoliyatini boshlagan Shon-sharaf muzeyida ham ekspozitsiya tuzishning eng yangi uslublaridan foydalanilgan bo'lib, rang, yorug'lik, texnik vositalar yordamida ek-

²³¹ Abdullaev M. «Dorul hikmat val maorif»: buyuk allomalarga bag'ishlangan muzey // Moziydan sado, Toshkent, 2021. – № 1 (89). – B. 27-27.

sponatlarning emotsional ta'siri kuchaytirilgan. Mazkur muzeyda ish holatidagi harbiy texnikaga oid eksponatlar ham mavjud bo'lib, bu holat tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Demak, endilikda zamon talablaridan kelib chiqqan holda muzey faoliyatini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilayotganligini e'tirof etish joiz.

O'zbekistonda moddiy madaniy merosning ahamiyati va muzeylar istiqbolining shart-sharoitlarining tahliliga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

Mustaqillik yillarida O'zbekiston moddiy madaniy merosini muhofaza qilish, saqlash va ulardan foydalanishga doir ko'plab hukumat qaror, farmon, qonunlar ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, moddiy madaniy merosni asrab-avaylashga sust e'tibor berilib, qadimiy shaharlarning tarixiy qiyofasi, an'anaviy yashash muhiti qaytarib bo'lmas darajada o'zgartirilib, jiddiy oqibatlariga olib kelinmoqda. Tarixiy obidalarni shoshilinch, sifatsiz va malakasiz ta'mirlash va restavratsiya qilish, me'moriy yodgorliklarning tarixiyliigi, yuksak badiiy xususiyatlarini qaytarib bo'lmas darajada yo'qotilishiga olib kelishi, bu esa, mamlakatning xalqaro qiyofasi va turizm rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi ko'rsatib berildi.

“O'zbekistonning madaniy merosi jahon to'plamlarida” loyihasi doirasida chet davlatlardagi muzey, kutubxona, xususi kolleksiyalarda saqlanayotgan osori-atiqalar aks ettirilgan turkum albom-kataloglarning bir qismi nashr etilib, muzeylarga taqdim etilishi, davlat muhofazasiga olingan yodgorliklarni ro'yxati qayta tuzilib, ularni saqlash chora-tadbirlari ishlab chiqilishi, bugungi kunning moddiy madaniy merosni saqlashga doir ahamiyatini oshganligini ko'rsatadi.

Respublikada yangi tashkil etilgan deyarli barcha muzeylar ijtimoiy hayotda, ma'rifiy va ma'naviy maskanlar sifatida muhim ahamiyat kasb etib, jahon andozalariga mos ravishda jihozlanishi hamda ular juda boy eksponatlarga ega ekanligi bilan ajralib turishi e'tirof etildi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, respublikada muzeyshunoslik fanining zamonaviy holatini talab darajasida deb bo'lmaydi. Muzeyshunoslikda muzey ashyolarini to'plash, ularni

tizimlashtirish, jamg'armalarni boyitish, ashyo-buyumlarni ta'mirlash, konservatsiya uslublarini yaratish, muzey ekspozitsiyalarini bezash va namoyish etish usullari sifatidagi tarixiy ashyolarni o'rganishgacha bo'lgan muammolar kompleksini tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi predmetning o'zini uslubiy va nazariy jihatdan ishlab chiqish orqada qolmoqda. Jamiyat rivojining zamonaviy bosqichdagi ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, muammoning gnoseologik jihatlar va amaliy vazifalarini asoslash, birinchi darajada qonuniyatlarini aniqlash, estetik did mezonlarini hisobga olib ekspozitsiyalarni yaratish va namoyish etishda tarixiy ashyo, hujjatlarning muayyan guruhlari tanlash lozim.

Shuningdek, Umumjahon, xususan O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganilishi va saqlanishida YUNESKO Xalqaro tashkilotining roli ishning diqqat markazida bo'ldi. Mustaqillik davrida O'zbekiston moddiy madaniy merosni saqlashga oid me'yoriy hujjatlar va tashkiliy tizimlar asosi muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi. 1990-2018-yillarda muzeylar istiqbolining shart-sharoitlari va yangi muzeylarning o'ziga xosligi faktologik materiallar asosida ochib berildi.

Madaniy merosni ommalashtirish bo'yicha YUNESKOning na-faqat jahonda, qolaversa O'zbekistondagi loyiha va tadbirlari, madaniy merosni umuman rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega.

YUNESKO bilan O'zbekistonning gumanitar va madaniy hamkorligi bois mamlakatdagi madaniy va ijtimoiy qurilish muammolariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'rtasida madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy, ta'lim va kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, shu asosda O'zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari, obidalar va qadimiy shaharlari, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari YUNESKOning ro'yxatiga kiritilib, xalqaro muhofazaga olindi. Tarixiy shaharlar muhitini saqlab qolish, madaniy landshaftni moslashtirish borasida loyihalar qamrovini kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar hamda takliflar taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tahlili, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar, davlat hokimiyati va joylardagi boshqaruv idoralari, shuningdek, madaniy meros obyektlari hamda ulardan foydalanish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonlari tahlil qilindi.

Tuzilmali o'zgartirishlar yordamida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari bo'yicha vazirlik faoliyati kuchaytirildi. Shunga qaramay, ularni muzeylashtirishning zamonaviy usullarda takomillashtirish hamon rivojlanmay qolmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan muhofaza ro'yxatlari va reyestrlariga kiritilgan madaniy boyliklardan muzey ashyolari, kolleksiyalari, qadimiy yozma manbalarining hisobi yuritilishini tekshirish, olim, restavrator, ekspert va xalq ustalari bilan yaqin hamkorlik qilish, ta'mirshunoslikdagi o'ziga xos uslub, an'ana va maktablarini rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash, moddiy madaniy meros obyektlarini keng targ'ib etish va ommalashtirish, sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, innovatsion va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etish, elektron xizmatlarni rivojlantirish kabi vazifalari ham asoslab berildi.

III-BOB. O‘ZBEKISTON MUZEYLARIDA FONDLARNI SHAKLLANTIRISH, SAQLASH, TARG‘IB VA TASHVIQ ETISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Muzeylarda moddiy madaniy meros ashyolarini saqlash uslublari va uni amaliyotga tatbiq etilishi

Muzey moddiy madaniy meros ashyolari deganda, unda saqlanayotgan barcha eksponatlar tushuniladi. O‘zbekiston muzeylari o‘z fondlarida bir yarim milliondan ortiq tabiiy-tarixiy yodgorliklar hamda moddiy va ma‘naviy madaniy boyliklarni saqlaydi. Barcha muzeylarning fondlari – davlat mulki bo‘lib, ular ulkan moddiy qimmatga ega va aniq hisobga olishni hamda ehtiyotkorlik bilan saqlashni talab etadi²³². Shu jihatdan O‘zbekiston muzeylaridagi fondlarni saqlash tizimiga katta e‘tibor qaratish muzey ishining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy muzeylarning fond saqloviga taalluqli muammolar doirasi juda keng bo‘lib, turli darajadagi professionallik bilan adabiyotlarda aks ettirilgan va doimiy tarzda muzey amaliyotchilari hamda nazariyotchilari diqqat markazida turadi²³³.

XX asr boshlarida, muzey eksponati – bilishning o‘ziga xos ko‘rinishi manbasi, muzey kommunikatsiyasi sistemasining asosiy elementi sifatida tadqiq etila boshlangan. Predmetlarni muzey to‘plamiga kiritish jarayonida u qanday sifat va xususiyatlarini yo‘qotishi hamda o‘zlashtirishi tizimli tarzda ko‘rib chiqila boshlandi.

Muzeydagi buyumlarni saqlash masalalarining nazariy tushunchalari qator soha olimlarining ko‘p yillik amaliy faoliyatlari natijasida tahlil etilgan. T.Yureneva, L.Levteyeva, T.Tursunaliyev, I.Ilatov kabi mutaxassislar tomonidan muzey ishi va aynan mod-

²³² Левтеева Л., Турсуналиев К. Музеология (Наука в музейном деле). // Методическое пособие. – Т.:Узбекмузей, 2008. – С.74.

²³³ Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А. – М.: Издательство «ВК», 2003. – С. 288.

diy madaniy meros ashyolarining muzeyda saqlash tartiblari, ularning eskirish jarayonlarini sekinlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha to‘plangan materiallar asosida ish olib borilgan²³⁴. Ular bu masalaga turlicha yondashganlar. Masalan, I.Ilatov nazariyotchi bo‘lganligi bois, uning muzey ashyolarini hisobga olish va saqlash bo‘yicha yozgan o‘quv-qo‘llanmasi umumiy xarakterga ega bo‘lib, asosan Oliy o‘quv yurti talabalari uchun mo‘ljallangan. L.Levteyeva va K.Tursunaliyevlar esa muzeyda olib borilgan uzoq yillik tajribalari asosida to‘plangan faktologik materiallarni umumlashtirib, predmetlarni saqlash uslublari yozganlar. Muzeyda ish olib borishning nazariy-metodologik asoslari, shu sohada olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda, T.Yureneva muzeydagi ashyolarga yorug‘lik, harorat-namlik tartibini qo‘llash kabi muhim omillarni bayon etgan.

Tadqiqot jarayonida muzey predmetlarini saqlanishiga doir tarixiy faktlar hamda me‘yoriy hujjatlar o‘rganilib, jadval shaklida berildi:

Jahon muzeylarida harorat-namlik tartibining joriy qilinishi

№	yili	Amalga oshirilgan ishlar
1	1877	Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligida madaniy merosni saqlab qolish uchun nazariy asos qo‘llashga birinchi uyushgan urinish bo‘lib, qadimiy binolarni himoya qilish jamiyati ta‘sis etilgan. (https://hraniteli-nasledia.com/articles/knigi/angliyskaya-frantsuzskaya-i-rossiyskaya-zashchita)
2	1888	Germaniyada madaniy merosni saqlab qolish sohasi bo‘yicha dastlabki tadqiqot paydo bo‘lgan
3	XVIII asr	Muzey ashyolarini namlik va hasharotlardan himoya qilish muammosiga doir murojaatlar kuzatilgan

²³⁴ Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Акадепроект, 2003. – 382 с.; Левтеева Л., Турсуналиев К. Музеология (Наука в музейном деле). // Методическое пособие. – Т.:Узбекмузей, 2008. – 283 с.; Илатов И. Музееведение. – Т.:Музыка, 2006. – 357 с.

4	1901	Muzey saqlovxonolari haroratini o'ldash asbob-uskunalari ilk bor Imperator Aleksandr III ning Rus muzeyida qo'llanilgan va ulardagi harorat ko'rsatkichlari muntazam yozib borilgan (https://culture.wikireading.ru/75301)
5	1916	Imperator Rus muzeyida yil fasllariga qarab xonalardagi namlik darajasi o'zgarishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida hujjat ishlab chiqilgan. (https://culture.wikireading.ru/75301)
6	1920-1930	Muzeylarni saqlash tartibiga bag'ishlangan dastlabki asarlar yozilgan
7	1939-1940	M.V.Farmakovskiy muzeyda havoning fizik holatini kuzatadi va ular bo'yicha «muzeylarda havo rejimi» kitobini nashr etadi. Bu muzey klimatologiyasi bo'yicha birinchi kitob edi. (Farmakovskiy M.V.Vozdushniy rejim v muzeyax. Po dannim nablyudeniy, provedennim v Gos. Russkom muzeye s vesni 1939 g. po osen 1940 g. – L., 1941).
8	1950	Rossiya muzeylarida nazorat qilib bo'lmaydigan xonani shamollatishni oldini olish maqsadida, muzey binolarida havo kanallari yotqizilgan (https://culture.wikireading.ru/75301).
9	1960-1970	Muzey va kutubxona kolleksiyalarining mikroiklim saqlash sharoitlarini o'rganish bilan bog'liq muammolarni ishlab chiqishda eng sermahsul davr bo'ldi. 1960-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab optimal saqlash sharoitlarini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari Butunittifoq ilmiy-tadqiqot restavratsiya institutida (VNIIR) olib borildi (https://www.gosniir.ru/about/gosniir-structure/climate.aspx).
10	1978	Garri Tomsonning ilmiy tadqiqotlar asosida «Muzey muhiti» deb nomlangan birinchi kitob chop etildi (Tomson Garri. Muzeyniy klimat. – SPb: Skifiya-Elsevier, 2005. – 288 s.)

11	1970-1980	Muzey iqlimshunoslik masalalari bilan shug'ullanuvchi yirik rus muzeylarida alohida xodimlar paydo bo'ldi. (https://www.gosniir.ru/about/gosniir-structure/climate.aspx).
12	1981	Rossiyada muzey iqlimshunoslik laboratoriyasi yaratilgan

**Muzey predmetlarini saqlashga doir 1918-yildan
2017-yilgacha joriy etilgan me'yoriy hujjatlar ro'yxati**

№	yili	Amalga oshirilgan ishlar
1	1918	«Jismoniy shaxslar, jamiyatlar va muassasalarga qarashli san'at va antik davr yodgorliklarini ro'yxatga olish, va muhofaza qilish to'g'risi»dagi dekret
2	1938	Muzey materiallarini hisobga olish, inventarizatsiya qilish va saqlash bo'yicha ko'rsatmalar
3	1940	O'zbekiston SSR xalq Komissarlari Kengashining 548-sonli «Tasviriy san'atni boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi Hay'at buyrug'i
4	1956	O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligining buyrug'i «San'at muzeylarida muzey boyliklarini hisobga olish va saqlash bo'yicha yo'riqnomalarni tasdiqlash. Madaniyat vazirligi tizimidagi muzeylarning san'at bo'limlarida (san'atdan tashqari)»
5	1970	SSSR Madaniyat vazirligi Hay'atining «Mamlakat muzeylarida pul mablag'larini hisobga olish va saqlashni takomillashtirish holati va chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori
6	1971	O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligining 754-sonli «Madaniyat vazirligi tizimidagi muzey va san'at bo'limlarida muzey boyliklarini hisobga olish va saqlash bo'yicha yo'riqnomalarni joriy etish to'g'risi»dagi buyrug'i

7	1972	SSSR Madaniyat vazirligining 208-sonli «Muzey boyliklarini hisobga olish va saqlashni tartibga solish to'g'risida»gi buyrug'i
8	1975	SSSR Madaniyat vazirligining 09/18/-sonli «Davlat muzeylari va SSSR madaniy-ma'rifiy muassasalarida joylashgan qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan muzey boyliklarini hisobga olish va saqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i
9	1984	SSSR davlat muzeylarida joylashgan muzey boyliklarini hisobga olish va saqlash bo'yicha ko'rsatmalar
10	1994	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika muzeylar faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori
11	1998	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni
12	2017	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2995-sonli «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori

Moddiy boyliklarni muzey eksponatiga aylantirish mumkin bo'lgan ko'plab tarixiy, ijtimoiy, madaniy va badiiy qimmatga ega bo'lgan predmetlar mavjud bo'lib, adabiyotlarda ularni «Muzey ahamiyatiga ega predmetlar» deb atash qabul qilingan. Dastlab muzey ahamiyatiga ega predmet, buyum joylashgan manzilda topilgan, tabiiy, ijtimoiy muhitda yoki saqlanayotgan joyi, uning tarixan boshqa predmet yoki inson bilan aloqadorligi aniqlanadi²³⁵.

Har qanday predmet, muzeyga doimiy saqlovga qabul qilinishidan oldin soha mutaxassislari tomonidan tekshirilib, o'rganiladi

²³⁵ Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. / Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B. 99.

va hisobga olinadi. Shuni ta'kidlash joizki, predmet muzeyga qabul qilinganidan so'ng, o'zining oldingi funksional ahamiyatini yo'qotadi. Endi u biron bir voqea-hodisa, tarixiy jarayon kabilar haqida axborot beruvchi eksponatga aylanadi. Ya'ni, mazkur predmetning funksional ahamiyati emas, uning jamiyatdagi madaniy-tarixiy yodgorlik sifatidagi ahamiyati asosiy o'rinni egallaydi. Muzey to'plamida bu predmet konkret faktning hujjati, guvohi, belgisi, timsoli va fondga informativ xususiyatga ega predmetga aylanadi.

Predmetni o'rganish jarayonida muzey ilmiy xodimlari uni olib kelingan muhiti bilan bog'lab rekonstruksiya qiladilar, unga xos belgi va tasniflarni aniqlaydilar. Shu bilan birga fondagi predmet ma'lum bir tarixiy kontekstga kiritiladi. Masalan, muzeyga qabul qilingan zardo'zlik buyumi – to'n yoki bosh kiyimi, o'zining avvalgi funksiyasini yo'qotadi. Muzeyda u bichimi, matosining o'ziga xosligi, zar iplar bilan kashta tikib bezatilganligi bilan badiiy qimmatga ega eksponatga aylanadi. Tomoshabinlarga u zardo'zlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari haqida axborot beradi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, muzeylardagi turli xil tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'z holicha saqlab qolish asosiy muammolardan biri hisoblanadi²³⁶.

Bugungi kunda muzeylarning aksariyat qismi eksponatlar uchun maksimal darajada saqlash chora-tadbirlarini qo'llashga ojizlik qiladi. Bunga sabab birinchidan binolarning muzey talablariga javob bermasligi bo'lsa, ikkinchidan muzeyshunos kadrlarning yetishmasligidir. Bu o'rinda bir necha muzeylar kuzatilganda, bu fikrlar o'z tasdig'ini topdi. Masalan, Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida filologlar, Geologiya tarixi muzeyida geologlar, Tibbiyot muzeyida vrachlar ishlayotgani kuzatildi. To'g'ri, ular yuqorida qayd etilgan turli ixtisoslikdagi muzeylarning eksponatlarini o'z sohasi nuqtayi nazaridan chuqur

²³⁶ Юреньева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 402-417; Музееведение. Музеи исторического профиля. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 171-172; Левтева Л., Турсуналиев К. Музеология. (Наука в музейном деле). // Методическое пособие. – Т.: Узбек-музей, 2008. – С. 120-145; Kuryazova D., Ergashev B., Maxmudov T. Jahon muzeyshunosligi. – Samarqand, SamDU, 2015. – B. 106-118; Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. / Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B. 133-138.

ta'riflab berishi, mazmunli ekskursiyalar tashkil eta olishi, ilmiy pasportlardagi eksponatlar sharhini mukammal qilib yoza olishi mumkin. Biroq, ularning eskirish jarayonini sekinlashtirish, yaxshi saqlash uchun aynan nimalarga e'tibor qaratish muhimligini bilishmaydi. Buni fond saqlovxonalariga kirmasdan, ekspozitsion zallarini o'zidayoq ko'rish mumkinligi fikrimiz isbotidir.

Zamonaviy muzeyshunoslikda «saqlash» deganda, eksponatlarning uzoq vaqt saqlanishi uchun sharoit yaratib berish tushuniladi²³⁷. Muzeydagi eksponatlarni fond saqlovxonalariga joylashtirilishida o'zining spetsifikasiga ega bo'lib, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari, nimadan ishlanganligiga qarab guruhlariga ajratiladi. Ular saqlov sharoitidan kelib chiqqan holda alohida (muzey predmetining materialiga qarab) yoki kompleksli joylashtiriladi. Alohida joylashtirilganlarida ham ma'lum muzey predmeti uchun xos saqlov tartibi o'rnatilsa, kompleksli saqlov tartibida bitta fond saqlovxonasida turli xildagi materiallardan qilingan predmetlar joylashtiriladi²³⁸.

Shuningdek, muzey binosining qurilishi, moslashtirilish darajasi ham predmetlarni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eksponatlarni saqlash darajasiga ko'ra, muzeylardagi saqlovxonalar asosiy, almashinuv, ilmiy-yordamchi va vaqtinchalik fondlarga ajratilgan:

Asosiy fondga tarixiy voqealar, davlat va jamiyatning rivojlaniishi, texnik va fan tarixi, mashhur shaxslarning hayoti va faoliyatiga bog'liq predmetlar;

tarixiy, badiiy, ilmiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega turli xildagi qurol-aslahalar;

qimmatbaho metall va toshlardan qilingan badiiy boyliklar;

arxeologik qazilmalardan topilgan buyumlar;

etnografik ashyolar;

tasviriy va amaliy-bezak san'ati namunalari;

qo'lyozma kitob hamda kitobot san'ati bilan bog'liq eksponatlar;

²³⁷ Ismailova J.X. Muzeyshunoslik atamalarining izohli lug'ati. – T.: Turon zamin, 2016. – 100 b.; O'zbekistonning moddiy va nomoddiy merosi atamalari. – T.: Fan, 2019. 120 b.

²³⁸ Тельяров А. Основы музейного дела. – М.: Омега, 2005. – С. 136.

arxiv hujjatlari va kino, - foto, - fono-materiallar;

musiqa asboblari;

numizmatika, faleristika, filateliya, bonistika va sfragistikaga oid narsalar, muhrlar, pochta otkritkalari;

noyob kolleksiyalar, flora va fauna namunalari hamda mineralogiya, paleontologiya va anatomiyaga oid predmetlar;

turli xildagi muzey ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy, texnik asbob-uskunalar tashkil etadi²³⁹.

Muzeyga olingan predmetlarning barchasi, davlat mulki sifatida hujjatlashtiriladi. Predmetlarning fizikaviy saqlovi uchun sharoit qilish va foydalanuvchilarni kirishini ta'minlovchi sharoit yaratish fond saqlovining vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, u muzey predmetlarini o'rganishni talab qiladi, chunki bunda predmetlarning umumiy va turli fizikaviy, kimyoviy xususiyatlari ochib beriladi. Bu o'z navbatida saqlovning alohida sharoitiga muhtoj predmetlar guruhini aniqlab, ajratadi. Fondlardan foydalanish darajasi ham ularning o'rganilganlik darajasi bilan bog'liq, negaki keng qamrovli qidiruv tizimi, faqat muzey predmetlarini sinchiklab, chuqur tadqiq etgandagina yaratiladi²⁴⁰.

Muzey fondlarining maqsadi, moddiy madaniy boyliklarni saqlanishini ta'minlash, ularni yemirilish, shikastlanish, o'g'irlanishidan himoya qilish, kolleksiyani ko'rsatish va o'rganish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat²⁴¹.

Lekin, tadqiqot jarayonida muzey fondlari o'rganilganda, ularni saqlash uchun zarur xona va moslamalarning yetishmasligi, ko'p muzeylarning binosi muzey uchun to'g'ri kelmasligi aniqlandi. Toshkentdagi muassasalar ichida, predmetlar eskirish jarayonini sekinlashtirib, saqlash uchun maksimal sharoit faqatgina Tasviriy san'at galereyasida yaratilgan. Har bitta buyum turi uchun maxsus uskunalar o'rnatilgan. Masalan, kartinalar relslarda harakatlanadigan kataksimon shitlarga ilib saqlanadi. Harorat, namlik,

²³⁹ Левтеева Л., Турсуналиев К. Музеология. (Наука в музейном деле). // Методическое пособие. – Т.: Узбекмузей, 2008. – С. 75.

²⁴⁰ Kuryazova D., Ergashev B., Maxmudov T. Jahon muzeyshunosligi. – Samarqand, SamDU, 2015. – B. 90.

²⁴¹ Юреньева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 401.

yorug'lik me'yorlarini ko'rsatib turuvchi asboblar, predmetlarni chang, quruq havo, namlikdan saqlovchi ventilyatsiyalovchi hamda yong'in chiqqanda kislorodni tortib oladigan moslamalar o'rnatilgan.

Ta'kidlash joizki, muzey fondlarini saqlash tizimi predmetlarning fizikaviy, kimyoviy xususiyatlari, manbalar tipi, soni, hajmi va joylashuviga, xona hamda fond saqlovxonalarining texnik jihozlanishiga bog'liq bo'ladi. Fondlarni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit, maxsus saqlash tizimi tuzilganda albatta, samarali natija beradi. Shuning uchun har bir saqlov uchun ajratilgan alohida xonada, saqlash tartibi bir-biriga yaqin predmetlarni joylashtirish kerak. Majmuaviy tizimda ularni saqlashda turli ashyolardan ishlangan predmetlar bir xonada joylashtiriladi. Bunday holda saqlash tartibi o'rtacha ko'rsatkichga qo'yiladi. Saqlashning majmuaviy tizimi faqat xonalar kam bo'lsa yoki predmetlar kam bo'lganda qo'llaniladi. Bu tizimda predmetlarning joylashtirilishi, manbalarining tipi, materiali, mazmuni va nima uchun moslashtirilganligiga qarab amalga oshiriladi. Predmetlarni joylashtirishda hajmli, inventar raqamiga ham e'tibor beriladi. Ular shkaf, stellaj, javon va boshqa moslamalarga bittadan yoki guruhlariga ajratib joylashtiriladi. Guruhlarga ajratilganlari o'ziga tegishli moslamalarga joylashtirilib, ulardan ba'zilar planshetlarga tikiladi, boshqalari papka yoki futlyarlarga solinadi. Predmetlar joylashtirilgan moslamalarga topografik ro'yxat yoziladi. Arxeologik yodgorliklar esa umumiy holatiga qarab alohida saqlash guruhlariga ajratiladi.

Fondlarni saqlash ishlari fond saqlov xonalari, ekspozitsiya, predmetning muzey ichi va tashqarisida harakatlanishi davrida amalga oshiriladi. Fondlarni saqlashni tashkil etish haqidagi prinsipial qonunlar, umumdavlat me'yorlari bo'yicha aniqlanadi va bunga barcha muzeylar amal qilishi kerak. Lekin, har bir muzey fondi o'zining spetsifikasiga ega bo'lib, fondlarning tuzilishi va tarkibi, predmetlarning soni va ularning saqlanganlik darajasi, muzey binosi va fond xonalarining qurilishidagi o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, L.Shlyaxina asosiy me'yoriy hujjatlarga qo'shimcha tarzda har bir muzey o'zining spetsifikasiga moslab, saqlov tartibiga amal qilgan holda yuqoridagi umumiy ni-

zomga o'zgartirish kiritishi mumkinligini ta'kidlaydi²⁴². Shuning uchun har bir muzeyda asosiy nizom asosida muzey ashyolarini saqlash uchun ichki nizom ishlab chiqilgan.

Muzey kolleksiyalarini saqlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar natijasida predmetlarda sodir bo'ladigan salbiy o'zgarishlarni M.V.Farmakovskiy²⁴³ 25 yil davomida olib borgan ilmiy izlanishlarida batafsil bayon etgan.

Predmetlarda doimiy ravishda eskirishning kuzatilishi tabiiy va to'xtatib bo'lmaydigan jarayon bo'lib, uni sekinlashtirish va minimunga tushirish mumkin xolos. Predmetlarning saqlash sharoitini ta'minlash fond saqlovchi va ta'mirlovchilar zimmasiga yuklanadi. Saqlash jarayonida harorat, namlik yoritish va tozalik uyg'unligi uchun iqlim asosiy o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, turli fasllarda harorat keskin o'zgarib turadi. Muzeydagi isitish yoki sovitish moslamalari ham ba'zida bir maromda ishlamaydi. Bu esa o'z navbatida harorat-namlik tartibining beqarorligiga, predmetlarning eskirish jarayonini tezlashishiga olib keladi. Harorat va namlik darajasining predmetga ta'sir kuchi va tavsifi, ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, predmet tayyorlangan material, uning tuzilishi, muzeyga keltirilgunga qadar turgan muhiti shular jumlasidandir. Bunga misol qilib, Nyu-Yorkdagi Metropoliten amaliy san'at muzeyini keltirishimiz mumkin. Bu muzeyda eksponatlarni qorong'i joyda, harorat +4°C ostida saqlanishi yo'lga qo'yilgan. Fond uchun bunday sharoit yaratilishi natijasida yemirilishga ta'sir etuvchi omillar butkul bartaraf etilishi mumkin ekan. Xususan, buyumlar yemirilishida asosiy rol o'ynaydigan yorug'lik ta'siri yo'qoladi, buyumlarning asl holati ta'minlanadi, doimiy namlik va deyarli mikroorganizmlarning rivojlanishi sharoitining oldi olinadi. Harorat va namlik darajasi maxsus havo konditsionerlari yordamida bir me'yorda ushlab turiladi.

²⁴² Шляхтина Л.М. Основы музейного дела: теория и практика. Учеб. пособие. – 2-е изд. стер. – М.: Высш. шк., 2009. – С. 99.

²⁴³ Фармаковский В.М. Консервация и реставрация музейных коллекций. – М.: тип. «Кр. Печатник», 1947. – 144 с.; Тот же. Воздушный режим в музеях: По данным наблюдений, проведенных в Государственном русском музее с весны 1939 г. по июнь 1940 г. – Л.: [б. и.], 1941. – 28 с.

Saqlash jarayonida toladan to'qilgan gazlamalar, charm mahsulotlari, yog'ochdan ishlangan buyumlar, qog'oz va boshqa organik gigroskopik materiallardan qilingan buyumlarga yuqori yoki past namlik o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, muzey zallari yoki saqlovxonalarida namlik oshib ketsa, bu materiallar shishib, tolalari orasidagi zichlik buziladi va predmet deformatsiyalanib, o'z shaklini yo'qotadi. Qadimiy qo'lyozmalarda esa nozik bo'yoq qatlamining to'kilishiga olib keladi²⁴⁴. Yuqori namlik mog'orlanishiga sabab bo'ladi, bu organik materiallarni yo'q qiladi, haddan ziyod quruq havo ularning ko'plarini mo'rt qiladi. Ayniqsa, haroratning keskin oshib yoki pasayib ketishi, rangtasvir, haykaltaroshlik, yog'och o'ymakorligi, shuningdek turli kengayish koeffitsiyentiga ega materiallardan yaratilgan (masalan, yog'ochning har xil turidan inkrustatsiya qilib ishlangan mebel) predmetlar uchun ham juda xavfli.

Namlikning keskin o'zgarishi yuz berganda materialning tez ta'sirlanuvchi yuzasi ichki qatlamiga nisbatan deformatsiyalanadi. Agar namlikning o'zgarishi tez-tez takrorlansa, yorilish va buzilishlar paydo bo'ladi. Harorat va namlik predmetga bir-biri bilan bog'liq ta'sir ko'rsatadi. Nam tortish xususiyatiga ega materiallar uchun, past namlik, harorat yuqori bo'lsa, juda xavfli. Masalan, fayans yoki koshinning teshiklariga yig'ilgan namlik muzlab qolsa, predmetga jiddiy shikast yetkazishi mumkin. Haroratning o'zgarishi, namlikning ham o'zgarishiga olib keladi. Shu bois muzeyshunoslik tajribasida «harorat-namlik tartibi» tushunchasi paydo bo'lgan.

Harorat-namlik tartibining o'zgaruvchanligi asosan organik materiallarni yemiradi, organik bo'lmagan materiallardan birinchi bo'lib, arxeologik predmetlar yemiriladi. Muzeyga keltirilgan predmetlarning harorat-namlik tartibini aniqlash uchun, uning oldinlari qanday sharoitlarda saqlanganligini bilish zarur. Masalan, yer osti suvlari ta'sirida bo'lgan arxeologik shisha buyumga pasaytirilgan namlik zarur, nam yerdan qazib olingan arxeologik yog'och buyumni esa juda kuchli namlikda saqlash lozim²⁴⁵. Masalan, Lon-

²⁴⁴ Музееведение. Музеи исторического профиля. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 171-172.

²⁴⁵ Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi... – B. 135.

don Milliy galereyasida harorat, kislorod va namlikning san'at asarlariga ta'sirini bilish maqsadida qiziqarli tajriba olib borilgan. Buning uchun havo kirmaydigan qilib yopilgan bir necha shisha idishlar olingan. Idishlarga tajriba qilinayotgan material namunasi joylashtirilgan. Faqat harorat ta'sirini sinab ko'rish uchun bu idishlarga turli ko'rinishlarda ishlov berilgan. Bir marta idish ichidagi havoni so'rib olib, obyektни havo bo'lmagan joyda saqlashgan. Yana bir holatda havo so'rib olingan idishga biror bir gaz (azot, neon yoki argon) kiritilgan. Bir necha idishlar qatori kislorodsiz faol gaz (vodород) bilan, yana bir nechta kislorod bilan, nihoyat qolgan idishlar ko'p miqdordagi suv bug'i va oddiy atmosferadagi havo bilan to'ldirilgan. Shu tajriba asosida muzey predmetlariga turli tabiiy omillarning ta'siri o'rganilgan. Natijada, fond saqlovxonalari va ekspozitsiyadagi havoni ifloslanishiga qarshi kurash, shuningdek, harorat-namlik tartibining zarur parametrlarini saqlab turish uchun havoni changsizlashtiradigan, tozalaydigan, harorat va namlikni me'yorida ushlab turadigan uskunalardan foydalanish lozim degan xulosaga kelingan.

Fond saqlovxonalari, ekspozitsiya va ko'rgazma zallarida harorat-namlik tartibini nazorat qilish psixometr, gigrometr, termometr yoki o'zi yozuvchi uskunalar-gigrograf va termograflar yordamida amalga oshirilmoqda. Muzeyda uskunalarining ko'rsatmalari maxsus jurnalga yozib borilishi, harorat va namlik ko'rsatkichlari sutkasiga ikki marta maxsus daftarga registratsiya qilinishi talab qilinadi. Ammo, rasmiy belgilangan ko'rsatkichlarni qayd etish aksariyat mahalliy muzeylarda to'laqonli amalga oshirilmaligi kuzatilgan.

Organik materiallardan qilingan muzey ashyolaridan moybo'yoqda ishlash uchun mo'ljallangan mato (xolst), gazlama, charm, yog'och, qog'oz kabilar gigroskopik material hisoblanib, ularda namlik mavjud bo'ladi. Havodagi harorat va namlikning qay darajada ekanligiga qarab, u ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Masalan, qalin to'qilgan matoga ishlangan rangtasvir asarlari murakkab tizimga ega bo'lib, u asosan mato, grunt, turli pigmentlarga ega bo'lgan moybo'yoqli va lokli qatlamdan iborat bo'ladi. Bular-

ning hammasi o'zining xususiyatiga ko'ra turlicha va xonaning nisbiy namligi bir maromda bo'lsa-da, ularning ichki namligi har xil bo'ladi.

Nisbiy namlikning o'zgarishi kartinalarning asosiga ta'sir qiladi, u doimiy harakatda bo'ladi, ya'ni taranglashib yoki bo'shashib turadi. Asarning bo'yoqli qatlami va grunti namlikni unchalik o'tkazmaydi, shuning uchun asos bilan bir xilda harakatlanmaydi, natijada, yuzaga kelgan taranglikdan matoning tolalari grunt qoplamini yorilishiga olib keladi. Grunt bilan bo'yoq qatlamining birlashuvi susayadi va bo'yoq qatlami bukiladi, yoriqlar paydo bo'ladi va shililib, to'kila boshlaydi. Agar kartina uzoq muddat 70% dan yuqori namlikda saqlansa, matoli asosning parchalanishiga, shishib ketishiga, grunt tarkibidagi yelimning chirishiga hamda mog'orning paydo bo'lishiga olib keladi²⁴⁶. Lekin, eksponatlarni yaxshi saqlanishiga faqatgina harorat-namlik tartibigina emas, balki havoni ifloslantiruvchi vositalar, tabiiy va sun'iy yorug'lik, favqulodda hodisalardan suv toshqini va yer qimirlashi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, predmetlar mog'or zamburug'lari, hasharotlar, kemiruvchilar kabi biologik zararkunandalar orqali ham talafot ko'rishi mumkin²⁴⁷.

Predmetlarning tabiiy eskirish jarayonlarini oldini olishda yorug'lik tartibiga rioya qilish zarur. Chunki, yorug'lik ta'siri, ultrabinafsha nurlarida predmetlar bilan fotokimyoviy o'zgarishlar sodir bo'lishi ularning sarg'ayish, qorayish, oqarish yoki butunlay rangsizlanishi holatlariga olib keladi. Tabiiy yorug'lik ta'siri kuchli yemiruvchilik xususiyatiga ham ega, sun'iy yorug'liklar manbalaridan lyuminessent lampalari ko'proq xavfli hisoblanadi. Shuning uchun yorug'likka chidamsiz materiallarni, undan himoya qiladigan maxsus shkaf, lotok kabi moslamalarda saqlashadi.

Yorug'lik tufayli ro'y beradigan fizikaviy o'zgarishlar, – material strukturasining yemirilishi, mustahkamligini yo'qotishi va qisqarib ketishida namoyon bo'ladi. Ular tabiiy va sun'iy yorit-

²⁴⁶ Пилецкая Л.В. Музейное хранение станковой живописи. Учебно-методическое пособие. – Томск: Издательский Дом Томского государственного университета. 2018. – С. 9-10.

²⁴⁷ Музееведение. Музеи исторического профиля. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 174.

gichlar, ya'ni ko'proq cho'g'lanma lampalarda mavjud infraqizil nurlarining ta'siri ostida yuz beradi. Yorug'lik ta'sirida bo'ladigan zararlanish nurning intensivligi va uning qancha davom etishi jarayoniga bog'liq bo'lib, yorug'lik darajasining o'lchov birligi lyuks (lk) deyiladi. Yorug'likning o'zgarishiga ko'z tez moslashishi sababli, uning darajasini maxsus moslamasiz aniqlab bo'lmaydi, shuning uchun lyuksmetr bilan o'lchanadi. Yorug'lik tartibi predmetning materiali, rangi va saqlanganlik darajasiga qarab o'rnatiladi. Grafika, kitoblar, qo'lyozma materiallari, fotosuratlar, gazlamalar, bo'yalgan charm, flora va fauna namunalari saqlanadigan xonaga 50-75 lyuks atrofida yorug'lik berish tavsiya etiladi. Rangtasvir (moybo'yoq, tempera) lak, yog'och, bo'yalmagan charm va suyak yorug'likka o'rtacha chidamli bo'lib, ular uchun 150 lyuksdan oshmaydigan yorug'lik tavsiya qilinadi²⁴⁸.

Yorug'likka yuqori chidamli predmetlardan – metall, rangsiz shisha va tosh, sopol, gips kabilarni faqat to'g'ri tushadigan quyosh nurlaridan saqlash lozim. Yorug'likka o'rtacha chidamli predmetlarning yorug'lik tartibi bir xil emas: yorug'liksiz suyak va oq jun sarg'ayadi, rangtasvir tonirovkasi, ustki qatlami qorayadi, har xil daraxtlar – yong'oq, qizil daraxt, emandan qilingan predmetlar yorug'likda kuyishi mumkin, shuning uchun ustiga mato yopiladi. Yorug'lik manbalari kuchli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi predmetlarning faqat ko'chirma nusxasi ekspozitsiyaga qo'yiladi. Asl nusxalari vaqtinchalik ko'rgazmalarda namoyish etib turiladi.

Afsuski, bugungi kunda muzeylarning aksariyat qismi moslashtirilgan binolarda joylashgan va barchasida tabiiy yorug'likdan muzey ashyolarini saqlash chora-tadbirlari ko'rilmagan. Bunga misol qilib, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyini keltirishimiz mumkin. Bu muzeyda oynalar orqali quyosh nurlari bilan bir qatorda chang va havodagi turli zararli gazlar, hasharatlar ham kiradi. Bino qishda sovuq, yozda issiq. Havo haroratini mo'tadil ushlab turadigan moslamalar yo'q. Eksponatlar orasida yuqoridagi omillar ta'sirida zarar ko'rganlari ham mavjud. Masalan, qog'ozga ishlangan bitta miniatyura asari nusxasini hasharotlar yaroqsiz

²⁴⁸ Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 406.

ahvolga keltirgan. Alisher Navoiyga bag'ishlab tikilgan katta zar-do'zlik namunasi devorga osilgan bo'lib, zar iplari to'kila boshlagan, matosining rangi esa, quyosh nuridan ocharib ketgan.

Muzey predmetlarini yuqori saqlov tartibi bilan ta'minlash uchun ularni havo ifloslanishidan himoya qilish zarur, chunki bu predmetlarning yemirilish va eskirish jarayonlarini keltirib chiqaradi. Chang va qurum suv shimadigan materiallarning teshiklariga kirib, predmetdagi namlikni ushlab turadi, kimyoviy jarayonlarni kuchaytiradi, rangtasvir asarlarining bo'yoqli qatlamiga qalin kirlanish beradi. Muzey kolleksiyalarini havo ifloslovchilaridan himoya qilishning asosiy usuli – fond xonalarni havo kirmaydigan-chiqmaydigan, ya'ni hermetik qilib yopib, konditsionerlardan, havoni filtrlaydigan moslamalardan foydalanib, predmetlarni esa doimo alohida qilib g'iloqlarga, futlyarlarga, papkalarga solib qo'yish kerak. Muzey ekspozitsion maydonlarini, xonalarini, texnik moslamalarni tez-tez tozalab turish ham zarur. Predmetlarni mikroorganizmlar, hasharotlar va kemiruvchilar ham shikastlantirishi mumkin, shuning uchun biologik tartibga ham rioya qilish zarur. Harorat namlik tartibining buzilishi, chang, oziq-ovqat omborxonalarining muzey binosiga yaqin joylashgan bo'lishi, qayta ishlov berilmasdan qabul qilingan, zararlangan predmetlar-biologik zararkunandalarning ko'payishiga olib keladi.

Mikroorganizmlar – bakteriyalar va mog'or ko'p turdagi predmetlarni yemiradi. Birinchi bo'lib organik materiallardan qilingan, ya'ni rangtasvir, qog'oz, gazlama, suyak, yog'och predmetlar zararlanadi. Mog'orning barcha turlari ketkazish qiyin bo'lgan dog' hosil qiladi, ba'zilar esa tolalarni yemiradi. Ayniqsa, namlik 70%, harorat +20°C bo'lsa mog'orlash jarayoni tezlashadi. Mog'or zamburug'larini yuqtirish, zamburug' bo'laklari va havo orqali o'tadigan sporalar yoki zararlangan predmetlar bilan aloqada bo'lganda sodir bo'ladi. Shuning uchun mog'orlangan predmet alohida saqlanadi. Mog'orlashni oldini olish maqsadida muzey uskunolari vaqti-vaqti bilan formaldegidning 2% spirtli aralashmasi bilan artib turiladi²⁴⁹. Metall, shisha va keramika buyumlaridan boshqa muzey

²⁴⁹ Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003. – С. 405.

predmetlari uchun, hasharotlar ya'ni turli qo'ng'izlar, kuyalar, suvaraklar, pashshalar o'ta xavflidir. Ular muzeyga oynalar, eshiklar yoki muzeyga keltirilgan predmetlar orqali kiradi.

Har bir muzeyda predmetlarni zararlanganligini tekshiradigan maxsus xona va zararsizlantiradigan maxsus kamera bo'lishi kerak. Biologik zararkunandalarni yo'q qilish uchun muzeylarda ishlatish uchun ruxsat etilgan vositalardan foydalaniladi. Hasharotlarni yo'q qilishda albatta ta'mirlovchi qatnashadi. Kemiruvchilar turkumiga kiruvchi hayvonlar ham muzey predmetlari uchun xavfli hisoblanadi.

Muzey predmetlarini saqlashda konservatsiya va restavratsiya katta ahamiyatga ega. Konservatsiya usuli predmetlarning tabiiy eskirishi jarayonlarini sekinlashtirish uchun zarur saqlash tartibini yaratadigan va endi boshlangan yemiruvchilik jarayonlarini turli kimyoviy va fizikaviy vositalar yordamida to'sib, so'ngra predmetlarni mustahkamlaydi. Buni faqat maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis-ta'mirlovchi amalga oshiradi. Muzey predmetlari turli sabablarga ko'ra o'zining oldingi qiyofasini yo'qotishi, sinishi, lat yeyishi, yirtilishi mumkin. Ularni asl holiga keltirish uchun restavratsiya ishlari olib boriladi. Saqlovchi va ta'mirlovchilar doim muzey to'plamlarini tekshirib, ular orasidan konservatsiya va restavratsiyaga muhtojlarini yig'ib oladilar. Ko'rik natijalari maxsus ro'yxatga kiritilib, predmetning saqlanish holati yozib boriladi. Konservatsiya va restavratsiya juda murakkab ish hisoblanadi. Shuning uchun bu ishni olib borish uslub va vositalarini maxsus komissiya hamda ta'mirlov kengashi hal qiladi. Ularning xulosasi, predmet bilan amalda ishlashning natijalari maxsus hujjatga yoziladi. Bu ma'lumot, yillar davomida undan oldin yig'ilganlari bilan birgalikda, ta'mirlash uslubini mukammallashtirishga yordam beradi.

Muzeylarda ishlovchi restavratorlarning shaxsiy qoidalari, texnik uslubi, o'zining yelimi va muzey predmetlarini tozalovchi vositasi, shuningdek, mutaxassisning favqulodda holatlarga tayyorgarligi bo'lishi lozim.

Ermitajdagi turli kumush buyumlarini ta'mirlash ishlarini bajarish uchun Zarbxona saroyidan tajribali kimyogar Vaysenberg tak-

lif etilgan. Uning yordamida Chertomlisskaya vazasi restavratsiya qililib, qayta tiklangan. Ammo bu noyob asar ustalar qo'lida ko'p muddat qolib ketgan, birinchi jahon urushi yillarida esa unga ziyon yetgan. 1917-yilgi voqealardan so'ng Ermitajning buyumlari qayta ko'rib chiqilgan va ba'zi nodir vazalarning rangida o'zgarishlar yuz berayotgani aniqlangan. Tadqiqotlardan so'ng bunga osh tuzi sabab ekani ma'lum bo'ldi. O'z vaqtida restavratorlar uni tuz kislotasi yordamida tozalashgan, ammo toza suv bilan yaxshi yuvishmagan, natijada kimyoviy reaksiyalar sodir bo'lib kristall tuzga aylangan hamda buyumning ustki qismiga chiqib qolgan. 1917-yillarda konservatsiya va restavratsiya ishlarini ilm ahliga ishongan yagona muzey bu Sankt-Peterburgdagi Etnografiya muzeyi (avval Rossiya muzeyining bo'limi bo'lgan) edi, ammo birinchi imperialistik urush bu jarayonni shu yerda ham to'xtatib qo'ydi. 1945-yildan Davlat Markaziy badiiy ustaxonasi olimlar kengashi bilan hamkorlikda barcha ilmiy va amaliy ishlarni restavratsiya qilish, rejalashtirish va nazorat qilishi kelishib olindi. Muzeylarning restavratsiya amaliyotini XX asrgacha bo'lgan davrini taqqoslash juda mushkul. Bu hududlardagi qarashlarning mutlaqo o'zgachaligi bilan isbotlanadi. Hatto, muzeylarning restavratsiya uslublarida ham bu hodisani kuzatish mumkin. Markaziy muzeylar amaliyoti uchun jiddiy tayyorgarlik, mohir ustalik talab qilingan va jiddiy tahlil asosida ishlash mas'uliyati ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan. O'z ishining ustalarini Ermitaj, Rus muzeyi, tarixiy-madaniy materiallarni o'rganuvchi ilmiy Akademiya instituti, Tretyakov galereyasi, Amaliy san'at muzeyi va Moskvadagi tarix muzeylarida kuzatish mumkin. Bu kabi ustaxonalar muzeyning ichki ishlaridan tashqari, periferiya muzeylarining ham murojaatlarini qanoatlantirib, ta'mirlash ishlari mukammal olib boruvchi mutaxassislar va ishchilarning maslahatlari bilan boshqalarga ham amaliy yordam ko'rsatishga harakat qilishgan.

Boshqa bir qator buyumlar manba qatorida, qoidaga ko'ra matolar, jun, charm va ulardan qilingan buyumlar bitta saqlash guruhini tashkil etadi. O'z navbatida bu predmetlar yana mayda guruhlariga ajratiladi.

Gazlamalar, kashtalar, krujevalar suriladigan lotok-qutili shkaf-larga hajmiga qarab gorizontal taxlanadi, usti chit mato bilan yopiladi. Uncha katta bo'lmagan lavhalarni esa ramkaga tortilgan matolarga tikib, usti yopilib, tortib chiqarsa bo'ladigan vertikal plan-shetlarda saqlash mumkin. Jun, ipak, zig'ir, paxta, sintetik tolali matolar turli shkaflarda saqlanadi. Shuningdek, gorizontal holatdagi lotok-qutilarda dur, tilla va kumush iplar bilan bezak berilgan zar-do'zi buyumlar ham saqlanadi. Kiyim-kechaklarni esa iloji boricha qanday matodan tikilganiga qarab, guruhlariga ajratib, yumshoq narsa o'ralgan ilgichlarga ilinadi. Quyosh nuri va har qanday ko'rinishdagi yorug'likni matolarga ta'siri alohida tahlil qilinganida ko'rinmas holdagi ultrabinafsha ranglari juda faol bo'lishi zamonaviy fanda aniqlangan. Bu boshqa nurlarni bezarar degani emas, balki yuqoridagi nur o'zining kimyoviy faolligi bilan ulardan ajralib turishi namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun muzey eksponatlarini shu kabi nurlardan asrash maqsadga muvofiq. Ustiga ustak ularning ko'rinmas holda ekanligi nazoratni ushlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

T.N.Gromina hamda A.K.Yelkinalarning fikriga ko'ra, yorug'likka eng ta'sirchan gazlama bu ipak, kanop tolalari sanaladi. Gazlamalarni shikastlanishga olib keladigan omillardan eng asosiysi – bu ultrabinafsha nurlariga boy bo'lgan quyosh nuri ta'sirida ozon va vodorod hosil bo'lib, tolalar hamda ularning kimyoviy-fizikaviy xususiyatlarini o'zgarishga olib keladi.

Bo'yoqlardan esa anilik bo'yoqlar yorug'likka juda ta'sirchan bo'ladi. Anilik bo'yoqlar XIX asrning ikkinchi yarmidan ishlatilib kelinmoqda. Bu vaqtgacha bo'yoqlarni tayyorlashda turli o'simlik va minerallar ishlatilardi. Ular yorug'likka chidamsiz bo'lib, suvda tez yuvilib ketardi. Namlik yuqori ko'rsatkichni ko'rsatganda tolani buzilishiga havodagi xlor, ammiak va oltingugurt gazlar sababchi bo'ladi. Oltingugurt gazi tosh ko'mirni yonishida hosil bo'lib, suvda erigandan keyin oltingugurt kislotaga aylanadi. Bunday kislotada ayniqsa o'simlik tolalari va bo'yoqlarga zarar yetkazadi. Yuqori namlik ham tolalarni shikastlanishga olib keladi. Namlik yuqori bo'lganda yorug'lik ham kuchliroq zarar yetkazadi. Yuqori namlik chang, mog'or va hasharotlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Tolalarni gigroskopik kamchiligiga nisbiy namlikni ko'tarilishi sabab bo'ladi. Tolalarni adsorbsiya yoki desorbsiya holati, havoni nisbiy namligi va harorati bilan bog'liq bo'ladi. Havoni nisbiy namligi 60% va harorati 18 – 20° tolalar optimal gigroskopik namlikka ega bo'ladi. Agar havoni nisbiy namligi 80% bo'lsa matolarni tolasi kengayadi va mustahkamligi pasayadi. Agar havoni nisbiy namligi pasaysa, tolaning «qurishiga» olib keladi va bu holatda tolalarni yumshoqligi, egiluvchanligi yo'qoladi. Havoning nisbiy namligi tez-tez o'zgarib tursa matolarni tolalari shikastlanadi va tez eskiradi. Gazlamalarning orasida yig'ilib qoladigan chang organik va mineral zarrachalardan iborat bo'lib, yuqori namlikni oksid yoki qotishmalar hosil qilib, tolalarga nojo'ya ta'sirini yetkazadi. Bu unsurlar tolalarda hasharotlarni paydo bo'lishiga olib keladi. Ulardan eng ko'p uchraydigan turi kuya kapalak sanaladi. Gazlamalardagi chang vaqt o'tgan sari ketmaydigan dog'ga aylanadi. Agar havoni nisbiy namligi 70% dan yuqori bo'lsa gazlamalar mog'orlashni boshlaydi. Mog'orni paydo bo'lishi uchun gazlamalar tolasidagi birikmalar – changdagi mineral tuzlar asos bo'ladi. Shunday qilib tez-tez shamollatilmaydigan namlik yuqori bo'lgan xollarda mog'or paydo bo'lishiga yaxshigina sharoit bo'ladi.

Zamburug'lar harorat + 20 – 25°C va namligi 70% yuqori bo'lgan hollarda juda tez rivojlanadi. Ular gazlamalarda paydo bo'lgandan keyin tolalarni shikastlantiradi va gazlamalar o'z xususiyatini yo'qotadi (rangi o'zgaradi va mustahkamligi yo'qoladi). Quruq, yaxshi yoritilgan va tez-tez shamollatib turilgan xonalarda mog'or paydo bo'lmaydi. Zang va yog'dan qolgan dog'lar ham tolalarni shikastlanishiga olib keladi. Gazlamalarni o'zining og'irligi ham tolalarni mexanik shikastlashga olib keladi. Agar muzeylarda gazlamalar yoki turli matolardan tikilgan liboslar osilgan holatda tursa ularni asosiy tolalari cho'zilib mustahkamligini yo'qotadi va natijada gazlamalar yaroqsiz holatga keladi. Lekin tolalar mexanik harakat natijasida paydo bo'lgan o'zgarishlarni bartaraf etib, o'zining holatiga qaytadigan xususiyatga ham ega. Shuning uchun muzeydagi eksponatlarni vaqti vaqti bilan olib gorizontol holatda saqlansa ular o'ziga qaytadi. Juda qadimgi tilla va kumush kashta-

lar bilan bezatilgan eksponatlar muzeyda faqat gorizontol holatda ko'rsatilishi kerak.

Mexanik shikastlanishlarga asosiy yoki ko'ndalang iplarni uzilishi va gazlamalarni har xil joylarda kimyo reaktivlar yoki yong'inlar natijasida paydo bo'lgan yirtiqalar kiritiladi. Tolalarni tuzilishidagi o'zgarishlarga ularni gigroskopik xususiyatini yo'qotilishi kiradi. Tilla yoki kumush iplar bilan tikilgan gazlamalar naqshlarining rangi ketib qora rang bo'lib qoladi²⁵⁰. Gazlamalarni holatini tasvirlayotganda ulardagi har xil dog'larni ham belgilab qo'yish kerak. Bunday dog'lar yog', siyoh, zang dog'lari, sut, ter, yelim, qon, chang, qora kuya va boshqa narsalardan qolgan bo'lishi mumkin. Gazlamalarni holatini aniqlayotganda ularni ifloslanish turlarini ham alohida ta'kidlab qo'yish kerak. Gazlamalar konservatsiya va restavratsiyasida kashtalar eng talabgor buyumlar sifatiga ega sanaladi²⁵¹.

Charm va jundan qilingan tekis buyumlar ham matolar singari gorizontol lotok-qutilarga taxlanadi. Charm va jundan tikilgan kiyimlar matodan tikilgan kiyimlar singari, vertikal holatda, yumshoq kiyim ilgichlarga shkaflarga ilinadi. Bosh kiyimlar dumaloq shakldagi g'o'lalarga kiydiriladi yoki kartonga o'xshagan qog'oz bilan ichi to'ldirilib, futlyarga solib, shkaflarda saqlanadi. Oyoq kiyimlarining ichi yumshoq qog'ozlar bilan to'ldirilib, korobkaga solinib, shkafta saqlanadi. Bayroqlar dumaloq qilib atroflari tekislangan uzun yog'ochlar ustiga o'raladi, chexol kiygiziladi va vertikal holatda stoykalarga qo'yiladi. Gilamlar, shpaleralar o'ng tomoni ichiga qilib valga o'ralib, qoplamaga solinib, vertikal holatda saqlanadi.

Suyakdan ishlangan predmetlar yorug'lik kam bo'lganda rangi o'zgarganligi uchun alohida oynali javonlarda saqlanadi. Yog'ochdan yasalgan predmetlarning turli hajmdagi va narsalarga mo'ljallanganlari bir guruhga birlashtiriladi hamda birga saqlanadi. Ular orasidagi me'moriy yodgorliklarning yog'och detallari suvda

²⁵⁰ Громина Т.Н., Елкина А.К. Методика удаления загрязнений с музейного текстиля органическим растворителем перхлорэтиленом // Художественное наследие. – № 5(35). – М., 1979. – С. 95-111.

²⁵¹ Реставрация и исследование художественных памятников. – М., 1955. – С. 38.

(kema, qayiq, sol) va quruqlikda (kareta, arava, chana) harakatlanishga mo'ljallangan moslamalar; ish qurollari; mebel, uy-ro'zg'ori buyumlari hamda boshqa mayda predmetlar ham mavjud. Yog'ochdan ishlangan predmetlar bilan qamishdan qilinganlari ham birga saqlanadi. Jamg'arma tuzilishi bo'yicha, haykallar tasviriy manbaga kiritilsa-da, yog'ochdan ishlanganlari yog'och buyumlar bilan saqlanadi.

Harorat-namlik tartibi o'zgarishi yog'ochdan qilingan eksponatlarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Muzey saqlovxonalaridagi yog'och eksponatlar mebel, yog'och o'ymakorligi namunalari, haykaltaroshlik asarlari, harakatlanish vositalaridan iborat bo'lsa-da, ularning materiali bir xil bo'lgani uchun hammasi bitta saqlovxonaga qo'yiladi. Yog'och buyumlarda namlik pasayganda, uning xususiyati o'zgaradi, tolalari taranglashib, yoriladi, buyum deformatsiyalanadi. Namlik me'yoridan oshib ketganda yog'ochning mexanik xususiyatlari va elektr o'tkazuvchanligi o'zgaradi, chidamliligi pasayadi, yog'och shishadi va chiriy boshlaydi. Bu jarayon darrov sodir bo'lmasa-da, jiddiy talafotlar harorat-namlik o'zgarib turganda, ayniqsa mavsumiy havo o'zgarishlarida sodir bo'ladi. Yog'och buyumlarda eskirish, deformatsiyalanish jarayonlari sekin ro'y beradi va bu o'zgarishlar xona harorati me'yorda ushlab turilganda yoki salbiy muhit yo'q qilingach ham paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun muzeyda barcha eksponatlar restavrator ko'rigidan o'tkazilib turiladi va talafot ko'rgan ashyolar quyidagi ko'rinishlarda tiklanadi.

Yog'och o'ymakorligi mahsulotlarining konservatsiyasi va restavratsiyasini tadqiq etish murakkab jarayondir. Masalan, yog'och o'ymakorligi yodgorliklari asosi bir necha o'n va yuz yillardan beri ishlatib kelinayotgan material – yog'och sanaladi. Bu bilan savol tug'iladi, qanday qilib vaqt o'tib uning xususiyatlari o'zgaradi va ushbu o'zgarishlarning sanasini aniqlash mumkinmi?

Saralashda ishlatilgan usullar ayni kunga kelib yaroqsiz hisoblanadi. Bunda, radiouglerod usulidan ± 100 yoshdan katta sanani aniqlashda foydalaniladi. Dendroxronologiya usulida esa, yog'och turkumining aynan qaysi daraxt turiga mansubligi aniqlab beri-

ladi²⁵². Barcha namunalar jamlanmasi o'zida yillar zanjirini jamlagan bo'lsa, yoshni aniqlashda xatolik bo'lishi mumkin. Yog'ochdan ishlangan amaliy san'at asarlarini restavratsiya qilish va konservatsiyalash uchun ularni qaysi hududda yaratilganini bilish juda muhim.

Yog'ochdan tayyorlangan mahsulotlarni restavratsiya qilishda quyidagi holatlar, xulosalarga kelish mumkin. Jumladan, har bir yog'och turi aniqlanib, keyin uning ko'rinishi yaratilgach atlasdan shu tur areali yoyilgan surati chizib olinadi²⁵³. Barcha areallar kalkasi ustma-ust qo'yiladi va joyi aniqlanadi hamda o'sgan areallarning turi bilib olinadi. Mahsulotning karkasi tahlil uchun olinib, qoplama uchun ishlatilgan xom ashyolar chetdan olib kirilishi ehtimoli borligi konservatsiya jarayonini qiyinlashtiradi. Yog'och turini aniqlashda, asosiy belgilar aniq bo'lmasa, qo'shimcha belgilar, hidi va rang xususiyatlaridan olinadi. Restavrator albatta tasavvur qilishi mumkin, sariq va qora archa qanday xarakterli hidga ega ekanligini. Ammo, hid orqali boshqa turlarni ham identifikatsiyalash mumkin.

Qarag'ay detallari katta o'lchamda bo'lmay, uzoq vaqt ekspluatatsiya qilingan bo'lsa, hid uchib ketishi mumkin. Yog'och rangining yoshiga qarab o'zgarishi konservatsiya jarayonidan o'tkazilishi kishidan katta mahorat talab etadi²⁵⁴. Yog'ochni namlikdan saqlashning o'zi bir konservatsiyalash, undan tashqari konservatsiyalashning yana bir usuli, tarkibiga neft, sovun, alif, terpenilar, saqich, mum, kazein preparatlari qo'shilgan kimyoviy aralashmalar singdirilib amalga oshiriladi.

Me'moriy inshootlarning qismlari, maxsus jihozlangan devorlarga osiladi. Yer va suvda harakatlanish vositalari kolodka ustiga qo'yiladi. Mebel va katta hajmdagi haykaltaroshlik asarlari ham poldan balandroq qilib, tagiga narsa qo'yib tiklanadi. Uncha katta bo'lmagan predmetlar, uy ro'zg'ori buyumlari, o'yinchoqlar, may-

²⁵² Пищик И.И. Датирование древесины длительной выдержки неразрушающими методами: дисс. ... д-ра техн. наук. – М.: МГУЛ, 2005.; Калниньш А.Я. Консервация древесины. – М., 1962. – С. 56-58.

²⁵³ Герасимов Н. Консервация мокрого археологического дерева полиэтиленгликолями // Художественное наследие. Хранение, исследование, реставрация. – М., 1975. – С. 88.

²⁵⁴ Мукин И. Музейная реставрация мебели. – М., 2009. – С.74.

da haykaltaroshlik namunalari hajmiga qarab, shkaflarga taxlab qo'yiladi. Stend, stellaj va shkaflardagi buyumlar bir-biriga tegib turmasligi kerak. Sopol va shishadan ishlangan predmetlar ham guruhlariga bo'linib, nimaga ishlatilishiga qarab idish-tovoq, koshin, yoritgich moslamalari, texnik hamda laboratoriya shishalariga ajratiladi. Shuningdek bu saqlov guruhiga sopol haykaltaroshlik buyumlari ham kiradi. Predmetlar qanday materialdan tayyorlanganligi hisobga olingan holda joylashtiriladi. Masalan, fayans, farfor, mayolikadan qilingan buyumlar bir guruhga yig'iladi va rangli shishalar esa alohida guruhlariga ajratiladi. Sopol va shishadan qilingan predmetlar shkaflarda saqlanadi. Ularni tokchalarga bir-biridan masofaviy oraliqda taxlanadi va bunda uning og'irligi ham hisobga olinadi. Chunki tokcha predmetlarning og'irligidan tushib ketib, buyumlar sinishi mumkin. Tekis yuzali predmetlar, masalan, tarelkalar maxsus moslamalarga vertikal joylashtiriladi. Agar ular gorizontal holatda saqlansa, orasiga yumshoq qog'oz yoki mato qo'yilib, oltitadan ortiq bir-birini ustiga qo'yilmaydi. Katta hajmdagi dekorativ vazalar, haykallar tokchali ochiq javonlarga yoki tagliklarga qo'yiladi. Osib qo'yiladigan yoritgich asboblari shtangalarga mahkamlanadi.

Qimmatbaho metallar, toshlar, numizmatika va qurol-aslahalar moslashtirilgan maxsus xonalar yoki seyflarda saqlanadi. Katta muzeylarda ular mustaqil saqlanish guruhlarini tashkil etadi. Qimmatbaho metall predmetlar shkaflarda, javonlarda, lotok-qutilarda saqlanadi. Platina, tilla, kumushdan qilingan mayda buyumlar futlyarga solinib, seyfga qo'yiladi.

Numizmatikaga oid buyumlardan tanga, medal, znachok, jeton, plaketka va boshqalar qutilarga solinib, lotok-qutilarda saqlanadi. Qurol-aslahalar, hajmiga qarab tagliklarning ustida, bir necha tokchali ochiq javon va shkaflarda saqlanadi. Katta hajmlilari, zambarak, pulemyot va hokazolar tagliklarga o'rnatilsa, qurol, miltiq, pistoletlar ichida ushlab turadigan reyksi bor maxsus shkaflarga qo'yiladi. Har xil turdagi nayzalar vertikal holatda, maxsus tagliklarga o'rnatiladi. Sovuq qurollar, ya'ni qilich, qilichsimon nayzalar, xanjar kabilar gorizontal holatda yoki maxsus mos-

lamalarga osilgan holatda saqlanadi. Boshqa metall buyumlar (cho'yan, temir, po'lat, mis-bronza, qo'rg'oshin, qalay va b.) materialiga qarab guruhlanadi. Qo'rg'oshindan ishlangan predmetlar maxsus saqlash tartibida bo'lishi kerak. Ularni yog'ochdan qilingan polkalarda qo'yib bo'lmaydi. Optik asboblari, ya'ni mikroskop, teleskop, fotoapparatlar ehtiyotkorlik bilan saqlashni talab qiladi.

Tasviriy manbalar sirasiga kiruvchi rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, fotosuratlar ham saqlash guruhlariga bo'linadi. Alohida guruhga kartografik (kartografiya-geografik xaritalar) materiallarni ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Rangtasvir asarlari fond saqlovxonalarining devorlariga osiladi, to'siqlar yoki ochiq javonli shkaflariga joylashtirilishi mumkin. To'siqlar suriladigan va surilmaydigan bo'ladi. Surilmaydigani ancha ma'quli hisoblanadi. Javonlar havo sirkulyatsiyasi (aylanishi)ni ta'minlash uchun panjarali va har bir kartina uchun yacheykali bo'lishi kerak. Yuqorida qayd etilgan joylarga, moslamalarga qo'yish asarlarning to'planish strukturasi, hajmi yoki inventar raqamiga qarab taxlanishi mumkin. Padramniksiz kartinalarning o'ng tomoni tashqariga qaratilib, diametri 50–70 sm.li valga o'raladi. Bu ishni faqat ta'mirlovchi amalga oshiradi. Bitta valda 10 tagacha kichik hajmdagi, 2–3 tagacha katta hajmdagi kartinalarni o'rash mumkin. Shuningdek, kartinalar hajmiga qarab tanlanib ikkitadan o'ng tomoni bir-biriga qaratib taxlanadi. Marmar, ohak, gipsdan ishlangan haykaltaroshlik namunalari katta va o'rtacha hajmdagilari taglik yoki stellajlarga qo'yilib, usti chexol bilan yopib qo'yiladi, kichikroq va mayda haykallar esa shkaflarda saqlanadi.

Ko'mir, yumshoq qalam va pastelda chizilgan chizmatasvirlar oyna tagida saqlanadi hamda chizmatasvirlar, akvarel, gravyura, litografiyalar yacheyka moslamali shkaflarga vertikal holatda qo'yiladi. Predmetlarni joylashtirishda to'plash strukturasi qaratiladi yoki hajmi va inventar raqamiga qarab 30 tadan oshirmay qo'yib chiqiladi. Ular g'iloqlarda, tortma qutili shkaflarda gorizontal saqlanadi. Atlaslar shkaf polkalari, xarita va loyihalar uchun g'iloqlarda saqlanadi. Katta hajmdagi xaritalar doka yoki chitga yelimgan bo'lib, o'ng tomoni tashqariga qaratilib, val yoki kar-

ton trubkalarga o'raladi, chexolga solib, gorizontol holatda maxsus shkaf yoki polkalarda saqlanadi. Globuslar korobkalarga solinib, shkafga joylanadi. Katta hajmdagilarni ustiga chexol yopilib, maxsus tagliklarga qo'yiladi.

Negativ va pozitivlari alohida saqlanishi kerak. Negativlar alohida konvertlarga solinib, hajmi bo'yicha qutilarga vertikal taxlanib, shkaflarga qo'yiladi. Pozitivlar qattiq qog'ozlarga o'ralib, konvertlarga solinib vertikal tarzda qutilarga taxlanadi. Magnit lentalarini yog'och moslamada, bir xil hajmli qutilarga vertikal taxlanadi. Yiliga bir marta magnit lentalarini qayta o'rab, ichki kuchlanishi yo'qotiladi. Gram-plastikalar alohida konvertlarda vertikal qo'yilib, to'planish tarkibi va inventar raqamiga qarab joylashtiriladi. Fond saqlovxonalaridagi moslamalar maxsus talablarga yuz foiz javob bera olishi kerak.

Birinchidan, predmetlarning maksimal saqlanishini ta'minlash lozim. Shu bois moslamalar muzey predmetlarini saqlashga yaroqli, ishlatishga qulay, texnik zararlari va changdan saqlay oladigan hamda namlikni o'ziga singdirmaydigan bo'lishi kerak. Shuningdek qulflanadigan, plomba va muhr bosishga ham qulay bo'lishi lozim. Yorug'lik tushishi xavfli bo'lgan predmetlar, yorug'lik tushmaydigan shkaflarda saqlanadi. Ikkinchidan fond moslamalari predmetlar uchun ham, ularni olib ishlatadigan ilmiy xodimlar uchun ham qulay bo'lishi lozim.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, muzeylarda-gi ashyolarning eskirish jarayonini sekinlashtirish nihoyatda qiyin. Chunki ularning har biriga optimal darajada saqlov rejimini yaratib berish uchun maxsus jihoz va moslamalar, maxsus muzey uchun qurilgan bino va boshqalar bo'lishi talab etiladi. Olib borilgan tadqiqot jarayonida O'zbekistondagi muzeylarning aksariyat qismi muzey uchun moslashtirilgan binolarida joylashtirilganligi aniqlangan. Ba'zi hollarda bu binolar qishda sovuq, yozda juda issiq bo'lib, ularda havo haroratini mo'tadil qilib turuvchi moslamalar deyarli yetishmaydi. Muzey binolarining joydan-joyga ko'chirilishi, mutaxassis kadrlarning yetishmasligi yoki yo'qligi ham muzey ashyolarining saqlanishiga jiddiy zarar keltirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, muzeylardagi ashyolarni saqlab qolish uchun ularni kimyoviy va fizikaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda saqlash tartibini yaratib berish, muzeylarni mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, restavratorlar laboratoriya markazini tashkil etish va muzey ilmiy xodimlarini ashyolarni saqlash bo'yicha malakasini oshirish zarur.

Tarixiy-madaniy meros targ'ibotida kommunikatsion tizimni rivojlantirish va takomillashtirish

XIX–XX asrlarda muzeylar madaniy ilmiy hamda ayni paytda ma'rifiy institut sifatida namoyon bo'lib, maorif sohasidagi vazifalarni hal etishda ham o'z hissasini qo'sha boshladi. Shu tariqa muzeyning ma'naviy muassasa sifatidagi modeli shakllandi va rivojlana boshladi. Bu jarayonlar madaniy-ma'rifiy ish yoki maktabdan tashqari ta'lim konsepsiyasining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Yangi konsepsiyaning muzeylarda qo'llanilishi, mana qariyb bir yarim asrdan buyon kolleksiyalarni faqat mutaxassis foydalanishi mumkin bo'lgan fondlar va keng omma uchun namoyish qilish kolleksiyalariga ajratiladi hamda ta'lim muassasalari uchun rejali tarzda ekskursiyalar tashkil etilishi bilan belgilanadi. Demak, XX asrda muzeyshunoslik sohasida yangi tendensiyalar paydo bo'ldi, ya'ni, muzey modelidagi ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish amaliyoti tez rivojlana boshladi hamda muzey xodimlari orasidan ekskursovod lavozimi ta'sis etildi.

O'z o'rnida aytib o'tish joizki, asosiy e'tibor fanning yo'nalishiga qaratilgan holda, unga oid qo'llanmalar asta-sekinlik bilan dunyoning istalgan burchaklariga yetib bordi, muhimi ulardan faqatgina muzeylar emas, balki universitetlar qoshidagi muzeylar ham foydalandi. 1908-yilda taniqli amerikalik tashabbuskor ayol va arxeolog Sara York Stivenson Pensilvaniya universiteti va Sanoat san'ati maktabi (hozirgi San'at universiteti) qoshida bo'lajak ko'rgazma kuratorlari kursini ochib, talabalarga tahsil berdi²⁵⁵.

²⁵⁵ Sarah York Claims U.S. Lies About Pal / The Mining Journal. Marquette, MI. Associated Press. October 13, 1989. – p. 1A.

V.G.Ananyev milliy va xalqaro muzey tashkilotlari tarixiga bag'ishlangan asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «1910-yildan boshlab Ayova tabiiy tarix universiteti muzeyi negizida ekspozitsion ishlar texnikasidan zoolog Gomer R. Dill, 1923–1953-yillar davomida muzeyshunos Pol J.Saks Gorvard universitetining Foggs badiiy muzeyida «Muzey ishlari va muzey muammolari» mavzusida yosh mutaxassislarga ta'lim berishgan hamda asosiy e'tiborini tasviriy san'at asarlarining atributsiyasi va ekspertizasiga qaratishgan. Nihoyat, 1925-yildan boshlab Jon Kotton Danining tashabbusi bilan Nyuark muzeyida bo'lajak ko'rgazma kuratorlari tayyorlash bo'yicha salmoqli ishlar olib borildi. Dastur rejasiga maktab uchun qo'llanmalar tayyorlash, ekspozitsion faoliyat, etiketaj tuzish, badiiy tanqid, reklama va pablisiti to'g'risida ma'ruzalar, muzeyning barcha bo'limlarida mashg'ulotlar o'tkazish masalalari kiritildi»²⁵⁶.

Muzeylarning yangi ma'rifiy konsepsiyasida siyosiy-ma'rifiy, ommaviy faoliyat kabi atamalar o'z aksini topdi. Aynan 1990-yillargacha muzeylarda siyosatni targ'ib etuvchi ekspozitsiyalar paydo bo'ldi. Ta'kidlash joizki, bu davrni tanqidiy tahlil etish bilan bir qatorda, uning ba'zi ahamiyatga molik tomonlarini ham aytib o'tish kerak. Chunki, auditoriya bilan faoliyat olib borishning turli shakllari, jumladan o'quvchi va o'qituvchilar bilan ishlash yo'nalishlari rivojlandi hamda siyosat ko'proq targ'ib qilina boshlandi.

Ekspozitsion-ko'rgazmali faoliyat, muzey pedagogikasi, kolleksiyalar menejmenti, kuratorlik faoliyati bevosita ular ko'zlagan maqsadga mos keladi. O'quv qo'llanmalar o'sha davrda muzey dunyosida ro'y berayotgan voqealar ta'sirida shakllanib borgan. Masalan, 1970-yillarda soha yo'nalishida muzey kuratorlarini mutaxassis sifatida tayyorlash bosh masala qilib ko'rsatilgan, natijada muzey sohasida yangi mutaxassislikning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ko'p muzeylarda kolleksiya yig'ish ko'rinishida paydo bo'lgan eski tizim, ma'lum bir funktsiya tomonidan ishlash uchun shay qilib qo'yilgan yangi tizimga o'z o'rnini bo'shatishdan boshqa

²⁵⁶ Ананьев В. Г. Национальные и международные музейные организации. Учебно-методическое пособие. – СПб., 2013. – С. 5-6.

chorasi qolmagan edi. XX asr davomida muzey xodimlarini tayyorlash tizimi talab bo'yicha ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishdi. Ko'rinib turganidek, bu ko'p jihatdan kasbiy etika mezonlariga ham to'liq mos kela boshladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud muzeylarda tomoshabinlarning o'zaro munosabatlaridagi muammolar yechimini topish maqsadida muzey materiallarini yetkazib berishning yangi va ancha oson yo'llarini topish, madaniy-ma'rifiy faoliyatining noan'ana-viy dasturlarini ishlab chiqish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Qolaversa, maxsus muzey tuzilishi, xodimlar, kattalar va bolalar ta'limi bo'yicha savollar bilan shug'ullanish kabi vazifalarni amalga oshirish yuzasidan maxsus kasbiy malaka va differensial munosabat talab etiladigan ayrim toifadagi tomoshabinlar uchun alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ko'chmas madaniy meros obyektlari o'ziga xos «mo'ljal», «vaqt belgisi» sifatida merosning moddiy obyektlari nafaqat bugungi kunning olis o'tmishi, balki kelajak bilan ham aniq va mustahkam aloqa yo'lini yaratadi. Meros obyektlariga tashrif buyuruvchilardan kimdir o'zlari mansub bo'lgan jamoatning merosi va kelib chiqishi haqidagi, o'z ildizlari haqidagi eslatma, o'z avlodi va jamoatining makon va zamonda ajdodlar bilan aloqasini ta'minlovchi o'ziga xos ramz sifatida tosh bo'laklarini, bir hovuch tuproqni olib ketadi.

Tarixiy-madaniy va arxeologik obyektlar hamda majmualar nafaqat turli jamiyatlarda tarixiy madaniyatning qismini va tarixiy xotirani shakllantiradi, balki milliy g'ururni tarbiyalaydi. Shu munosabat bilan taniqli nemis jamoat arbobi Robert Belts shunday deb yozgan edi: «Ular (meros obyektlari) mamlakatimizning xazinasi hisoblanadi va biz bu bilan g'ururlanishimiz kerak va unumli foydalanish yo'llarini ishlab chiqish zarur»²⁵⁷.

G.Eshvort ta'kidlaganidek, «meros va u joylashgan joy o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudligi holati nafaqat aniq yoki isbot talab qilmaydigan holat bo'lishi mumkin. Geograf olimlarni ham, turistlarni

²⁵⁷ Mac Cannel D. (1989) The Tourist: a new theory of the leisure class, New York: Schocken Books, revised edition, with a new introduction by the author. – P.34.

ham merosning joyini real tabaqalashtirishni amalga oshirishning bosh qismlaridan biri ekanligiga ishonitirish kerak emas»²⁵⁸.

Bugungi kunda Yevropada madaniyat sohasida 170 tadan ortiq onlayn kommunikatsion tarmoqlar faoliyat ko'rsatmoqda va ularning soni o'sishda davom etmoqda. «Madaniy meros bo'yicha tarmoqlar» deb ataluvchi tarmoqlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin, ularning soni bugunda 25 tadan ortiqdir. Ushbu toifaga «madaniy meros tarmog'i», «milliy meros bo'yicha tarmoq», «madaniy va tabiiy meros bo'yicha tarmoq» va «meros bo'yicha tarmoq»ni (yoki «milliy madaniy va tabiiy meros bo'yicha tarmoq») kiritish mumkin. Yevropa tarmoqlari forumining ustavida²⁵⁹ (1999-yil) ularning o'ziga xosligi va vazifasi quyidagicha belgilangan: tarmoqni rassom dizaynerlar, geografik, intellektual ijtimoiy chegaralarni bartaraf etuvchi mutaxassislar amaliy ishlanmalari asosida boshqarib kelinmoqda.

Tarixiy-madaniy meros obyektlari va muzeylarda kommunakatsion muhitni ta'minlashda obyektlarni namoyish qilish, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ekskursiyada (induktiv, deduktiv, virtual, onlayn) mavqega ega. Obyektlarning to'g'ri tanlanishi, ularning soni, namoyish qilish ketma-ketligi ekskursiyaning sifatiga ta'sir qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 150 mingdan ortiq tarix, arxeologiya va madaniy yodgorliklar davlat ro'yxatiga olingan, 40 millionga yaqin eksponatlar mamlakat muzeylarida saqlanmoqda.

Tashrif buyuradigan obyektlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- xalqimiz hayotidagi, jamiyat va davlat taraqqiyotidagi tarixiy voqealar bilan bog'liq esda qolarli joylar (masalan, Registon maydoni, Afrosiyob, Xiva «Ichan-Qal'a» va boshqalar);

- bino va inshootlar – taniqli shaxslarning hayoti va faoliyati bilan bog'liq yodgorliklar, arxitektura va shaharsozlik ishlari, joy va jamoat binolari, sanoat korxonalari, muhandislik inshootlari (qal'alar, ko'priklar, minoralar), maqbaralar, madaniy inshootlar va boshqa binolar;

²⁵⁸ Малявин В. Постмузейная эпоха // Русский журнал www.russ.ru/columns/poison/20040812.html

²⁵⁹ Князева Н.Р. Информационное общество и сфера культуры // Экология культуры Информационный бюллетень. – № 1 (21). – Архангельск, 2001. – С.173.

- tabiat yodgorliklari – o'rmonlar, bog'lar, xiyobonlar, daryolar, ko'llar, suv havzalari va qo'riqxonalar, shuningdek, alohida daraxtlar, relik o'simliklar va boshqalar;

Davlat va milliy san'at galereyalari ekspozitsiyalari, doimiy va vaqtincha ko'rgazmalar;

- arxeologiya yodgorliklari – qadimgi manzilgohlar, qadimiy obidalar, aholi punktlari, qabristonlar, gumbazlar, yo'llar, kon qazish ishlari, ibodatxonalar, kanallar va boshqalar;

- san'at yodgorliklari – tasviriy, dekorativ va amaliy san'at, haykaltaroshlik, bog'-prak va boshqa san'at asarlari.

Obyektlarni to'g'ri tanlash ekskursiya materiallarini idrok etish va mavzuni chuqur ochish uchun vizual asosni ta'minlaydi. Ushbu jarayon xuddi shu obyektlar ekskursiyadan ma'ruzaga aylanib ketmaydigan tarzda tashkil etilishi kerak. Har bir mavzu o'z obyektlariga ega bo'lishi kerak. Obyektlarning bir-biriga o'xshash bo'lmasligi bu sayyohlar orasida taassurotlarning to'g'ri almashinishini ta'minlashga imkon beradi, ekskursiyali mavzularni o'rganishda yangilik elementini beradi.

Agar uning o'ziga xosligi tufayli (masalan, Amir Temur haykali, Registon maydoni) bir yoki boshqa obyektni taklif qilinadigan marshrutdan chiqarib tashlashning iloji bo'lmasa, ular bir qator ekskursiyalarda (tarixiy, adabiy, san'at) namoyish etiladi. Bunday obyektlar aniq oshkor qilinishi kerak. Uni namoyish etishda boshqa mavzular bo'yicha ekskursiyalarda aks ettirilmagan xususiyatlarini aniqlash lozim. Mavzuga qarab, bunday obyektlarni ko'rsatish va aytib berish paytida har safar yangi materiallardan foydalanish kerak. Shu sababli, sayohatchilarning takroriy tashrifi paytida qiziqishlari pasaymaydi.

Ekskursiyalarni tayyorlash amaliyotida ekskursiya obyektlarini baholashning ma'lum bir metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu uslubni qo'llash, ayniqsa, yangi ekskursiya yaratuvchilar, tarkibiga o'xshash bir nechta obyektlar bilan marshrutda uchrashib, ushbu mavzu uchun eng keraklisini tanlash juda muhimdir. Ekskursiyaga kiritilgan obyektlarni baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bilish mezoni – obyektning ma'lum bir tarixiy voqea bilan, ma'lum bir davr, fan va madaniyat sohasidagi taniqli shaxsning hayoti va faoliyati, yodgorlikning badiiy xususiyatlari, ekskursiya ishtirokchilarining estetik tarbiyasida ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligini tahlil etadi.

Ekskursiya bir guruhga mansub obyektlarini (masalan, me'moriy yodgorliklar) yoki bir nechta guruhga mansub obyektlarini (yodgorliklar, tarixiy yodgorliklar, ekskursiyalar-joy binolari, tabiiy obyektlar) o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Obyektlar to'plami ekskursiya mavzusiga, uning mazmuniga, ekskursiya guruhining tarkibiga bog'liq. Masalan, faqat haykaltaroshlik yodgorliklari bo'ylab ekskursiyani tashkil qilish bu noto'g'ri. Vizual qurilishning bir xilligiga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar marshrutga yodgorliklar va shu bilan bir qatorda alohida binolar va ko'chalar, maydonlar, tarixiy joylar, tabiat obyektlari aks etmasa, tomoshabinlarning vizual taassurotlari to'liq bo'lmaydi.

Yangi ekskursiyani tayyorlash paytida obyektlarni tabiiy sharoitda o'rganishga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Kerakli dastlabki ma'lumotlar obyektlarni manbalar – kitoblar, albomlar, fotosuratlar bo'yicha o'rganish orqali ta'minlanadi. Ko'rgazma obyekti bilan to'g'ridan-to'g'ri joylashgan joyda uchrashish, uning ekskursiyali tomonlarini o'rganish kelajakda ekskursovod guruh bilan ishlashda, yodgorlikda bemalol yurish, uni mohirona namoyish etish imkonini beradi.

Qisqa shakldagi ekskursiya xarakterini quyidagicha aniqlash mumkin: ekskursiya – bu ma'lum bir guruhdagi odamlar uchun o'tkaziladigan ma'lum bir shakldagi bilimlar yig'indisi va ularni o'tkazish uchun muayyan harakatlar tizimi.

Tarixiy-madaniy meros obyektlarini ekskursiya marshrutlariga tanlash, ularning har biri uchun kartani (pasportni) tuzish bilan yakunlanadi. Obyekt kartasiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

1) obyekt nomi (original va zamonaviy), shuningdek yodgorlik aholiga ma'lum bo'lgan nom;

2) yodgorlik bog'langan tarixiy voqea, voqea sanasi;

3) yodgorlik joylashgan joy, uning pochta manzili (shahar, sanoat korxonasi va boshqalar);

4) yodgorlikning tavsifi (unga kirish joyi, uning muallifi, qurilgan sana, u qanday materiallardan tayyorlangan, yodgorlik yozuvi matni);

5) yodgorlik to'g'risidagi ma'lumotlarning manbai (yodgorlik va u bilan bog'liq voqealarni tasvirlaydigan adabiyotlar, arxiv ma'lumotlari, og'zaki rivoyatlar, asosiy bosma asarlar va nashr etilmagan asarlar saqlanadigan joylar);

6) yodgorlikning saqlanishi (yodgorlikning holati va u joylashgan hudud, oxirgi ta'mirlash, tiklash sanasi);

7) yodgorlikni muhofaza qilish (unga ishonib topshirilgan);

8) yodgorlik ekskursiyalarda foydalaniladi;

9) kartani tuzish sanasi, tashkilotchining ismi va lavozimi.

Obyektning avvalgi va hozirgi shakllarini aks ettiruvchi fotosi kartaga ilova qilinadi.

Shu sababli muzey-qo'riqxonalar asosida paydo bo'luvchi muzey majmualarini, megamuzeylarni shakllantirishda muhit fragmentlaridan foydalanish, merosning moddiy va nomoddiy obyektlarini talqin qilish, ularni tanlash, saqlash va muzey holatiga keltirish bilan bog'liq o'tkir muammo paydo bo'ladi. Muzeylashtirish muzey faoliyatining har qanday turi kabi ham amaliy, ham nazariy jihatlariga egadir. Amaliy faoliyatning yo'nalishini belgilab beruvchi nazariyaga yetarlicha e'tibor berilmadi. Muzeylashtirishga aniq shakllar va mazmun bag'ishlash zarur. Shu munosabat bilan «Yodgorliklarni muzeylashtirish mintaqada madaniy merosdan foydalanish mexanizmi sifatida»²⁶⁰ nomli dissertatsiya muallifi, madaniyatshunoslik doktori E.A.Shulepovaning muzeyshunoslik muammosini rivojlantirishga va idrok etishga qo'shgan hissaning alohida ahamiyatini ta'kidlash kerak.

Tadqiqotning muzeyshunoslikka xos usullari va metodlarini falsafa, madaniyatshunoslik, geografiya, mintaqashunoslik kategoriyalari va tushunchalari bilan bog'lash tadqiqot mavzuini fan-

²⁶⁰ Шулепова Э.А. Музеефикация памятников как механизм использования культурного наследия в регионе: дисс. ... докт. Культурологи – М., 1998. – С. 56.

lararo kontekstda ko'rib chiqishni talab qildi. Hozirgacha tarixiy-madaniy merosni muzeylashtirish fenomeni asosan me'morlar, ta'mirchilar, muzeyshunoslar, tarixchilar, o'lkashunoslar tomonidan o'rganilib, makoniy-kontekstual aloqalar va ijtimoiy-madaniy jihatlar diqqat-e'tibordan chetda qoldirilgan.

Yuga de Varen, M.Ye.Kaulen, M.Keryen, J.A.Riviera, E.A.Shulepovlarning «muhit muzeylarining» xossalriga tegishli ishlari ham alohida muhimlikni ifodalaydi. «Museum» va «Mir muzeya» jurnallarida e'lon qilingan maqolalardagi konseptual va empirik material katta qiziqish uyg'otadi. Ammo masalaning metodologik jihatdan yaxshi ishlanmaganligi tufayli muzeyshunoslik metodlarining o'zi unchalik ko'p emas. Buning ustiga tarixiy-madaniy meros to'liq o'rganilmagan va to'la tizimga solinmagan.

Yangicha tasavvurlarga ko'ra, muzeyning vazifalari faqat hodisa, jarayon, dalil va predmetlar haqida ko'p bilim berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki tomoshabinni sezgi-hissiy holatiga ta'sir etish, uni tarixiy muhitga olib kirish, aql-idrokini ishga solish hisoblanadi. Qolaversa, bu muzeylar madaniy-ilmiy faoliyati yangi konsepsiyasining muhim xususiyati hamdir. Muzeyga tashrif buyurgan odam tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish obyekti emas, balki ekskursovod bilan teng huquqli suhbatdosh bo'lishi kerak²⁶¹. Shuning uchun muzeyning auditoriya bilan muloqoti monolog tarzda bo'lmay, balki dialog shaklida olib borilishi kerak. Mana shu jihat esa kommunikativ tizim uchun nihoyatda muhim sanaladi.

Muhit – muzey uchun nihoyatda muhim jarayondir. Aynan muzey muhitining dizayni va sifatiga ekspozitsiya va ekspozitsiyasi bo'lmagan xonalar, binolar, hududlar, reklama, matbaa mahsulotlari va hokazolar bir-birini to'ldiradi. Teatr kabi muzey ham kiyimlarni saqlash xonasidan boshlanadi. Tomoshabin kiyimlarni ushbu xonaga topshirib, apil-tapil durdona asar yoki osori-atiqalarni ko'radi va tezda jo'nab qolishadi. Bunday holat muzey tilida beqaror tomoshabinlar hisoblanib, ularning muzeydan qanday taassurot

²⁶¹ Кайманова Т. Экскурсоведение. Теория и экскурсоводческая практика. Учебное пособие. – Пенза: Изд-во ПГУ, 2012. – 170-177.

olganligini baholab yoki kelib-ketuvchilar jurnaliga biror narsani yozib ham ketishmaganligidan ko'rish mumkin.

Muzey uchun kommunikatsiya nazariyasini bevosita o'rgangan olim D.Kameron bu tushunchani XX asrning 60-yillarida amaliyotga kiritgan bo'lib, muzeyga tomoshabin va eksponatlar orasidagi kommunikatsion jarayonni amalga oshiruvchi vosita sifatida qarashni taklif etgan edi. Ushbu jarayon zaminida bir tomondan tomoshabinining muzeydagi ashyo-buyumlar «tilini» tushunish qobiliyati yotsa, ikkinchi tomondan muzey mutaxassislarining o'ziga xos fikrlarini erkin ifoda eta olishi tushuniladi²⁶².

D.Kameron muzey faoliyatini tashkil etish, kommunikatsion tizimlar markazida turgan tomoshabinlar bilan o'zaro hamkorlik o'rnatish bo'yicha qator takliflarni ishlab chiqadi. Ular o'z mohiyatiga ko'ra quyidagilarni talab etadi:

- muzey ko'rgazmalarini yaratishda fondlarni saqlovchilar bilan birga rassom-dizaynerlar ishtiroki;

- ekskursovodlar tomonidan tomoshabinlarni «san'at tiliga» o'rgatish;

- professional muzey faoliyati tizimi, tomoshabinlar bilan «bevosita aloqa»ni ta'minlashda psixolog va sotsiologlarni kiritish zarurligi ta'kidlangan²⁶³. D.Kameron muzey faoliyatining ko'pgina jihatlarini (ashyo-buyumlarni saqlash, ilmiy tadqiqotlar, hujjatlash-tirish va h.k)ni nazardan chetda qoldirsa-da, u taklif etgan muzey kommunikatsiya nazariyasi muzeyga an'anaviy ta'lim tizimining ko'mak vositasi sifatida qarashdan xalos etdi²⁶⁴. Yuqorida ta'kidlanganidek, muzey kommunikatsiya nazariyasi 1960-1970-yillarda shakllandi. Bu qiziqish kompyuter texnikasi erishgan yutuqlar bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Muzeyga tashrif buyuruvchilar sonini kengaytirib, tarkibini ancha «yoshartirgan» jarayon muzey kommunikatsiyasi nazariyasini amalda sinovdan o'tkazish, uning zaif joylarini aniqlash imkonini berdi. Bu davrda faqat tomoshabinlar-

²⁶² Cameron.D.A Viewpoint the museums as a communication system and implications for museum education // Curator, 1968. - № 1. – v.11.

²⁶³ Гнедовский М.Б. Современные тенденции развития музейной коммуникации. – М., 1989. – С. 20-21.

²⁶⁴ O'sha joyda.

ning muzey bilan muloqoti umumiy muammolarga emas, balki, o'sib kelayotgan yosh avlodning estetik taraqqiyoti va badiiy tarbiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Muzeylarning keng ommalashuvi ularning an'anaviy ekspozitsiyalarining yangilanishini talab etadi. Tomoshabinlar talablari natijasida ko'rgazmalar faoliyati keskin o'sib, XX asr san'ati va uning turli qirralariga, shuningdek davrning texnik yutuqlariga qiziqish kuchaydi.

Muzeylardagi ekspozitsiyalar muzey kommunikatsiyasi asosini tashkil etadi. Zamonaviy qarashlarga ko'ra, muzey ekspozitsiyasi bu predmetlarning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan namoyishi bo'lib, ular kompozitsion tashkil etilgan, sharh, izohlar bilan ta'minlangan, texnik va badiiy jihozlangan natijada tabiiy, ijtimoiy hodisalarning o'ziga xos xususiyatli timsoli hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ma'lum bo'shliqda joylashtirilgan ekspozitsion materiallarni tomoshabinlar tomonidan ko'rish, qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tomoshabinlarning ekspozatlar bilan muloqoti jarayonini yengillashtirish maqsadida, uni yanada samarali va natijali qilish uchun ekspozitsiya yaratishda nafaqat olimlar, balki muzeyning siymoli - ramziy negizini yaratuvchi rassomlar ham qatnashadilar.

Muzey sohasida ilm va san'atning yagona maqsadi tomoshabinlarga buyumlar va hodisalarning mantiqiy aloqadorligini anglashga yordam berish, uni dunyoni bilishga yetaklashdan iborat. Ilm va san'at sintezi natijasida yaratiladigan timsol, o'ziga xos muzey timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, muzeylarga qanday qilib tomoshabinlarni jalb qilish, ularda muzeylarga bo'lgan qiziqishini orttirish masalalarini tarixiy faktlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb topildi.

O'zbekiston miqyosida yuqoridagi fikrlarni davom ettiradigan bo'lsak, 1920-yili Namanganda tashkil etilgan ilk muzey ham e'tiborga molikdir. Bu ishni amalga oshirishda Namangan shahridagi 1-rus o'rta maktabining fizika o'qituvchisi Vladimir Ivanov tashabbus ko'rsatadi. U 1919-yilda Xalq ta'limi vazirligiga yozgan xatida o'quvchilarga puxta bilim berish maqsadida Namangan shahar mak-

tablaridagi barcha fizika o'quv asboblari bir joyga yig'ish va yagona fizika kabineti tashkil qilishni taklif etadi. Shu sabab 1920-yil 20-avgust kuni muzeyga asos solinadi va 7 yillik maktabning ikkita xonasida ekspozitsiya joylashtiriladi²⁶⁵. Ilk tashkil etilgan vaqtda bu muzey Namangan o'lkashunoslik muzeyi deb atalgan. 1920-yildan 1930-yilgacha bo'lgan davrda muzey ekspozitsion zallari muntazam ravishda to'ldirib borilgan. Arxiv hujjatlari ma'lumotlariga ko'ra, o'n olti yil davomida muzeyga kelayotgan tomoshabinlar diagrammasi tuzilgan. Unga ko'ra har yili tomoshabinlar soni ortib borgan. Biroq, 1935-yili tomoshabinlar soni keskin tushib ketgan. Bunga sabab, yuqori tashkilotlar buyrug'iga asosan tirik hayvonlar namoyish etiladigan bo'limi yopilib, Toshkentga olib ketilgan. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, tomoshabinlarni ko'proq o'lka faunasiga tegishli jonli ekspozatlar qiziqtirgan degan xulosaga kelish mumkin.

Shuningdek, bu borada maktab muzeylari haqida ham fikr yuritadigan bo'lsak, muzey ulkan ta'lim-tarbiyaviy potensialga ega, haqiqiy, nodir tarixiy hujjatlarni saqlovchi va o'z ekspozitsiyalarida namoyish etuvchi hisoblanadi. Bu potensialdan unumli foydalanish, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolik o'zini-o'zi anglashi, yuksak ma'naviyatni his ettirish – maktab muzeylarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolalarning qidiruv-yig'uv ishlarida, muzey predmetlarini o'rganish va hujjatlashtirish, ekspozitsiya yaratish, ekskursiyalar, badiiy kechalar va konferensiyalar o'tkazishda ishtiroki ularning bo'sh vaqtlarini to'ldirishga yordam beradi. Tadqiqotchilik jarayonlarida o'quvchilar turli xil o'lkashunoslik va muzeyshunoslikning professional faoliyat ko'nikma hamda uslublarini o'zlashtiradilar. Ayniqsa, o'lkashunoslik izlanishlari jarayonida maktab dasturlarida mavjud bo'lmagan ko'plab ilmiy fanlarning asoslari bilan ham tanishib boradilar. O'z o'rnida bolalar maktab muzeyining ixtisoslik tematikasi bilan bog'liq holda genealogiya, arxeologiya, manbashunoslik, etnografiya, muzeyshunoslik va boshqa fanlarning metodikasi hamda asosiy tushunchalari bilan tanishadilar. Natijada bolalarda ko'plab hayotiy muammolarni yechishda analitik yondashuv shakllanadi.

²⁶⁵ Соболева Н.А. Музейный сервис: пути развития. / Сборник. – М., 2004. – С. 25.

O'z ona vatanida sayohat qila turib, tarixiy va madaniy yodgorliklar, tabiat obyektlarini o'rganibgina qolmay, balki o'rganilayotgan voqealarning guvohlari bilan bevosita suhbatlar uyushtiradi. Shuningdek, o'quvchilar hujjatli, ashyoviy, tasviriy meros obyektlari bilan uning topilgan muhitida tanishish jarayonlari, muzey va arxivlarda o'z shahrining tarixi, madaniyati, tabiati haqida yanada obrazliroq va aniqroq tasavvurga ega bo'ladilar, yashayotgan kichik hududining tarixi, katta vatanining tarixi bilan bog'liq ekanligini tushunishni o'rganadilar. Qolaversa, ular o'zlari yashayotgan davlat hamda jahondagi turli tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar – maktabi va shahrining rivojiga ta'sir etishini anglab yetadilar.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyida ham bolalar burchagi tashkil etilgan. U yerda bog'cha va maktab yoshidagi bolalar o'z qo'llari bilan tasviriy va amaliy san'at asarlarini yaratishlari, kichik qo'g'irchoq teatrida ishtirok etishlari, imitatsiya qilingan arxeologiya obyektida qazilma ishlarini olib borib, u yerdan tanga yoki sopol buyumlarning bo'laklarini topishlari mumkin. Bu ishning qanday samara berishini anglash uchun ikki kun mobaynida muzeyga bir xil yoshdagi ikkita bola olib borildi. Birinchisi bolalar burchagida barcha narsalarni o'z qo'li bilan qilib ko'rganidan so'ng, haqiqiy muzey ekspozitsiyasidagi predmetlar ko'rsatilganda, u juda katta qiziqish bilan buyumlarni tomosha qildi, unda katta taassurot qoldirdi. Ertasi kuni ikkinchi bola muzey ekspozitsiyalarini tomosha qilishga olib borildi. Unda birinchi boladagi singari katta qiziqish, emotsional ta'sir sezilmadi. Demak, bolalarda avvalambor qandaydir qiziqish uyg'otib, so'ngra muzeylarga olib borish lozim ekan, degan xulosaga kelindi. O'z o'rnida aytib o'tish joizki, muzeyning olib borayotgan o'ziga xos uslubi muzeyshunoslik taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Shuningdek, boshqa muzeylar faoliyatiga ham ko'maklashadi degan ishonch hosil qilish mumkin.

Tomoshabinlarni jalb qilish borasidagi fikrimizni bo'lajak muzeyshunos talabalar bo'yicha davom ettiradigan bo'lsak, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining 1-kurs muzeyshunoslik bo'limi talabalaridan mutaxassislik fani darsida – oddiy tomoshabin sifatida ekspozitsiyalarning ta'rifi,

ularni asosan nimalar qiziqtirishi bo'yicha savollar beriladi. Bu o'z navbatida ekspozitsiyalarni takomillashtirishga yordam beradi. Ularning ba'zilarida menda faqat muzey binosining ekstereri va interyeri katta taassurot qoldirdi desa, boshqasi ekskursovod «yo'q»ni ham «bor» qilib juda qiziqarli ekskursiya olib borar ekan, eksponatlari son jihatidan kam bo'lsa-da, ekskursovod uni boy qilib ko'rsata oldi deyishadi. Ayrimlari memorial uy muzeylari katta qiziqish uyg'otganini ta'kidlaydilar. Chunki u yerda muhit bor, davr ruhi seziladi, ya'ni deyarli barcha narsalar mashhur shaxsning hayotida qanday bo'lsa, shunday saqlanib qolgan va namoyish etilmoqda.

Eng asosiysi talabalarda Toshkentdagi Aloqa tarixi muzeyi katta taassurot qoldirdi, chunki, u yerdagi barcha eksponatlarni qo'lga olib ko'rsa bo'ladi. Ayniqsa, muzey ekskursovodlari har bitta eksponat haqida mukammal ma'lumotga ega bo'lib, ekskursiyani qiziqarli olib borishadi. Bu bilan tomoshabin faqat buyumlarni qo'lga olib ko'rsa, qiziqish ko'proq bo'ladi, degan fikrdan yiroqmiz, albatta. Bunga sabab muzeylarning muhim vazifa(funksiya)laridan biri eksponatlarning eskirish jarayonini sekinlashtirishdan iborat. Uni to'xtatib bo'lmaganligi uchun barcha muzeylardagi eksponatlar maxsus vitrinalar yoki tozalik, harorat-namlik rejimiga qat'iy rioya qilingan holatlarda namoyish etiladi.

O'rganilgan tadqiqot yuzasidan shuni ta'kidlash joizki, tomoshabinlarni muzeylarga jalb qilish borasida, agar muhofaza etish kafolatlansa, muzey eksponatlaridan ayrimlarini turli firmalarga reklama uchun ijaraga berishni ham qo'llash mumkin²⁶⁶. Fondlarni tomosha qilishni xohlovchilarga muzey zaxiralarini ko'rsatish uchun ekskursiyalar tashkil etish ham yaxshi natija beradi.

Hozirgi kunda muzeylarda tomoshabinni keng jalb etish maqsadida turli zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Bu borada albatta jahon muzeylarining tajribasi juda katta. Jumladan, muzey turizmi eng rivojlangan Fransiya, Rossiya, Italiya, Ispaniya, Angliya, Gretsiya va AQSH davlatlar muzeylarida eng ilg'or innovatsion texnologiyalar keng qo'llanilmoqda.

²⁶⁶ Kuryazova D.T. O'zbekistonda muzey ishi tarixi... – B. 154.

Masalan, Davlat Ermitajida namoyish etilayotgan har bir eksponatni ko'rib chiqishga bir daqiqadan sarflansa, butun ekspozitsiya kolleksiyalarini ko'rib chiqishga 8 yil vaqt ketar ekan. Dunyoda muzeylar juda ko'p, hozirgi kunda Internet va zamonaviy texnologiyalar sabab muzeylarni uyda turib aylanib chiqish imkoniyatini beradi. Jahonning eng ilg'or muzeylarini ko'rish uchun ma'lum virtual turlar tashkil etilgan. Masalan, Luvr (Parij, Fransiya)²⁶⁷, Solomon Guggenxaym muzeyi (Nyu-York, AQSH)²⁶⁸, San'at Milliy galereyasi (Vashington, AQSH)²⁶⁹, Britaniya muzeyi (London, Buyuk Britaniya)²⁷⁰, Metropoliten muzeyi (Nyu-York, AQSH)²⁷¹, Vatikan muzeylari (Rim, Italiya)ni misol qilib keltirish mumkin. Google tashrifchilarga dunyo muzeylarining noyob kolleksiyalari bilan onlayn tanishib chiqishga imkoniyat yaratish uchun dunyoning 60 dan ortiq muzey va galereyalari bilan hamkorlik qiladi va 60 dan ortiq muzeylarga virtual tur taklif qilinadi. Ekskursiyalar Street View texnologiyasi asosida yaratilgan. Mobil ilovada kontentni Google kadbordi orqali ko'rish ham mumkin. Google Street View texnologiyalari yordamida tashrifchi AQSHdagi Oq uy, Qatardagi Islom san'ati muzeyi, hattoki, Braziliyadagi San-Paulu ko'cha san'ati muzeyini aylanib chiqishi mumkin.

Muzey-qo'riqxonalaridagi muzeylashtirilgan obyektlar haqida ekskursovod yordamisiz ma'lumotga ega bo'lish, o'ziga xos tarixiy muhitni hamda obyektning tavsiflash muzeylarni axborotlashtirishning asosiy shartlaridandir. Bu borada Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va «Texnodargoh» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan hamkorlikda amaliyotga tatbiq etilayotgan «VERUM QR» loyihasi doirasida Samarqand va Shahrisabzdagi muzeylashtirilgan sayyohlik obyektlari QR-kodlar bilan ta'minlandi²⁷². Mazkur QR-kodlar sayyohlarga bir necha soniya ichida tarixiy obyekt, yaqin hududda joylashgan mehmonxona, res-

toran va boshqa diqqatga sazovor maskanlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Ma'lumotlar 12 tilda taqdim etilishi nazarda tutilgan²⁷³.

Muzeylarda turizm faoliyatiga doir yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi natijasida zamon bilan birga insonlarning ongi ham o'zgarmoqda, muzeylardagi eksponatlarga o'zgacha nazar bilan qaralmoqda va ular bo'sh vaqtni qiziqarli o'tkazish maskaniga aylanib bormoqda. Jumladan, xalqaro tajribada ekspozitsiyani tomoshabinga to'liq yetkazib berish jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish muzey hayotidagi asosiy yangiliklardan biriga aylanib bormoqda. Bunga misol tariqasida ekskursantlar uchun juda qulay bo'lgan «audiogid»larni ko'rsatib o'tish mumkin²⁷⁴. Shuningdek, eksponatlardagi audio-etiketka ham bu borada samarali yordamchilardan hisoblanadi. U tomoshabinlarga tinglash orqali muzeylashtirilgan obyekt haqida ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Qoidaga ko'ra, u muayyan predmet yoki vitrina yonida joylashgan bo'ladi. Muzey tashrif buyuruvchisi faqat quloqchinlarni olib, o'zini qiziqtirgan eksponat haqida ma'lumotni tinglashi kifoya bo'ladi.

Audio-ekskursiya ham muzey mehmonlari orasida juda mashhurdir. U audiogid qurilmasi orqali eshittiriladigan maxsus fonogramma bo'lib, muzeyga tashrif buyurish chog'ida ekskursiyani mustaqil tinglash uchun mo'ljallangan. Maxsus qurilmali audiogidlar ko'pincha yirik muzeylarda bo'ladi. Shuningdek, tashrif buyuruvchilarning smartfonlariga yuklab olinadigan mobil audiogidlar ham bor. Bu alohida uskunani ijaraga olishni talab etmaydi, biroq mobil ilovani ishlab chiqish kerak bo'ladi. Mobil ilova texnika rivojlani-shiga qarab rivojlantirib borilishi kerak. Audiogidlardan foydalanish juda qulay va oson, har kim uni o'ziga moslashtirib olishi, ovozi baland yoki pastlatib olishi, ekskursiya tilini tanlashi, shuningdek, faqatgina o'zini qiziqtiradigan eksponatlar haqidagi ma'lumotni tin-

²⁶⁷ www.louvre.fr

²⁶⁸ www.guggenheim.org.

²⁶⁹ www.nga.gov.

²⁷⁰ www.britishmuseum.org.

²⁷¹ www.metmuseum.org.

²⁷² <https://ictnews.uz/24/03/2018/tourism-2/> (Сусаров Б.Смарт – технологии в туризме.)

²⁷³ <http://m.zamin.uz/oz/social/30810-mamlakatimizda-turizm-qanday-rivojlanadi.html> (Мамлакатимизда туризм қандай ривожланади?)

²⁷⁴ Allakov B. Muzeylarda innovatsion texnologiyalar joriy etilishining ahamiyati // Fan sohasida innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. O'z MU O'zbekiston tarixi kafedrasini ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.:2011. – B–20.

glashi mumkin. Sayyohlar oqimi ko'payib, ekskursiyalar mavsumi boshlangan paytda audiogidlar muzeyga tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish uchun yordamga keladi.

Ba'zi audiogidlar qo'shimcha fotosuratlar, musiqali eshittirishlar va ma'lumotlarni turli tillarda yetkazish imkoniyatiga ega bo'lib, uni shaharning barcha nuqtasida tinglash mumkin. Odatda audiogidlar bir qancha audioqismlardan tashkil topib, har bir qism muzey chizmasi va eksponatlarning joylashuvi bo'yicha raqamlanadi. Sayyoh muzeyga kirishi bilan muzeydagi WI-FI zonada o'z mobil telefoniga dasturni aktivlashtirib, tegishli til va eksponatdagi kod raqamini tersa, dastur avtomatik tarzda audio trekni eshittiradi²⁷⁵. 2012-yilda Luvr muzeyi o'z audiogidlarini Nintendo 3DS gadjetlari bilan almashtirdi. Ular 3D fotosuratlar va ko'plab qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilganlar²⁷⁶. Shuningdek, uning xotirasiga ikkita yirik marshrut ishlanmasi va 700 dan ortiq eksponatlar tavsifi kiritilgan bo'lib, har bir tarixiy davr ahamiyatiga molik musiqiy va tasviriy ishlanmalar bilan boyitilgan.

Audiogidlar xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lsa-da, ular O'zbekiston muzeylarida 2014-yildan joriy etila boshlandi. Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika «O'zbekmuzey» jamg'armasi bilan birgalikda muzeylarda audiogidlarni qo'llash taklifini o'rganib chiqdi²⁷⁷. Ta'kidlash joizki, muzey-qo'riqxonalar faoliyatida audiovizual texnologiyalar va audiogidlarni qo'llash har qanday yoshdagi tomoshabin e'tiborini jalb qila oladi. Uning yordamida muzey tarixi, ekspozitsiya, eksponat, ko'rgazma va jamlanmalar haqida to'liq ma'lumot olish mumkin.

Multimediali audiogid texnologiyasini, ayniqsa, muzey qo'riqxonalarda qo'llash darkor. Bu muzey-qo'riqxonalar tarkibiga bir nechta muzeylar kiritilganligi sababli, ular orasidagi masofani qisqartirish hamda har bir obyektidagi eksponatlar haqidagi ma'lu-

²⁷⁵ Ismailova J., Muxamedova M. Zamonaviy jahon muzeysunosligi. – T.:Munisdesing group, 2013. – B. 264.

²⁷⁶ <https://www.nintendo.ru/-/2012/-Nintendo-Nintendo-3DS-253622.html> (Музей Лувр и компания Nintendo выпускают аудиогид по Лувру на Nintendo 3DS).

²⁷⁷ Ismailova J., Muxamedova M. Zamonaviy jahon muzeysunosligi. – T.:Munisdesing group, 2013. – B. 262.

motlarni birlashtirib yetkazishda tomoshabinga aynan ushbu texnologiya qo'l keladi²⁷⁸.

Muzey kommunikatsiyasini ta'minlashdagi yana bir muhim jarayonlardan biri, muzey saytlari faoliyatini takomillashtirish sanaladi. Hozirgi kunda internet asrida hamma muzeylar o'z saytiga ega. Bu saytlar endi muzeyning ish vaqti va ko'rgazmalari haqida ma'lumot beruvchi oddiygina sahifalar emas, balki elektron chiptalar sotib olish, maxsus suvenirlarni buyurtma qilish va hattoki virtual turni amalga oshirish mumkin bo'lgan portal hisoblanadi.

Bu borada ilk bor 1994-yil Singapurda rassom dizayner Lin Xsinning shu nomli san'at muzeyi veb sahifasi yaratilgan²⁷⁹. Bu sayt noodatiy dizaynga ega. Foni to'q ko'k rangdaligi va yozuvlari oq rangdaligi biroz so'zlarni o'qishda noqulaylik tug'diradi. Lekin noodatiyligi uning bo'limlari tavsifi she'riy tarzda yozilgani. Oksforddagi Fan tarixi muzeyi 1683-yil tashkil topgan bo'lsa, veb sahifasi 1995-yil 21-avgust kuni yaratilgan. Boshqa muzeylarga qaraganda bu muzey o'zining yuqori imkoniyatlari sabab o'z veb sahifasini ancha erta yarata olgan. Nyu-Yorkdagi Hisob-kitob virtual muzeyi sayti 1994-yil tashkil etilgan bo'lib, unda kompyuterlar tarixi va kompyuter faniga aloqador bo'lgan barcha veb saytlar ro'yxati berilgan. Iyerusalimdagi Isroil Muzeyi 1996-yildan o'z veb saytiga ega bo'lgan. Osiyo Jamiyati Virtual galereyasi 1998-yil tashkil etilgan bo'lib, «Nigohlar tutashgandan ortiq» nomli ko'rgazmasiga bag'ishlab yaratilgan. Los Anjeles Tabiiy Tarix Muzeyi 1910-yil tashkil etilgan, muzey, internet sahifasi esa 1998-yil yaratilgan. Muzey G'arbiy Qo'shma Shtatlardagi eng yirik tabiiy va tarix muzeyi hamda faol izlanish markazi sanaladi. Veb Ko'rgazma sayti 1999-yil yaralgan va u interaktiv g'oyaga asoslangan veb-muzey bo'lib, tashrif buyuruvchini fanga oid bo'lgan kashfiyotlar va madaniy jarayonlarni yangicha uslubda paydo bo'lishi haqida chuqurroq fikr yuritishga undaydi. Ana shunday ko'rgazmalar qatorida: «Asrlar davomidagi pigmentlar», «Moy bo'yoq», «Van Gogning

²⁷⁸ Ismailova J., Muxamedova M. Zamonaviy jahon muzeysunosligi. – T.:Munisdesing group, 2013. – B. 265.

²⁷⁹ <https://www.lhham.com.sg/pw.html>

xatlari», «Asrlar davomidagi she'riyat», «Asrlar davomidagi taqvim» kabi virtual ko'rgazmalar o'tkazildi. Londondagi Fan muzeyi sayti ham shu yili 1999-yil yaratilgan. Qirollik kolleji yordamida Birlashgan Qirollikdagi ilk veb sayt yaratilishiga erishildi. Tilakin Muzeyi sayti 1999-yil tashkil etilgan. Bu muzey onlayn fanga oid va ta'limiy manba bo'lib, asosiy maqsadi qizil kitobga kiritilgan Tasmaniya yo'lbari tarixi haqida ma'lumot berishga qaratilgan. 2000-yillarga kelib muzey saytlarida ba'zi kamchiliklar yuzaga kela boshladi. Ayniqsa saytga joylashtirilgan fotosuratlarini yuklab olishda muammolar yuzaga keldi. Berlin muzeyi, San-Fransisko tasviriy san'at muzeylarida ham shunday vaziyatlar sodir bo'ldi. Ammo dasturchi kompaniyalar bilan birgalikda bu muammolar bartaraf etilgan. Ba'zida saytlar muzeyning hayotini kuzatishga ham imkon beradi. Masalan, «Gatchina» davlat muzey qo'riqxonasi Green-Lab kompaniyasi bilan hamkorlikda «Gatchina muzeyida bir kun» nomli loyihani ishga tushirdi. Unda har bir tashrifchi muzey atmosferasini chuqur his qilishi uchun qo'riqxona saroyi va xodimlarining kundalik hayotlarini soat 8.00 dan 19.00 gacha onlayn kuzatishi mumkin. Teyt Britaniya galereyasi The Workers dizayn-studiyasi bilan hamkorlikda After Dark nomli interaktiv loyihani ishga tushirdi. Loyiha yordamida haqiqiy romantiklar internet-portal orqali kechasi robotlar yordamida muzey zallarini aylanishlari mumkin.

2008-yil «Xalqaro muzey serveri» loyihasi asosida Rossiya muzeylari sayti tashkil etildi²⁸⁰. Unda internetdagi muzey saytlarining 200 ta rasmiy va norasmiy muzey saytlari ro'yxati kiritilgan. 2016-yilga kelib bu raqamlar 785 taga aylandi. 2017-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, internet saytlarining 1–2% ini muzey saytlari tashkil qilgan bo'lib, endilikda bundan ham ko'proq qismini tashkil etadi.

Bugungi muzey veb-saytlariga tashrif buyuruvchi yosh tomoshabinlar ertangi kunning haqiqiy tashrif buyuruvchilari hisoblanadilar. Shu sababdan Yevropa tajribasi asosida muzeylar aynan bolalar uchun maxsus muzey saytlarini yaratishmoqda. Muzey madaniy ma'lumotlarni o'zida saqlovchi boy xazinadir. Muzey saytlari

esa, o'zaro onlayn madaniy hamkorlik qilish imkonini beruvchi asos hisoblanadi. Muzeyning qaysi toifada hamda qay darajada qiziq va muhimligini aniqlash uchun onlayn forumlar, konferensiyalar o'tkazib, saytda qoldirilgan izohlar va tashrif buyuruvchilar soni orqali aniqlashtirish muhim istiqbolli jarayonlardan sanaladi.

Ilg'or texnologiyalar yordamida muzeylar har bir tashrifchi bilan muloqot o'rnatishi mumkin. Hozirgi kunda muzey saytlari orqali tashrifchilardan tushgan buyurtmalar asosida individual ekskursiya xizmatlariga talab ancha yuqoriligini ko'rish mumkin. Tomoshabin ro'yxatdan o'tib, o'zi uchun kerakli marshrutni tanlashi, didiga moslashtirishi mumkin. Shundan so'ng smartfon yoki planshetga shaxsiy interaktiv gidni yuklab olib, ekskursiyani boshlash mumkin. U yerda qayerga borish, nimaga e'tibor berish aytib turiladi. Hattoki eksponatlar «jonlanishi» ham mumkin. Ushbu texnologiyalardan Fransiya va Gretsiya muzeylarida keng foydalanilmoqda.

Tretyakov galereyasi ekskursiyalarni Moskvaning tarixiy ko'chalariga olib chiqadi. Aleksandr Golovin ko'rgazmasining bepul mobil audio gidi ishga tushirildi²⁸¹. Uning kontenti faqat vernisajning o'zinigina emas, balki rassomning hayoti va ijodi bilan bog'liq Moskvadagi barcha joylarni qamrab olgan. «Aleksandriya» parkidagi «Feldeger uyi» tashrifchilari multimedia kitobining oldiga borish uchun navbatda turadilar, sababi uning sahifalarida o'tmish voqealari va personajlari jonlanadi. Klivlend badiiy muzeyining Gallery One interaktiv makonida bolalar Microsoft Kinect yordamida eksponatlar bilan bimalol «o'ynashlari» mumkin²⁸². Tashrifchilar yuzlarini bujmaytiradilar, har xil holatda turadilar. Veb-kamera mimika va harakat orqali muzey kolleksiyalaridan ularga o'xshashlarini topib beradi.

Muzeylarda bugun bolalarning o'rganish va hordiq chiqarishiga yordam beruvchi loyihalarga asosiy e'tibor bermoqdalar. Masalan, Britaniya muzeyi Gift for Athena kvestini maktab o'quvchilari uchun maxsus ishlab chiqdi. Kvest ekskursiyalar formati bolaning o'yin davomida iloji boricha g'ayratli va diqqat markazida bo'lishi,

²⁸⁰ <http://window.edu.ru/catalog/pdf2tx>

²⁸¹ <https://www.tretyakovgallery.ru/exhibitions>

²⁸² www.tretyakovgallery.ru

shuningdek, faol aqliy mehnatni talab qiladigan va inson bilan shaxsan o'zaro munosabatda bo'ladigan materialning eslab qolinishiga asoslanadi. Kvest-ekskursiya chog'ida bolalar ushbu qat'iy muzey taqiqlarini unutishlari ham mumkin. Shu paytdan boshlab bolalar turli xil rollarda kashf qilish, tajriba qilish va sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bularning barchasi muzeyda yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga sodir bo'ladi. Endi ular antik davr san'atini partalar ortida emas, balki muzey ko'rgazma zallari va mobil telefon ekranida haykallarning o'xshashlarini topish bilan o'tkazishadi. Rus muzeyi tomonidan chiqarilgan «Sar-sarevich» o'yini, juda qiziqarli sarguzasht bo'lib, unda bolalar nafaqat rus monarxlarining hayoti bilan tanishadilar, balki musiqali topshiriqlarni yechadilar hamda eksponatlarni fragmentlarini qidiradilar. Muzeylarda informatsion texnologiyalarning qo'llanilishi ayniqsa, bolalarni muzeylarga jalb etishda katta yordam beradi. Ma'lumki bolalarni bundan bir necha yillar avval yaratilgan narsalar ko'p ham qiziqitirmagan. Ular oddiy ekskursiya davomida tez zerikib qolishlari mumkin. Ana shunday vaqtlarda to'ldirilgan voqelik eksponatning 3D-modelni ko'rish, ularni o'ynash va biror narsani joylashgan yeri haqida tasavvur qilish imkoniyatini beradi²⁸³. IPAD yordamida skeletlar jonli hayvonlarga aylanadi, QR-kodning standart ko'rinishi iyeroglif, ming yillar avval yo'q bo'lib ketgan imperiyaning muhri va tangasiga aylanadi. Bu esa qiziquvchan yosh tomoshabinning muzey eksponatlari haqidagi taassurotlarini yanada boyitadi.

Raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi yaqin kelajakda muzey makoni haqidagi tushunchalarni o'zgartirib yuborishi mumkin. Hozirning o'zidayoq biz dunyoning narigi burchagidagi muzeylarda saqlanayotgan va xazinalarni hech qachon tark etmaydigan san'at asarlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Buning uchun ko'p muzeylar o'z art-obyektlarining 3D ko'rinishini yaratib o'z saytlarida namoyishga qo'yadilar. Ba'zilar ushbu modellarni yuklab olishga ruxsat ham beradilar. Ana shunday ulkan loyihalardan birini

²⁸³ Родионова Д.Д., Сергеев А.В. Технология дополненной реальности как перспективное направление развития музейного пространства на современном этапе // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. – 2015. – № 33-2. – С. 51-56.

bugungi kunda 3D-giganti hisoblanmish Autodesk bilan hamkorlikda Smitson muzeyi amalga oshirmoqda. U bilan parallel ravishda bu ishni o'z saytida eng noyob muzey to'plamlarini birlashtirmoqchi bo'lgan Google Art&Culture loyihasi amalga oshirmoqda. Hozirning o'zidayoq o'n minglab eksponatlar raqamlashtirilgan, eksponatni muallif nomi, bajarish texnikasi, san'atdagi yo'nalishi, mavzusi va davlat orqali topish mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistonning muzeylarida ham xorij muzeylaridagi kabi zamonaviy ilg'or texnologiyalar joriy qilinishni jadal rivojlanayotganligini guvohi bo'lish mumkin. Deyarli barcha respublika muzeylarida virtual tur yaratilganligi fikrimiz dalilidir. O'zbekistonda birinchi virtual muzey 2012-yilda yaratilgan Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek memorial muzeyi hisoblanadi. Uning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi onlayn versiyasi muzey saytida joylashtirilgan²⁸⁴.

Bu virtual tur muzey xodimlari, «SMI-Aziya» noshirlik kompaniyasi va xorijlik hamkorlar tomonidan yaratilgan. 3D formatdagi tasvirlar stendlar, eksponatlar orqali sirtidan Mirzo Ulug'bek davri haqida hamda o'sha davr olimlarining faoliyati haqida ma'lumot olishga yordam beradi. Bu ko'hna va navqiron shahardagi barcha muhim tarixiy obidalarini o'z ichiga olgan «Samarqand muzeylari-virtual tur» loyihasi amalga oshirilgan²⁸⁵. Bu loyihada shahardagi 3 ta muzey birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi, viloyat o'lkashunoslik muzeyi va Samarqand «Afrosiyob» muzeyi, shuningdek, virtual ekskursiya shahardagi 7 ta yodgorlikni Shohi-Zinda ansambli, Hazrat Xizr masjidi, Amir Temur, Oq-Saroy, Ruhobod, Imom al-Buxoriy va Xoja Daniyoriy maqbaralarini o'z ichiga olgan²⁸⁶.

Keyingi raqamlashtirilgan kolleksiyalar Google Arts & Culture loyihasi asosida tayyorlandi. Hozir ushbu loyihaga asosan Oybek uy-muzeyini, O'zbekistonda va Yevropada ishlovchi ijodkor Saodat Ismailovanning «Qurg'onchiroq» ko'rgazmasini, «Saukele» nomli

²⁸⁴ www.ulugbekobservatory.pausinfo.com.

²⁸⁵ www.sammuseum.uz

²⁸⁶ <http://sammuseum.uz/3dtours>

an'anaviy qoraqalpoq to'y bosh kiyimlari ko'rgazmasini aylanish mumkin. Google Arts & Culture loyihasining keyingi rejalarida mamlakatimizdagi boshqa muzeylar bo'ylab 3D-turlar yaratishdir. 2020-yil aprel oyi o'rtalarida Toshkent shahrida «VRonica» virtual va to'ldirilgan voqelik studiyasi tomonidan muzeylarning raqamlashtirilgan ekskursiyasini yaratishga kirishildi²⁸⁷. VRmuseum – bu VRonica kompaniyasining volontyorlik loyihasi bo'lib, u O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Madaniyat vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Suratga olish ishlari uchun VR-kamera Insta 360 Pro2 dan foydalanildi.

Restavratsiya va konservatsiyalashga oid ishlarni tomosha qilish ham mijozlarda qiziqish uyg'otishi tabiiy. Rang-barang dasturlar tayyorlash, loyihalarni amalga oshirish, qolaversa, to'plamlar muhofazasi, ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy faoliyatlarni yo'lga qo'yish, kengaytirish kabi muammolar ham mavjud. Muzeyga tashrif buyurgan tomoshabinlarning turli toifalari orasida so'rov o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Uning natijalari muzey faoliyatining turli jabhalaridagi asosiy sifat va son ko'rsatkichlarini tahlil qilish imkonini beradi. So'rov o'tkazish borasida ijtimoiy holati, yashash joyi, kasbi, turmush tarzi, ruhiyati, ta'minlanish darajasi, yoshi, muzey taklif etayotgan reklamalar kabi ko'p omillarni e'tiborga olish zarur.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, muzeylarda an'anaviy hunarmandchilik yarmarkalarini tashkil etish, ustalarning o'zlari yasayotgan ashyolarning tayyorlanish texnologiyasini namoyish etishlari, muzey qoshida tashkil etilgan magazin va savdo shoxobchalari orqali muzey yo'l ko'rsatkichlari, taqvim-kalendarlar, disklar, kitoblar, emblemali suvenirlar sotilishi ham yaxshi natija bermoqda. Muzey faoliyatining unumliligini ta'minlaydigan muhim omil uning xodimlaridir. Buning uchun muzey kollektivi yagona jamoani tashkil etib, undagi har bir shaxs o'z vazifa va majburiyatlarini aniq tasavvur etib, g'oyalarini taklif etib, amalga oshirishga erishmog'i lozim.

Muzey faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muzey muhitini samarali rivojlantirish, unga tashrif buyuruvchi

²⁸⁷ <http://vmuseum.uz>.

mehmonlarning tafakkurini boyitish va ma'lumot olish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Ilg'or texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan muzey faoliyatida asl narsalarni ko'proq saqlash va o'sib kelayotgan yosh avlod vakillariga ular haqidagi ma'lumotlarni yetkazish imkoniyati ham paydo bo'ldi. Shunday qilib, yangi texnologiyalar va axborot uzatish muzeylarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muzey bo'ylab o'tkaziladigan ekskursiyalarni multimedia, axborot kiosklari, audiogidlar va boshqa turli axborot texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin.

Tadqiqotda xorij muzeylarida ilg'or texnologiyalardan foydalanish tajribasi va bugungi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan muzeylarda axborot texnologiyalarning keng joriy etilayotganligi o'rganib chiqildi.

Muzeylarda yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi mablag' talab etishi, shu sababli ham bu borada muzeylarga davlat byudjetidan moliyalashtirish yoki homiylik yordami talab etilishi aniqlandi.

Har bir muzey bozor iqtisodiyoti sharoitida yashash va rivojlanishining o'ziga mos keladigan mexanizmlarini ishlab chiqishi muhim. Umuman olganda, O'zbekistonda muzey ishlarini yaxshilash va takomillashtirish uchun yuqoridagi barcha fikr va takliflarni hayotga tatbiq etish ijobiy natija beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Xususan, muzeylardagi moddiy madaniy meros ashyolarini spetsifikasini hisobga olgan holda saqlash metodlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, O'zbekiston muzeylarining moddiy madaniy meros namunalarini saqlovchisi hamda targ'ib etuvchisi sifatidagi ahamiyati hamda muzeylardagi kommunikatsion tizimni rivojlantirish va takomillashtirish masalalari tahlil etildi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: tarix va madaniyat yodgorliklari – bu odamlarning his-tuyg'ulari, bilimlari va ongiga faol ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos tarixiy-madaniy hodisa, ya'ni tarixiy-madaniy muhitning bir qismidir. Ular ijtimoiy ongni shakllantirish va ijtimoiy xulq-atvorni rag'batlantirishning samarali vositasidir. Asl yodgorliklarni himoya qilish haqiqiy tarix va ma-

daniyatni bilishga qaratilgan, ramziy yodgorliklar yordamida monumental targ'ibot, odatda, tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmaydigan tanlangan g'oyalarni targ'ib qilishdan iborat.

Yodgorliklarni muhofaza qilish tarixan vujudga kelgan shart-sharoitlarga va rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ega, bu esa uning holatini bosqichma-bosqich va sifatli o'zgarishida aks etadi va biz yaratgan davrlashtirishda qayd etiladi. Madaniy merosga juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish mustaqil O'zbekistonning milliy ma'naviyatini rivojlantirish uchun uni saqlash va undan samarali foydalanish zarur, negaki, unda xalqning asriy rivoji, uning tarixi, ijtimoiy va madaniy aloqalari, fan, san'at va ishlab chiqarishda erishilgan yutuqlarning ming yilligi to'plangan. Madaniy meros, ham madaniy, ham ijtimoiy rivojlanish avlodlari o'rtasida meros sifatida qolishlikni ta'minlaydi.

IV-BOB. KO'CHMAS MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLASH VA MUZEYLASHTIRISH MUAMMOLARI

O'zbekiston hududidagi ko'chmas moddiy madaniy meros yodgorliklarini saqlash holati va muammolari

Tarixiy-madaniy meros tushunchasi ilmiy kategoriya sifatida XIX asr o'rtasida shakllangan bo'lsa, XX asrda mazkur sohadagi xalqaro va milliy huquqni belgilovchi va tavsiyaviy hujjatlarning keng doirada qabul qilinishi bilan u keng yoyildi. Madaniyat ko'pincha jamiyatning barqaror rivojlanishi asoslaridan biri sifatida ko'rib chiqilayotganligi sababli madaniy merosga ham bunday yondashuv butunlay mantiqqa egadir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir²⁸⁸.

O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»²⁸⁹ va «Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi²⁹⁰ Qonunlarida tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni davlat hisobiga olish, moddiy madaniy meros obyektlarining davlat ro'yxatini yuritish, ekspertizadan o'tkazish, ushbu yodgorliklar bo'yicha ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borish hamda ularni asrash yuzasidan joriy va istiqbol dasturlar ishlab chiqish vazifalari belgilab berilgan. Ko'p tadqiqotchilarning fikricha, merosni faqat muayyan makoniy-zamoniylar va ijtimoiy kontinuumda qabul qilish kerak.

²⁸⁸ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida so'zlagan nutqidan. // Xalq so'zi, 2016-yil 17-oktyabr.

²⁸⁹ O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi 269-II-sonli Qonuni. // Xalq so'zi, 2001-yil 31-avgust.

²⁹⁰ O'zbekiston Respublikasining «Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi 229-II-sonli Qonuni. // Xalq so'zi, 2009-yil 14-oktyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi²⁹¹ farmoyishida moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarining aksariyati ta'mirtalab ahvolga kelib qolganligi qayd qilingan. Bu muammoni hal etish maqsadida hududlarda malakali mutaxassislardan iborat ekspertlar guruhlarini tuzilgan holda respublikadagi barcha moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlari to'liq xatlovdan o'tkazilib, ushbu ob'ektlarning batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yagona elektron ma'lumotlar bazasi yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2018–2023-yillarda moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha respublika komissiyasi faoliyat olib bormoqda. Shuningdek moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini xatlovdan o'tkazish, yodgorliklarni ta'mirlash, tiklash va konservatsiya qilish yuzasidan takliflar tayyorlash bo'yicha ishchi guruhlar ham tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi²⁹² Qonunning 12-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 269-sonli qarorining²⁹³ 3-ilovasi bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Moddiy madaniy meros ob'ektlarini davlat kadastroini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizomiga muvofiq Qashqadaryo, Namangan, Xorazm, Sirdaryo, Andijon hududlaridagi moddiy ma-

²⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi 5181-sonli farmoyishi. // Xalq so'zi, 2018-yil 17-yanvar.

²⁹² O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi 269-II-sonli Qonuni. // Xalq so'zi, 2001-yil 31-avgust.

²⁹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 269-sonli qarori. // Xalq so'zi, 2002-yil 30-iyul.

daniy meros ob'ektlari davlat kadastriga kiritilib, ob'ektlarining yangilangan ro'yxati tasdiqlandi. Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, undan foydalanish borasida amalga oshirilgan ishlar nafaqat tarixni o'rganish, targ'ib qilish, balki yosh avlodni tarixiy madaniy merosni asrab-avaylash, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini yanada kuchaytirish, jamiyatda yuksak ma'naviyatni teran qaror toptirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlariga ko'ra, faqatgina mustaqillikning dastlabki 20 yili davomida (1991–2011-yy.) respublika bo'yicha 1004 ta madaniy meros obidalarini, shu jumladan viloyatlar bo'yicha: Andijon 60 ta, Buxoro 114 ta, Jizzax 8 ta, Qashqadaryo 94 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 ta, Navoiy 18 ta, Namangan 21 ta, Samarqand 210 ta, Sirdaryo 8 ta, Surxondaryo 35 ta, Toshkent viloyati 26 ta, Farg'ona 124 ta, Xorazm 69 ta va Toshkent shahrida 102 ta me'moriy majmua, madrasa, masjid, arxeologiya ob'ektlari, diqqatga sazovor joylar va haykallar ta'mirlanib, qayta tiklandi²⁹⁴. Bugun mamlakatdagi mavjud barcha tarixiy yodgorliklarni hatlovdan o'tkazish zarurati paydo bo'ldi. Tahlillar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, davlat himoyasiga olingan ob'ektlarning 25 foizida muhofaza belgilari – yorliqlar mavjud. Aksariyat madaniy meroslarning kadastr hujjatlari yo'q, chegaralari belgilanmagan. Ularning ayrimlari mahalliy hokimiyatlar tomonidan tadbirkorlarga olib berilgan yoki tarixiy ob'ektlarga tegishli hududlar xususiy uy-joy egalari sotib yuborilgan. Eng achinarlisi, qarovsiz yotgan ayrim obidalar mahalliy aholi tomonidan o'zlashtirilib, ekin maydoni yoki chorva mollari boqiladigan hudud sifatida ham foydalanilmoqda. Ko'plab yodgorliklarning restavratsiya ishlariga mutaxassis emas, arzon ishchi kuchining jalb qilinishi oqibatida ularning tarixiylikiga putur yetgan va 300 dan ortiq obida jiddiy shikastlangan.

²⁹⁴ O'zR Madaniyat ishlari vazirligi madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi joriy arxivi. Mustaqillik yillarida (1991–2011 yillarda) ta'mirdan chiqarilgan madaniy meros ob'ektlari haqida ma'lumot.

Ayni shu jihatlarga e'tibor qaratib, «Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 10-moddasida moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilishi zarurligi belgilangani muhim ahamiyatga ega bo'ldi²⁹⁵. Albatta, bu bir necha yil davomida amalga oshiriladigan murakkab, ta'bir joiz bo'lsa, ilmiy jarayon faqatgina tarixiy merosni sanash va hujjatlashtirishdan iborat bo'lib qolmay, balki ish jarayonida katta ilmiy tadqiqot olib borish, ya'ni arxeologik yodgorliklarning davriy sanasi, tarixiy topografik xususiyatlarini hujjatlashtirish, ularning xususiy pasportizatsiyasini tuzishni ham talab qiladi.

O'zbekiston yodgorliklarining geografik va xronologik joylashishida arxeologik yodgorliklarning davlat kadastriga kiritilishi, albatta, arxeolog olimlar ishtirokida amalga oshirilishi lozim va bunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamkorligi hamda ko'magi zarur.

Ta'kidlash joizki, dunyoning ko'p davlatlarida moddiy madaniy meros, arxeologiya yodgorliklari bilan bog'liq qonunlar qabul qilingan. Ilmiy bilishning muayyan sohasini birlamchi nazariy asoslashni talab qiladigan asosiy masalalardan biri uning asosiy tushunchalarini aniqlashdan iborat. Ushbu tadqiqotning muammolari doirasida bu «muzeylashtirish» atamasi bo'lib, rus muzeyshunos olimlar undan ilk bor foydalanishni F.I.Shmit nomi bilan bog'lashadi. Ilmiy atamalarda uni muntazam qo'llash jarayoni vaqt o'tishi bilan madaniy meros obyektlarini tiklash va muzeylarni tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlarga nisbatan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa, arxeologik, me'moriy, ya'ni ko'chmas yodgorliklarga nisbatan ishlatilgan. Ta'kidlash joizki, muzeylashtirish bo'yicha asosan Rossiya hududlarida juda keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuning uchun mazkur ishda qisman O'zbekiston, asosan rus olimlari tomonidan yozilgan ilmiy – tadqiqot ishlari, monografiya, darslik, o'quv-qo'llanmalari asosida ko'chmas obyektlarning nazariy-metodologik asoslari o'rganildi.

²⁹⁵ «Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2009-yil 16-iyun. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2009. - № 42, 448-modda.

Lekin aynan arxeologiya merosi, arxeologiya yodgorliklari, arxeologik tadqiqotlarning muhofazasi mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishining mukammal tizimini mujasamlashtiradigan bunday qonun hozircha jahonda yagona. Ma'lumki, sovet davri O'zbekistondagi arxeologik yodgorliklarning katta miqdorda yo'qotilishi davri bo'lib tarixda qoldi. Bu davrda amalga oshirilgan ulkan qurilishlar, viloyatlardagi mahalliy katta-kichik yer maydonlari, yaylovlarning o'zlashtirilishi, o'nlab kichik mahalliy kanallar qazilishida, suv omborlari, yirik sanoat korxonalari, qishloqlarda turli-tuman xo'jalik binolari qurilishi natijasida minglab bebaho arxeologik yodgorliklar tamoman buzib yuborilgan.

Shu bois yuqoridagi qonunning «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi vakolatlari» deb nomlangan 8-moddasi sovet davrida yo'l qo'yilgan tarixiy xatolarni tuzatish va kelajakda mana shunday ayanchli yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Fikrimizga ko'ra, arxeologik yodgorliklarning Davlat kadastriga kiritilishi jarayonida yodgorliklar o'sha joylardagi mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolar yig'inlari, mahallalar balansiga kiritilishi va tarixiy meros muhofazasiga aholining barcha qatlamlari jalb etilishi maqsadga muvofiqdir²⁹⁶.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, qadimgi Xorazmning madaniy va moddiy merosiga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Elliqqal'a tumanida joylashgan Tuproqqal'a Xorazm podsholarining yozgi qarorgohi milodiy VII asrgacha qal'ada xo'jalik yo'nalishlarini olib borishga imkon bo'lgan. Shuningdek, Xazorasp tumanidagi Devsolganqal'a yodgorligida ham qurilish, rekonstruksiya va muzeylashtirish ishlari olib borilmoqda. Yodgorlikni muhofaza qilish maqsadida yuqorida ta'kidlanganidek, aholining barcha qatlamlari jalb qilinmoqda. Rossiyalik tadqiqotchi I. M. Mineyevaning dissertatsiyasi²⁹⁷ va «Rossiyada muzey ishi» deb nomlangan monogra-

²⁹⁶ Berdimurodov A., Raimqulov A. Arxeologik meros: uni asrab-avaylash barchamizning fuqarolik burchimizdir. O'zbekiston tarixi va madaniyati // Tafakkur. – T., 2011. – B. 232-234.

²⁹⁷ Минеева И.М. История археологических исследований в музеях Южного Урала: дисс. ... канд. ист. наук: 07.00.06 / Минеева Ильяна Маратовна. Уфа, 2001. - 206 с. (Электрон. ресурс).

fiyasida²⁹⁸ arxeologik obyektlar rekonstruksiya doirasida: O'rta Osiyoda arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Muzey faoliyati va yodgorliklarni muhofaza qilish yo'nalishi bo'lib, uning mohiyati ko'chmas tarix, madaniyat yoki tabiat obyektlarini maksimal darajada saqlash maqsadida, ularning tarixiy-madaniy, ilmiy, estetik qimmatini aniqlash va zamonaviy madaniy hayotga kiritishdan iboratdir.

Misol tariqasida aytish mumkinki, Toshkent shahrining qadimiy tarixini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. O'sha vaqtdan beri Shoshtepa, Yunusobod Oqtepa, Chilonzor Oqtepa, Qo'g'aytepa, Mingo'rik qadimiy shaharchasi va boshqa obidalarda bir necha bor arxeologik qazishmalar olib borilgan. Lozanna xartiyasida arxeologik meros o'tmishdagi inson faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai ekanligi qayd etilgan. Shu sababli arxeologlar va boshqa olimlarni kelajak avlodlari manfaatli yo'lida o'rganish va izohlashlari uchun, uni muhofaza qilish va to'g'ri ishlatish juda muhimdir.

XX asrning 70-80-yillarida O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti tomonidan asosan Toshkentdagi ikkita yodgorlik – Yunusobod Oqtepasi yodgorligi va Shoshtepa shaharchasida arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Qazish ishlari davomida yaxshi saqlangan rejalashtirish tuzilmasiga ega bo'lgan barcha komplekslar ochib o'rganildi. Shu bois, yodgorliklarni muzeylashtirish va tomoshabinlarni jalb qilish maqsadida qayta tiklash hamda konservatsiya ishlarini boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, binoning loydan qilingan paxsa devorlarini qisman tiklash va kimyoviy tozalashni o'z ichiga olgan tabiatni muhofaza qilish ishlarining dasturi ham ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahrining qadimiy me'moriy yodgorliklarini qurishda g'isht, loy va ohaklardan foydalanilgan bo'lib, ularning mustahkamligini ta'minlovchi sifatida tabiiy yopishtiruvchi vositali komponentlar, o'simlik kullari va boshqalar ishlatilgan. Ammo vaqtning buzuvchi ta'siri,

²⁹⁸ Музейное дело России: монография / Под общ. ред. М.Е. Каулен, И.М. Коссовой, А.А. Сундиевой. – М.: ВК, 2010. - 676 с.

mo'rt materiallardan qurilgan qadimiy binolar qoldiqlariga kuchli salbiy ta'sir o'tkazgan. Arxeologiya instituti restavratორlari xom g'ishtdan qurilgan arxeologik obidalarni saqlash usullarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash borasida ijobiy tajribaga ega bo'lishgan. Bunga qadimgi Afrosiyob hududidan miloddan avvalgi VI–V asrlarga oid mudofaa devorini tiklash va kimyoviy saqlash ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar va tajriba maydonlarida keyinchalik olib borilgan sinovlar natijasida konservantlar sifatida diizosianatlar sinfidagi monomerlar guruhi tanlandi. Laboratoriya sinovlari yaxshi natijalarni ko'rsatdi. Loy faol plomba rolini o'ynashi, ya'ni diizosianat bilan kimyoviy o'zaro ta'sirga kirishi aniqlandi. Shuning uchun paydo bo'lgan qoplama yuqori fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega. Namunalarning siqish kuchi 3–4 baravar ortadi. Qayta ishlangan xom ashyo ultrabinafsha nurlari, namlik va harorat o'zgarishi ta'sirida deyarli o'zgarmaydi hamda biologik parchalanishga qarshi turadi. Polimerizatsiya reaksiyasi paytida karbonat angidrid chiqariladi, buning natijasida obyektning asl tuzilishi saqlanib qoladi. Bu qadimgi me'morchilik yodgorliklarida tabiiy sharoitda yuzaga keladigan tuproq tuzlarining erkin ko'chishi va namlik almashinuvini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ruxsat etilgan namunalarning rangi va tuzilishi tabiiy bo'lib qolmoqda²⁹⁹.

Toshkentning noyob arxitektura yodgorliklarini saqlab qolish bo'yicha dastlabki ishlar Toshkent shahridagi Yunusobod tumanida joylashgan Oqtepa arxeologik uchastkasida olib borildi. Bir necha yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti bu yerda kompleks tiklash va konservatsiya ishlarini olib bordi. Arxeologlar qadimgi me'morchilikning ochilgan qismlarini yo'q qilinishining oldini olish uchun ehtiyotkorlik va minimal aralashuv tamoyiliga asoslangan edi. Qayta tiklash ishlari uchun hajmi va tarkibi bo'yicha qadimiy namunalarga o'xshash xom g'isht, loydan yasalgan gips kabi an'anaviy material va tex-

²⁹⁹ Реутова М.А. Реакция уретанообразования в составе лессовых композитов, и разработка методов консервации археологических объектов // Автореферат канд. дисс. Ташкент, 1989. – С. 23-28.

nologiyalar ishlatilgan. Ketma ket olti fasl davom etgan ish vaqti-da mazkur obyektning kommunal, sharob ishlab chiqaruvchilar xonalari va yodgorlikning boshqa qismlarida ta'mirlash-tiklash ishlari olib borildi. P. Ye. Sorokinning ta'kidlashicha bu kabi holat-dagi arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish, ularning hududini shahar rivojlanishidan ajratish, yodgorlik chegaralarini qonuniy-lashtirish, obyekt va uning atrofidagi hududlarni muhofaza qilish tartibini aniqlash, loyihani ishlab chiqish, konservatsiya va restav-ratsiya ishlarini olib borish, himoya qiluvchi pavilon inshootlarini qurish, gidrologik tartibni ishlab chiqish, hududning atrofini yax-shilash kabi tashkiliy-texnik tadbirlar majmuasini amalga oshirishni ta'minlaydi³⁰⁰.

Ish jarayonida vayron bo'lgan bino devorlarining to'kilib tush-gan alohida joylari tiklandi. Bu tuzilmalar devorlarini keyinchalik vayronagarchilikdan himoya qilish, obidalarining qisman yo'qolgan rejalashtirish tuzilishini aniqlash va devor qalinligini tiklash imko-nini berdi. Yaxshi saqlanib kelingan xom g'ishtni vayronagarchilik-dan saqlab qolish uchun devorlarning yuzasi loydan qilingan gips bilan qoplangan. Atmosfera yog'inlarining to'planish va oqish joy-lari, tog' tizmalari, devor va poydevorlarining gidroizolyatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Devorlarning yoriqlarini gidroizolyatsiya qilish uchun maxsus tom yopish vositasi ishlatilgan, so'ngra uni loy ohak bilan quyishgan. Izolyatsiya qiluvchi qatlam sifatida kiritilgan tom va loy qoplamasi birga himoya qoplamasi bo'lib xizmat qilishi kerak.

Qayta tiklash ishlaridan so'ng, binolarning devorlari yuzasi-ga kimyoviy ishlov berilib, suvga chidamliligi ta'minlandi. Bu-ning uchun diizosianat eritmalari ishlatilgan. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlarda qo'llaniladigan sinov usullari bilan birga Arxeologiya instituti laboratoriyasida ishlab chiqilgan yangi usullar bo'yicha tajriba ishlari olib borildi. Tajribalar natijalarini kuzatish uchun har yili konservatsiya, restavratsiya qilingan joylar moni-

³⁰⁰ Сорокин П.Е. Археологическое наследие Санкт-Петербурга / П. Е. Сорокин // Культур-ное наследие Российского государства. Прошлое и современность. Ученые и политики об историческом и культурном достоянии: сб. ст. – СПб: Вести, 2000. Вып. 2. – С. 138-144.

toring qilindi. Uzoq muddatli kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, toluol izosianat eritmalari konservant sifatida ishlatilganda xom g'isht tuzilmalarni barqarorlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu yerda antropogen omilning salbiy ta'siriga duch kelinmoqda. Yod-gorlik muzeyga berilmaganligi sabab (u aholi zich turar-joy hudu-dida joylashgan), odamlar u yerga ko'tarilish va devorlar orasidan o'tish, bino ichidagi gulxanlarni yoqish orqali katta zarar yetkaz-moqdalar. Natijada, qadimgi devorlarning yoriqlarining gidroizol-yatsiya qoplamalari buzilgan. Suv hosil bo'lgan yoriqlarga kirib borishi, devorlarning ayrim qismlarining vayron bo'lishi va qulashi-ga olib keldi. Shu sababli yodgorlikni ta'sirlangan joylarini saqlab qolish uchun uni himoya qilish, keyinchalik saqlash va foydalanish masalalarini hal qilish bilan muntazam ravishda ta'mirlash, tiklash ishlari olib borish va muzeylashtirish kerak.

So'nggi yillarda O'rta Osiyo xom g'isht, paxsadan qurilgan me'morchiligining qadimiy yodgorliklarini saqlash va muzeylash-tirish bo'yicha katta tajriba to'plandi. Jumladan, Buddistlar maj-muasi Fayoz-tepa (O'zbekiston), Otrar (Qozog'iston) qadimiy sha-harchasi va Eronning ba'zi yodgorliklarida keng ko'lamli saqlash ishlari olib borildi. Oldingi ishlar natijalari va «yodgorliklarning hayoti» ni kuzatish asosida arxeologik yodgorliklarni saqlash ja-rayoniga yangicha tushuncha hamda yondashuvlar ishlab chiqilgan. Eng muhim va asosiy jihatlardan minimal aralashish va saqlashda ishlatiladigan materiallarning reversivligi hisoblanadi. Muayyan yodgorlikning qadimiy qurilish materiallari, ularning zamonaviy arxeologik yodgorlikni qayta tiklashda ishlatiladigan zamonaviy saqlash materiallarini, binoning kompozitsion uyg'unligiga mos ravishda ishlatish katta ahamiyatga ega.

Qadimiy yodgorliklarni asrab-avaylash va saqlashda ilmiy hu-jjatlar muhim o'rin tutadi. Venetsiya Xartiyasining 16-moddasida: «... Barcha konservatsiya, tiklash yoki qazish ishlarida hujjatlar doimo analitik va tanqidiy hisobot ko'rinishida bo'lishi, chizmalar va fotosuratlar bilan aks ettirilishi kerak. Tozalash, mustahkamlash, rekonstruksiya qilish va birlashtirish bo'yicha ishlarning har bir bosqichi, shuningdek aniqlangan texnik va rasmiy xususiyatlar va

ish jarayoni diqqat bilan qayd etilishi kerak» – deb yozib qo'yilgan³⁰¹.

Toshkent va Samarqand arxeologik yodgorliklarida olib borilgan birinchi eksperimental konservatsiya ishlarining natijalarini o'rganish va tahlil qilish orqali, arxitekturadagi ochiq arxeologik obyektlarni saqlash bilan bog'liq vazifalarning murakkabligini ko'rish mumkin. Mazkur ishlarning dasturida har bir yodgorlikning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, obyektning o'zi va alohida yodgorlik joylashgan atrof-muhit sharoitlariga bog'liqligi qayd etilgan. Ammo yodgorlik o'z vaqtida muzeylashtirilmasa, muhofaza qilinmasa uni saqlab qolish uchun hech qanday himoya ishlari yordam bermaydi. Faqat shu yo'l bilan madaniy merosning bebaho obyekti bo'lgan arxeologik obidalarining umrini uzaytira olish mumkin.

Hozirgi kunda muzeylashtirish yodgorlikni yaxshi saqlanib qoldirilishi va undan to'g'ri foydalanishning eng rivojlangan yo'li bo'lib qolmoqda. Ko'p hollarda yodgorlik turgan joyidan siljimasdan, balki shu joyda muzeylashtirilgan eksponat sifatida turmoqda. O'z joyidan ko'chirilganda uning qiymati pasayadi, atrof muhit bilan bog'liqligi uziladi va u haqdagi ma'lumot kamayadi. Shu bilan bir qatorda yodgorliklarning o'zi tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lib, qonun-qoidalar asosida hamda oliy darajada bajarilsa, ushbu hudud madaniyatini kengroq ochib berishga xizmat qiladi³⁰². Me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ularni moslashtirish bilan bog'liq.

Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tarixiy inshootlarni muzeylashtirish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada bir qancha normativ huquqiy hujjatlar joriy etildi, boshqarmalar faoliyati muvofiqlashtirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi «Sarmishsoy», «Shahrisabz», «Termiziy» va «Qo'qon» davlat muzey-qo'riqxonalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 443-sonli qarori asosida muzey-qo'riqxonalari tashkil qilindi hamda 27 ta moddiy madaniy

³⁰¹ Венецианская Хартия 1964 г. Международный Конгресс архитекторов и инженеров исторических памятников. Венеция. 31. 05. 1964.

³⁰² Raxmatullaev Yu. O'zbekiston me'morchilik obidalari davlat muhofazasida. – Toshkent, 1969. – B. 45.

meros obyektlari davlat muzey-qo'riqxonalariga ijara haqining «nol» stavkasiga asosan birlashtirildi.

Buyuk alloma Abu Muin An-Nasafiy majmuasi, hadis ilmining bilimdonlari Imom al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at-Termiziy majmualari, Sulaymon Hakim ota Baqirg'oniy majmuasi, «Yetti pir» ziyoratgohlarini ta'mirlash-tiklash ishlari hamda bir qancha muqaddas qadamjolarini obod qilish borasida keng ko'lamli ishlar bajarildi.

Yodgorlikka to'g'ri munosabatda bo'lishlikning dastlabki talablaridan biri unga mos keluvchi yangi funktsiya tanlash, yo'lko'rsatkich yaratish talabidir. Badiiy jihatdan yuqori, mashhur me'moriy yodgorliklar uchun muzeylashtirish, ya'ni ularda to'la tomosha qilish imkoniyatini yaratish va muzeyga moslashtirishda keltirilgan eksponatlarni tomosha qilish uchun sharoit yaratiladi. Muzeylashtirish esa yodgorlikning o'zini muzeyga aylantirish demakdir. Obidani moslashtirishda keyinchalik kengayishni talab qiluvchi funktsiyalar asosida yo'lko'rsatkich yaratish muhim vositalardan sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi «Moddiy madaniy va arxeologiya meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi PF-5181-sonli farmoyishi asosida, mavjud moddiy madaniy meros obyektlarini qayta xatlovdan o'tkazish, muzeylashtirish hamda madaniy turizmga foydalanish topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlarini milliy ro'yxati Vazirlar Mahkamasining 846-qarori bilan tasdiqlandi. Ushbu qaror bilan 2292 ta moddiy madaniy meros obyektlarida muhofaza belgilari, mahalliy va xorijiy sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida 1088 ta yo'lko'rsatkichlar o'rnatilgan.

Moslashtirish imkoniyatlari to'g'ri yo'lko'rsatkich imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Shu bilan birga ta'mirlash vaqtida moslashtirish vazifalari ham nazarda tutilishi kerak. Hozirgi vaqtda ta'mirlash, ekspozitsiya tuzish, yo'lko'rsatkich yaratish va moslashtirish masalalari kompleks ravishda hal etilishi kerak, deb hisoblanadi. Bu muammoni hal etish uchun alohida olingan obidalar o'zida ish

ko'rish emas, balki tarixiy shaharning eski qismida va mahallalarda ish olib borish lozim. Bunday tarixiy mahallalarda mashhur yodgorliklar bilan bir qatorda ko'plab oddiy yodgorliklar mujassam bo'ladi. Mazkur kompleks hal etish usuli ko'p mamlakatlarda tatbiq etiladi va uni revalorizatsiya (ya'ni, yangicha tiklash) deb ataladi. Bunda yodgorlikning nafaqat me'moriy-badiiy qiymatining, balki ekspluatatsion qiymatining tiklanishini ham ta'kidlash zarur.

Tarixiy shaharlarning bugungi ahamiyati ulardagi me'moriy majmualar, ansambllar va alohida go'zal inshootlarning mavjudligi bilangina ifodalanmay, balki ushbu binolarning umrboqiyiligi qay darajada ta'minlanishi bilan ham ahamiyatlidir. Hozirda bu masala dolzarb muammo, chunki bunda ko'p manfaat bor: birinchidan, tarixiy shaharlarimizda xalqqa xizmat ko'rsatish uchun yangi binolar qurishga yetarli joyning zarur yerdan topilishi qiyin, joy topilganda esa mablag' yetishmaydi; ikkinchidan, tarixiy shaharlar muhitida yangi binolar qurish katta me'moriy javobgarlik va o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi va bu ish hamma vaqt ham shaharsozlik foydasiga hal bo'lavermaydi. Ko'rinib turibdiki, bu maqsadda me'moriy obidalaridan to'g'ri foydalanish, ularning hayotini umrboqiy qilish ijtimoiy, ayniqsa, shaharning iqtisodiy masalalarini samarali hal qilishga yordam beradi. Eng muhimi, bunday shaharlarga tashrif buyurgan sayyohlar juda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladilar, zero ularning asl maqsadi ham mazkur vatan va xalq madaniyati, tarixini jonli an'analarda ko'rib tushunishdir. Demak, me'moriy yodgorliklarimizni saqlab qolish, muzeylashtirish, ekspozitsiya loyihalarini chuqur o'rganish va tashkil etish ulardagi umrboqiylikni oshirishning samarali va tejamli yo'llaridan biri, bu esa me'moriy yodgorliklarda amaliy maqsadlar uchun foydalanishga imkon yaratishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ga³⁰³ muvofiq, Madaniyat vazirligi tomonidan moddiy madaniy meros

³⁰³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

obyektlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktyabrdagi 881-sonli qarori qabul qilindi. Bu borada o'zlariga ishonib topshirilgan madaniy boyliklarni saqlash va ko'paytirish uchun muzey-qo'riqxonalar yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimda munosib o'rin egallashlari lozim.

Toshkent me'moriy yodgorliklarini muzeylashtirish borasida birinchi navbatda yodgorliklarning ilmiy pasportlari asosida «Toshkentning madaniy-meros obyektlari» konsepsiyasini yaratish zarur. Ushbu konsepsiyada ta'mirlashga loyiq va ehtiyoji bo'lgan me'moriy yodgorliklar avlodlarga avaylab yetkazilishi uchun ta'mirlanib, muhofazaga olinishi zarur bo'lgan yodgorliklar birinchi asosiy ro'yxatga kiritish zarur. Buning uchun birinchi navbatda yodgorliklar davlat muhofazasiga olingan yoki olinmaganligi aniqlanadi. O'zbekistonda o'tmish ajdodlardan qolgan me'moriy, arxeologik va tarixiy yodgorliklarning asosiy katta qismi Madaniyat va sport ishlari vazirligining moddiy madaniyat obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Bosh boshqarmasi hamda tegishli davlat va mahalliy hokimiyat xodimlari tomonidan hisobga olinib, davlat qo'riqlash ro'yxatiga kiritilgan. Toshkent shahri hududida so'nggi 100-150 yil yoki o'n yilliklarda bunyod etilgan inshoot va imoratlar ilgari o'tkazilgan tadqiqotchilar nuqtayi nazarida yodgorlik turkumiga kirmagan, vaqt o'tishi tufayli yangicha qarashlarga nisbatan yodgorlik kategoriyasiga kirishi mumkinligini isbotlaydi.

Shuning uchun agar yodgorlik ilgari hisobga olingan bo'lsa, muzeylashtirish uchun uning pasportini o'rganib chiqish lozim. Demak, har bir yodgorlik o'z pasportiga ega bo'ladi. Bu hujjatda yodgorlikning atalishi, joylashgan joyi, joy va yodgorlikning umumiy saqlanganlik holati qisqacha bayon qilingan bo'lishi lozim. Shuningdek, sxematik tarzda bosh plan hamda umumiy ko'rinish tasvirlari aks ettirilgan bo'lishi kerak. Bordi-yu, Madaniyat va sport ishlari vazirligining Bosh boshqarmasi yoki ularning joylardagi vakolatli bo'limlari hamda muzeylarda yodgorlik pasporti mavjud bo'lmasa, uni tuzish lozim bo'ladi. Demak, ta'mirlash va muzey-

lashtirish ishini tadqiqotchilikdan boshlash kerak. Tadqiqotchilik faoliyati yodgorlikning pasporti bor yoki yo'qligini aniqlashdan boshlanadi. Shundan so'ng mavjud ma'lumotlarga qo'shimcha axborot yig'ish ishlari amalga oshirilishi lozim. Bunda quyidagi asosiy tadqiqotchilik faoliyat turlari amalga oshiriladi:

- yodgorlikning umumiy holati bilan tanishish va shu haqda yozma ma'lumot tuzish;
- tarixiy manbalarni o'rganish;
- ilmiy manbalarni o'rganish;
- arxeologik ma'lumotlar bilan tanishish va yangi arxeologik qidiruv ishlarini o'tkazish;
- muhandislik ma'lumotlarini topish;
- arxiv va muzeylarda tadqiqotchilik ishlarini olib borish;
- xalq orasida mavjud ma'lumotlarni to'plash;
- ikonografik tadqiqotlar o'tkazish;
- analitik materiallar yig'ish;
- yaxlit yozma xulosa tuzish.

Shundan so'ng me'moriy obidaning tasviriy materiallari jamlanadi. Ya'ni fotografiyalari mavjud bo'lsa ham, yangicha fotosuratlar, kino, video va turli yangicha tasviriy material to'planadi. Mavjud arxeologik materiallar to'planib, yangicha materiallar bilan to'ldiriladi. Bino va inshootlarning o'lchov chizmalari tuziladi. Shular asosida yodgorliklarni ko'chmas obyekt sifatida muzeylashtirish va ekskursiya loyihasini yaratish mumkin.

Kerakli materiallar yodgorliklarni saqlash jamiyatlari arxivlaridan ham izlanishi mumkin. Hozirgi vaqtda yodgorliklarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Yodgorliklarni saqlash Bosh boshqarmasi, «Ta'mirshunoslik» loyihalash instituti «San'atshunoslik» ilmiy-tekshirish institutlari va boshqa muassasa arxivlarida mavjud. Undan tashqari chet ellarda ham, xususan, Moskva, Sankt-Peterburg arxivlarida ham ma'lumotlar bor. Arxivlardagi ma'lumotlarni izlash borasida nashr etilgan kataloglar yordam ko'rsatadi. Arxivda olib boriladigan ishlarning o'ziga xos yana bir tomoni topilgan hujjatlarning o'qilishidagi qiyinchiliklardir. Qadimgi manbalardan foydalanishda aksari eski yozuvlarni, fors, arab

tillarini, abjad (sanani ibora orqali ifodalash) qoidalarini yaxshi biladigan mutaxassislar yordamiga muhtojlik tug'iladi. Arxivdagi ishlar ko'rib chiqilgan materiallarni qayd qilish ko'chirmalar keltirish tariqasida bajariladi.

Arxivlarda yodgorlik to'g'risida nafaqat matn shaklidagi, balki tasvir (chizma, surat) shaklidagi manbalar uchraydi. Lekin ulardan tashqari yodgorliklarga tegishli tasvirlar maxsus muassasalarda yig'iladi. Masalan, O'zbekiston kino, foto, fono hujjatlar arxivi, hokimiyatlarning texnik inventarizatsiya bo'limlari, tasviriy san'at asarlari tariqasida ko'pgina muzeylarda saqlanadi. Hududlarning tarixiy-o'lkashunoslik muzeylarida ham qimmatli tasviriy manbalar uchraydi. Ushbu tasvirlar aksari atributsiyalanadi, ya'ni ularning yaratilgan vaqti, muallifi, paydo bo'lish sharoitlari aniqlanadi.

Fotosuratlar eng ishonchli tasviriy manba hisoblanadi. Eng qadimgi fotosuratlar o'tgan asrning o'rtalariga oid. Biroq ularning aksari o'tgan asrning so'nggi choragida tushirilgan. Iloji boricha negativlardan foydalanishga harakat qilish talab etiladi.

Qadimgi tasvirlardan, xususan, mo'jaz (miniatyura) asarlardan foydalanilganda binolarni tasvirlashda musavvir o'z oldiga binoni aniq ifodalash maqsadini qo'ymaganligini nazarda tutish kerak. Mo'jaz suratlar hozirgi zamon tasvir qoidalaridan farqli qoidalar bo'yicha bajarilgan. Ularda muayyan bino emas, balki umuman «masjid», «saroy» va shunga o'xshash boshqa binolar tasvirlangan. «Teskari perspektiva» qo'llanilgan. Shu bilan birga, ulardan ko'pgina foydali ma'lumot ham olinishi mumkin.

O'xshama yordamida yodgorlikning dastlabki yoki undan keyingi qiyofalari aniqlanadi. Ya'ni o'xshama nafaqat dastlabki qatlami o'rganish uchun, balki keyingi qatlamlarni o'rganish uchun ham qo'llaniladi. O'xshama vositasida muayyan yodgorlikning tarixidagi o'rni va roli aniqlanadi. Aniqlik o'rganish jarayonida tobora chuqurlashadi.

O'xshama dastlabki taxmin (ishchi faraz) qilish imkoniyatini beradi. O'xshama yordamida naturadagi tadqiq ma'lumotlarini, masalan kichik bir qoldig'ini, talqin qilish imkoniyatini beradi. Bunda qoldiq baholanadi, qiyofasi aniqlanadi.

O'xshama ta'mirlash tarixining dastlabki davrlarida namuna vazifasini o'tagan. O'xshamaga qarab ta'mir ishlari bajarilgan. Hozirgi vaqtda o'xshama grafik rekonstruksiya dagina keng qo'llaniladi. Ta'mir loyihasini yaratishda o'xshama va grafik rekonstruksiya asosiy uslub emas, balki yordamchi uslubdir. Hozirgi asosiy uslub arxeologik ta'mirlashdir.

O'xshamalarni o'rganish yo'llari ko'p. Avvalo, o'xshamalarning doirasi (soni) aniqlanadi. Bularni aniqlashda quyidagi besh asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. *Vaqt omili.* O'xshamaning qurilish vaqti ta'mirlanadigan binonikiday bo'lishi kerak. Keyingilari ham bo'lishi mumkin. Masalan, Toshkentdagi XVI asr yodgorliklari uchun keyingi vaqtda qurilgan XVIII yodgorliklari o'xshama sifatida qabul qilinishi mumkin.

2. *Maktab omili.* Bunda stilistik yo'nalish, me'morchilik maktabi, qurilish ustaxonasi muayyan me'morlarga tegishli omillar nazarda tutiladi.

3. *Tipologik omil.* Yodgorlik qaysi bino tipiga kirsa, shu bino o'xshamalaridan foydalaniladi.

4. *Qo'yilgan vazifa omili.* Bir yodgorlik uchun turli o'xshamalar olinishi zarur bo'lishi mumkin. Masalan, turli qatlamlar uchun turli davrga mansub o'xshamalar olinadi. Grafik ta'mir uchun bir o'xshama, amaliy ta'mir uchun boshqa o'xshama kerak bo'ladi.

O'xshamalar imkon qadar ko'proq olinadi. Bu ko'proq ma'lumot beradi. Ta'mirlovchi o'xshamani o'z didiga qarab tanlamasligi kerak.

O'xshamaning yaxshi ma'lumoti yodgorlikning o'zidadir. Yodgorlikning yonlaridagi, ya'ni bir me'moriy majmuaga kiruvchi binolar ham to'g'ri ma'lumot berishi mumkin. O'xshama yaxshi o'rganilgan bo'lishi kerak. Buzilib ketgan bino ham o'xshama sifatida qabul qilinishi mumkin. O'xshamani adabiyot, o'lehov, fotosurat orqali bilish kifoya qilmaydi. Joyiga borib o'rganish kerak bo'ladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini ta'mirlash hamda muzey-qo'riqxonalarni barpo etish orqali muzeylashtirish ishlarini amalga

oshirish mumkin. Chet mamlakatlarda yodgorliklarni muzeylashtirish va ulardan samarali foydalanish muhim bo'lib, binolar o'z funksiyasini bajarish bilan birga, muzey tartiblari bo'yicha ish olib borishi muhim hisoblanadi. Yuqoridagi tartiblar bajarilishi asosida tarixiy yodgorliklarga muzeylashtirilgan obyektlar sifatida qarash mumkin bo'ladi. Namuna sifatida Shvetsiya davlati birinchilardan bu amaliyotni qo'lladi va mingdan ortiq badiiy qiymatga ega obyektlar ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirildi. 1917-yildan boshlab Rossiyada ham madaniy paradigmani o'zgarishi, yodgorliklarni boshqa funksiyalarga moslashtirilishi bilan ommaviy muzeylashtirish ishlari olib borila boshladi. Bu bilan saqlab qolinishi zarur bo'lgan tarixiy obyektlarni muzeyga aylantirishi yangi madaniyatning optimal vazifasiga aylandi.

Ta'kidlash joizki, «muzeylashtirish» atamasining mavjud muzeyshtirishlikka oid manbalarda turlicha izohlanishini ko'rishi mumkin. Masalan, keng ma'noda ko'chmas yoki ko'chadigan yodgorlikni turgan joyida sun'iy tarixiy muhitda, muzeyda joylashishi, tor ma'noda esa, asosan o'z joyida turadigan ko'chmas muzey obyektlari tushuniladi. Demak, «muzey muhiti» mazkur tarixiy obidalarining atrofida barpo qilinib, obyektning o'zi esa, asosiy ekspонат sifatida gavdalanadi.

Muzeylashtirish borasida terminologik muammolar ham mavjud bo'lib, ko'p hollarda yodgorliklarning qaysilari ko'char yoki ko'chmas ekanligi bo'yicha savol tug'iladi. Chunki, fan va texnikaning rivojlanishi bilan «ko'chuvchan» hamda «ko'chmas» tarixiy obidalarining farqi yo'q bo'lib bormoqda. Chunki, texnik vositalar yordamida xar qanday binoni joydan-joyga ko'chirish mumkin. Lekin, bu uslubning salbiy jihatlari ham mavjud bo'lib, bino boshqa joyga ko'chirilganda, uning tarixiy muhiti, badiiy qimmatini yo'qotishi mumkin³⁰⁴.

Muzeylashtirish jarayoni mavjud tarixiy obidalarni kelajak avlod uchun saqlab qolishi hamda undan to'g'ri foydalanishning eng maqbul yo'li bo'lib qolmoqda.

³⁰⁴ Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А. – М.: Издательство «БК», 2003. – С. 365-366.

Muzeylashtirish amaliyotida yo‘qotilgan yodgorlikni go‘yoki uning asliligiga zarar yetkazmasdan turib, qayta tiklash mumkin degan tafovutli fikr mavjud. Bizningcha, bu butunlay noto‘g‘ri fikr bo‘lib, uzoq yillar mobaynida muzey nazariyasi va amaliyotida «muzeylashtirish» atamasi asosan faqatgina o‘zining muhitida o‘zlashtiriladigan ko‘chmas yodgorliklarga muvofiq ravishda tor ma’noda foydalanib kelingan. Biroq, ta’kidlash joizki, tadqiqot jarayonida muzey obyekti sifatida moddiy madaniy yodgorlik atrof-muhitini ham muzeyga moslashtirish tendensiyasi aniqlandi. Muzeylashtirish amaliyotini rivojlantirilishi bir-biriga zid fikrlarni vujudga kelishiga olib keldi, chunki u uzoq vaqtgacha me’mor va restavratorlarning zimmasida bo‘lib, muzey ishida bu jarayon hali to‘liqligicha o‘rganilmagan edi. Ko‘p hollarda bu termin nomoddiy, ko‘chmas va muhit yodgorliklariga nisbatan ishlatiladi, lekin barcha muzey obyektlariga nisbatan ham qo‘llaniladi³⁰⁵.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Samarqand viloyatining o‘zida 1850 dan ortiq madaniy meros obyekti mavjud bo‘lib, ularning 1105 tasi arxeologik, 669 tasi me’moriy, 27 tasi monument yodgorliklardan va 39 tasi me’moriy lavhalaridan iborat³⁰⁶. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida 2012-2014-yillarda moddiy madaniy meros obidalarini to‘liq qayta ro‘yxatdan o‘tkazish ishlariga ko‘ra, 245 madaniy meros obyekti xususan, 46 ta me’moriy, 117 ta arxeologik yodgorlik va 82 ta monumental san’at asarlari davlat muhofazasiga olinib amalga oshirildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining turli hududlarida joylashgan Mizdakxon qal’a, Tuproqqal’a, Ayoqal’a, Jambasqal’a, Bozorqal’a, Qumbasqan qal’a, Qo‘yqirilgan qal’a va Chilpiq kabi qadimiy yodgorliklar, Sulton Uvays bobo majmuasi, Chinor bobo, Valiy ota, Dovud ota ziyoratgohlari qayta ta’mirlanib, obodonlashtirildi³⁰⁷.

³⁰⁵ Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – М.: Этерна, 2012. – С. 397.

³⁰⁶ Sattorov A. Muzeylar moziydan so‘zlaydi. // © Copyright 2008 – 2019. biznes-daily.uz. 27 yanvar’ 2018.

³⁰⁷ Komilova M. Mizdakxon qal’a ochiq osmon ostidagi muzeyga aylanadi. // «Milliy tiklanish» muxbiri. 6-sentyabr, 2016.

V.L.Yaninning bayonotiga muvofiq ochilgan me’moriy va arxeologik qoldiqlarni saqlab qolish uchun xavfsizlik hududlarini loyihalashda, havo havzasining tozaligini saqlash masalalarini hisobga olish kerak, chunki ifloslangan havo qadimiy qurilish qoldiqlarining holatiga tez salbiy ta’sir ko‘rsatadi³⁰⁸.

Hozirgi vaqtda muzeylashtirish, restavratsiya va konservatsiya moddiy madaniy merosni saqlashning eng maqbul usullaridan biri ekanligi ta’kidlanmoqda. Moddiy madaniy meros yodgorliklari, obyektlari, san’at asarlari va qadimgi davrga oid osori-atiqalarini muzeylashtirish, ularni maksimal darajada saqlanib qolinishiga imkon yaratadi va ularning tarixiy-madaniy, ilmiy hamda badiiy qimmatini ochib beradi. Mazkur ilmiy ishda arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish masalalari keng tadqiq etildi. Arxeologik meros obyektlarini muzeylashtirishning nazariy jihatlarini haqidagi ilmiy g‘oyalarning shakllanishini o‘rganishda, muzeylashtirish tadbirlarini o‘z ichiga olgan kalit tushunchalarni kiritish mumkin. Muzeylashtirish muammolariga bag‘ishlangan ishlarda ushbu masalani ko‘rib chiqishning umumiy yondashuvlari asosida, bizning nuqtayi nazarimizdan, tadqiqotlarning ikki guruhini ajratish tavsiya etiladi: ulardan birinchi guruh mualliflari yodgorlikni muzeylashtirish choralari ro‘yxatga olish bilan cheklanadilar, muzeylashtirishning bitta yoki bir necha tadbirlarini tanlab, chuqurroq yoritishga intiladilar. Buni ishlab chiqish, muayyan muallifning tadqiqotga qiziqishi yo‘nalishiga mos kelishi kerak. I.I.Krolenkoning fikriga ko‘ra, muzeylashtirish jarayonlari uchta bosqichga ajratiladi: yodgorlikni ochish, konservatsiya qilish, qazilma ishlari tugagach, topilmalarni joyida saqlash va ekspozitsiyalash choralari ko‘rish³⁰⁹. I.M.Mineyev esa yodgorliklarni muzeylashtirishni to‘rt asosiy bosqichga ajratishni tavsiya etadi: obidaning tabiiy tarixiy muhitini o‘rganish; qazilma ishlari, yodgorlikning saqlanib qolgan

³⁰⁸ Янин В.Л. Охрана и использование памятников археологии в СССР / Методические основы охраны и использования памятников археологии: сб. научн. тр. – М.: НМС МК СССР, 1987. – С. 5-17.

³⁰⁹ Кроленко И.И. Вопросы градостроительной защиты памятников археологии / Градостроительная охрана памятников истории и культуры: сб. научн. тр. – М.: НМС МК СССР, 1987. – С. 38-52.

qismlarini restavratsiya qilish, uning asosiy konstruktiv o'ziga xosliklari va tashqi ko'rinishini tiklash, atroflarida qulayliklar yaratgan holda muzey ekspozitsiyalarini tashkil etishdir³¹⁰.

Muzeylashtirilgan arxeologik yodgorliklar muhim ahamiyatiga molik moddiy madaniy merosning bir qismi hisoblanadi. Arxeologik yodgorliklar va obyektlarni muzeylashtirish va ularni kelajak avlod uchun saqlab qolish zamonaviy muzey amaliyotining ajralmas qismiga aylangan. Me'morlar va texnik mutaxassislarning ikkinchi Xalqaro Kongressi (Venetsiya, 1964) qarorlari³¹¹ga ko'ra, V.I.Fedorov qayd etishicha, «yodgorlikni o'zi joylashgan hududidan ajratgan holda saqlash mumkin emas, shuning uchun yodgorlikning ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi»³¹². Arxeologik merosni muzeylashtirish muammosini yechish, bir necha bilimlar sistemasi va ilmiy fanlarning integratsion doirasi bog'liqligida, turli daraja va ixtisoslikdagi mutaxassislarining, davlat va jamoatchilik tashkilotlari yordamida yuzaga keladi.

Ko'chmas yodgorliklar bizgacha dastlabki holatiga yaqin qoniqarli darajadan tortib, to avariya va undan oldingi holatigacha turli ko'rinishlarda yetib keladi. Ko'p holatlarda yodgorlikning turli elementlarini ham saqlash va vayron qilish yo'nalishiga ega geologik atrof muhit ta'siri hal qiluvchi omil bo'ladi. Oqibatda rekonstruksiya, konservatsiya va muzeylashtirishning eng maqbul variantini aynan geologik atrof-muhitda izlashga to'g'ri keladi. Qazishma ishlari davomida har qanday holatda ham vayron bo'lgan yoki yarim vayrona yodgorliklarni uzoq vaqt mobaynida shakllangan konservatsiyalash sharoitlari o'zgaradi va ba'zida sharoit o'zgarishi bilan chaqirilgan tezligi jihatdan misli ko'rilmagan yemirilish boshlanadi. Bu holat yodgorlikning atmosfera bilan o'zaro ta'siri, harorat-namlik tartibini o'zgarishiga juda bog'liq bo'ladi.

Muzeylashtirishga yondashishni aniqlashda muzeyning tashqi ko'rinishi emas, balki, muzeylashtirilayotgan obyektning turi

³¹⁰ Минеева И.М. История археологических исследований в музеях Южного Урала: дисс. ... канд. ист. наук: Уфа, 2001. 206 с. (Электрон. ресурс).

³¹¹ icomos-spb.ru/component/joomdoc/1964

³¹² Федоров В.И. Современные задачи консервации архитектурно-археологических памятников. – М.: Знание, 1969. Вып. 4. – С. 12.

asosiy mezon bo'ladi. Ular me'morchilik va shaharsozlik obyektlari, arxeologik yodgorliklar, fan va texnika yodgorliklari, landshaftlar, muhit, nomoddiy moddiy madaniy obyektlari kabi beshta guruh bo'lib o'rganiladi.

Me'morchilik va shaharsozlik yodgorliklari – muzeylashtirishning hozirda eng ko'p uchraydigan obyektlari bo'lib, uni muzeylashtirish restavratsiya qilish bilan uzluksiz bog'liqdir. Ko'p hollarda, ayniqsa, muzey namoyishining mustaqil obyekti sifatida yodgorlikni ko'rsatishga tayyorlashda, muzeylashtirish asosan restavratsiya qilishdan iborat bo'lib qoladi. Shuningdek, «arxeologik yodgorlikni muzeylashtirish», «me'moriy yodgorlikni muzeylashtirish», «etnografik yodgorlikni muzeylashtirish», «tabiiy yodgorlikni muzeylashtirish» kabi tushunchalarning mazmuni bir-biriga nisbatan bir xil bo'la olmasligiga e'tibor berish lozim. Demak, «Muzey atamalari. Muzeyshunoslikning terminologik muammolari» to'plamida yodgorlik turiga qarab, uni muzeylashtirish jarayoni turli tadbirlarni o'z ichiga oladi: arxeologik yodgorliklarning muzeylashtirish-qazishmalar, konservatsiya va ochiq inshootlarni qisman qayta tiklash, pavilonlar va ekspozitsiyalarni yaratish; me'moriy yodgorliklarni muzeylashtirish - qayta tiklash, ko'rish nuqtalarini aniqlash va optimal ishlash tartibini, ekspozitsiya yaratishni talab qiladi»³¹³.

Arxeologik yodgorliklarni tabiiy landshaft sharoitlarida uzoq muddatli saqlashni tashkil etishda, ularning avariya holatini ham hisobga olish zarur. Tabiiy sabablarga ko'ra hamma joylar ham bu talablarga javob bera olmaydi. Muzeylashtirish yodgorlik tarixida aslo ayanchli xotima bo'lmasligi kerak va asosi tabiiy arxeologik tizim ishlashining muhandis-geologik sharoitlarini puxta o'rganishdan iborat qat'iy mo'ljallangan ekspluatatsion tartibga asoslanishi shart. Hozir arxeologik muammolarni hal qilishga muhandis-geologlar tez-tez jalb qilinmoqda. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, paydo bo'layotgan maqsad va vazifalar nihoyatda xilma-xildir. Bu hol u yoki bu yodgorlikning o'ziga xos xususiyati, turi, yoshi, saqlanganlik darajasi, geologik sharoitlari va uni saqlashning

³¹³ Музейные термины. // Терминологические проблемы музееведения: Сб. научн. тр. – М., Б. и., 1986. – С. 78.

rejalashtirilayotgan varianti, konservatsiya, restavratsiya, rekonstruksiya, muzeylashtirish bilan ham izohlanadi. Yodgorliklarning muhandis-geologik tadqiqotlari tabiiy geologik jarayonlarni qadimgi aholining yashash sharoitlari va xo'jalikni boshqarish usullariga bo'lgan ta'siriga baho berish hamda obyektning real holati, uni o'rab turgan geologik muhit, zamonaviy tabiiy va texnogen ta'sirlar darajasini hisobga olgan holda tavsiyalar berishga imkon yaratadi. Konstruktsiyalar xususiyati, qurilishning dastlabki texnologiyasi, me'moriy va arxeologik yodgorliklardan foydalanish tarixiga yo'langan batafsil muhandis-geologik tadqiqotisiz, muzeylashtirish uchun zarur bo'lgan to'liq haqqoniy ma'lumotlarni olish imkoni hozirda mavjud emas. Chunki yodgorlik yoshi, uning belgilangan maqsadi va konstruktsiyasi, yerlarning geologik tuzilishi, xususiyati va yer osti suvlar darajasi holatini rasman bilish kamlik qiladi. Tabiiy arxeologik tizimning turli elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarning shakl va turlarini aniqlash, yodgorlikni muzeylashtirish yoki saqlashning qulay tartibini tanlab olish lozim.

Muzeyshunoslikda yodgorlikni muzeylashtirish bir necha turga ajratiladi:

1) «muzey sifatida» gi yodgorlikning informatsion salohiyatini oshkor qilish, moddiy madaniy ahamiyatini aniqlash va aktual madaniyatga kiritish maqsadida uni muzey namoyishining mustaqil obyektiga aylantirish. Bunda yodgorlik va uning atrofidagi ekspozitsiya mavzusi faqatgina yodgorlikning o'ziga bag'ishlangan bo'lib, rasmiylashtirishdagi bosqik esa uning qiyofasidagi o'zgartirishlar sonini minimal darajaga tushiradi.

2) «muzeyga moslangan» yodgorlik (ya'ni, muzey) foydalanishiga moslashtirishni ko'zda tutadi. Bu holatda ekspozitsioner mavzu tanlash va ekspozitsiyani badiiy-me'moriy yechimini topishda ancha erkin bo'ladi. Bu erkinlik darajasi birinchi navbatda yodgorlikni moddiy madaniy ahamiyatini hamda interyerning saqlanganlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Badiiy-tarixiy jihatdan favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan yodgorlikka qandaydir begona ekspozitsion materiallarni qo'shish yoki

aralashtirish aslo shart emas. Keyingi guruhga «muzeylashtirish» atamasining ta'riflarini o'z ichiga olgan, muzeylashtirish jarayonini tashkil etuvchi voqea-hodisalarni sanash orqali ifodalangan asarlar kiradi.

M.Ye.Kaulen fikriga ko'ra, «muzeylashtirish – tiklash murakkab jarayon, saqlash va muzey maqsadlari uchun yodgorliklardan foydalanish va potensial ko'milgan ma'lumotlarni aniqlash»³¹⁴, Ye.A.Shulepova nuqtayi nazaridan esa, yodgorliklarni muzeylashtirish – meros muhofazasining ajralmas qismi bo'lib, madaniyat va tarixni dunyoni tushunish tamoyili sifatida, yodgorliklarni tadqiq etish, tiklash, saqlash va targ'ib qilishni o'z ichiga oladi³¹⁵.

Bu ikkita qutb o'rtasida «muzey sifatida» ekspozitsion komplekslar kiritadigan yodgorliklarga qo'shimcha ekspozitsion komplekslar kiritadigan yoki ekspozitsiyaga moslashtirilgan interyerda tiklangan interyer parchalari hamda to'liq zallarni aniqlaydigan aralash muzeylashtirishning oraliq shakllari juda ko'p bo'ladi. Ko'pincha imoratga jarayonning ajralmas qismi bo'lib borayotgan u yoki bu azaliy funksiyalari qaytarilmoqda.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: tarix va madaniyat yodgorliklari - bu odamlarning bilimlari va ongiga faol ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos tarixiy-madaniy hodisa, ya'ni tarixiy-madaniy muhitning bir qismidir. Ular ijtimoiy ongni shakllantirish va ijtimoiy xulq-atvorni rag'batlantirishning samarali vositasidir.

Asl yodgorliklarni himoya qilish haqiqiy tarix va madaniyatni bilishga qaratilgan, ramziy yodgorliklar yordamida monumental targ'ibot, odatda, tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmaydigan tanlangan g'oyalarni targ'ib qilishdan iborat. Natijada, ular ijtimoiy natijalarga qarshi turishga olib keladi.

Yodgorliklarni muhofaza qilish tarixan vujudga kelgan shart-sharoitlarga va rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ega, bu esa

³¹⁴ Каулен М. Е. Музей-заповедник как единый экспозиционный комплекс (на материале концепции музеефикации территории и памятников музея-заповедника «Коломенское») // На пути к музею XXI в. Музеи-заповедники: Сб. ст. – М.: НИИК, 1991. – С. 173.

³¹⁵ Шулепова Э. А. Музеефикация памятников как механизм использования культурного наследия в регионе: дисс. ... докт. Культурологи. – М., 1998. – С. 56.

uning holatini bosqichma-bosqich va sifatli o'zgarishida aks etadi va biz yaratgan davrlashtirishda qayd etiladi. Madaniy merosga juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish mustaqil O'zbekistonning milliy ma'naviyatini rivojlantirish uchun uni saqlash va undan samarali foydalanish zarur, negaki unda xalqning asriy rivoji, uning tarixi, ijtimoiy va madaniy aloqalari, fan, san'at va ishlab chiqarishda erishilgan yutuqlarning ming yilligi to'plangan. Madaniy meros ham madaniy, ham ijtimoiy rivojlanish avlodlari o'rtasida meros sifatida qolishlikni ta'minlaydi.

Muzeylashtirilgan tarixiy shaharlarning bugungi ahamiyati ulardagi me'moriy majmualar, ansambllar va alohida go'zal inshootlarning mavjudligi bilangina ifodalanmay, balki ushbu binolarning umrboqiyligi qay darajada ta'minlanishi bilan ham ahamiyatlidir. Hozirda bu masala dolzarb muammo, chunki bunda ko'p manfaat bor: birinchidan, tarixiy shaharlarimizda xalqqa xizmat ko'rsatish uchun yangi binolar qurishga yetarli joyning zarur yerdan topilishi qiyin, joy topilganda esa mablag' yetishmaslik holatlari arxiv hujjatlari, xorijiy manbalar va tadqiqot jarayonidagi kuzatuv ishlari jarayonida atroflicha yoritib berish, mutaxassislar fikrini aniqlashtirish muhimdir.

Tarixiy shaharlar muhitida yangi binolar qurish katta me'moriy javobgarlik va o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi va bu ish hamma vaqt ham shaharsozlik foydasiga hal bo'lavermaydi. Ko'rinib turibdiki, bu maqsadda me'moriy obidalaridan to'g'ri foydalanish, ularning hayotini umrboqiy qilish ijtimoiy, ayniqsa, shaharning iqtisodiy masalalarini samarali hal qilishga yordam beradi. Eng muhimi, bunday shaharlarga tashrif buyurgan sayyohlar juda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladilar, zero ularning asl maqsadi ham mazkur vatan va xalq madaniyati, tarixini jonli an'analarda ko'rib tushinishdir. Demak, me'moriy yodgorliklarimizni saqlab qolish, muzeylashtirish, ekspozitsiya loyihalarini chuqur o'rganish va tashkil etish ulardagi umrboqiylikni oshirishning samarali va tejamli yo'llaridan biri, bu esa me'moriy yodgorliklarda amaliy maqsadlar uchun foydalanishga imkon yaratishdir.

Ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning zamonaviy yo'nalishlari

Muzeylashtirish – moddiy madaniy yoki tabiiy obyektlarni maksimal darajada saqlash va ilmiy, badiiy ahamiyatini aniqlash maqsadida ularni muzey namoyishi obyektlariga o'zgartirishdan iborat muzey faoliyatidagi yo'nalishdir. U muzeyshunoslik faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida fanlar aro tegishli o'rinni egallamog'i lozim³¹⁶.

Ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlariga me'moriy va arxeologik yodgorliklar kiradi. O'zbekiston Respublikasi moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va muzeylashtirish masalalarini hal qilish zarurati yil sayin oshib bormoqda va bu holat tarixiy-arxeologik, me'moriy yodgorliklarini vayron bo'lish tahdidini o'sib borishi bilan bog'liqdir. O'tmish yodgorliklarini saqlash va o'rganilish tarixi tahlili, moddiy madaniy merosning shakllanish evolyutsiyasini kuzatib borish, asosiy muammolarni keyinchalik o'rganish yo'llarini belgilash va ularning kam o'rganilgan tomonlariga e'tibor berishga imkon beradi.

Muzeylashtirishning maqsadi esa yodgorlikni tarixiy-madaniy, ilmiy, badiiy qimmatini aniqlash va saqlashdan iborat. Muzeylashtirish tushunchasini birinchi bo'lib 1920-yillarda F.I.Shmit tomonidan qo'llanilgan bo'lib, boshqa terminlar, ya'ni «muzey ko'rinishiga keltirish» terminlaridan ham foydalanilgan³¹⁷. Ilmiy atamalarda uni muntazam qo'llash jarayoni vaqt o'tishi bilan madaniy meros obyektlarini tiklash va muzeylarni tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlarga nisbatan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, arxeologik, me'moriy, ya'ni ko'chmas yodgorliklarga nisbatan ishlatilgan. Ta'kidlash joizki, muzeylashtirish bo'yicha asosan Rossiya hududlarida juda keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O'z o'rnida rus tadqiqotchisi I.M.Mineyeva yodgorliklarni muzeylashtirish – muzey faoliyati va yodgorliklarni muhofaza qilish yo'nalishi bo'lib, uning mohiyati ko'chmas tarix, madaniyat yoki tabiat obyektlarini maksimal darajada saqlash maqsadida, ularning tari-

³¹⁶ Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – М.: Этерна, 2012. – С. 11-13.

³¹⁷ Шмит Ф.И. Музейное дело. Вопросы экспозиции: монография. – Л., Б. и., 1929. – 247 с.

xiy-madaniy, ilmiy, estetik qimmatini aniqlash va zamonaviy madaniy hayotga kiritishdan iborat deb ta'rif beradi³¹⁸.

Madaniy muhitning qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishlari sezilarli darajada tezlashib bormoqda. Shu munosabat bilan saqlab qolingani barcha ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish yo'li bilan saqlab qolish zarur.

M.Kaulen ko'p yillar mobaynida yodgorliklarni muzey obyektiga aylantirish bo'yicha amaliy va nazariy faoliyat olib borgan bo'lib, o'zining ishlarida merosning turli tiplarini muzeylashtirish yo'llarini ko'rib chiqqan va illyustratsiyalar orqali ko'rsatib bergan. U ko'chmas obyektlarni muzeylashtirish – faqat uni saqlab qolishdagi optimal variant bo'lmasdan, balki, bunday yodgorliklarni zamonaviy madaniyatga olib kirishdagi yagona yo'l ekanligini ta'kidlaydi. Bunday ta'riflar M.Kaulen tadqiqotida muzeylashtirish bu «tarixiy, madaniy va tabiiy obyektlarni tarixiy, madaniy va tabiiy obyektlarga aylantirishdan iborat muzey faoliyatining yo'nalishi bo'lib, ularning tarixiy, madaniy, ilmiy va badiiy qiymatini saqlab qolish va identifikatsiyalashni maksimallashtirish uchun xizmat qilishi tarzida ko'rsatib o'tiladi»³¹⁹.

Demak, muzeylashtirish jarayonini tashkil etuvchi voqea-hodisalarni M.Kaulen fikriga ko'ra, tiklashdek murakkab jarayonda saqlash va muzey maqsadlari uchun yodgorliklardan foydalanish, potensial ko'milgan ma'lumotlarni aniqlash bo'lsa³²⁰, Ye.Shulepova yodgorliklarni muzeylashtirish - meros muhofazasining ajralmas qismi bo'lib, madaniyat va tarix dunyoni tushunish tamoyili sifatida, yodgorliklarni tadqiq etish, tiklash, saqlash va targ'ib qilishni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi³²¹.

³¹⁸ Минеева И.М. История археологических исследований в музеях Южного Урала: дисс. ... канд. ист. наук: 07.00.06. – Уфа, 2001. 206 с. (Электрон. ресурс); Музейное дело России: монография / Под общ. ред. М.Е. Каулен, И.М. Коссовой, А.А. Сундиевой. – М.: ВК, 2010. 676 с.

³¹⁹ Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – М.: Этерна, 2012. – С. 11-13, 64.

³²⁰ Каулен М. Е. Музей-заповедник как единый экспозиционный комплекс (на материале концепции музеефикации территории и памятников музея-заповедника «Коломенское») // На пути к музею XXI в. Музей-заповедники: Сб. ст. – М.: НИИК, 1991. – С. 173.

³²¹ Шулёпова Э. А. Музеефикация памятников как механизм использования культурного наследия в регионе: дисс. ... докт. Культурологи. – М., 1998. – С. 56.

Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirishning dastlabki bosqichiga oid tadbirlarni belgilashda V.Fedorov birinchilar qatorida e'tibor qaratgan³²². Tadqiqotchi nuqtayi nazaridan bu bosqichda joyning tabiati, uning tabiiy va sun'iy yuzalarini o'rganish amalga oshiriladi, arxeologik qazishmalar olib borilgan joylari aniqlanadi; yog'ingarchilik miqdori qayd etiladi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan hududlar aniqlanib, ularning qadimiy inshootlarga ta'siri xarakteri aniqlanadi. V.Fedorovning fikricha, olingan ma'lumotlar tekshirilgan hududni qismlarga ajratish va ularning har birida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish tartibini belgilash imkonini beradi. Me'morlar va texnik mutaxassislarning ikkinchi Xalqaro Kongressi (Venetsiya, 1964) qarorlari³²³ga ko'ra, V. Fedorov qayd etishicha, «yodgorlikni o'zi joylashgan hududidan ajratgan holda saqlash mumkin emas, shuning uchun yodgorlikning ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi»³²⁴.

V.Alekseyev ta'rifi muvofiq, muzeylashtirish «madaniyat va tabiat hodisalarining barcha yo'qolib borayotgan yoki yo'q bo'lib ketgan shakllarini tiklab, bugungi va keyingi avlodlar uchun saqlab qolish», I.Ribakov nazariyasida, bu «vaqt va atmosferaning tarixan ishonchli tarzda qayta yaratilishi», A.Medvedning fikriga ko'ra esa, «tarix va tabiatning ko'char va ko'chmas yodgorliklarni muzey obyektiga aylantirish jarayoni»dir³²⁵. Boshqarishning o'ziga xosligi va ekologik omillarni keng qamrab olganligi tufayli mazkur ishda tabiiy merosni boshqarish ko'rib chiqilmaydi. Jahon va guruhlar (jamoalar) darajasidagi tarixiy madaniy meros ham moddiy, ham nomoddiy ko'rinishda iqtisodiy boshqarish obyekti bo'lishi mumkin, bunda jismoniy tashuvchining bo'lishi shart.

³²² Федоров В. И. Современные задачи консервации архитектурно-археологических памятников / В.И. Федоров // Сообщения НМС по охране памятников культуры МК СССР: Сб. ст. – М.: Знание, 1969. Вып. 4. – С. 7-13.

³²³ icomos-spb.ru/component/joomdoc/1964

³²⁴ Федоров В. И. Современные задачи консервации архитектурно-археологических памятников // Сообщения НМС по охране памятников культуры МК СССР. – М.: Знание, 1969. Вып. 4. – С. 12.

³²⁵ Алексеев В.П. Музееведение, музеефикация, культура // Вестник музейной комиссии. – М.: Наука, 1990. Вып. 1. С. 14-15.; Рыбаков И. Музей-заповедник «Абрамцево» по пути к возрождению. // Мир музея, – М., 1995. – № 3. – С. 5-13; Медведь А.Н. Музеефикация средневековых памятников археологии: дисс. ... канд. ист. наук: 24.00.03. – М., 1999. – С. 52.; Медведь А.Н. Музеефикация памятников археологии: монография. - Москва: ГНОМ и Д, 2004. – С. 47.

**Tarixiy madaniy merosdan iqtisodiy foydalanish
salohiyati uning turi va qadrliligi bo'yicha quyidagi
tasnifini tuzishga imkon beradi:**

Tasniflash belgisi	Meros turlari	Misollar
Meros turi	Tabiiy meros	Insonning ishtirokisiz yaratilgan obyektlar, landshaft, tabiiy yodgorliklar, shuningdek, biologik turfa xillik.
	Moddiy tarixiy-madaniy meros	Kishilarning o'tmishdagi avlodlari tomonidan yaratilgan, vaqt sinovidan o'tgan va bugungi avlod tomonidan o'z manfaatlari hamda kelgusi avlodlar manfaatlari nuqtayi nazaridan qadrlanadigan, e'zozlanadigan moddiy obyektlar.
	Jismoniy tashuvchisi bo'lgan nomoddiy tarixiy-madaniy meros	Moddiy madaniy merosning yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan u yoki bu asboblari, ashyolar, artefaktlar yoki madaniy makonlar bilan bog'liq axborot, urf-odatlar, tasavvur shakllari, ifodalar, bilimlar va ko'nikmalar.
	Jismoniy tashuvchisi bo'lmagan nomoddiy tarixiy-madaniy meros	Mavjud bo'lishi jismoniy tashuvchi bo'lishini taqozo etmaydigan og'zaki an'ana, folklor va nomoddiy tarixiy-madaniy merosning shunga o'xshash unsurlari.
Merosning qadrlilik darajasi	Jahon	Merosning qadrliligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etiladi.
	Guruhiy (jamoaviy)	Insonlar guruhi uchun qadr-qiymatni ifodalovchi meros (davlat, millat, etnik guruh, mintaq, shahar va h.)
	Yakka	Faqat yakka inson uchun qadrliligi bo'lgan meros.

XX asrning ikkinchi yarmida muzeylashtirish atamasi muzeyshunoslik sohasida moddiy madaniy merosni qayta tiklash bo'yicha keng miqyosdagi ishlar va qo'riqxonamuzeylar tashkil etish davrida qaror topgan. Mazkur davrda muzeylashtirishni ikki shakl: ekspozitsiya va muzey xizmatida foydalanish hamda yodgorlikni muzey namoyishining mustaqil obyekti aylantirishga ajratish qabul qilingan edi. Muzeylashtirishni qanday qilib, qaysi omillarga tayanib amalga oshirish mumkinligi, yodgorlikning turi, uning moddiy madaniy ahamiyati va holatiga qarab aniqlanadi.

Ta'kidlash joizki, ko'chmas obyektlar ichida ko'p hollarda me'moriy yodgorliklar muzeylashtirilgan. Bunday yodgorliklar asosida yaratilgan va tobora ko'payib, tomoshabinlar sonini orttirayotgan ansambl va muhitli muzeylarning solishtirma vaznining uzluksiz ravishda o'sib borishi zamonaviy muzey olami rivojlanishining muhim tamoyilidir. Shuning uchun qo'riqxonamuzeylar asosida paydo bo'layotgan yangi turdagi kompleks muzeylar va megamuzeylarni shakllantirishda muhit fragmentlaridan foydalanish, merosning moddiy va nomoddiy obyektlarini sharhlash, ularni tanlab olish, saqlash va muzey holatiga keltirish bilan bog'liq o'tkir muammo paydo bo'lmoqda. Madaniy turizm ham moddiy madaniy merosni saqlash, ommalashtirish va undan foydalanishning usuli sifatida ishtirok etadi. Hozirda soha mutaxassislari orasida ko'chmas yodgorliklarni muzeylashtirishga bo'lgan qiziqish ham juda yuqori. Buni tez o'zgaruvchan dunyoning muzeyga bo'lgan ehtiyojini keskinlashayotgani bilan tushuntirish mumkin.

O'rganilayotgan tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, muzey tushunchasini ta'rifi qanday bo'lsa ham ko'pincha mualliflar hamon «ko'chma obyektlar» bilan cheklaydilar. Arxeologik yodgorliklar, landshaftlar, hududlarni muzeylashtirish muammolari muzeyshunoslik bo'yicha o'quv adabiyotlarda o'z aksini umuman topmagan. Bunga sabab ko'chmas meros muammolari ko'proq muzeyshunoslar tomonidan emas, «muzey foydalanishiga moslashtirish» – yodgorlikdan foydalanishning mumkin bo'lgan shakllaridan biri bo'lgan, yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar va me'morlar tomonidan muhokama qilinib kelingan.

Moddiy madaniy va tabiiy muhit merosning nomoddiy obyektlarini muzeylashtirish bilan shug'ullanuvchi muzeylarga tegishli «muhit muzeyi», «an'ana muzeyi» kabi atamalar paydo bo'ldi. Muzey nazariyasi va amaliyotida muzeylashtirish atamasi ko'pincha tor ma'noda, muhitning o'zida muzey obyektlariga aylantirilgan ko'chmas yodgorliklarga qaratilib qo'llaniladi. Bu holda «muzey muhiti» yodgorlikning o'zida va yon atrofida yaratilsa, yodgorlikning o'zi esa barpo bo'layotgan muzeyning bosh eksponati bo'ladi. Muzeylashtirish bilan bog'liq atamali muammolardan biri – bu «qaysi yodgorlikni «ko'chma» deb atash lozim?» degan muammodir. «Ko'chma» va «ko'chmas» obyektlar o'rtasidagi chegara tobora yemirilib bormoqda. Me'moriy yodgorliklar joydan joyga ko'chirilmoqda, muzeylarda ochiq osmon ostida kolleksiyalar shakllantirilib, doimiy yoki tematik ekspozitsiyalar qurilmoqda. Ko'chmas yodgorliklardan tashqari, xotira joylari, yodgorlik maqomiga ega bo'lmagan xususiy va tabiiy obyektlarni muzeylashtirish, yodgorlikni muhofaza qilish va undan foydalanishning qulay uslubi sifatida tushunilmoqda. Muzeylashtirilgan moddiy madaniy meros o'z muhiti bilan bog'liq bo'lib, boshqa joyga ko'chirilganda uning ahamiyati o'lchab bo'lmas darajada tushib ketadi, o'zaro bog'liqligi uziladi va informatsion ahamiyati kamayadi. Shu bilan bir vaqtda yodgorliklar mintaqaning moddiy madaniy muhitini shakllantirish va mahalliy aholining o'zini-o'zi identifikatsiyalashining asosi bo'lib, shu hamjamiyat uchun hatto davlat miqyosida unchalik ahamiyatli bo'lmagan madaniy boyliklarni ham muzeylashtirish katta ahamiyatga ega bo'lmoqda³²⁶.

Tadqiqotchilar qarashlarining muayyan izchilligi tadqiqotlar kesimida ifoda etilgan muzeylashtirishning muhim mezonlaridan biri, arxeologik yodgorlikni muzey ko'rgazmasi obyektiga aylantirishda, o'zining tarixiy joyida ko'rsatishdan iborat. Chunki u joylashgan yeri, atrofidagi tabiat muhiti, yonidagi arxeologik obyektlar unga bevosita ta'sir qilib, uning o'ziga xosligi va betakrorligini ko'rsatib beradi³²⁷. Afsuski, u yoki bu yodgorlikni muzeylashtirish

³²⁶ Музейное дело России... – С. 366.

³²⁷ Булатов Н.М. Принципы организации археологических музеев-заповедников // Вопросы

usuli haqidagi loyihalar, ko'pincha obyekt joylashgan yerning tarkibi, holati, xususiyati, shuningdek, restavratsiyaning texnologik imkoniyatlari va ularning qo'llanilish oqibatlarini hisobga olmagan holda qabul qilinmoqda.

Madaniy merosni muhofaza qilish masalasini o'rganishda tarixiy va nazariy-uslubiy yo'nalish yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi yo'nalish madaniy merosni o'rganish tarixini o'z ichiga olsa, ikkinchisi esa, terminologiya sohasidagi nazariy ishlanmalarni, yodgorliklarni baholashning ilmiy mezonlarini, fanlararo bilimlarning turi sifatida qadimiy narsalarni qo'riqlash sohasining tavsifini qamrab oladi. Hozirgi adabiyotlar dunyoda yangi madaniy mo'jiza (fenomen) – madaniy va tabiiy meros sohasida ta'lim berishning paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Yodgorliklar – tarixiy xotirani shakllantirishning yo'nalishlaridir. Ayniqsa, o'tmish qadriyatlari haqidagi qarashlarini shakllantirish va ularni asrab qolishda yodgorliklarning o'rni juda kattadir. Yodgorlik:

1) tarixiy ijtimoiy kommunikatsiyada ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotni uzatish yoki dolzarblashtirishni amalga oshirish uchun o'tmishda sodir bo'lgan muayyan voqelikka retsiptiyentni yo'naltiruvchi belgidir;

2) huquqiy sohada – jamiyat uchun alohida qiymatga ega bo'lgan madaniy va tabiiy meros obyektlariga beriladigan maqom.

Xalqlarning yodgorliklari yakka obyektlar, ansambllar, diqqatga sazovor joylar, o'z ahamiyatiga ko'ra – federal, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga ega obyektlar va mulkchilik shakliga ko'ra – davlat, munitsipal va xususiylarga bo'linadi. Yodgorliklar tipologik jihatdan arxeologiya, tarix, me'morlik va mahobatli san'at turlari bo'lib, ular madaniy meros obyektlarining yagona davlat reyestriga kiritiladi. Yodgorliklarni muhofaza qilish davlat tomonidan kafolatlanishi ham huquqiy jihatdan asoslangan³²⁸.

охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры: сб. ст. – М., Б. и., 1975. Вып. III. – С. 77-79; Николаева Н.С. Особенности музейфикации археологических памятников // Музей в современной культуре: Сб. ст. – СПб: Изд-во СПб. ГАК, 1997. – С. 205-211.

³²⁸ Ўзбекистон Республикасининг 30.08.2001 й. 269-II-сон «Маданий мерос объекtlарини мухофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида»ги Қонуни.

Yodgorliklarni muhofaza qilish deganda merosni asrash va dolzarblashtirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnikaviy va boshqa choralar tizimi tushuniladi. Yodgorlikning tabiiy buzilishi, shikastlanishi yoki nobud bo'lishining, qiyofasi o'zgarishining, foydalanish tartibini buzilishini oldini olish maqsadida quyidagilar amalga oshiriladi:

- yodgorliklarni aniqlash, o'rganish va hisobga olish;
- ularning asralishini ta'minlash (jumladan, konservatsiyalash, ta'mirlash, foydalanish uchun moslashtirish, ilmiy-tadqiqot, loyihalashtirish va ishlab chiqarish ishlari);
- saqlanishini va foydalanilishini nazorat qilish;
- qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish;
- yo'qotilgan yodgorliklarni qayta tiklash (obyekt alohida ahamiyatga ega bo'lgan favqulodda holatlarda).

Yodgorliklarni muhofaza qilish davlat hokimiyati organlari va davlat subyektlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari tomonidan jamoatchilik tashkilotlari va diniy tashkilotlar yordamida amalga oshiriladi hamda davlat subyektlari, mahalliy byudjetlar, shuningdek byudjetdan tashqari tushumlar hisobidan moliyalashtiriladi.

Hozirgi tadqiqotlar xalqaro darajadagi talablarga mos keluvchi tarixiy-madaniy merosni asrash borasidagi yangi metodikalar asosida amalga oshirilmoqda. Keyingi istiqbolda madaniy merosni asrash masalasi tarix va madaniyat yodgorliklari joylashgan noyob hududlarni yaxlit holda jonlantirish, an'anaviy xo'jalik yuritish va tabiatdan foydalanish muammolarini oqilona hal qilishni taqozo etadi. Jamiyat o'z milliy boyligini asrash zarurligini anglab yetsagina, yodgorliklarni asrash bo'yicha hayotbaxsh qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga joriy qilinsa, mahalliy madaniy meros jahon merosining to'laqonli tarkibiy qismiga aylanadi.

Jahon moddiy madaniy merosni saqlashning xorijiy tajriba doirasiga mos tushadigan tamoyili – tabiiy landshaft sharoitlarida arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirishdir. Ko'chmas yodgorliklar bilan bog'liq muammolar orasida asosiy e'tibor ularning konservatsiya va muzeylashtirilishiga qaratiladi. Ochiq maydonlardagi

yodgorliklardan uzoq vaqt mobaynida foydalanish va saqlash masalalari – ilmiy-tadqiqot, muhandislik-texnik hamda yuridik xarakterga ega juda murakkab, bir-biri bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Uning zamonaviy yechimini topishdagi eng optimal variant arxeologik muzey – qo'riqxonalarini yaratish hisoblanadi³²⁹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, xorijiy davlatlarida loyihalashtirilib, amalga oshirilgan ishlar ko'rib chiqildi. Masalan, Slovakiyaning muzeylashtirish amaliyotida Rusovisa hududida joylashgan Gerulata shahristonida mutaxassislar tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash borasida loyihachilar so'zsiz muvaffaqiyat qozonganliklarini ta'kidlaydilar³³⁰. 1965-70-yillarda bu yerda arxeologlar tomonidan qazish ishlari olib borilganida, eramizning I-IV asrlarida hukm surgan Rim imperiyasi davriga oid mahobatli me'morchilik inshootlari qoldiqlari va slavyan uylarining toshdan qilingan fundamentlari topilgan. Slovakiya olimlarining arxeologik topilmalari bo'yicha hisobotlarida, Gerkulata Rim imperiyasi davrining saqlanib qolgan yagona yodgorligi ekanligi ta'kidlangan. Arxeologik yodgorlikning noyob qimmatini hisobga olgan holda, uni muzeylashtirish va turistik kompleks tashkil qilishga qaror qilindi³³¹.

1954-yilda Chexiya hududida Morava daryosi sohilidagi Mikulchisa qishlog'ida, eramizning VII asrlariga mansub, 200 gektar yerni egallagan slavyan shahristoni topildi. Xristian diniga oid 12 ta qurilmaning 5 tasi knyaz qasri hududida, qolganlari chekkaroqda joylashgan. Ibadatxonalarning atrofida turistik axborot yo'lakchalar qilingan. U yerdagi inshootlarning usti yengil konstruksiyalar bilan yopilib, muzeylashtirildi. Shu yerdan topilgan eksponatlar vitrinalar ichida namoyishga qo'yilgan. Beton devorchalar bilan shahriston hududining atrofi o'rab chiqilgan³³².

³²⁹ Гарбер М. И. Из опыта музеефикации памятников археологии за рубежом. // Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры: – М.: НИИ культуры, 1982. – С. 115.

³³⁰ Schwarczowa A. Gerulata. «Projekt», 1975, 188 (6). 23-25.

³³¹ Гарбер М. И. Из опыта музеефикации памятников археологии за рубежом. // Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры: – М.: НИИ культуры, 1982. – С. 117.

³³² Poulik J. Archeologicke objevy a Velika Morava, «Architektura CSSR», 1963, №10, – S. 612-615.

Angliyadagi Kent shahrining chekka joylarida olib borilgan arxeologik qazilmalar jarayonida Rim villalarining qoldiqlari topilgan. Qator ilmiy tadqiqotlar olib borilganidan so'ng, topilmaning muzeylashtirish loyihasi ishlab chiqildi. Bunda obyektning ustiga, qazilma ishlari olib borilgan saqlov zonalarining chegaralarini ham qamrab oluvchi pastqam tom bilan yopilgan yog'och pavilon qurildi. Maksimal darajada tabiiy yorug'lik bilan ta'minlash maqsadida, tom va devorlar aspoblitlar bilan uyg'unlashtirilgan shaffof oynasifat katta hajmli materiallar bilan qoplangan. Konstruktiv jihatdan pavilon uchta bir-biriga o'xshamagan portal oraliqlariga ega bo'lib, ularning markazdagisi eng uzuni, yon tomondagilari kaltaroq, lekin har xil uzunlikda qilingan³³³.

Keyingi yodgorlik Qadimiy Sharqiy Irlandiyaga mansub bo'lib, tosh asrining Nyugreyndj yodgorligi hisoblanadi. U Boyn vodiysidagi Mit grafligida joylashgan. Gizadagi Piramida hamda Stounxenjdand oldin, ya'ni taxminan 5200 yil avval qurilgan. Nyugreyndj aylana shaklidagi 85 metrli tepalikni hosil qilgan, diametri 13,5 metr, balandligi 19 metr. Qo'rg'on 97 ta katta bordyur toshlari bilan o'ralgan, ularning ba'zilarida megalit san'ati nomini olgan ramzlar chizilgan. Bu obida bugungi kundagi ochiq osmon ostidagi muzey bo'lib YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan³³⁴.

Muzeylashtirishning yana bir turi sifatida 1980-yilda Parijda ochilgan Notr-Dam-de-Parining Arxeologik kriptasini olish mumkin. Bu yodgorlik Site orolida qurilish ishlari boshlanayotganda yer ostidan topilgan. 1965-72-yillarda arxeologik tadqiqotlar o'tkazilib, u yerdan qadimiy binolarning lavhalari topilgan. Olimlar ularning eng qadimiysi Antik davrga mansub ekanligini aniqlashgan. Bino qoldiqlari atrofi sun'iy yoritgichlar bilan yoritilib, atroflariga vitrinalar qilinib, ichiga shu yerdan topilgan eksponatlar namoyishga qo'yilgan. Bu yerda mamlakat va shaharning ko'p asrlik madaniy merosidan darak beruvchi eksponatlar mavjud. Uning ko'pqirrali kolleksiyasi noyob hisoblanadi. Tomoshabin yer ostidagi muzeyga

³³³ Bedford. Pavilion for Roman excavations, «Wood», 1963, vol. 28, № 5. – P. 192-194.

³³⁴ Fagan B. Neolithic Newgrange // Archaeology. 1994. V. 47. № 5. <https://www.newgrange.com>).

kirganda, o'sha davr muhitini his qiladi. Bunga informativ xarakterga ega slayd-shou, audio kommentariylar, interaktiv dasturlar yordam beradi³³⁵.

Bu kabi tajribalarni Gretsiya misolida ko'radigan bo'lsak, yuqoridagi muzeylashtirilgan yodgorliklardan tubdan farq qiladi. Santorini Tera orolidagi Akrotiri arxeologik yodgorligi eramizdan avvalgi 1450-yilda vulqon ostida qolib ketgan. 1860-yillarda Sues kanalini qurish uchun ishchilar vulqon kullarini olmoqchi bo'lganlarida mana shunday qadimgi shahriston qoldiqlariga duch kelishgan. Qazish ishlari 1967-yilda Afina universiteti professori Spiros Marinatos rahbarligida boshlangan. Olimlarning fikriga ko'ra, Akrotirida ochilgan 40 ta bino qoldiqlari hududning atigi 1/30 qismini tashkil etadi. Bu yodgorlikning ustini yopishda temir, yog'och, oyna kabi materiallardan foydalanilgan. Obidalarga putur yetkazilmaslik uchun, uning atroflariga tomoshabinlar yurishiga alohida yo'laklar qilingan. Eng asosiysi bu yerda imkon qadar davr muhitini saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilgan.

Yuqoridagi obyektlarning barchasi muzey ishi talablariga mos tarzda muzeylashtirilgan. Lekin ularda qo'llanilgan uslublar bir birini takrorlamaydi, chunki arxeologik obyektlar turli holatlarda bizgacha yetib kelgan. Masalan, Yevropa mamlakatlaridagi obidalarining qurilish materiallari asosan marmar, tosh va g'isht bo'lib, ko'p hollarda ularning aksariyat qismi yer ustida bo'lgan. O'rta Osiyo mamlakatlaridagi qadimiy obidalarda, asosan paxsa devorlar keyinchalik esa g'isht ishlatilgan bo'lib, ularning katta qismi yer ostida qolib, tepa qismlari tuproq ostida qolib, tepaliklarga aylanib qolgan. Shuning uchun ularni muzeylashtirish juda qiyin, chunki bir necha gektarni egallab turgan yodgorliklarni ustini modern stilida yengil konstruksiyalarni qo'llagan holda, gumbaz yoki arkalar yordamida yopish kerak bo'ladi. Buning uchun juda tajribali konstruktor, arxitektorlar kerak. Shuningdek, bunga juda katta mablag' talab qilinadi. Sababi, ustini yopishda qo'llaniladigan material avvalam-

³³⁵ Fleury M., Kruta V. La crypte arceologique du parvis Notre Dam. Paris, 1990; [https://commons.wikimedia.org/wiki/File:La_crypte_archeologique_du_Parvis_de_Notre-ame_\(Paris\)_8274683584.jpg](https://commons.wikimedia.org/wiki/File:La_crypte_archeologique_du_Parvis_de_Notre-ame_(Paris)_8274683584.jpg)).

bor laboratoriya tekshiruvidan o'tkazilib, so'ng tanlanadi. Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladigan materiallar O'zbekistonning iqlim sharoitiga deyarli to'g'ri kelmaydi. Bunga sabab ularning eng baquvvati – 60° dan +50° gacha chidaydi.

Ko'rib chiqilayotgan muammo uchun arxeologik obyektning eng muhim xususiyati shuki, uni muzeylashtirish yodgorlikdan foydalanishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Lekin, bu borada ilmiy uslub oxirigacha ishlab chiqilmagan, to'plangan tajribani aynan muzey ishi pozitsiyasidan jiddiy ravishda umumlashtirish talab qilinmoqda.

Yodgorliklarni hisobga olish, fondlarni, arxeologik kartalarni yaratish – vayron bo'lishdan saqlashga yo'naltirilgan oldini olish choralari o'zida ifoda etadi. Lekin, bu chora-tadbirlar yodgorliklarni informatsion salohiyatini ta'minlay olmaydi. Shunga muvofiq, muzeylashtirish – bunday yodgorlikni madaniy muhitga kiritishning yagona yo'lidir. Bir vaqtning o'zida u muhofaza qilish muammosini yechish imkonini beradi, negaki arxeologik qazilmalardan so'ng obyekt talafot ko'radi, ya'ni yemiriladi, o't bosib ketadi va ko'milib ketadi. Nihoyat tiklab bo'lmas darajaga kelganda, obyekt muhofaza qilish ro'yxatidan chiqarib tashlanadi. Aksariyat arxeologik obyektlarni muzeylashtirishning o'ziga xosligi, ularni boshqa hududga tashishning imkoni yo'qligidir. Arxeologik yodgorlik faqatgina topilgan joyining o'zidagina muzeylashtirilishi mumkin.

Ko'chmas arxeologik obyektlarni muzeylashtirishning bosqichlariga qazilmalar, konservatsiyalash, yaqinlashish yo'llarini obodonlashtirish va ekspozitsion izohlashning boshqa turlari kiradi. Muzey namoyishi uchun arxeologik yodgorliklarni tanlashda obyektlarning bir nechta turlari ajratib olinadi. Bu o'rinda V.I.Fedorov³³⁶ tadqiqotlarida tarixiy-madaniy meros obyektlarini tanlab olingan holatda, muzeylashtirish tizimi asoslariga ilmiy yondashilgan nazariyalar tizimlashtirilgan. Arxeologiya yodgorliklarini muzeylashtirish jarayonida konservatsiya va restavratsiya ishlariga qo'yilgan umumiy talablarni aniqlash hamda shakllantirishga harakat qilinadi. Buning

³³⁶ Федоров В.И. Некоторые вопросы методики консервации каменной кладки. – М.: Знание, 1965. Вып. 1. – С. 9-15.

uchun mualliflar quyidagilarni qilish zarurligini ta'kidlaydilar: 1) barcha qazilgan arxeologik inshootlar zudlik bilan mustahkamlanishi lozim, har bir qurilish ashyosi, hattoki bir xil materialdan qilingan qoldiqlarning mustahkamlanishi uchun ham alohida konservatsiya uslubi talab qilinadi; 2) arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirishdagi konservatsiya metodikasi me'moriy yodgorliklarnikidan farq qilishi lozim; 3) qazib chiqarilgan inshootlarning uzoq muddatli konservatsiya jarayoni va ularni muzey ko'rgazmasi uchun tayyorlash, aniq metodik prinsiplarni ishlab chiqishni talab etadi; 4) har bir metod muayyan vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim; 5) arxeologik yodgorlikni uzoq muddat saqlash muammolarining yechimi majmuaviy (kompleksli) hal qilinishi kerak.

Arxeologik yodgorliklarga asosan ko'hna shahar va qishloqlar, manzilgohlar, eski qabristonlar, sug'orish tizimlari, ishlab chiqarish – hunarmandchilik majmui, ya'ni qadimgi odamlar hayoti va faoliyatining barcha asosiy lahazarini har tomonlama yoritish imkonini beruvchi komplekslar kiradi. Shuningdek, arxeologik obyektlarga alohida qurilmalar, jumladan, arxeologik yodgorliklar tarkibidagi mavjud obyektlar ham kiradi. Arxeologik topilmalar arxeologik yodgorlik va obyektning barcha ko'chma qismi hisoblanadi. Qadimdan yodgorliklar ichida qoyaga chizilgan tasvirlar alohida o'rin egallaydi. Bu yodgorliklar arxeologik yodgorliklarga qarashli bo'lsa-da, biroq, ular qazilmalar bilan bog'liq emas. Petrogliflar o'ziga xos attraktivlik (predmetning tashqi tomonini, uning tomoshabinlarni o'ziga jalb qila oladigan xususiyatlarini (rangi, shakli, hajmini) ta'riflaydi) va ekspressivlik (predmet o'zining ma'lum bir tarixiy voqea, fakt, jarayonlar bilan bog'liqligi bilan tomoshabinni o'ziga jalb qiladi) xususiyatiga ega bo'lib, tomoshabiniga kuchli ta'sir o'tkazadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ba'zida qoya yoki bino devorlarga chizilgan tasvirlarni muzeylashtirish ularga ziyon yetkazadi. Masalan, Fransiyaning janubiy-g'arbida joylashgan 17000 yillik tarixga ega bo'lib, Lasko g'orlariga chizilgan qoya suratlari ko'p tomoshabinlar kirishi natijasida, harorat-namlik tartibi o'zgarib, salbiy o'zgarishlar yuzaga kelgan. Ya'ni, ular mog'or zamburug'lari bilan qoplanib, namlangan boshlagan. Lasko yodgor-

ligiga 2001-yildan boshlab tomoshabinlarning kirishi taqiqlangan. Maxsus ruxsatnoma bilan kuniga beshta olimning kirishiga ruxsat beriladi xolos.

Samarqanddagi Afrosiyob shahristonining devoriy suratlarida ham shu hodisa kuzatilgan³³⁷. Bunday muammolardan kelib chiqqan holda, muzeyga keluvchilarga yodgorlikni namoyish etish usullarini atroflicha o'ylab ko'rishlari zarur.

Toshli arxitekturaning muzeylashtirishda asl va komponovkasi batamom bitirib qo'yilgan qatorlar o'rtasidagi chegarani belgilagan holda taxlamning tepa qatorlarini ma'lum darajagacha oshirishadi yoki boshqa joyga olib qo'yishadi. Komponovkani batamom bitirish usuli yodgorlikning faqatgina informatsion salohiyatini ochib berish darajasini oshirish va uning «ekspozitsionligini» kuchaytirish rolini o'ynabgina qolmay, balki, uni yanada attraktiv (o'ziga tortuvchan) va tomoshabinlar uchun tushunarli bo'lib, sementga quyiladigan ustki qavat taxlamni mahkam qiladi va uni buzilib ketishidan asraydi. Hozirgi vaqtda arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirishda ko'proq saqlanib qolgan qismlar, qazilma ma'lumotlar va shunga o'xshashlarni jalb qilish asosida qurilmani to'ldirish barpo qilishga asoslangan rekonstruksiya usulidan foydalanishmoqda. Muzey nuqtayi nazaridan samarali bo'lgan bu usul ko'pgina mutaxassislarning salbiy munosabatiga uchramoqda. Arxeologik yodgorlikning tashrif buyuruvchilarning keng doirasi uchun qiziqarli va tushunarli bo'lishi arxeologik muzeyning eng muhim vazifalaridan biridir. Aynan ushbu masalani yechimini topishning eng amaliy natija beradigan yo'li esa qayta tiklashlarni qo'llash hisoblanadi.

Bundan tashqari, yodgorlikni shahar organizmiga kiritishning turli usullari mavjud. Ba'zi obyektlar muzeylashtirilsa, boshqalari binolarning yerto'lalari, shahar parklari, metro bekatlari va yer osti o'tish joylarida saqlaniladi. Qadimgi odamlarning hayoti va faoliyati namoyandalarini butun yig'indisini o'rganish imkoniyatini beruvchi, ochiq osmon ostidagi arxeologik qo'riqxonalar-muzeylarni tashkillashtirgan holda arxeologik yodgorliklarni kompleks ravish-

³³⁷ Настенные росписи «Зала послов» в Музее Афрасиаба. <http://bellabs.ru/afraasiab/index.html>.

da muzeylashtirish – hozirda muzeylashtirishning eng takomillashgan shaklidir. Biroq, hanuzgacha arxeologik ekspeditsiya, odatda, ishning oddiy bo'lgan ko'rinishlarini bajarib, qazilmalarni ochiq qoldiradi hamda muzeylashtirish masalalari bilan shug'ullanishni muzeyning o'ziga topshiradi. Buning uchun muzeyda ko'p hollarda tegishli tayyorgarligi bor mutaxassislar yo'q. Shu bois ham bugungi kunda arxeologlar, restavratsion ustaxonalar va muzey mutaxassislardan tuzilgan brigadalarni tashkil qilish istiqbolli yo'l bo'lib muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirda muzeylashtirish kerak bo'lgan yodgorliklarni qazib olishning maxsus uslublarini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. Ular qazilmalardan tuproqni olib tashlash, qazilma devorlarini mahkamlash yoki tik devorlarni og'ma devorlar bilan almashtirish kabi usullarni o'z ichiga olgan bo'lib, o'pirilish xavfini bartaraf qilish, qazilmaga yanada tabiiy ko'rinish berish va ko'rinishini yaxshilashga chaqirilgan. Quduqlar, suvni qaytaradigan kanallarni qurish yo'llari orqali qazilmalar yomg'ir va erigan suvlardan saqlanadi.

Agar yodgorlikda bir-birini yopib qo'yadigan turli vaqtlarga mansub bir qator obyektlar bo'lsa, ularni shunday eksponatlash-tirishga harakat qilinadi. Bunda bitta qazilma chegarasida turli vaqtlarga mansub obyektlar tizimini namoyish qilgan holda yodgorlikning tarixiy rivojlanish surati aniq va ravshan bo'lishi kerak. Sodda bo'lsa ham lekin samarali bo'lgan yana bir yo'li – alohida qazilmalarda faqat birgina davrga mansub obyektlarni ko'rsatish lozim bo'ladi.

XX asrning 90-yillarida yodgorlik namoyishiga o'yin lahzasini olib kirish, tashrif buyuruvchini madaniyat paradigmasiga kiritish, harakat orqali unga o'yinni qo'shish, qadimgi odam turmush tarzining modelini yaratishni anglatuvchi «jonli arxeologiya» tushunchasi paydo bo'ldi. Xorijda bolalar va yoshlar bilan sivilizatsiyadan uzoqda, ibtidoiy jamoaning qayta tiklangan sharoitlarida olov topib, boshpana qurib, ovqat tayyorlagan holda bir necha kun mobaynida yashab kelish kabi safarga chiqishlar amalda tatbiq etiladi.

Bugungi kunda muzeyshunoslikda ishlab chiquvchi mutaxassislardan oldida turgan aniq va murakkab muammolardan biri boshqa

o'xshash yodgorliklarning amaldagi modellari xavfsizligini ta'minlashdan tortib, to to'plamlarni yig'ishgacha bo'lgan muammolar hisoblanadi. Biroq muammoni o'rta qo'yishning barvaqtligi va professionalligi birinchi navbatda ijtimoiy loyihalashtirish masalalarini yechishga bo'lgan intilishning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Afsuski, hatto aniqlash va saqlash muammolari bilan tenglashtirganda industrial merosni ekspozitsion izohlash muammolari hali sust darajada ishlab chiqilgan. Ishlab chiqaruvchi jarayonlarni sun'iy yaratilgan muzey sharoitida namoyish qilish, izohlash va saqlash usullari eng murakkab bo'lsa ham, nihoyatda qiziqarlidir.

Qo'riqsona-muzeylarda an'anaviy madaniyatni biz tabiiy muhitga yuqori darajada yaqin, o'rab olgan sharoit bilan uyg'un bo'lgan holda qabul qilamiz. Nihoyat muzey, aynan uning tarixiy shakllarida yanada aniq qilib qayta tiklashga imkon beradi.

Tadqiqot jarayonida ko'p olimlar arxeologik obyektlarni muzeylashtirmaslik tarafdori ekanligi aniqlandi. Ularning fikricha yer ostidagi yodgorliklarni ochmasdan, kelajak avlod o'rganishi uchun qoldirish kerak³³⁸. Agar ular tuproqdan tozalanib, usti turli konstruksiyalar bilan yopilsa, umri qisqaroq bo'ladi deb hisoblaydilar. 1987-yili Moskva shahrida yodgorliklarni saqlash va qo'llashning metodik asoslari bo'yicha nashr etilgan ilmiy to'plamida keltirilgan olimlar fikri yuqoridagilarni tasdiqlaydi³³⁹. Bu kabi muammolarni innovatsion loyihalar yordamida hal qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Masalan, tarixiy, me'moriy va madaniy yodgorlik hisoblanmish imoratlarning tarixi, unda yashab o'tgan yoki ishlagan mashhur odamlar shu binoga aloqasi bor asosiy tarixiy voqealarni muzey ko'rgazma installatsiyalarini yaratish orqali muzeylashtirish ham mumkin. Bunday loyihalarni amalga oshirish, arxeologik yodgorliklar, tarixiy imorat va saroylar salohiyatidan yanada to'laroq foydalanish imkoniyatini beradi. Tarixiy inshoot, bino va saroylardagi ko'rgazma installatsiyalar ushbu bino bilan bog'liq u yoki

³³⁸ Афанасьев Г. Е., Александрова М. В. Некоторые вопросы организации охранных археологических исследований в зонах новостроек РСФСР // Методические основы охраны и использования памятников археологии. – М.: 1987. – С.37.

³³⁹ Методические основы охраны и использования памятников археологии: Сб. науч. тр. – М.: НМС МК, 1987. – 160 с.

bu tarixiy mavzularni ochadigan buyumlar, hujjatlar, fotosurat hamda boshqa eksponatlarni o'zida ifoda etadi.

Dizaynerlik va badiiy bezatish bunday installatsiyalarning birinchi navbatdagi eng muhim shartidir. Shu tariqa zamonaviy texnologiyalar yordamida tashrif buyuruvchilar moddiy madaniy meros yodgorliklari tarixi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lalilar. Bu installatsiyalar bizga avlod-ajdodlarimizning tarixiy negizi haqida eslatib turadi. Qolaversa, insoniyatga tarixiy xotirani qaytarishi ham mumkin. Bu holat shaharning tarixiy yodgorliklariga yangi hayot baxsh etuvchi zamonaviy intellektual va madaniy muhitni yaratmoqda.

1990-yillarda texnik vositalardan foydalangan holda me'moriy yodgorliklarni ekspozitsion namoyishiga yangi istiqbolli yondashishlar paydo bo'lgan. Ko'chmas yodgorliklar bilan bog'liq bo'lgan interyerlarni eksponatlashtirish muammosini yechishning yangi yondashuvlaridan biri «audiovizual namoyish» hisoblanadi. Bunday ekspozitsion yechimlar namunalari ko'p bo'lmasa-da, biroq, bu tajriba istiqbolli bo'lib, o'rganishga loyiq.

Shuni ta'kidlash joizki, ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarini nafaqat muzeylashtirish, balki, restavratsiya va konservatsiya yo'llari bilan eskirish jarayonini sekinlashtirib, saqlab qolish mumkin. Muzeylashtirilayotgan obyekt har doim tarixiy ahamiyatning turli jihatlariga ega bo'lib, ular orasida hal qiluvchisini ajratib olish kerak.

Obyekt moddiy madaniyat tarixi yodgorligi, san'at tarixi yodgorligi, memorial obyekt, turmush, etnografik va boshqa yodgorliklar sifatida ahamiyat kasb etib, ushbu jihatlarining qaysi biri hukmronlik qilishini muzeylashtirilayotganda aniqlash lozim. Restavratsion usulning tanlanishi ham aynan shunga bog'liq. Moddiy madaniy meros yodgorliklarining tarixiy va badiiy ahamiyatini saqlash yoki avvalgi qiyofasini qaytarish maqsadida vayron bo'lgan, shikastlangan yoki buzilgan me'moriy inshootlar, arxeologik yodgorliklar va boshqa turdagi obyektlarni mustahkamlash, tiklash va restavratsiya qilish ham ijobiy natija beradi. Restavratsiya tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishning tarkibiy qismi bo'lib,

muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pincha restavratsiya qilish davomida o‘tkaziladigan tadqiqotlar tarixiy rivojlanishning shakllangan konsepsiyalarini tubdan o‘zgartiradi.

XIX va XX asrlar boshlarida me‘moriy yodgorliklarga nisbatan restavratsiyaning eng rivojlangan ilmiy nazariyasi shakllanadi. Mutaxassislar tarixiy va madaniy meros obyektlarini tiklash va ta‘mirlashda IKOMOSning xalqaro standartlariga qat‘iy amal etishga alohida ahamiyat berishmoqda³⁴⁰. Ushbu xalqaro standartlarga muvofiq, tarixiy va madaniy yodgorliklarda faqat konservatsiya qilish, ta‘mirlash va tiklash ishlarini olib borishga yo‘l qo‘yiladi. Konservatsiya qilishda yodgorlik qanday holatda bo‘lsa o‘shandayligicha saqlab turilishiga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ko‘zda tutiladi. Ta‘mirlashda yodgorlikning asl tuzilishiga biror o‘zgartirish kiritilmagan holda uni saqlab turish uchun vaqti-vaqti bilan odatiy qurilish usullarini qo‘llash tushuniladi. Tiklash ta‘mirlash va konservatsiya qilish ishlarini ham o‘z ichiga qamrab olib, tarixiy va madaniy meros obyektlarining tashqi ko‘rinishini ilmiy asoslangan holda yodgorlikda vaqt o‘tishi bilan uning qiyofasini o‘zgartirgan omillardan holi qilish hisoblanadi.

Konservatsiyalash restavratsiya qilish bilan chambarchas bog‘liq. Qurilmalarni konservatsiyalash davomida yodgorliklarni restavratsiyagacha bo‘lgan davrida vayron bo‘lishini oldini olish maqsadida yer, devor va gumbazlar mustahkamlanadi, himoyaviy pavilon va bostirmalar quriladi. Zamonaviy restavratsiya qilishning bosh muammolaridan biri – bu asllik va haqqoniylik o‘rtasidagi tanlov bo‘lib, asllik va haqqoniylik doimo moddiy madaniyat yodgorliklariga nisbatan bo‘lgan asosiy talabdir.

Rossiyalik mutaxassis A.I.Martinovning fikriga ko‘ra, moddiy madaniy merosdan foydalanishdagi jahon tajribasi nafaqat uni saqlash, balki, zamonaviy hamjamiyat tomonidan foydalanilishida mujassamlanadi. Shular asosida u, yagona yangi sistemani yaratish zarurligini ta‘kidlaydi: moddiy madaniy meros yodgorliklari – muzeylar – bilishga oid turizm – muzey-turistik servis va muzey-

³⁴⁰ Muxamedova M.S. Muzeyshtunlik sohasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining o‘rni (XX–XXI asrlar). – T.: «Yosh kuch press matbuoti» MChJ, 2017. – B. 170–176.

turistik biznes. Mana shunday kontekstda yodgorliklar barcha sistemalarning manbaviy bazasini tuzish asosiy o‘rinni egallaydi³⁴¹.

Demak, O‘zbekistonning moddiy madaniy merosini ilmiy jihatdan o‘rganish, saqlash va muzeylashtirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirgi kunda mamlakatning ijtimoiy – madaniy hayotida urbanizatsiya, innovatsiya jarayonlari kuchaya boshladi. Bu jarayonlar o‘z navbatida arxeologik yodgorliklarning asta – sekin yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelishi mumkin. Lekin, kelajak avlod uchun ana shu yuq bo‘lib ketayotgan ajoyib loyihalarga ega bo‘lgan arxeologik obyekt va yodgorliklarni saqlab qolish zarur. Buning uchun jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda ularni muzeylashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeylashtirish muammosi zamonaviy muzey amaliyotining ajralmas qismi bo‘lib, jahon hamjamiyatining diqqat markazida turibdi.

O‘zbekiston hududidagi moddiy madaniy merosning ahamiyatli qismini arxeologik yodgorliklar egallaydi. Bugungi kunda, ularning eng ahamiyatliqlarini muzeylashtirish yo‘li bilan saqlab qolish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuni ta‘kidlash joizki, arxeologik yodgorlik, obyektlarni muzeylashtirish uchun aniq bir metod ishlab chiqilmagan. Chunki, ularning barchasi turli holat va ko‘rinishlarda bizgacha yetib kelgan. Ya‘ni, birlari bir necha gektardan iborat maydonni egallab, tarqoq holda saqlangan, boshqalari yaxlit kompozitsion ko‘rinishga ega, lekin unda bir necha tarixiy qatlam kuzatiladi. Shuning uchun arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish muammolarini ishlab chiqish jarayonida, arxeologik obyekt, yodgorliklarni aniqlash va klassifikatsiyalashda o‘ziga xos yondashuv zarur. N.M.Bulatov ularni quyidagicha ajratish va tavsiflashni taklif qiladi:

1. Arxeologik yodgorliklar. Ularga shaharlar, qishloqlar, qabristonlar, sug‘orish sistemalari, ishlab chiqaruv-hunarmandchilik komplekslari kiradi. Shuningdek, qadimgi odamlarning yashash

³⁴¹ Мартынов А.И. Сохранение и использование археологического наследия России – проблема национальная // Сохранение и изучение культурного наследия Алтайского края. – Барнаул: Азбука, 2001. – Вып. XII. – С. 13–22.

joyi, ularning xo‘jalik va ishlab chiqarish bilan bog‘liq faoliyati, dafn qilinadigan joylari bilan bog‘liq kompleksli inshootlar nazarda tutiladi.

2. Arxeologik obyektlar. Bularga arxeologik yodgorliklarning alohidagi inshootlari va arxeologik yodgorlikdan tashqari barcha alohida inshootlar kiradi. Arxeologik obyekt tushunchasi mazkur tasniflashga yordamchi bo‘lim sifatida kiritilgan, chunki, ba‘zi arxeologik yodgorliklar - arxeologik obyekt bo‘limiga kirishi mumkin yoki aksincha. Arxeologik obyektlar – arxeologik yodgorlikning tarkibiy qismiga kirib, ular mustaqil tarixiy manba hisoblanadi.

3. Arxeologik topilmalar (buyumlar). Mazkur bo‘limga arxeologik yodgorlik va obyektlarning territoriyasi, ular orasidan topilgan barcha ashyolar, shuningdek, arxeologik yodgorlik va obyektlarning ko‘chiriladigan qismlari kiradi³⁴².

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, arxeologik merosni saqlash, muzeylashtirish va undan foydalanishning yanada optimal usullarini ishlab chiqish mumkin. Masalan, bitta majmuaviy maydonda turli xildagi ochiq osmon ostidagi muzeylar va muzey-qo‘riqxonalarini tashkil etsa bo‘ladi. Bunday yondashuvning qo‘llanilishini moddiy madaniy meros muhofazasiga oid ko‘p sonli xorijdagi arxeologik merosni saqlash va undan foydalanishga qaratilgan amaliy ishlarda kuzatish mumkin. Jumladan, arxeodromlar, arxeologik parklar, «in situ» muzeylari ko‘p holatlarda tarixiy – madaniy merosni muzeylashtirish dasturlarini amalga oshirishda atrofdagi tabiat muhitini aks ettiradilar³⁴³. O‘zining uslubiy yechimiga ko‘ra, moddiy madaniy merosni muzeylashtirish muammosi yetarli darajada murakkab va turli-tumandir. Bu o‘z navbatida, arxeologik merosning, ko‘p hollarda, vayrona ahvolda bizgacha yetib kelganligi bilan bog‘liq. Shu jihati bilan amalda muzeylashtirilgan arxeologik yodgorliklarni, tayyorgarligi yo‘q tomoshabinning qabul qilishi uchun mushkul hisoblanadi. Bu narsa ko‘pincha yirik shahar markazlarining rivojlanishi va qadimiy

³⁴² Булатов Н.М. Принципы организации археологических музеев-заповедников. – М., 1975. Вып. III. – С. 81.

³⁴³ Ahrens C. Wiederaufgebaute Vorzeit. 1990. Archäologische Freilichtmuseen in Europa. – P. 200.

sivilizatsiya bilan bog‘liq bo‘lmagan obyekt va territoriyalar uchun xarakterlidir.

Umuman olganda, mazkur muammo – nimani va qanday muzeylashtirish kerakligi aniqlangandan so‘ng muvaffaqiyatli yechimini topishi mumkin. Muzeylashtirish masalasining ikki xil yechimi mavjud bo‘lib, birinchisi inson faoliyati faktori ta‘siri natijasida yo‘q bo‘lib ketishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha madaniy yodgorliklarni va moddiy madaniy landshaftlarni muzeylashtirish kiradi. Tadqiqotchilar muzeylashtirish bu, yo‘q bo‘lib ketish xavfi bor yodgorlikni saqlab qolish imkoniyatlarining yagona shakli deb hisoblaydilar. Shuningdek, muzeylashtirilgan obyektlarning mavjudligi ularning soniga qarab, jamiyatning sivilizatsiyalashganligi aniqlashini ta‘kidlaydilar³⁴⁴.

Ikkinchi yechimi yodgorliklarni muzeylashtirish uchun tanlanadigan kriteriyalarni aniqlashni taxmin qiladi. Yondashuvlarning turlicha bo‘lishiga qaramay, tadqiqotchilar yodgorliklarning quyidagi omillarini aniqlab, yagona xulosaga keladilar. Bunda asosan rekonstruksiya qilish uchun hududning ahamiyatligi, yodgorlikning nisbatan yaxshi saqlanganligi, tashqi reprezentativligi va tomosha qilish uchun qulayligi hisobga olinadi. Mazkur omillar yetarli darajada umumiy xarakterga ega bo‘lib, shubhasiz, konkret sharoitda yodgorliklarni muzeylashtirish loyihalari ishlab chiqilayotganda unga o‘zgartirishlar kiritiladi. Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish uslublarini jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, bir necha bosqichga ajratish lozim: aniqlash; tadqiq etish, zarurat bo‘lsa tahlil qilish; tiklash yoki konservatsiya ishlarini olib borish; namoyishni tashkil etish ya‘ni saqlov hududlarini tiklash, konservatsiya, ekspozitsiya yaratish, ekskursion faoliyatni tashkil etish. Shuningdek, muzeylashtirish jarayonida arxeolog hamda muzey ilmiy xodimlarining arxeologik yodgorlikka yondashuvlarining farqini inobatga olish lozim. Chunki, arxeologlar – yodgorlikni maksimal darajada aniqlashi va tadqiq etishi muhim masala hisoblanadi. Ko‘p hollarda, qazilma ishlari olib borilganda, tadqiqot jarayonida yodgorlik jid-

³⁴⁴ Алексеев В.П. Музееведение, музеефикация, культура // Вестник музейной комиссии. – М., 1990. – С.13

diy talafot ko'radi. Muzei xodimlarining vazifasi esa – aniqlangan yodgorliklarni qo'shimcha ravishda har tomonlama ilmiy jihatdan o'rganish, saqlash va targ'ib qilishdan iboratdir. Arxeologik tadqiqotlarning metodikasi va muzeiylashtirish masalalarining o'zaro bog'liqligi murakkab muammo bo'lib, fikrimizcha, muzeiylashtirish foydasiga yechilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, arxeologik restavratsiya, arxeologik qazilmalarni saqlash va ekspozitsiyalashda ma'lum bir yagona metod va yondashuv yo'q. Har bir aniq holatda uslublarni tanlash, yodgorliklarni tomoshabinlarga qanday namoyish qilish kerakligi, qanday ilmiy ma'lumotlar yetkazib berilishi ko'zda tutilganligiga ham bog'liq. Bugungi kunda, jahon miqyosida olib ko'rsa, arxeologiya yodgorliklarining quyidagi muzeiylashtirish uslublari amalda qo'llab ko'rigan. Bunda arxeologik obyektning usti butkul yopiladi. Bu usulning yodgorlikni saqlab qolishdagi effekti juda katta bo'lsa-da, qadimiy manzilgohlar, shahristonlar, qishloqlarning ustiga yopilgan sun'iy inshootlar ularning umumiy qiyofasiga, atrof muhit bilan bog'liq holdagi qiziqarli ko'rinishiga putur yetkazadi. Keyingi uslubda arxeologik, stratigrafik, me'moriy holatlarga iloji boricha kam o'zgartirish kiritiladi. Bunda obyekt fizik-kimyoviy yoki qurilish konservatsion uslublariga binoan fiksatsiya qilinib, uzoq vaqtga saqlanishini ta'minlab beriladi va namoyish qilinsa ham bo'ladi. Lekin, shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy muzeiylashtirishning asosiy muammolaridan biri bu nodir arxeologik yodgorliklarning qoldiqlarini turli xildagi qurilish materiallari bilan mustahkamlab, asl qiyofasini buzilishidir. Bu borada YUNESKO tashabbusi bilan Yu.Uben va Yu.Giyolar tomonidan tayyorlangan maxsus qo'llanma rus tiliga tarjima qilinib, chop etildi³⁴⁵. Mualliflar loydan qurilgan inshootlarni saqlab qolish uslublari, loydan qurilgan binolarining ta'rifi, turli hududlardagi tuproqning tuzilishi, xususiyatlari, organika va mineralga qay darajada boyligi, tuproqni tekshirish uslublari, tuproqni barqarorlashtirish, qurilish uslublari, loyihalash prinsiplari va standartlari, bezaklari, tabiiy ofatga

³⁴⁵ Убэн Ю., Гийо Ю. Глинобитное строительство: всеобъемлющее руководство. ЮНЕСКО – Самарканд: ООО Тонг, 2002. – 493 с.

chidamliligini tadqiq etib, tavsiyalar ishlab chiqishgan. Surxondaryodagi Fayoztepa yodgorligini konservatsiya va restavratsiya qilish jarayonida ham shu uslublar qo'llanilgan.

Ko'chmas yodgorliklar, xususan arxeologiya yodgorliklarini muzeiylashtirish metodlarini tadqiq etish asosida Toshkent shahridagi obyektlarni tahlil etish joiz deb topildi. Toshkent shahar madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, poytaxtda 346 ta moddiy madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan. Ulardan 23 tasi arxeologik, 291 tasi arxitektura, 33 tasi monumental san'at yodgorliklari hamda 3 tasi diqqatga sazovor joylardir.

Tadqiqot jarayonida moddiy madaniy meros obyektlarining ayrimlari ta'mirga muhtoj, muhofaza hududlari chegaralanmagan, kadastr hujjatlarida kamchiliklar borligi, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanmaganligi aniqlandi. Ular orasida bugun yo'qolib ketish darajasiga kelib qolganlari, yo'qolib ketganlari ham mavjud. Masalan, Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek tumani kesimida o'rganishlar jarayonida IV-VIII asrlarga oid Oltintepa hamda X-XII asrlarda yaratilgan Sho'rtepa arxeologik yodgorliklarining bugun faqat manzili, mahalla, ko'chalar nomi qolgani aniqlandi.

Ba'zi yodgorliklarning o'rnida yo'l va boshqa inshootlar ham qurilganligini ko'rish mumkin. Ana shunday obyektlardan biri Oqtepa – Markaziy Osiyoda qadimgi binolar qoldiqlari va arxeologik madaniy qatlamlar saqlangan tepaliklar bo'lgan. Toshkent shahrida Ko'kcha Oqtepa, Chilonzor Oqtepa, Sag'bon Oqtepa, Chig'atoy Oqtepa, Yunusobod Oqtepalari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Tepaliklar orasida Yunusobod tumanida joylashgan Oqtepa yodgorligi o'zining qadimiyligi bilan ajralib turadi. VII-VIII asrlar yodgorligi hisoblangan bu tarixiy obyekt shifobaxsh suvlari, bog'lari bilan mashhur bo'lgan. Bugun esa yovvoyi o't-o'lanlar bilan qoplangan xaroba shaharning chiqindisini tashlash hududida aylangan. 2000-yildan ortiq tarixga ega bo'lgan tepalik hududidan so'nggi o'n yil ichida shaxsiy uy egalari yerga ajratib berilavergan. Natijada bir paytlar hududi yetmish gektar bo'lgan obidadan bugun to'rt gektari qolgan xolos.

Shunday holatlar Yunusobod va Sergeli tumanlaridagi Shoshtepa, Kuygayitpepa, Uchtepa tumanidagi Foziltepa, Mirobod tumanidagi Mingo'rikda ham takrorlangan. Toshkent shahrining tarixi aynan shu tepaliklardan boshlanishini e'tiborga olsak, arxeologik yodgorliklarning o'tmishi va ahamiyati qanchalik muhimligini his qilamiz³⁴⁶. Toshkent shahrining qadimgi tarixini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. O'sha vaqtdan boshlab, Shoshtepa, Yunusobod Oqtepasi, Chilonzor Oqtepasi, Kugayitpepa, Mingo'rik obidasi kabilarda arxeologik qazishmalar bir necha bor olib borilgan.

Lozanna Xartiyasida arxeologik meros o'tmishda inson faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai ekanligi ta'kidlangan³⁴⁷. Shuning uchun obyektlarni muhofaza qilish va ulardan to'g'ri foydalanish arxeolog va boshqa olimlar tomonidan yodgorliklarni kelajak avlodlar manfaati uchun o'rganish hamda talqin qilish imkoniyatini berish uchun juda muhimdir. XX asrning 70-80-yillarida O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti tomonidan Toshkentdagi ikkita yodgorlik - Yunusobod Oqtepasi yodgorligi va Shoshtepa qadimiy manzilgohi bo'yicha arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Qazish ishlari davomida yaxshi saqlanib qolgan loyihaviy tuzilishiga ega bo'lgan majmualar topildi. Shu sabab yodgorliklarning ayrim qazilgan joylarda kelgusida muzeylashtirish va jamoat tashriflari uchun tiklash, konservatsiya ishlarini boshlashga qaror qilindi. Binolarning xom g'ishtdan qilingan devorlarini qisman tiklash va kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga olgan konservatsiya ishlari dasturi ishlab chiqildi³⁴⁸.

Bugungi kunda Toshkentning arxeologik obyekt joylashgan Yunusobod tumanida Yangi shahar va Chinobod ko'chalari oralig'ida «Yunusobod Business City» qurilishi nazarda tutilgan edi. Mazkur hududda nafaqat uylar, maishiy binolar – xizmat ko'rsatish

³⁴⁶ Mahmudov R. O'zMTDP Toshkent shahar kengashi matbuot kotibi.

³⁴⁷ Лозанская хартия. 1989 г. Хартия о защите и менеджменте археологического наследия.

³⁴⁸ Реутова М.А. Консервация древних памятников сырьевой архитектуры в Ташкенте и Ташкентской области / «Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда». Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари – Т.: Фан, 2009. – С. 185-187.

va ishlab chiqarish obyektlari, balki ko'p yillik tarixga ega bo'lgan, biroq e'tibordan chetda qolib, bugun achinarli ahvolga tushib qolgan Oqtepa arxeologik yodgorligi ham bor. Bu yodgorlik ham «Yunusobod Business City» loyihasi xaritasidan o'rin olgan.

Arxeologik obyektни saqlanib qolgan holati va rekonstruksiya holatiga ko'ra, bir vaqtlar hududi qariyb yuz gektarni egallagan tarixiy obidaning bugunga kelib atigi to'rt gektari qolgan xolos. 2019-yil 11-fevral kuni «Yunusobod Business City» taqdimotida hududda joylashgan Oqtepa arxeologik yodgorligi haqida aytib o'tildi. Toshkent shahar hokimligidan ma'lum qilishlaricha, qurilish ishlari mazkur arxeologik yodgorlikka zarar yetkazmaydi, aksincha, obida yon atrofi obodonlashtirilib, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun sharoit yaratiladi, sayyohlik markaziga aylantirilishi nazarda tutilgan.

«Yunusobod Business City» markazi 4 ta lotdan iborat. 41 gektar maydonda qurilishi kutilayotgan markazning birinchi lotida 9, 12, 15 qavatli 3 va 4 yulduzli mehmonxonalar bunyod etiladi. Ikkinchi lot hududida maktab va bog'cha hamda 1388 o'rinli avtoturargoh barpo etish ko'zda tutilgan. Maydoni 1,4 gektar bo'lgan uchinchi lotda ofis va mehmonxonalar, 12 va 15 qavatli binolar quriladi. 18,2 gektarlik to'rtinchi lotda esa katta bog', kichik do'kon va restoranlar qurish rejalashtirilgan.

Zamonaviy shahar muhitida arxeologik obyektни joylashuvi jahon tajribasida XXI asrda arxeologiya merosini muhofaza qilish, shahar tarixiy muhitini saqlab qolish va undan turizmni rivojlantirishda unumli foydalanish amaliyoti eng istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib turibdi. Tarixiy shaharni madaniyat fenomeni sifatida belgilab, Aksiologik yondashuv asosida yagona ekspozitsiyani tashkil qiluvchi yodgorliklar va inshootlarining me'moriy-badiiy noyobligini muzeylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Arxitektor, tarixchi, arxeolog, o'lkashunos, san'atshunos, etnograf va sotsiologlar hamkorligida shahar hayotining tarixiy-madaniy hamda ijtimoiy-maishiy jihatlarini muzeylashtirishga e'tibor qaratish endilikda nihoyatda muhimdir. O'zbekiston Respublikasining Umum-

jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilganligi bu borada qilinayotgan ishlarning o'ziga xos debochasi bo'ldi. Konvensiya madaniy va tabiiy yodgorliklarni asrash bo'yicha eng universal xalqaro huquqiy vosita hisoblanadi. Konvensiyani imzolagan har bir davlat o'z hududida mavjud bo'lgan milliy va jahon ahamiyatiga molik yodgorliklarni asrashda umumiy tamoyillar asosida ish ko'radi³⁴⁹.

Hozirgi kunda O'zbekistonda muzeylashtirish ishlari davom etmoqda. Bunga misol qilib, Ming O'rik shahristoni arxeologik muzeyini keltirib o'tish mumkin. Eramizning birinchi asriga mansub Ming O'rikdagi inshootni tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, bu yerda madaniyat yuqori darajada rivojlanganligini san'at asarlari bilan bir qatorda hunarmandlik, temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, tangalar zarb qilish ustaxonalari izlari topilganligidan bilish mumkin. Mazkur obyekt konservatsiya qilingan va usti temir konstruksiyali membrana bilan yopilgan³⁵⁰.

Mualliflar yodgorlik tuproqlardan tozalanayotganida, ro'zg'or buyumlari qoldiqlari topilganini paxsa devorlarda imitatsiya qilishib, unga davr muhitini kiritishga ham harakat qilingan. Lekin, ushbu muzeylashtirilgan obyektning ijobiy jihatlari bilan birgalikda, salbiy tomonlari ham mavjud. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, obyektning ustini yopishda qator kamchilikliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, muzey tomini ushlab turishi kerak bo'lgan, diametri taxminan 35-40 sm keladigan temir ustunlar arxeologik yodgorlikning oralariga qoqilgan. Tomning o'zi ham og'ir temir konstruksiyalardan iborat. Obyektning atrofi esa og'irligi taxminan 4 tonna keladigan qalin devor bilan o'ralgan. Yodgorliklarni muhofaza qilish me'yorlariga asosan, obyektga zarar yetkazmaslik uchun yuqorida ko'rsatilgan og'ir qurilish materiallarini qo'llash qat'iy

³⁴⁹ <http://lex.uz/docs/2749728>. Mazkur Konvensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda 182-I-sonli «1972-yilda imzolangan Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida»gi qarori bilan ratifikatsiya qilingan.

³⁵⁰ Филанович М.И. Ташкент.: Зарождение города и развитие городской культуры в древности и средневековье. // O'zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2009. – S.48.

man etiladi, chunki bu narsa xom g'isht, paxsadan qurilgan bino goldig'ining yanayam yaroqsiz ahvolga kelib qolishiga olib keladi. Bundan tashqari, Mingo'rik muzeyi atrofida tomoshabinlar uchun yo'lak qilinmagan. Tashrif buyuruvchilar yodgorlikning ichida, devorlarining ustida yurib, tomosha qilishadi. Bu ham me'yorlarga juda zid uslub hisoblanadi.

Arxeologik ko'chmas obyektlarning atrofida qurilish, qazish, sug'orish ishlari olib borish mumkin emas, lekin bunga deyarli amal qilinmayapti. Masalan, Choshtepa yodgorligining yaqinida ko'p qavatli uylar qurilishi natijasida, uni devorlarining eng baland qismining yarmi o'pirilib ketdi. Yunusobod Oqtepasining atrofi temir panjaralar bilan o'ralib, saqlov zonasi qilingan, lekin shu panjaralarning ichki tomonida, ya'ni, obidaga yaqin joyda mevali daraxtlardan iborat bog' barpo etilgan bo'lib, u tinimsiz sug'oriladi. Natijada, vaqt o'tishi bilan yodgorlik cho'kib, nurab ketishi ham mumkin.

«Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga ko'ra, 2019-2021-yillarda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan oqilona foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha «yo'l xaritasi»da qator vazifalar belgilandi. Jumladan, respublika bo'yicha 50 ta eng muhim arxeologiya yodgorliklarining innovatsion texnologiyalar asosida 3D modelini yaratish, so'nggi 30 yil davomida o'tkazilgan arxeologiya tadqiqotlari asosida topilgan arxeologiya ashyolarining hujjatlashtirish, ishonchli saqlanishi va muhofaza qilinishi holatini malakali mutaxassislarni jalb etgan holda tekshirish hamda arxeologiya ashyolari davlat katalogiga kiritish belgilangan. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Akshaxan qal'a, Andijon viloyati Mingtepa va Qo'shtepa, Buxoro viloyati Poykent, Jizzax viloyati Qaliyatepa, Qashqadaryo viloyati Yerqo'rg'on, Navoiy viloyati Nurota qal'asi, Namangan viloyati Qadimgi Pop, Samarqand shahri Afrosiyob, Surxondaryo viloyati Dalvarzintepa va Kampirtepa, Toshkent viloyati Kanka, Toshkent

shahri Chilonzor Oqtepsi, Fargʻona viloyati Quva shahristoni, Xorazm viloyati Xumbuztepa arxeologiya yodgorliklarini konservatsiyalash va muzeylashtirish shular jumlasidandir.

Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepasini konservatsiyalash va muzeylashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilishining yanada muhimligini mazkur hujjat tasdiqlaydi. Chilonzor Oqtepsi yuqorida taʼriflangan Toshkent shahridagi yodgorliklardan nochorroq ahvoldaligiga koʻproq inson omili katta zarar yetkazmoqda. Avvallari katta hududlarni egallagan yodgorlikning bir qismigina, yaʼni 4 gektardagi qurilma bizgacha yetib kelgan. Uni 1970-yillarda arxeologlar ochib, tadqiq etishgan va yaxshi saqlanib qolishi uchun yana tuproq bilan ustini koʻmishgan. Hozirda tepalik koʻrinishida turibdi. Old tomonidan yoʻl, chap tomoniga omborxona, oʻng tomoniga katta supermarket, orqa tomoniga turar joy binolari yodgorlikka juda yaqin qilib qurilgan. Bu qurilmalar unga hozir zarar yetkazayotganidan tashqari, obyektga muzeylashtirish ishlarini olib borishga, muzeylashtirilganidan soʻng uning atrofidagi davr muhitining yaratilishiga ham xalaqit beradi. Tadqiqot davomida mazkur obyektga muzeylashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish jarayonida ham shu narsalar inobatga olindi.

*Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepasini
muzeylashtirish konsepsiyasi:*

Taklif etilayotgan konsepsiya madaniy merosdan foydalanish va saqlash borasidagi zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda rivojlanishning maʼqul jihatlarini, moliyalashtirish resurslarini 2019–2024-yillar uchun ishlab chiqadi. Konsepsiya ichiga koʻchmas moddiy madaniy yodgorligi, yaʼni Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepsi kiradi. Muzeylashtiriladigan obyekt maydoni: 1 ta inshoot, umumiy maydoni 4 gektar. Quyidagi asosiy punktlarni taomilga kiritish, Toshkent shahrining ijtimoiy, madaniy darajasini, imijini koʻtaradi.

Metodologik holatlar: Moddiy madaniy meros tarixning koʻchmas yodgorliklari sifatida keng koʻrib chiqiladi. Bu turdagi yod-

gorliklar noyob hudud sirasiga kirib, u yerda eng nufuzli yodgorliklar ajratib olinadi. Muzeylashtirish jarayonida obyektlar majmuaviy va muhit muzeylariga ajratiladi va uch asosiy tur muzey-yodgorliklar, ochiq osmon ostidagi muzeylar hamda ekomuzeylarga boʻlinadi. Yakka holatda joylashgan yodgorliklardan foydalanish va saqlash ularni tarixiy, tabiiy-fazoviy muhitda muzeylashtirishni talab etadi. Bunda muhimsiz obyektning badiiy qimmatini pasayadi.

Muzey-yodgorlik haqida maʼlumot:

Yuqori rahbar organi: Toshkent shahar Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat inspeksiyasi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorining 2019–2021-yillarda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targʻib qilish va ulardan oqilona foydalanishni tubdan takomillashtirish boʻyicha «yoʻl xaritasi»da qoʻyilgan vazifaga asosan 2020-yilda muzeylashtirish ishini tashkil etish koʻzda tutilgan.

Konsepsiya maqsadi: Madaniy meros obyektlaridan foydalanish va ularni saqlash boʻyicha yangi shakllarni tavsiya etish va tatbiq qilish.

Konsepsiya vazifalari:

- madaniy meros obyektlaridan foydalanish va ularni saqlash boʻyicha kompleksli, maqsadli dastur ishlab chiqish;
- madaniy meros obyektlarini saqlash boʻyicha qonun loyi-halarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepasining atrofidagi maydonni, tarixiy muhit yaratib berish maqsadida kengaytirish;
- sifatli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishini taʼminlash;
- yodgorliklarni sifatli saqlash va restavratsiya, konservatsiya ishlari olib borilishini taʼminlash;
- aslidagidek tabiiy landshaftni tiklash;
- zamonaviy muzey ishi va muzey texnologiyalarini tatbiq etish.

Konsepsiyani joriy etishdan kutilayotgan natijalar

- Shahar darajasida:

Turistlarni jalb qilish;

Ish joylarini yaratish, mahalliy byudjetni to'ldirish;

Hududdagi an'anaviy hunarmandchilikni saqlab qolish.

- Hududiy darajada:

Zamonaviy madaniy muzey-majmuadagi ta'lim.

Keng xizmat spektriga ega bo'lgan regional restavratsion markaz.

Regional informatsion-turistik markaz.

Ish joylarini yaratish, mahalliy byudjetni to'ldirish.

- Respublika darajasida:

Tabiat va tarix yodgorliklarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish.

Toshkent shahar moddiy madaniy merosini O'zbekiston madaniy muhiti bo'ylab taqdim etish.

An'anaviy madaniy obyektlarni muhofazalanishini ta'minlash.

Konsepsiya doirasida quyidagi ishlar ham amalga oshiriladi:

Ilmiy – tadqiqot ishlari.

Yodgorliklarni saqlash, restavratsiya va konservatsiya ishlarini amalga oshirish.

Ekskursion ishlar. Turistik potensial. Noshirlik faoliyati

Chilonzor Oqtepasini muzeylashtirish obyekti sifatida asosan muhim ahamiyatga ega yodgorliklar o'rganiladi.

Toshkent shahridagi Mingo'rik arxeologik obyektni muzeylashtirish jarayonida, og'ir qurilish ashyolari, jumladan, qalin devor bilan o'ralganligi, shiftni ushlab turishga mo'ljallangan og'ir temir ustunlarning obyektning markaziga o'rnatilishi kabi katta xatoliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. Xorij muzeyshunoslarining yutuqlarini o'rgangan holda, Chilonzor Oqtepasini muzeylashtirish uslublari ishlab chiqildi va loyihasi yaratildi. Loyihani ishlab chiqish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirildi: 1. Arxeologiya obyektining genplani va zamonaviy ko'rinishi fotofiksatsiya qilindi (1,2,3-rasmlar); 2. Arxeolog M.Filanovich tomonidan o'rganilgan

uchta tarixiy davrdagi yodgorlikning rejasi orqali bugungi kunda saqlanib qolingani devorlari aniqlandi (4, 7, 10-rasmlar); 3. Arxitektori T.Nurullin tomonidan 3D kompyuter texnologiyasi yordamida modellashirilgan binolarning tashqi ko'rinishi va frontal kesimi o'rganildi (5, 6, 8, 9, 11, 12-rasmlar); 5. Modern stilida Chilonzor Oqtepasining muzeylashtirish loyihasi ishlab chiqildi (13-18-rasmlar).

Shuningdek, barcha qurilish ashyolarining iqlim sharoitiga chidamliligi aniqlanib, yodgorlikka zarar yetkazmaydigan yengil konstruksiyalar ishlatilishi lozimligiga e'tibor qaratildi. Revitalizatsiya qilish (atrofidagi tarixiy muhitni tiklash) – yo'llari izlandi, lekin yodgorlik atrofiga juda yaqin qilib zamonaviy binolar qurilganligi sababli buni amalga oshirib bo'lmazligi dalillandi.

Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepasini muzeylashtirish yo'li bilan saqlab qolish, bir tomondan davlatga daromad keltirsa, ikkinchi tomondan bunday inshootlar, bu hududlarda yuqori muhandislik malakasiga ega bo'lgan ustalar, me'morlar faoliyatini takomillashtirishi e'tirof etildi.

Tiklanadigan obyektlarning tarixiylikni inobatga olgan holda, obyektlardan zamonaviy turizm ehtiyojlari uchun ham foydalanish va ularni turizm infrastrukturasiga kiritish imkoniyatlarini yaratish, buning uchun tadqiq etilgan obyektlar muzeylashtirilishi lozim ekanligi aniqlandi.

Yodgorliklarni har tomonlama mukammal ta'mirlanishi hamda muzeylashtirilishi Toshkent shahrining muhim turistik markazi sifatida rivojlanishiga va shahar xazinasiga xalqaro ko'lamdagi sarmoyalar olib kelish imkonini tug'diradi. Mazkur yodgorlikni yangicha konstruktiv metodlar yordamida muzeylashtirish, kelgusida arxeologik obyektlarni asl holicha saqlagan holda kelajak avlodga yetkazib berish imkonini beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblangan tarixiy yodgorliklarni kelajak avlod uchun saqlab qolishning eng to'g'ri yo'lini izlab topish masalalari ko'rib chiqildi. Jumladan, ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarini muzey-

lashtirish omillari va nazariyasi ilmiy manbalar asosida tahlil etildi. O'zbekiston hududidagi moddiy madaniy meros obyektlarining bugungi kundagi holati va muammolari o'rganilib, respublikada mavjud arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish yo'li bilan saqlab qolish uslublari deyarli tadqiq etilmaganligi sababli, ko'chmas obyektlardan arxeologiyaga oidlari tanlandi. O'rganish uslublari nazariy jihatdan ko'rsatib berildi. Muammolarning yechimiga doir mulohazalar keltirildi.

O'zbekiston moddiy madaniy merosi, bu hududlarda yuksak sivilizatsiyaga ega xalq yashaganligidan dalolat beruvchi daliliy o'tmish yodgorliklari bo'lib, ularning kelajak avlod uchun saqlab qolinishi ilmiy tadqiqotga tayanadi. Ilmiy faoliyatsiz ularni saqlash jarayonini maksimal ta'minlash, madaniy-ta'lim ishini olib borish ham mushkul. Shundan kelib chiqqan holda, muzeologiya fanini kommunikatsion tarzda rivojlantirish, moddiy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishni internet sahifalari orqali keng ommaga yetkazish, turli yoshdagi muzey auditoriyasi bilan ishlashga oid ilmiy ishlarni amalga oshirish, ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, ekskursiyalar tashkil etish tavsiya etiladi.

O'zbekiston hududidagi ko'chmas moddiy madaniy meros yodgorliklarini saqlash, tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Madaniy meros obyektlar, xususan konservatsiya jarayonlariga muhtoj arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida qonunlar asosida tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni davlat hisobiga olish, moddiy madaniy meros obyektlarining davlat ro'yxatini yuritish, ekspertizadan o'tkazish dolzarb masalalardan sanaladi. Ushbu yodgorliklar bo'yicha ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borish hamda ularni asrash yuzasidan joriy va istiqbol dasturlar ishlab chiqilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarix va madaniyat yodgorliklar majmuasi – bu insoniyatning ma'naviy rivoji va ongiga faol ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos muhim tarixiy-madaniy hodisa, ya'ni tarixiy-madaniy muhitning bir qismi

bo'lib, tarixiy shaharlarning bugungi ahamiyati ulardagi me'moriy majmualar, ansambllar va alohida go'zal inshootlarning mavjudligi bilangina ifodalanmay, balki ushbu binolarning umrboqiyligi to'g'ri tanlov asosida restavratsiya jarayonlarini ta'minlanishi bilan ham ahamiyatlidir.

Shundan kelib chiqqan holda, shu asosdagi ko'chmas obyektlarni muzeylashtirish, ta'mirlash, ekspozitsiya tuzish, yo'lko'rsatkich yaratish va madaniy turizm infrastrukturasiga moslashtirish masalalari kompleks ravishda hal etilishi kerakligi aniqlandi. Ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning zamonaviy yo'nalishlari xorijiy va mahalliy mutaxassislarining tajribalari asosida o'rganilib, ijobiy jihatlarini tatbiq etish istiqbollari tahlil etildi. Bugungi kunda muzeylashtirish yodgorlikni yaxshi saqlanib qolishiga, ilmiy asosda hujjatlashtirishga va undan samarali foydalanishning eng rivojlangan yo'li bo'lib, yodgorlikni turgan joyidan siljimasdan, ko'chmas obyekt sifatida muzeylashtirish zarurligi, joyidan ko'chirilganda, uning qiymati pasayishi, atrof muhit bilan bog'liqligi uzilib, yodgorlik haqdagi ma'lumot kamayish holatlari atroficha o'rganildi. Hozirgi vaqtda muzeylashtirish, restavratsiya va konservatsiya moddiy madaniy merosni saqlashning eng maqbul usullaridan biri bo'lib, moddiy madaniy meros yodgorliklari, obyektlari, san'at asarlari va muhim tarixiy ahamiyatga ega osori-atiqalarni muzeylashtirish, ularni maksimal darajada saqlanib qolinishiga imkon yaratishi va ularning tarixiy-madaniy, ilmiy hamda badiiy qimmatini ochib berishi mumkinligi ta'kidlandi.

O'zbekiston hududidagi ko'chmas moddiy madaniy meros yodgorliklarini (arxeologik, me'moriy, tabiiy) tabiiy landshaft sharoitida saqlash (yodgorlikni ochish, konservatsiya qilish, qazilma ishlari tugagach, topilmalarni joyida saqlash va ekspozitsiyalash choralarini ko'rish) holati va muzeylashtirish muammolari (obidaning tabiiy tarixiy muhitini o'rganish, qazilma ishlari, yodgorlikning saqlanib qolgan qismlarini restavratsiya qilish, uning asosiy konstruktiv o'ziga xosligi va tashqi ko'rinishini tiklash, atrofida qulay-

liklar yaratgan holda muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish) nazariy asoslab berildi. Shunga ko'ra qurilish, meliorativ va xo'jalik ishlari, noqonuniy arxeologik qazuv ishlari, yer ko'chkilari, tektonik, tabiiy, ekologik, biologik, antropologik omillar, mavjud muzeylashtirilgan arxeologik obyektlardagi konstruktiv kamchiliklar inobatga olingan holda Chilonzor Oqtepa olov ibodatxonasining muzeylashtirish loyihasi va konsepsiyasi arxitekturaning modern stilidagi yengil konstruksiyali loyihasi ishlab chiqildi hamda uni boshqa tarixiy yodgorliklar konservatsiyasiga ham joriy etish imkoniyatlari ko'rsatib berildi.

XULOSA

O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy-uslubiy jihatlariga doir olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O'zbekiston uzoq yillik tarixini aks ettiruvchi yuzlab yodgorliklar, jahon tarixiy ahamiyatiga ega, katta bo'lmagan hududida ko'p miqdorda tarixiy va madaniy yodgorliklar to'plangan, madaniy merosi boy davlatlardan biri hisoblanadi. Uning tarixiy va madaniy yodgorliklari – odamlarning his-tuyg'ulari, bilimlari va ongiga faol ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos tarixiy-madaniy hodisa, ijtimoiy ongni shakllantirish va ijtimoiy xulq-atvorni rag'batlantirishning samarali vositasidir.

2. Tadqiqotda yodgorliklarni o'z joyida ro'yxatga olish, muhofazalash va muzey qo'riqxonasi tarkibiga xalqaro tajribalar asosida kiritish uchun bir qancha talab va takliflar o'rganilib, kommunikatsion, aksiologik yondashuvlar asosida zamonaviy muzeylashtirishning restavratsiya, konservatsiya, ta'mirlash, tiklash, ma'lumot beruvchi (informatsion) uslublari asoslab berildi.

3. XIX asrning ikkinchi yarmida jamiyatda yangi ehtiyojlar shakllanishi natijasida Turkistonda ko'p sonli kolleksiya hamda to'plamlar vujudga kelib, dastlabki muzeylar maxsus muassasalar sifatida taraqqiy etib, madaniy jarayonlarda sezilarli o'rinni egalladi. Rossiya imperiyasi davridagi muzeylar bir tomondan, o'lka tarixi, madaniy merosi, madaniyati, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ba'zi tarixiy-madaniy qadriyatlar turli sabablarga ko'ra mamlakatdan olib chiqib ketilgan, milliy va madaniy boyliklar talon-toroj qilingan.

4. Sovet davrida tarixiy va madaniy meros obyektlari, karvon-saroy, masjid, madrasalar, tarixiy shaxs va avliyolar maqbaralaridan foydalanishda talablar, cheklovlar hamda majburiyatlarga rioya etilishini monitoringini tashkil etish, o'tkazish tartibi hamda ularni saqlashga doir aniq va tizimli yondashuvning yo'qligi ilmiy jihatdan asoslangan tizim, ko'plab muzeylarga asos solingan, tarixiy

yodgorliklar sanoatlashtirilgan, moddiy merosning aksariyati yo'q bo'lib ketishi yoki jiddiy zararlanishi oqibatlariga olib kelgan.

5. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, moddiy madaniy meros obyektlarini o'rganish va saqlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Sohaga oid tizimlar shakllantirilib, uning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. Mavjud moddiy madaniy meros hamda muzeylar faoliyatini yaxshilash borasida qator tadbirlar ishlab chiqildi. Jahon muzeyshunosligi talablari darajasida, milliy g'oya va qadriyatlar asosida ekspozitsiyalarni qayta qurish, o'zbek xalqining jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini ko'rsatuvchi yangi muzeylar yaratish uchun zamin yaratildi.

6. Merosni muhofaza qilishda O'zbekiston amaliyotida tarix va madaniyat yodgorliklarini, xo'jalik yuritish va tabiatdan foydalanishning an'anaviy ko'rinishlarini kompleks qayta tiklagan holda noyob hududlarni saqlash uchun Xalqaro tashkilotlar hamkorligida xalqaro tajribaga tayanib madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilishga qaratilgan yangi uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

7. Moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va muzeylashtirish masalalarini hal qilishda tarixiy, arxeologik, etnografik, me'moriy, madaniyat, tabiiy va madaniy merosning ko'pgina yodgorliklari vayron bo'lish xavfini oldini olishda ularning shakllanish evolyutsiyasini kuzatib borish, muammolarni o'rganish va yechimini topish choralari ishlab chiqildi.

8. O'zbekiston hududidagi ko'chmas moddiy madaniy meros yodgorliklarini tabiiy landshaft sharoitida saqlash, konservatsiya qilish, ekspozitsiyalash choralari ko'rish va yodgorlikni tabiiy tarixiy muhitini o'rganish va saqlanib qolgan qismlarini restavratsiya qilishda uning asosiy konstruktiv o'ziga xosligi va tashqi ko'rinishini tiklash, muzey ekspozitsiyalarini tashkil etishdagi muammolar o'rganilib, yechimi sifatida me'morchilik va shaharsozlik obyektlari, arxeologik yodgorliklar, fan va texnika yodgorliklari, landshaftlar, geografik muhit, nomoddiy moddiy madaniy obyektlarini zamonaviy metodlar asosida muzeylashtirish mezonlarining konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

9. Toshkent shahrida joylashgan Mingo'rik arxeologik obyektida rekonstruktiv kamchiliklarni bartaraf etishda arxitekturaning modern innovatsion stilidan foydalangan holda Chilonzor Oqtepa Olov ibodatxonasining yengil konstruksiyali konsepsiya loyihasi hamda tarixiy yodgorliklarni skasenologiya uslubida muzeylashtirish rejasi ishlab chiqilgan.

10. Konservatsiya qilingan va muzeylashtirilgan moddiy madaniy meros ashyolarini fizikaviy va kimyoviy xususiyatlariga ko'ra saqlash, jahon standarti talablari darajasida emasligi, muzey binolarining moslashmaganligi, moddiy texnik bazasining nochorligi, yuqori malakali kadrlar yo'qligi kabi omillarning muzey fondlarining qisqarishi hamda eksponatlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini oluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, istiqbolda quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish lozim deb hisoblandi:

- ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarining atrofida tarixiy muhitni yo'q bo'lib ketishini oldini olish, konservatsiya va restavratsiya jarayonlarida chet davlatlardagi mutaxassislar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- O'zbekistonda muzeylashtirish qiyin cho'l zonalarida qolib ketgan va turistik marshrutlarga kiritilmagan ko'chmas obyektlar bo'yicha hujjatli filmlar yaratish lozim;

- muzeylardagi ekspozitsiya tuzish uslublarini jahon andozalariga moslashtirish va muzeylarning moddiy texnik bazasini yanada yaxshilash maqsadida zamonaviy uslublarni ommalashtirish;

- muzeylashtirish qiyin bo'lgan arxeologik yodgorliklarning 3D, 7D virtual ko'rinishlarini yaratish;

- muzey eksponatlarining eskirish jarayonini sekinlashtiruvchi chora-tadbirlarni takomillashtiruvchi restavratsiya, muzeyefikatsiya va konservatsiyalashning yangi yo'nalishlarini qo'llovchi respublikada markazlashgan laboratoriyalar tashkil etish.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т: Ўзбекистон, 2014. – Б. 17.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т: Ўзбекистон, 2017. – Б. 14.
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т: Ўзбекистон, 2019. – Б. 29.
4. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ислох ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясида сўзлаган нутқидан. // Халқ сўзи, 2016 йил 17 октябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 23 декабрда қабул қилинган «Республика музейлар фаолиятини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 1994 йил 24 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январь «Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармони // Халқ сўзи, 1998 йил 13 январь.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5 мартда қабул қилинган «Музейлар фаолиятини тубдан қўллаб-қувватлаш масалалари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 1998 йил 6 март.
8. Закон Республики Узбекистан от 29 августа 1998 года. N 678-I «О вывозе и ввозе культурных ценностей» // Правда Востока, 30 августа 1998 года.
9. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об упорядочении вопросов вывоза и ввоза культурных

ценностей в Республике Узбекистан» от 23 марта 1999 года // Правда Востока, 24 марта 1999 года.

10. «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2001 йил 30 август, 269-II-сон // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 йил, 9-10-сон, 180-модда.

11. Ўзбекистон Республикасининг «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қонуни. 2002 йил 29 июль // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 йил. – №. 7 – Б. 63.

12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 269-сонли қарори. // Халқ сўзи, 2002 йил 30 июль.

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 8 ноябрда қабул қилинган «Қатағон курбонлари хотираси» музейи фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 2002 йил 9 ноябрь.

14. «Музейлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2008 йил 12 сентябрь // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 йил. – № 37-38. – Б. 12-20.

15. «Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2009 йил 16 июнь. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 йил, 42-сон, 448-модда.

16. Ўзбекистон Республикасининг 2009 йил 13 октябрдаги «Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида»ги 229-II-сонли Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами 2009 йил, 42-сон, 448-модда.

17. «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 23 февралда қабул қилинган «Моддий маданий мерос

объектлари тарихий-маданий экспертизаси тўғрисида»ги қарори. // Халқ сўзи, 2011 йил 24 февраль.

18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 21 июлдаги 200-сонли «Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги қарори // Халқ сўзи, 2014 йил 22 июль.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони.

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги 2995-сонли «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. // Халқ сўзи, 2017 йил 25 май.

21. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 5 сентябрь 2017 йилдаги «Ўзбекистон Республикаси маданият вазирлиги ҳузуридаги Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш маркази фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 700-сонли қарори. // Халқ сўзи, 2017 йил 6 сентябрь.

22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январда қабул қилинган «Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида»ги 5181-сонли фармойиши. // Халқ сўзи, 2018 йил 17 январь.

23. Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 9 июндаги 435-сонли «ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган Ўзбекистон Республикасидаги ҳудудларни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги қарори.

24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрда қабул қилинган «Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан тако-

миллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПК-4068-сон қарори. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2018 йил 24 декабрь, 51-сон, 977-модда.

25. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 мартдаги «Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги Маданий мерос департаменти фаолиятини ташкил этиш ҳамда моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишга оид айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори.

26. Конвенция об охране всемирного культурного и природного наследия (16 ноября 1972г.) // Свод нормативных актов ЮНЕСКО: конвенция и соглашения, рекомендации, декларации. – М., 1991. – С. 290-302).

27. Декрет Совета Народных Комиссаров РСФСР от 19 сентября 1918 года. «О запрещении вывоза за границу предметов искусства и старины».

28. Декрет Совета Народных Комиссаров РСФСР от 26 ноября 1918 года «О признании научных, литературных, музыкальных и художественных произведений государственным достоянием.

29. Закон СССР от 29 октября 1976 года № 4692-IX «Об охране и использовании памятников истории и культуры» (Ведомости Верховного Совета СССР, 1976, № 44, ст. 628).

30. Постановление Верховного Совета СССР от 29 октября 1976 года № 4693-IX «О порядке введения в действие Закона СССР «Об охране использовании памятников истории и культуры» (Ведомости Верховного Совета СССР, 1976, № 44, ст. 629).

31. Постановление Совета Министров СССР от 16 сентября 1982 года № 865. «Об утверждении Положения об охране и использовании памятников истории и культуры».

O'zbekiston Milliy Arxivi hujjatlari va materiallari:

32. НАУ. Фонд №72, Опись №1, Дело №12. Дело Туркестанской публичной библиотеки и музея. Переписки, 1914.

33. ЎзР Маданият ишлари вазирлиги маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий ишлаб чиқариш Бош бошқармаси жорий архиви. Мустақиллик йилларида (1991-2011 йилларда) таъмирдан чиқарилган маданий мерос объектлари ҳақида маълумот.

34. ЎМА, И-19-фонд, 1-рўйхат, 17424-йиғма жилд, 26-варақ.

35. ЎМА, И-1591-фонд, 1-рўйхат, 58-иш, 8-варақ (В.Л.Вяткиннинг шахсий фонди).

36. ЎМА, И-1591 -фонд, 2-рўйхат, 61-иш, 1-варақ.

37. ЎМА, И-1591-фонд, 2-рўйхат, 68-иш, 1-варақ (В.Л.Вяткиннинг шахсий фонди).

38. ЎМА, И-1-фонд, 11-рўйхат, 722-иш, 32-варақ.

39. ЎМА, И-1-фонд, 16-рўйхат, 259-иш, 10-варақ.

40. ЎМА, И-1-фонд, 19-рўйхат, 428-иш, 23-варақ.

41. ЎМА, И-71-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 2-5, 8-10-варақлар.

42. ЎМА, Р-72-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 9, 33-варақлар.

43. ЎМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 22-иш, 1-2-варақлар.

44. ЎМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 23-иш, 3-19-варақлар.

45. ЎМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 7-иш, 2-3-варақлар.

46. ЎМА, Р-2773-фонд, 526-йиғма жилд, 1891-2000 йй.; Массон М. – ЎМА, Р-2773-фонд, 1466-йиғма жилд, 1873-1987 йй.; Ремпель Л. ЎМА, Р-2793-фонд, 167-йиғма жилд, 1920-1989 йй.; Чабров Г. ЎМА, Р-2681-фонд, 1097-йиғма жилд, 1939-1985 йй.; Маньковская Л. ЎМА, Р-2810-фонд, 416-йиғма жилд, 1925-1988 йй.; Бетгер Е. ЎМА, Р-2412-фонд, 567-йиғма жилд, 1862-1987 йй.

47. ЎМА, Р-394-фонд, 1-рўйхат, 103-иш, 85-86-варақлар.

48. ЎМА, Р-394-фонд, 1-рўйхат, 123-иш, 12, 4-17-варақлар.

49. ЎМА, Р-394-фонд, 1-рўйхат, 13-иш, 18-варақ.

50. ЎМА, Р-394-фонд, 1-рўйхат, 143-иш, 19-варақ.

51. ЎМА, Р-394-фонд, 1-рўйхат, 42-иш, 103-104-варақлар.

52. ЎМА, Р-394-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 7-варақ.

53. ЎМА, Р-394-фонд, 1-рўйхат, 60-иш, 41-варақ.

54. ЎМА, Р-394-фонд, Ўрта Осиё табиати, санъати ва қадимий ёдгорликларини муҳофаза қилиш ва музей ишлари қўмитаси.

Мий ёдгорликларини муҳофаза қилиш ва музей ишлари қўмитаси.

Monografiya, ilmiy maqola, patent va to'plamlar:

55. Абдуллаев М. «Дорул ҳикмат вал маориф»: буюк алломаларга бағишланган музей // Мозийдан садо, – Т., 2021. – № 1 (89). – Б. 27-27.

56. Абдуразаков А. О мерах сохранения археолого-архитектурных памятников Узбекистана // Строительство и архитектура Узбекистана. – Т., 1979. – № 8. – С. 23-24.

57. Абдуразаков А. Опыт консервации сырцовых памятников Узбекистана // ТД на II-й Международной конференции по консервации археологических объектов. – Гент, Бельгия, 1985. – С. 2-3.

58. Абдуразаков А. Реставрация и консервация настенных росписей Афрасияба // Объединенная научная сессия, посвященная 2500-летию Самарканда. – Т., 1969. – С. 24.

59. Абдуразаков А.А. Живопись Афрасияба и проблемы ее музеефикации. – Т: Фан, 1994. – 136 с.

60. Абдуразаков А.А. Камбаров М.К. Реставрация настенных росписей Афрасиаба // Под. ред. А.С. Садыкова, АН УзССР, – Т: Фан, 1975. – 63 с.

61. Акилова К. Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана XX век. – Т: PRINT – S, 2005. – 288 с.

62. Алексеев В.П. Музееведение, музеефикация, культура // Вестник музейной комиссии. Вып. 1. – М.: Наука, 1990. – С. 14-15.

63. Аллаков Б. Музейларда инновацион технологиялар жорий этилишининг аҳамияти // Фан соҳасида инновациялар: назария ва амалиёт. Ўз МУ Ўзбекистон тарихи кафедраси илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2011. – Б. 20.

64. Альмеев Р. В. Бухара – город музей. – Т: Фан, 1999. – 205 с.

65. Альмеев Р. В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т: Гафур Гулям, 2007. – 268 с.

66. Ананьев В.Г. Национальные и международные музейные организации. Учебно-методическое пособие. – СПб., 2013. – 140 с.

67. Асанов А. Памятники архитектуры средневекового Хорезма. Проблемы прочности и обеспечения дальнейшей сохранности. – Т: 1971. – 106 с.

68. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. – Т: Маънавият, 2001. – 24 б.

69. Афанасьев Г.Е., Александрова М.В. Некоторые вопросы организации охранных археологических исследований в зонах новостроек РСФСР // Методические основы охраны и использования памятников археологии. – М., 1987. – 160 с.

70. Ахмедов М.К. Ўзбекистонда меъморий ёдгорликларни таъмирлаш муаммолари // Ўзбекистон меъморий обидаларини таъмирлаш ва улардан фойдаланиш муаммоларига бағишланган халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами. – Самарқанд, 2004. – Б. 16-17.

71. Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Т., 2004. – 224 с.

72. Бартольд В.В. Задачи русского востоковедения в Туркестане. – Петроград: Типография Императорской Академии наук, 1915. – 18 с.

73. Бартольд В.В. Задачи русского востоковедения в Туркестане. Сочинения. Т. 9. – М.: Наука, 1977. – 966 с.

74. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Л.: АН СССР, 1927. – 256 с.

75. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. / Сочинения, Т.2. ч. 1. – М.: Восточная литература, 1963. – С. 167-433.

76. Бартольд В.В. Отчет о поездке в Шахрухию и местность «Канка». – Т., 1913. – 24 с.

77. Бартольд В.В. Работы по археологии, нумизматике, эпиграфике и этнографии. / Сочинения. Т. 4. – М.: Наука, 1966. – 497 с.

78. Бердимуродов А., Раимкулов А. Археологик мерос: уни асраб-авайлаш барчамизнинг фуқаролик бурчимиздир. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. – Т: Тафаккур, 2011. – Б. 232-234.

79. Богуславский А.В. Из истории советского законодательства об охране памятников (Декрет 5 октября 1918 г.) // Правоведение. 1987. – № 5. – С. 87-93.

80. Булатов Н.М. Принципы организации археологических музеев-заповедников. – М.: Б. и., 1975. Вып. III. – С. 77-79, 83.

81. Венецианская Хартия 1964 г. Международный Конгресс архитекторов и инженеров исторических памятников. Венеция. 31.05.1964.

82. Веселовский Н.И. История императорского археологического общества за первое пятидесятилетие его существования. 1846-1896., – СПб., 1900. – С. 10-11, 201-206.

83. Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – II, VII, – 364 с.

84. Воробьев П.П. Х-Боб. XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Германияда Ўзбекистон халқлари тарихини ўрганиш // XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани (тарихшунослик очерклари). II том. – Т: Фан, 1994. – Б. 40-56.

85. Вяткин В.Л. Афрасиаб – городище бывшего Самарканда. – Т., 1927. – 65 с.

86. Вяткин В.Л. Отчет о раскопках обсерватории Мирзы-Улугбека в 1908 и 1909 гг. – Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии. – № 11. – СПб., 1912.

87. Гарбер М.И. Из опыта музеефикации памятников археологии за рубежом. // Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры: – М.: НИИ культуры, 1982. – С. 115-117.

88. Герасимов Н. Консервация мокрого археологического дерева полиэтиленгликолями // Художественное наследие. Хранение, исследование, реставрация. – М., 1975. – С. 88.

89. Германов В.А. Туркестанский кружок любителей археологии: примат науки или геополитики? // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. – №1. (143). – Нукус, 1996. – С. 90-93.

90. Гнедовский М.Б. Современные тенденции развития музейной коммуникации. – М., 1989. – С. 20-21.

91. Горшенина С.М. Туркомстарис – Средазкомстарис – Узкомстарис: формирование институций и этноцентрический раздел культурного наследия Средней Азии // Этнографическое обозрение. – М., 2013. – № 1, – С. 52-68.

92. Грегорова А. К основным проблемам музееведения // Музееведение. Музеи мира. – М., 1991. – С. 33

93. Грицкевич В.П. История музейного дела конца XVIII – начала XX вв. Санкт-Петербург, 2007. – 336 с.

94. Громина Т.Н. Исследования и реставрация этнографического текстиля // Исследование, консервация и реставрация этнографических предметов. Науч. семинар. Тезисы докладов. – Рига, 1987. – С. 120-123.

95. Громина Т.Н., Елкина А.К. Методика удаления загрязнений с музейного текстиля органическим растворителем перхлорэтиленом // Художественное наследие. – № 5(35). – М., 1979. – С. 95-111.

96. Фуломов Я. Ўзбекистонда моддий маданий ёдгорликларни сақлаш, ўрганиш йўллари. – Т., 1934. – 120 б.

97. Замонавий музейшуносликда моддий ва номоддий маданий меросни сақлаш масалалари. Жамоавий монография. – Т: Очун, 2020. – 280 б.

98. Зиёдов Ш., Муминов А. Библиотека Дукчи Ишана. В «Манокиб-и Дукчи Ишан» (Аноним жития Дукчи Ишана – предводителя Андижанского восстания 1898 г.) Перевод с турц, введение и комментарии Б.М. Бабаджанова. – Ташкент–Берн–Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С. 344-385.

99. Известия среднеазиатского Комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы. Вып. 1–3. – Т: 1928.

100. Илалов И. Музееведение. – Т: Муסיка, 2006. – 357 с.

101. Исмаилова Ж.Х., Нишанова К.С., Мухамедова М.С. Музей ва жамият. – Т: Чинор ЭНК, 2015. – 174 б.

102. Исмаилова Ж.Х.Музейшунослик атамаларининг изохли лугати. – Т: Turon zamin, 2016. – 100 б.

103. Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Маданий туризмнинг тадқиқот ва тарғибот тамойиллари. – Т: Фан, 2018. – 327 б.

104. Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. – Т., 2013. – 305 б.

105. Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Музей предметлари атрибуцияси ва экспертизаси. – Т., 2013. – 224 б.

106. Каган М.С. Музей в системе культуры // Вопросы искусствознания. 1994. – № 4. – С. 445-460.

107. Каган М.С. Философская теория ценности. – СПб., 1997.

108. Кайманова Т. Экскурсоведение. Теория и экскурсоводческая практика. Учебное пособие. – Пенза: Изд-во ПГУ, 2012. – 654 с.

109. Кастанье И.А. Поездка по Тургайской и Сыр-Дарьинской области 1906-1907 гг. вдоль Ташкентской железной дороги. – Оренбург: Мильберг, 1909. – 67 с.

110. Кастанье И.А. Отчет о поездке в Шахрухию и местность «Канка» [Текст] / И.А. Кастанье. – Т., 1913. – 24 с.

111. Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – М.: Этерна, 2012. – С. 397.

112. Каулен М.Е. Музей-заповедник как единый экспозиционный комплекс // На пути к музею XXI в. Музеи-заповедники: сб. ст. – М.: НИИК, 1991. – С. 173.

113. Ключевые понятия музееологии / Составители: А. Desvallées, F. Mairesse. [М.,] 2012 // http://www.icom.org.ru/docs/A206_ICOM_brochure.2012.05_press.pdf.

114. Князева Н.Р. Информационное общество и сфера культуры // Экология культуры Информационный бюллетень. – № 1 (21). – Архангельск, 2001. – С. 173.

115. Комилова М. Миздакхон қалъа очик осмон остидаги музейга айланади. //«Milliy tiklanish» мухбири. 6 сентябрь, 2016.

116. Кроленко И.И. Вопросы градостроительной защиты памятников археологии / Градостроительная охрана памятников истории и культуры: сб. научн. тр. – М.: НМС МК СССР, 1987. – С. 38-52.

117. Крюков К.С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920-1990) // АСУ, 1990, – № 8. – С. 34-36.

118. Кулешова М.Е. Формы охраны территорий природного и культурного наследия в США и России // Охрана наследия за рубежом: Опыт прошлого и современные проблемы. РНИИ культурного и природного наследия. (Сост. Е.В. Андреева, отв. ред. Р.А. Мнацаканян). – М., 1994. – С. 70.

119. Кун А.Л. Поездка по Хивинскому ханству 1873 год // Известия ИРГО. 1874. Т. X. – № 1. – 83 с.

120. Курашов В.И. Начала философии науки. – М., 2007.

121. Курязова Д. Музей иши асослари. – Т: LESSON PRESS, 2019. – 196 б.

122. Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Т: San'at, 2010. – 154 б.

123. Қурбанова Д. Тупроққалъа – Хоразм антик даври дунёсининг моддий ва маънавий хазинаси // Илм сарчашмалари. 2013. – № 6. – Б. 57-60.

124. Курбонова Д. Жаҳон хазиналаридаги темурийларга оид жавохирлар. – Т: Akademnashr, 2011. – 56 б.

125. Курбонова Д.А. Дунё музейларидаги меросимиз. – Т: LESSON PRESS, 2017. – 164 б.

126. Левтеева Л., Турсуналиев К. Музеология. Методическое пособие. – Т: Ўзбекмузей, 2008. – 332 с.

127. Лоренте П.Х. Развитие музеологии как университетской дисциплины: от технической подготовки к критической музеологии // Вопросы музеологии. 2011. – № 2 (4). – С. 45-64.

128. Лотман Ю.М., Успенский Б.А. О семиотическом механизме культуры // Ученые записки Тартуского университета. – Тарту, 1971. Вып. 284. – С. 146-166.

129. Лунин Б. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т: Фан, 1965.

130. Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917 гг.) – Т: Изд-во Академии наук Узбекистана, 1958. – 320 с.

131. Лунин Б.В. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. – Т: Изд. Академии наук Узбекистана, 1962. – 112 с.

132. Лунин Б.В. Самаркандский любитель старины Мирза Бухарий // Общественные науки в Узбекистане. 1963. – № 6. – 45 с.

133. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т: Фан, 1966. – 136 с.

134. Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественных востоковедов: Историографический очерк. – Т: Фан, 1979. – 150 с.

135. Лыкошин Н.С. Пол жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. – П., 1916. – 415 с.

136. Маев Н.А. Туркестанская выставка. – Ташкент. 1886. – С. 7.

137. Мартынов А.И. Сохранение и использование археологического наследия России – проблема национальная // Сохранение и изучение культурного наследия Алтайского края. – Барнаул: Азбука, 2001. – Вып. XII. – С. 13-22.

138. Массон М.Е. Мавзолей Гур-Эмир усыпальница Тимуридов. Типография штаба Средне-Азиатского военного округа, 1926.

139. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Т: Издание Комитета наук при СНК Узбекистана, 1935.

140. Массон М.Е. К периодизации древней истории Самарканда. - Вестник древней истории. № 4. – Т., 1950. – С. 155-166.
141. Массон М.Е. Работы Термезской археологической комплексной экспедиции. Том 2. – Т.: 1938. – 125 с.
142. Матчанов Б. Меъморий безак таъмири // Мозийдан садо, – Т., 2017. – № 1 (73). – Б. 42.
143. Медведь А.Н. Музеефикация памятников археологии: монография – М.: ГНОМ и Д., 2004. – 80 с.
144. Методические основы охраны и использования памятников археологии: Сб. науч. тр. – М.: НМС МК, 1987. – 160 с.
145. Милош М., Қаюмов Р., Самаров Х. Маданий меросни рақамлаштиришдаги ҳамкорлик // Мозийдан садо. – Т., 2021. – № 1 (89). – Б. 20-21.
146. Миронов А.М. Художественный музей в Ташкенте // Известия Средазкомстарис. – Вып.1. 1926. – С. 295-331.
147. Музееведение: учеб. пособие. – Владимир: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2010. – С. 43.
148. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А. – М.: Изд-во «ВК», 2003. – 676 с.
149. Музейные термины. // Терминологические проблемы музееведения: Сб. научн. тр. – М.: Б. и., 1986. – С. 78.
150. Музеология (Наука в музейном деле). // Методическое пособие. – Т: Узбекмузей, 2008. – 283 с.
151. Мукин И. Музейная реставрация мебели. – М., 2009. – С. 74.
152. Мухамедова М. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда миллий ва халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX-XXI асрлар). – Т: Yosh kuch press matbuoti, 2017. – 297 б.
153. Мухамедова М.С. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX аср 2-ярми – XXI аср бошлари). Монография. – Т: LESSON PRESS, 2020. – 140 б.

154. Мушкетов И.В. Туркестан. Том I. – СПб., 1908. – С. 306.
155. Наследие и современность: Информационный сборник. Вып. № 4. Экология и охрана наследия. / Рос. акад. наук, Рос. НИИ культурного и природного наследия имени Д. С. Лихачева. – М.: 1996. – С. 8-11.
156. Наследие и современность: информ. сб. / Рос. НИИ культур. и природ. наследия. – М., 1996.
157. Николаева Н.С. Особенности музеефикации археологических памятников // Музей в современной культуре: сб. ст. – СПб. Изд-во СПбГАК, 1997. – С. 205-211.
158. О современном состоянии методологии в музееведении / музеологии / Сапанжа О.С. Методология теоретического музееведения. – СПб., 2008.
159. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Т. I. – Т., 1890. – 137 с.
160. Открытие Туркестанского кружка любителей археологии 11 декабря 1895 г. – Т: Типолитография бр. Порцевых. 1895. – 16 с.
161. Охрана памятников истории и культуры: сб. документов. / Введ. д-ра ист. наук, проф. Л.Г. Бескровного. – М.: Сов. Россия, 1973. – 191 с.
162. Памятниковедение. Теория. Методология практика: сборник научных трудов. – М.: НИИК, 1986. – 141 с.
163. Пилецкая Л.В. Музейное хранение станковой живописи. Учебно-методическое пособие. – Томск: Издательский Дом ТГУ, 2018. – 60 с.
164. Протоколы общих собраний Русского археологического общества за 1899-1908 годы. – Петроград: Типография М.Александрова, 1915. – 411 с.
165. Пугаченкова Г.А. Искусство Бактрии эпохи кушан. – М.: Искусство. 1979. – 247 с.
166. Пугаченкова Г.А. Музей под открытым небом. Архитектурные сокровища Узбекистана. – Т: Узбекистан, 1981. – 334 с.

167. Пугаченкова Г.А. Самарканд. Бухара. – М.: Искусство, 2-е изд., 1968. – 278 с.
168. Пугаченкова Г.А. Скульптура Халчаяна. – М.: Искусство, 1971. – 202 с.
169. Пугаченкова Г. А. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. – Т: Фан, 1966. – 287 с.
170. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. – М.: Искусство, 1965. – 688 с.
171. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л. И. Очерки искусства Средней Азии. Древность и средневековье. – М.: Искусство, 1982. – 187 с.
172. Пугаченкова Г.А. К созданию региональной инициативной группы республик Средней Азии Советского комитета ИКОМОС // Архитектура и строительство Узбекистана. 1982, – №4. – С. 31-33.
173. Пугаченкова Г.А. Шедевры искусства Средней Азии. – Т: Гафур Гулям, 1986. – 230 с.
174. Равикович Д.А. Охрана памятников истории и культуры в РСФСР 1917-1967 гг // Труды НИИ музееведения и охраны памятников истории и культуры. – М., 1970. Вып. 22. – С. 3-127.
175. Разгон А.М. К вопросу об изучении истории музейного дела (Вместо предисловия) / Очерки истории музейного дела в СССР. – М., 1971. Вып 7. – С. 5-7.
176. Разгон А.М. Общетеоретические вопросы музееведения в научной литературе социалистических стран // Музейное дело и охрана памятников: обзор, информация. Гос. б-ка СССР. – М., 1984. – С. 34-44, 56.
177. Рахматуллаев Ю. Ўзбекистон меъморчилиги обидалари давлат муҳофазасида – Т., 1969. – 45 б.
178. Ремпель Л.И. Искусство Среднего Востока. Избранные труды по истории и теории искусств. – М.: Советский художник, 1978. – 288 с.

179. Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Т., 1987. – 192 с.
180. Реставрация и исследование художественных памятников. – М., 1955. – С. 38.
181. Реутова М.А. Консервация древних памятников сырцово-кирпичной архитектуры в Ташкенте и Ташкентской области // Халқаро илмий конференция материаллари – Т: Фан, 2009. – С. 185-187.
182. Родионова Д.Д., Сергеев А.В. Технология дополненной реальности как перспективное направление развития музейного пространства на современном этапе // Вестник КГУКИ. 2015. – № 33-2. – С. 51-56.
183. Роль музеев в информационном обеспечении исторической науки. /Авт. - сост. Е.А. Воронцова; – М.: Этерна, 2015. – 752 с.
184. Россия Федерацияси тўпламларида Ўзбекистоннинг музеевий мероси. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.
185. Ртвеладзе Э., Пугаченкова Г.А., Северная Бактрия-Тохаристан: Очерки истории и культуры: Древность и средневековье. – Т: Фан, 1990. – 218 с.
186. Ртвеладзе Э. Историческое прошлое Узбекистана. – Т., 2006. – 198 с.
187. Рыбаков И. Музей-заповедник «Абрамцево» по пути к возрождению // Мир музея, – М., 1995. – № 3. – С. 5-13.
188. Садыкова Н. Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека / Наука в Узбекистане. Т. II. Общественные науки. – Т: Фан, 1974. – 120 с.
189. Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т: Фан, 1975. – 290 с.
190. Сайфуллаев Д. Ўзбекистон ва ЮНЕСКО: Маданий дипломатия тараққиёти йўлида. // Мозийдан садо. – Т., 2019. – № 4 (84). – Б. 2.

191. Салимов О. Ўзбекистон архитектура ёдгорликларини сақлаш ва улардан фойдаланиш. Монография. – Т: Наврўз, 2020. – 320 б.

192. Сапанжа О.С. Технология и методология в современном музееведении: к вопросу о методе науки // Известия Российского Государственного педагогического университета им. А. И. Герцена: Izvestia: Herzen University Journal of Humanities & Sciences, 2009. – № 117: Научный журнал. – С. 335-340.

193. Сапанжа О.С. Методология теоретического музееведения. Монография. – СПб: РГПУ им. А.И.Герцена, 2008. – С. 81.

194. Сатторов А. Музейлар мозийдан сўзлайди. // © Copyright 2008 – 2019. biznes-daily.uz. 27 январь 2018.

195. Свичкарь И.Г. Теоретико-методологические основы сохранения историко-культурного наследия // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. – № 12 (303). История. Вып. 55. – С. 92–93.

196. Семенов А. Происхождение древних сеидов и их усыпальница «Султан-Саадат». – Т., 1914, – 52 с.

197. Семенов А.А. Государственная публичная библиотека и фонды восточных рукописей Узбекистана // Альманах «Литературный Ташкент». 1945. – С. 112-115.

198. Семенов А. А. Некоторые особенности материальной культуры прошлых эпох Средней Азии // Известия Средазкомстарис. 1928. – Вып. 1. – С. 11-13.

199. Семенов А. А. Среднеазиатские рукописные фонды и важность их изучения // Материалы первой Всесоюзной Научной конференции Востоковедов в г. Ташкенте. – Т., 1958. – С. 915.

200. Сирдарё вилояти обзори. – Т., 1887. – Б. 329-330.

201. Соболева Н.А. Музейный сервис: пути развития. / Сборник. – М., 2004. – С. 25.

202. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т: Фан, 1981. – 270 б.

203. Содиқова Н. Мулки торож ўзбегим. – Т: Фан-хазина, 1995. – 42 б.

204. Соколова А.С. Методологические проблемы исследования культурного наследия // Рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 4 (130) 2013. – С. 221.

205. Сорокин П.Е. Археологическое наследие Санкт-Петербурга. - Санкт-Петербург: Вести, 2000. Вып. 2. – С. 138-144.

206. Столяров Б.А. Музейная педагогика: история, теория, практика. – М.: 2004. – 255 с.

207. Сундиева А.А. Музейная профессия сегодня // Вестник РГГУ. Серия «Культурология. Искусствоведение. Музеология». 2007. – № 10. – С. 33-41.

208. Тельчаров А. Основы музейного дела. – М.: Омега, 2005. – 182 с.

209. Тереножкин А.И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. Известия АН Узбекистана. – Т., 1940. – № 9.

210. Тереножкин А.И. Холм Актепе близ Ташкента (раскопки 1940 г). Труды ИИА АН Узбекистана. Т. 1. – Т., 1948.

211. Тихонов И.Л. Археология в Санкт-Петербургском университете. Историографические очерки. // – СПб: СПбГУ, 2003. – 332 с.

212. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., – Ленинград: Издательство АН СССР. 1948. – 328 с.

213. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 440 с.

214. Третьяков Давлат галереяси тўплами. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

215. Труевцев Н.В. Источники изучения истории создания и развития комитета музеологии Международного совета музеев // Мир науки, культуры, образования. 2010. – № 6. – С. 245–248.

216. Убэн Ю., Гийо Ю. Глинобитное строительство: всеобъемлющее руководство. ЮНЕСКО. – Самарканд: ООО Тонг, 2002. – 493 с.

217. Уварова П.С. Губернские и областные музеи. – М., 1888. – 26 с.

218. Ўзбекистон каштачилиги ва гиламлари хорижий тўпламларда. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

219. Ўзбекистон маданий мероси / Алишер Навоийнинг Россия миллий кутубхонаси тўпламларидаги асарлари. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

220. Ўзбекистон маданий мероси / Давлат Эрмидажи музейи тўплами. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

221. Ўзбекистон маданий мероси / Россия Фанлар Академияси Шарқ Қўлёзмалари институти тўплами. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

222. Ўзбекистон маданий мероси / Шарқ Давлат музейи тўплами. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

223. Ўзбекистон маданий мероси Москва музейларида. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

224. Ўзбекистон маданий мероси/ Россия Этнография музейи тўплами. – UZBEKISTAN TODAY, ZAMON PRESS INFO, 2017.

225. Ўзбекистоннинг моддий ва номоддий мероси атамалари. – Т: Фан, 2019. – 120 б.

226. Фармаковский В.М. Консервация и реставрация музейных коллекций. – М.: тип. «Кр. Печатник», 1947. – 144 с.

227. Фармаковский В.М. Воздушный режим в музеях: По данным наблюдений, проведенных в Государственном русском музее с весны 1939 г. по июнь 1940 г. – Ленинград: [б. и.], 1941. – 28 с.

228. Федоров В.И. Некоторые вопросы методики консервации каменной кладки. – М.: Знание, 1965. Вып. 1. – С. 9-15.

229. Федоров В.И. Современные задачи консервации архитектурноархеологических памятников. – М.: Знание, 1969. Вып. 4. – С. 7-13.

230. Федченко А.П. Путешествие в Туркестан: Члена-основателя общества А.П. Федченко, совершенное от император-

ского Общества любителей естествознания по поручению Туркестанского генерал-губернатора К. П. Фон-Кауфмана / А.П. Федченко – М., 2014. – 188 с.

231. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. – Т: Фан, 1983. – 232 с.

232. Филанович М.И. Ташкент: Зарождение города и развитие городской культуры в древности и средневековье. // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Халқаро илмий конференция материаллари. – Т: 2009. – С.48.

233. Хакимов А.А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Т: San'at, 2010. – 504 с.

234. Хаққулов А.Таъмир санъати. – Т., 1981. – Б. 23.

235. Ҳабибуллаев Н.Н., Қурбонова Д.А. Темурийларга оид дурдоналарнинг дунё бўйлаб тарқалиши. – Т: Akademnashr, 2016. – 158 б.

236. Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. – Т: Издательство Комитета Наук Узбекистана, 1936. – 100 с.

237. Шляхтина Л.М. Основы музейного дела: теория и практика. Учеб. пособие.— 2-е изд. стер. – М.: Высш. шк., 2009. – 248 с.

238. Шмит Ф.И. Музейное дело. Вопросы экспозиции: монография. – Л., Б. и., 1929. – 247 с.

239. Юренева Т. Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, – 382 с.

240. Юсупова М.А. Актуальные проблемы реставрации памятников архитектуры Узбекистана // Международная научно-практическая конференция «Проблемы реставрации и использования памятников архитектуры Узбекистана» Тезисы выступления, – Самарканд, 2004, – С. 33-35.

241. Юсупова М.А. Архитектурное наследие Узбекистана: Проблемы реставрации и сохранения аутентичности. Материалы научного семинара памяти Ю.Н. Рериха. – Т: «Yosh kuch», 2018. – С. 15-20.

242. Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан. // Записки Коллегии Востоковедов. Т.V. – Ленинград, 1930. – С. 551-582.

243. Якубовский А.Ю. К вопросу о происхождении ремесленной промышленности Сарая-Берке. ИГАИМК, Т.VIII, Вып. 2.3. – Л., 1931. – 48 с.

244. Янин В.Л. Охрана и использование памятников археологии. Методические основы охраны и использования памятников археологии: сб. научн. тр. – М.: НМС МК, 1987. – С. 5-17.

245. Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. Kasbhunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 160 b.

246. Kuryazova D.T., Ergashev B.E., Maxmudov T.I. Jahon muzeyshunosligi. – Samarqand, SamDU, 2015. – 158 b.

Chet el adabiyoti:

247. Ahrens C. Wiederaufgebaute Vorzeit. 1990. Archaeologische Freilichtmuseen in Europa. 1990. – 200 p.

248. Alexander E.P. Museums in Motion. An Introduction to the History and Function of Museums. Nashville: American Association for State and Local History, 1979. – 132 p.

249. Aquilina J. D. The Babelian Tale of Museology and Museography: A History in Words // Museology. International Scientific Electronic Journal. 2011. – P. 32.

250. Bedford. Pavilion for Roman excavations, «Wood», 1963, vol. 28, – № 5. – P. 192-194.

251. Bennet T. The Birth of the Museum: History, Theory, Politics. London: Routledge, 1995. – 350 p.

252. Boylan P. J. ICOM at fifty // Museum International. 1996. Vol. 191. – № 3. – P. 47–50.

253. Cameron D. A Viewpoint the museums as a communication system and implications for museum education // Curator, 1968. – № 1. – v.11.

254. Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. Adopted by the General Conference at its seventeenth session Paris, 16 November 1972. – Paris. – P. 16.

255. Davis P. Ecomuseums: A Sense of Place. London; New York, 2011. – P.78.

256. Decarolis N. ICOFOM LAM 1990–2000 // Cahiers d'étude / Study series. 2000. Vol. 8. – P. 14-15.

257. Fagan B. Neolithic Newgrange // Archaeology. 1994. – V. 47. № 5. <https://www.newgrange.com>.

258. Fleury M., Kruta V. La crypte arceologique du parvis Notre Dam. Paris, 1990; [https://commons.wikimedia.org/wiki/File: La crypte archéologique du Parvis de Notre-ame \(Paris\) \(8274683584\). jpg](https://commons.wikimedia.org/wiki/File:La_crypte_archéologique_du_Parvis_de_Notre-ame_(Paris)_8274683584.jpg).

259. Görsdorf J., Huff D. C/14-Datierungen von Materialien aus der Grabung Džarkutan, Uzbekistan // AMIT. Band 33. - Berlin, 2001 – P. 75-87.

260. Gries B. Daten zur historischen Entwicklung der Fachgruppe der Naturwissenschaftlichen Museen in Deutschen Museumsbund. Berlin, 2007. – P.43.

261. Hamber B., Ševčenko L., Naidu E. Utopian Dreams or Practical Possibilities? The Challenges of Evaluating the Impact of Memorialization in Societies in Transition // The International Journal of Transitional Justice. 2010. Vol. 4. Is. 3. – P. 397-420.

262. Mac Cannel D. The Tourist: a new theory of the leisure class, New York: Schocken Books, revised edition, with a new introduction by the author. – P. 34.

263. Mariner D. Professionalizing the Museum Worker // Museum News. 1974. № 50. – P. 14-20.

264. Masson G. Les réseaux professionnels du conservateur de musée: d'une sociabilité informelle à une organisation institutionnelle (1870-1940). Источник: <http://hicsa.univ-paris1.fr/documents/pdf/Ecole.doctorale/Geraldine>.

265. Meijer-Mensch van. L. New challenges, new priorities: analyzing ethical dilemmas from a stakeholder's perspective in the Netherlands // Museum Management and Curatorship. 2011. Vol. 26. – № 2. – P. 113-128.


266. Mensch P. van. Towards a methodology of museology. Ph. D. thesis, University of Zagreb, 1992. Chapter IX. Professionalism and museology. Источник: <http://www.muuseum.ee/uploads/files/mensch09.htm>.

267. Nyns M. La Legislation des Monuments d'art et d'histoire en Belgique // Mouseion. Paris: Office international des musées, 1931. Vol. 17-18. – P. 56-63.


268. Poulik J. Archeologické objevy a Velika Morava, «Architektura CSSR», 1963, №10, – S. 612-615.

ILOVALAR


Chilonzor Oqtepasining eramizning V asrdan - VIII asr o'rtalarigacha qurilgan uch davrdagi plani va me'moriy ko'rinishlari



1-rasm. Chilonzor Oqtepsi genplani




2-rasm. Chilonzor Oqtepasining bugungi kundagi holati



3-rasm. Chilonzor Oqtepasining bugungi kundagi holati.
Yesenin ko'chasi tomonidan umumiy ko'rinishi

Chilonzor Oqtepasining I-II davrdagi ko'rinishi. 1 – bino, olov ibodatxonasi (eramizning V asri – VII asr boshlari)



4-rasm. Chilonzor Oqtepasining I-II davrdagi plani




5-rasm. Chilonzor Oqtepasining I-II davri rekonstruksiya

Rekonstruksiya qilingan o'lchamlari. Qurilish balandligi — 10,2 m., platformaning balandligini hisobga olganda (2 m). Platformalarning yon tomonlari uzunligi - 25,6 X 26,3 m. Binoning asosiy to'g'ri to'rtburchagi o'lchamlari — 14 X 13,6 m pastki qismi bo'ylab.



6-rasm. Chilonzor Oqtepasining I-II davri, 3D qirgimi.

Chilonzor Oqtepasining III davrdagi ko‘rinishi. 2 – bino,
 olov ibodatxonasi (eramizning V asr-VII boshlari)




7-rasm. Chilonzor Oqtepasining III davrdagi plani



8-rasm. Chilonzor Oqtepasining III davri rekonstruksiya

Rekonstruksiya qilingan o‘lchamlari. Qurilish balandligi — 9 m. Qo‘shimcha qurilgan blok devorlarining balandligi – 4,4 m. Fasad bo‘yicha binoning uzunligi – 29,4 m. Yon tomon fasadning eni – 25,9 m.



9-rasm. Chilonzor Oqtepasining III davri, 3D qirgimi

Chilonzor Oqtepasining VI davrdagi ko‘rinishi
 (VII asr - VIII asr o‘rtalari)



10-rasm. Chilonzor Oqtepasining VI davrdagi plani



11-rasm. Chilonzor Oqtepasining VI davrdagi rekonstruksiyasi

Qurilish balandligi – 10 m., platformaning balandligini hisobga olganda (4,5 m). Platformalarning yon tomonlari uzunligi – 41 X 38,3 m. Binoning asosiy to‘g‘ri to‘rtburchagi o‘lchamlari – 36,9 X 29,7 m pastki qismi bo‘ylab. Hovli o‘lchamlari -19,8 X 24 m.




12-rasm. Chilonzor Oqtepasining uchta davrdagi 3D qirqidagi ko‘rinishlari


Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepa arxeologik yodgorligining muzeylashtirilish loyihasi




13-rasm. Chilonzor Oqtepa arxeologo-arxitekturaviy yodgorligining ustiga yopiladigan membrana konstruksiyasi



14-rasm. Yesenin ko‘chasi tomonidan umumiy ko‘rinishi




15-rasm. Chilonzor Oqtepasining perspektivasi



16-rasm. Chilonzor Oqtepasining fragmenti. Axborot stendi



17-rasm. Chilonzor Oqtepasining fragmenti. Tomosha ko'prigi



Eksplikatsiya:

1. Chilonzor Oqtepa arxeologo-arxitekturaviy yodgorligining ustiga yopiladigan membrana konstruksiyasi.
2. Parkovka.
3. Arxeologik muzey.
4. Tajribaviy arxeologiya laboratoriyasi.
5. Maydon.
6. Yodgorlikning grafik rekonstruksiyasi aks etgan stend.
7. "Qadimiy Toshkent" bayroqchasi.

18-rasm. Chilonzor Oqtepasining tepadan ko'rinishi.

Hududning umumiy maydoni – 0,6 Ga. Membrana konstruksiyasining umumiy o'lchami – 43x43x17-25 m(N). Membrana konstruksiyasi uchun ishlatiladigan materiallar: teflon yoki PVX bilan qoplangan steklotkan metall konstruksiyalariga tortilgan.

Mualliflar guruhi: Muzeyshunos: t.f.d., professor Kuryazova D., Arxeolog: t.f.n. Filanovich M., Loyixalar chizmasi bo'yicha arxitektor: Nurulin T.

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY
RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI**

KURYAZOVA DARMONJON TURAYEVNA

**O‘ZBEKISTON MODDIY MADANIY
MEROSI: O‘RGANISH, SAQLASH VA
MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

MONOGRAFIYA

Musahhih: *D. Gapirova*
Sahifalovchi: *R. Xidoyatov*



Terishga berildi: 27.10.2025

Bosishga ruxsat etildi: 04.11.2025

Bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset bosma. Garnitura: Times New Roman.

Bosma taboq 16,5. Adadi: 10. № 24.

«MATRIX» nashriyoti.

Toshkent sh., Sayram 7-tor ko‘chasi, 52-uy.

«MATRIX» MChJ bosmaxonasida bosildi.

Toshkent sh., Sayram 7-tor ko‘chasi, 52-uy.